

F.U.Qodirova, U.Y.Fayziyeva, Sh.X.Kobilova,  
O.S.Ishmatova, M.A.Umaraliyeva

# SURDOPEDAGOGIKA



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**F.U.Qodirova, U.Y.Fayziyeva, Sh.X.Kobilova, O.S.Ishmatova,  
M.A.Umaraliyeva**

**60112700-Maxsus pedagogika (surdopedagogika)**

**SURDOPEDAGOGIKA  
(DARSLIK)**

**CHIRCHIQ-2024**

UO'K 376-056.2

KBK 74.3

Q-92

**F.U.Qodirova, U.Yu.Fayziyeva, SH.X.Kobilova, O.S.Ishmatova, M.A.Umaraliyeva / Surdopedagogika / Darslik. – Chirchiq: “Osiyo tur”, 2024. – 272 bet**

Darslik Chirchiq davlat pedagogika universiteti professor-o'qituvchilari tomonidan yaratilgan.

Eshitmaydigan va zaif eshituvchi bolalarni sog'lom va eshitadiganlar jamiyatiga integratsiya qilish, kommunikativ vosita sifatida so'zlashuv nutqini o'rgatish va og'zaki nutq orqali ta'lim berish, surdopedagogikaning eng muhim vazifasi bo'lib, ularga ta'lim berish mazmunining bosh mezoni sifatida qabul qilingan. Eshitishida muammolari bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuviga, jamiyatda o'z o'rnini topib, ijimoiy ehtiyojini o'zi qondirish imkoniyatlariga sog'lom insonlar jamiyatida va ular yordamidagina erishish mumkin maxsus-pedagogik, psixologik va ijtimoiy ahamiyatlari zamonaviy yondashuvlar asosida tahlil etilgan.

Darslikda ham nazariy, ham amaliy mazmunga egaligi bilan alohida qiymatga ega bo'lib, unda talabalarga ham maxsus, ham inklyuziv ta'lim bo'yicha keng qamrovli bilim berish maqsad qilib olingan.

OTMLarning maxsus pedagogika yo'nalish talabalari uchun mo'ljallangan.

#### **Taqrizchilar:**

**Maxmudova M.S.** - QDPI “Maxsus pedagogika” kafedrası katta o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)

**Abdullayeva G.S.**-Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Maxsus pedagogika” kafedrası v.b. professori

UO'K 376-056.2

KBK 74.3

ISBN 978-9910-848-64-3

© F.U.Qodirova. va b., 2024

© “Osiyo tur”, 2024

## KIRISH

Eshitish imkoniyati inson hayotida eng muhim kommunikativ vosita ekanligi, eshitish imkoniyati orqaligina inson nutqiy muloqotni egallashi mumkinligini hisobga olsak, eshitishida muammolari bo'lgan bolalarning nutqni egallash, ta'lim olish jarayonining naqadar murakkabligini tasavvur qilishimiz mumkin.

Aslida eshitmaydigan bolalarni sog'lom va eshitadiganlar jamiyatiga integratsiya qilish, kommunikativ vosita sifatida so'zlashuv nutqini o'rgatish va og'zaki nutq orqali ta'lim berish, surdopedagogikaning eng muhim vazifasi bo'lib, ularga ta'lim berish mazmunining bosh mezoni sifatida qabul qilingan. Eshitishida muammolari bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuviga, jamiyatda o'z o'rnini topib, ijimoiy ehtiyojini o'zi qondirish imkoniyatlariga sog'lom insonlar jamiyatida va ular yordamidagina erishish mumkin.

Bu imkoniyatga esa ular nutqiy muloqot, o'qish, yozish, o'z fikrini savodli va asosli bayon qilish orqaligina ega bo'lishlari mumkin.

Darslik eshitmaydigan bolalar ta'limi xususida dunyo bo'yicha mavjud tajribalar, qarashlarga asoslangan, shuningdek, O'zbekistonda bu sohaning rivojlanish bosqichlariga katta e'tibor bilan yondoshgan holda yaratildi.

Surdopedagogika – eshitishida muammolari bo'lgan bolalarning maxsus ta'limi, bu sohani ilmiy jihatdan rivojlantirish yo'lida faoliyat olib boradigan mutaxassislar tayyorlashda qo'llaniladigan asosiy o'quv fani hisoblanadi.

Darslik maxsus ta'limning surdapedagogika yo'nalishi bo'yicha yaratilgan bo'lib, unda surdopedagogika masalalari, O'zbekistonda eshitishida muammolari bo'lgan bolalar ta'limi nazariyasi, o'qitishning maxsus metodikalari, boshlang'ich ta'lim nazariyasi va metodikasi, ona tili o'qitish, matematika, eshitish qobiliyatini rivojlantirish, talaffuzga o'rgatish masalalari keng yoritilgan.

Darslikda ham nazariy, ham amaliy mazmunga egaligi bilan alohida qiymatga ega bo'lib, unda talabalarga ham maxsus, ham inklyuziv ta'lim bo'yicha keng qamrovli bilim berish maqsad qilib olingan.

Mazkur kitob eshitishida muammolari bo'lgan bolalar ta'limi tizimining maktabgacha yoshdan to 9 yillik ta'limgacha bo'lgan davrni qamrab olgan bo'lib, u malaka oshirish va surdopedagog kadrlar tayyorlash tizimi talabalari uchun darslik sifatida xizmat qiladi.

Mualliflar jamoasi tomonidan yaratilgan ushbu darslik kar va zaif eshituvchi bolalar ta'lim-tarbiyasi muammolari bilan shug'ullanuvchi - maxsus ta'lim tizimi pedagog xodimlari, shuningdek, inklyuziv ta'lim joriy qilingan umumta'lim maktablari o'qituvchilari uchun mo'ljallangan bo'lib, unda mazkur toifa bolalar bilan olib boriluvchi maxsus korreksion-kompensator rivojlantiruvchi tavsifga ega ish tizimi atroflicha yoritib berilgan.

Darslik asosan 2 ta bobdan tashkil topgan bo'lib, u kar bolalar ta'lim-tarbiyasi tarixidan boshlab, ta'lim metodlari, didaktikasi, korreksion ishlarning mazmuni, nazariy asoslari, amaliyoti, ular ta'limiga qo'yilgan talablar va h.k.larni o'z ichiga olgan.

Ma'lumki, kar va zaif eshituvchi bolalar tomonidan umumta'lim fanlariga oid bilim hamda amaliy ko'nikmalarining o'zlashtirilishi asosan maxsus tashkil etilgan jarayon davomidagina amalga oshiriladi. Darslikda mualliflar tomonidan surdopedagogikaning hozirgi kundagi rivojlanishida asos bo'lib xizmat qilgan jahonga mashhur o'qitish tizimlari haqidagi ma'lumotlar, eshitishida muammosi bo'lgan bolalar psixologik-pedagogik tasnifi, maxsus yondashuvlarga asoslangan ta'lim jarayonining mohiyati va uning o'ziga xosligi, o'qitish metodlari va tamoyillari, o'quv faoliyatining tashkiliy shakllari, dars va o'quv mashg'ulotlariga qo'yiluvchi talablar, bunday bolalarni ijtimoiy hayotga uyg'unlashuvlariga asos bo'luvchi mehnat ta'limi va kasbga yo'naltirish masalalari, ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar tizimi keng yoritilgan.

## I BOB ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR TA'LIMI DIDAKTIKASI

### 1. «SURDOPEDAGOGIKA» FANINING OBYEKTI, SUBYEKTI, MAQSAD VA VAZIFALARI

**Tayanch tushunchalar:** karlar va zaif eshituvchilar ta'limi nazariyasi, surdopedagogikada obyekt bilan subyekt orasidagi o'zaro munosabatlar dinamikasi, imperik subyekt, jamoa subyekt, ijtimoiy subyekt

**Surdopedagogika** - bu eshitishida muammolari bo'lgan bolalar va kattalar ta'lim-tarbiyasini tashkil etish masalalarini o'rganuvchi fandır.

Surdo-lotinchа «surdus» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, kar ma'nosini bildiradi. Bola tarbiyasi haqidagi fanni anlatuvchi pedagogika esa yunoncha «paydagogike» so'zidan kelib chiqqan.

Zamonaviy surdopedagogika fani eshitishida muammolari bo'lganlarning ikki guruhi: karlar va zaif eshituvchilar ta'limi nazariyasi hamda amaliyotini o'z ichiga oladi. Ilmiy bilim doirasida surdopedagogika maxsus pedagogikaning bir tarmog'i bo'lib defektologiya tarkibiga kiradi.

Surdopedagogikaning rivojlanishi maxsus pedagogikaning boshqa yo'nalishlari va qator qardosh fanlar materiallarini integratsiyalash va jalb qilish hamda o'z muammolarini, o'ziga xos yondoshuvlarini ishlab chiqishga asoslangan. Surdopedagogika eshitish qobiliyatida buzilishlari bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan original metodlar va o'quv-korreksiya ishlarini olib borish vositalariga ega bo'lib, eshitmaydigan o'quvchilarga fanlarni o'qitishda maxsus metodikalardan foydalangan holda, maktab va maktabgacha yoshdagi kar, zaif eshituvchi o'quvchilarni har tomonlama o'rganish va tabaqalashtirilgan ta'limni ta'minlovchi maxsus ta'lim muassasalarining faoliyatini asoslab beradi. Shuningdek, eshitishida muammolari bo'lgan bolalarga maxsus surdopedagogik yondoshuvlar orqali uning ehtiyojiga munosib ta'lim sharoitlari yaratilishini ko'zda tutadi. Eshitmaydigan bolalar

ta'limidagi sermazmun nazariya va amaliyot defektologiya bilimlari tarkibida surdopedagogika mustaqil fan ekanligini ta'kidlash uchun asos bo'la oladi.

Ma'lumki har qanday fan asosida obyekt, subyekt va predmet yotadi hamda ular ilmiy fanning xususiyati, bilimlar tizimidagi o'rnini belgilaydi. Fanning obyektiga deganda real mavjudlik, boshqacha qilib aytganda, bilish manbai bo'lgan haqiqiy mavjudlik, borliq, tushuniladi, subyekt sifatida esa obyektga maqsadli ravishda o'rganish, bilish va uni o'zgartirish, yangilik yaratish borasida ish olib borish tushuniladi. Ilmda obyekt bus-butunligicha, ya'ni barcha xususiyatlari, munosabatlari bilan to'liq o'rganilmaydi, balki subyekt tomonidan ajratib olingan ma'lum bir tomonigina o'rganiladi. Bu esa mazkur fanning predmeti yoki predmet yo'nalishi deyiladi.

Barcha boshqa ilmiy fanlar kabi «surdopedagogika» fani ham o'z obyektini, subyektini va predmetiga egadir. Garchi bu masala oddiy bo'lib ko'rsada uni mukammal tahlil qilib, bevosita ishlab chiqishda muhim qarama-qarshilik va qiyinchiliklar vujudga keladi. Masalan agar surdopedagogikaning obyektini sifatida eshitishda muammosi bo'lgan bolalar ko'riladigan bo'lsa, unda eng muhim holat diqqat markazidan tushib qolib, ta'lim ta'limning o'zi uchun emas, balki inson uchun xizmat qilayotgan bo'lib qoladi. Bunday tushunmovchilik kelib chiqmasligi uchun esa surdopedagogikaning obyektini belgilashda bu fan aynan, bevosita eshitishda muammosi bo'lgan shaxsnining bilishiga tayanish va faqat ta'lim texnologiyalarinigina o'rganish bilan cheklanmasligi maqsadga muvofiqdir. O'z navbatida agar surdopedagogikaning obyektini sifatida faqat eshitishda muammosi bo'lgan bolalargina belgilansa, bunday yondashuv ham qisman to'g'ri, chunki bola, ta'lim amaliyotining subyektini bo'lishi mumkin, ammo u hech qachon pedagogik nazariyaning subyektini bo'la olmaydi, negaki uni bolalar emas, olimlar yaratadi. Surdopedagogikaning predmetiga faqat, eshitishda muammosi bo'lgan bolalarning psixofizik rivojlanishi va korreksion ta'limiga taalluqli, deb qabul qilinsa, oqibatda predmet doirasidan asossiz ravishda, eshitmaydigan va eshitadigan bolalarning rivojlanishini umumiy qonuniyatlari, tarbiya muammolari va eshitishini yo'qotgan shaxsning ijtimoiy holati chetda qoladi.

Bundan xulosa shuki surdopedagogikaning obyektini, subyektini va predmetini xususidagi masala erkin va abstrakt formada hal qilinishi mumkin bo'lmagan masaladir. Bunday prinsipial masalani ikkiyoqlama va bir-biriga ziddiyat tug'diruvchi izohlarni keltirib chiqaruvchi holatdan chiqarish uchun, uning nazariyasi va amaliyotidagi farqlarni hisobga olgan holda, surdopedagogikaning metodologik asoslari taxlilini amalga oshirish zarur bo'ladi. Masala shundaki surdopedagogikaning obyektini yoki subyektini umumlashtirgan holatda berish mumkin emas, chunki bu fanda barcha boshqa pedagogik fanlardagi kabi obyekt-subyekt munosabatlari empirik va nazariy darajalarda o'ziga xos xususiyatlarga egadir.

Surdopedagogikaning empirik darajasi eshitishda muammosi bo'lgan bolalar ta'limi amaliyoti va ularning tadqiqoti tajribasini o'z ichiga oladi. Eshitishda muammosi bo'lgan bolalar ta'limi amaliyoti empirik tadbirlar tizimiga suyanadi. Bu empirik tadbirlar tizimida diagnostika, korreksiya, kompensatsiya, adaptatsiya, alohidalik va boshqalar alohida o'rin tutadi. Empirik tipdagi surdopedagogik tadqiqotlar mazmuniga ko'ra konkret tushunchalar shaklidagi empirik qonuniyatlar bilan belgilangan o'quvchilarning ta'limi va rivojlanishining alohida tashqi tomonlarini o'z ichiga oladi. Eshitmaydigan bolalar ta'limi va tarbiyasining chuqur ichki faktorlari va qonuniyatlariga kelsak, ular nazariy tadqiqotlar yordamida tizimlashtirilgan bilimlarga yo'naltirilgan gipoteza, konsepsiya va muammolar shaklida yuzaga chiqadi.

Surdopedagogika nazariy jihatdan eshitishda muammo bo'lganlarga yo'naltirilgan ta'limiy yordam, umumlashgan va bir butunlikdagi tadqiqotning muayyan xarakteristikasi asosida shakllanadi. Nazariy tipdagi surdopedagogik tadqiqotlar karlar va zaif eshituvchilar ta'limining evolyutsiyasini tushuntiradi va bashorat qilishga xizmat qiladi.

Surdopedagogikaning empirik darajasida ikkita obyektning o'zaro ta'siri va aloqadorligi amalga oshiriladi: pedagog va eshitishda muammosi bo'lgan bola. Bu o'zaro ta'sirning o'ziga xosligi shundaki bunda bola bir vaqtning o'zida ham obyekt, ham subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Masalan u ta'lim-tarbiya jarayonining faol itirokchisi bo'lganligi tufayli ta'limning subyektini sifatida ko'riladi: pedagog bilan qator munosabatlar tizimida bo'ladi,

o'z o'rtoqlariga ta'sirini ko'rsatadi, mehnat va o'quv faoliyatini egallaydi, o'ziga xos ichki motivatsiyasi bo'lgan tizimli xulqqa ega bo'lib, fikrlashni o'rgadi va asta-sekin o'zi uchun mustaqil bilimini oshirish imkoniyatini ochib boradi. Shu bilan bir qatorda bola ta'lim obyekti sifatida ham maydonga chiqadi, chunki u o'zining samarali rivojlanishida o'zgalarning yordamiga muhtoj: g'amxo'rlik, o'qituvchilar tomonidan qo'llab-quvvatlanish va tushunilishga, emotsional jihatdan, o'rtoqlari va tengdoshlarining o'zi haqidagi fikri va munosabatlarini ijobiy yoki salbiy bo'lishi bilan bog'liq, o'z imkoniyatlarini baholay olmaslik, hayotiy ko'nikmalarning yetishmasligi, hayotidagi muammolarni optimal darajada hal qilish uchun yetarli darajada yetilmaganligi, ijtimoiy me'yorlar, qoidalar va o'quv jarayoni munosabatlariga bo'ysunishi lozimligi va h.k. B.G.Ananev bolaning rivojlanishini obyekt va subyekt sifatida tahlil qilib «Bola yoki o'smir faqat tarbiya jarayoni ta'sirining subyektigina emas, balki u butun boshli tarbiya jarayonining ishtirokchisi hamdir. Bolalarning o'zini tarbiya jarayonidagi rolining o'sishi, ya'ni o'z munosabatlarini bildirish imkoniyatlarining o'sishi ularning ayrim, alohida faoliyatlarining subyekt sifatidagi evolyutsion ko'rsatkichdir...» deb ta'kidlaydi. Bundan xulosa qilish mumkinki, demak bola ta'limning obyekti va subyekti sifatida uzoq va kompleks evolyutsiyadan o'tadi va bu jarayon uning inson sifatida uch asosiy faoliyat turida qanday shakllanishiga bog'liq: mehnatda, muloqatda, bilishda.

Surdopedagogikada obyekt bilan subyekt orasidagi o'zaro munosabatlar dinamikasi g'oyatda murakkab va qarama-qarshi xarakterga ega. F.V.Y. Shelenbergning ta'kidlashicha: dastlab «subyekt bilan obyekt orasida qarama-qarshiliklar kurashi kechadi», keyinchalik, bu qarama-qarshilik asosida bu substansiyalarning sintezi vujudga keladi, ya'ni subyekt bilan obyekt birlashadi. Bu yerda gap shundaki, pedagog subyekt sifatida eshitishida muammosi bo'lgan bolani o'qitishni boshlaganda, bu bola asosan obyekt roliga maydonga chiqadi va uning subyekt sifatidagi faolligi yo'kuchsiz holatda, spontan, negativ xarakterda namoyon bo'ladi va o'quv jarayoni talablari bilan qarama-qarshilikda bo'ladi. O'qitish va korreksiya ishlari natijasida bu, tabiiy holat sifatida shakllangan, spontan faollik maqsad sari yo'naltirilgan subyektning pozitiv yo'naltirilgan faoliyatiga aylanadi. Eshitmaydigan bola o'z muammolarini ongli ravishda tushuna

boshlaydi, eshitish qoldiqlarini ishga solib eshitishni o'rganadi, o'z nutqini nazorat qila boshlaydi. I.Kantning o'z vaqtida «fikrlaydigan subyekt bir vaqtning o'zida o'zining shaxsiy subyekti hamdir» degan fikrini e'tiborga oladigan bo'lsak, biz eshitmaydigan bola shaxsida maxsus ta'lim sharoitida eshitmaydigan bola asta-sekinlik bilan o'z-o'zini rivojlaturuvchi, kamchiligini tuzatib boruvchi, o'zligini biluvchi va obyekt sifatida o'zini nazorat qilib, o'zgartiruvchi sifatida ko'rish mumkin. Natijada subyekt va obyekt birligiga erishiladi va bu esa individuallik va o'z-o'zini bilishning rivojlanishini bildiradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, shuni aytish mumkinki, demak ta'lim jarayonida bola asta-sekin o'zining yangi turdagi faoliyatlari tufayli, o'quv jarayonidagi usullari, muloqot shakli, o'qituvchi va sinfdoshlari bilan muloqot qilish usullari tufayli subyektga aylanadi. Ta'lim jarayonida ta'lim subyekti sifatida, bilish, muloqot va faoliyatiga ega bo'lib, yagona, yaxlit shaxsga aylanadi. Surdopedagogikada insonparvarlik yondashuvlar, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim modeli o'z o'rnini, tasdig'ini topadi, eshitishida muammosi bo'lgan bolaning subyektlik maqomi haqidagi tushuncha chuqurlashadi. Eshitmaydigan bolalar ta'limini tashkil etishda ularning shaxsiy subyektlik faolligiga tayanishga alohida e'tibor beriladi, chunki eshitishida muammolari bo'lgan bola faqat faollikdagina biror narsa o'rganishi mumkin.

Subyektning xususiyatlar majmuasi, ya'ni uning funksiyalarini «**subyektlik**» termini bilan belgilash mumkin. Yuqoridagi xususiyatlarni alohida shaxs yoki shaxslar guruhi orqali egallash jarayonini esa subyektivlashtirish, deb atash mumkin.

A.Turen «subyektning mohiyati individumning faoliyat ishtirokchisi bo'lishga intilishi, individuallashishga intilish esa subyektivlashishning o'zginasi» degan fikrni bildiradi. Bu fikr esa subyektivlikning asosiy ko'rsatkichi uning faolligida ekanligi bilan o'z isbotini topgan. Lekin «subyektlik» fenomenini tushunishda faolligigagina tayanish kifoya qilmaydi, individning faoliyat ishtirokchisi sifatiga intilishigina uni subyekt qila olmaydi. Gap shundaki ta'limiy subyektlik faoliyatda bo'lishda muayyan onglikni ko'zda tutadi. Bunda pedagogik maqsadlarni amalga oshirish jarayonida harakatlarning muayyan onglik bilan amalga oshirilishi nazarda tutiladi. Shunga ko'ra eshitishida muammosi bo'lgan bolaning subyektligi, umuman, muayyan yangi madaniy shakllarni

yaratishdan emas, balki boshqa insonlar tomonidan yaratilgan tayyor qadriyatlar, me'yorlar, bilimlarni o'zining shaxsiy tajribalari tizimiga qo'shishdan iboratdir. Ya'ni subyektlashtirish nafaqat individuallashtirish zamini, balki shaxsning takrorlanmasligi, erkinligining asosini tashkil etuvchi va shu bilan bir qatorda individning ijtimoiy munosabatlar tizimiga kirishi va ijtimoiylashuvi uchun shart-sharoit yaratuvchi nazariy element hisoblanadi. Maxsus ta'lim sharoitida subyektlik funksiyalarini egallashi tufayli eshitishini yo'qotgan odam shaxsiy tajribasini orttirish, ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish va amalga oshirish, o'z faoliyatining samaradorligiga erishish, ijtimoiy hayotda o'z o'rnini egallash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Eshitishida muammosi bo'lgan bolaning subyektligi avvalo, maxsus ta'limning asosiy subyektli sifatida ishtirok etuvchi o'qituvchilar bilan o'zaro hamkorlikda shakllanadi. Chunki ularning ishtirokisiz kar va zaif eshituvchi o'quvchilarga korreksion yordam ko'rsatish imkoniyati bo'lmaydi. O'zaro pedagogik faoliyatda o'qituvchilarning subyektligi o'quvchilarning subyektligidan farq qiladi: pedagog o'quv fanlarini o'qitishda qadriyatlarga yo'naltiruvchi tarbiya berish, maktab tadbirlarini o'tkazuvchi, nazorat olib boruvchi va baholovchi subyektdir, o'quvchi esa ta'lim oluvchi, bilimlarni egallovchi, kommunikativ muloqot quruvchi, o'quv topshiriq va vazifalarni bajaruvchi, o'z-o'zini nazorat qilishni amalga oshiruvchi subyektdir. O'qituvchi va o'quvchi subyektligidagi umumiy jihat, ularning bitta faoliyat turi subyektli, o'quv jarayonining yagona munosabatlari, yagona muloqot maydoni subyektli ekanligidir.

Ta'lim sharoitida, subyekt bilan obyektning birligi tufayli shunday mavqega ega bo'ladi. subyekt bilan obyekt o'rtasida korrelyativ munosabatlar mavjudligi ma'lum. O'z davrida I.G.Fixta «subyektsiz obyekt yo'q, obyektli subyekt yo'qligini ta'kidlab o'tgan. Bu holat ayni paytda surdopedagogika uchun subyekt bilan obyektning o'zaro chambarchas bog'liqligi va uzviyligini, shuningdek ular alohida-alohida olinmasligini bildiradi. An'anaviy tarzda surdopedagogikaning obyektli eshitishida muammosi bo'lgan bola hisoblanadi, chunki maxsus ta'lim aynan shuning uchun amalga oshiriladi. Masalan, A.I.D'yachkov «maxsus maktabda ta'lim obyektli bo'lib, eshitish analizatori faoliyati buzilgan bolalar hisoblanadi»

deb ta'kidlagan. Bunday yondoshuvning to'g'riligiga shubha qilib bo'lmaydi, lekin ushbu o'rinda surdopedagogikaning obyektli va subyektli uzviy bog'liqligini ham alohida ta'kidlash lozim. Ular orasida turli o'zaro bog'liqliklar mavjud: birinchidan eshitishida muammolari bo'lgan bolalar o'z pedagoglari va o'rtoqlarining ta'siri ostida o'zgarib boradilar; ikkinchidan o'zlarining maqsadlari va imkoniyatlariga bog'liq holda, o'zgaradilar; uchinchidan ta'lim jarayonida ularni o'rganishadi hamda baholashadi; to'rtinchidan, ular o'zlarini, o'zligini bilib baholashadi.

Korreksion pedagogik faoliyatda subyektli va obyektli munosabatlari faqat individlar orasidagi munosabatlarga ta'alluqli qilib olinmaydi. Bunda ta'lim subyektli faqat individga bo'lib qolmay, bir guruh shaxslar bo'lishi ham mumkin. Agar subyektli xususiyatlari unchalik katta bo'lmagan, bir guruhga xos bo'lsa, u holda kollektivni **imperik subyekt** desa bo'ladi. V.A.Lektorskiy qiziqarli solishtiruvlarda «kollektiv subyektli individual subyektga taqqoslab bo'lmaydi», deb ta'kidlagan. Ta'limiy munosabatlar sohasida ham xuddi shunday: **jamoat subyektli** alohida individlardan iborat bo'lsa-da, u shaxs sifatida bir butunlikni ifodalaydi. A.A.Zimnyaya fikricha pedagogikaning jamoat subyektli ba'zan ta'lim jarayonining birlashtirilgan subyektli deb nomlanadi. Kishilar birlashmasini jamoat subyektli deb hisoblash mumkin, agarda uni tashkil etuvchi individlar o'zaro bevosita va muntazam ravishda aloqada bo'lib, muloqot jarayonida yagona maqsad sari kelishilgan harakat va faoliyat olib borsalar.

Surdopedagogikaning imperik jamoat subyektli bo'lib, eshitmaydigan bolalarga korreksion yordam ko'rsatuvchi pedagogik jamoat hisoblanadi. Alohida pedagogik jamoalar katta umumiy jamoat subyektli sifatida integratsiyalashib pedagogik hamjamiyat tashkil qiladi va eshitmaydigan bolalarni rivojlanishini ta'minlaydi. Bundan tashqari eshitishida muammosi bo'lgan bolalardan tashkil topgan real o'quvchilar guruhi ham jamoat subyektli sifatida qabul qilinishi mumkin. Bunda eshitishida muammosi bo'lgan o'quvchilar guruhi, subyektli maqomini olishi uchun o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish, ular orasida ijobiy shaxslararo munosabatlarni shakllantirishga qaratilgan maxsus pedagogik faoliyat olib borish talab qilinadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish

mumkinki, demak eshitishida muammosi bo'lgan bolalar guruhi maxsus ta'limning ham obyekti ham subyekti bo'lishi mumkin ekan.

Yana alohida e'tiborga loyiq masalalardan biri, surdopedagogikaning **ijtimoiy subyekti** masalasidir. Umumiy ta'limiy tizimga ijtimoiy shart-sharoitlar, munosabatlar va jarayonlar, ijtimoiy subyektlarning faoliyat yuritish xususiyatining madaniy tarixiy tomonlari bilan bog'liq holda o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ta'limning ijtimoiy subyekti bilan jamoa subyektini bir xil ko'rish noto'g'ridir, chunki ijtimoiy yaxlitlik, bu keng, juda keng ma'noni bildirib o'sha yaxlitlikning barcha qisimlari bilan bevosita bog'lanish imkoniyati bo'lmaydi.

Maxsus ta'limning ijtimoiy obyekti sifatida to'g'ridan-to'g'ri yoki bevosita surdopedagogik ishning yo'nalishlarini aniqlovchi va eshitish bo'yicha nogironlarning ijtimoiy himoyasini amalga oshirishga qaratilgan faoliyat olib boruvchi ijtimoiy institutlar va ijtimoiy guruhlar nazarda tutiladi.

Shunday qilib imperik darajadagi surdopedagogika subyektlari qatorida maxsus ta'limni tashkil etish va eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni himoyalash bilan shug'ullanuvchi alohida pedagoglar, pedagogik hamjamiyalar, ijtimoiy institutlar va ijtimoiy guruhlar, shuningdek, o'quv jarayonida maqsadga muvofiq ravishda faoliyat olib boruvchi eshitmaydigan bola tashkil etadi. Bunda eshitishida muammosi bo'lgan bolalar va ularni tashkil etuvchi guruhlar ham surdopedagogik tadqiqotlar amaliyotida, korreksiyalovchi yordam va ta'limga tayyorlashda obyekt sifatida qaraladi.

Surdopedagogikaning nazariy darajasida subyekt sifatida eshitishida muammolari bo'lgan shaxslarni o'rganuvchi va imkoniyati cheklangan shaxslar ta'limini rivojlantirish masalalari yuzasidan tadqiqotlar olib boruvchi tadqiqotchi –surdopedagoglar va olimlar hamjamiyati namoyon bo'ladi.

Nazariy subyektning, ta'lim jarayonining yaxlit yoki to'la ishtirokchisi bo'lgan imperik subyektdan farqi uning tabiiy butunlikka ega emasligi va faqat individlar, shaxslar yoki guruhlarining pedagogik amaliyotning konseptual jihatdan muvaffaqiyatli o'rganish uchun xizmat qiluvchi xususiyatlarga egaligidir.

Shunday qilib surdopedagogikaning nazariy darajasidagi subyekti sifatida, eshitishida muammolari bo'lgan insonlarni yuksak

mahorat bilan o'rganuvchi va ularning ta'limi va tarbiyasi tizimini asoslab beruvchi alohida pedagoglar yoki pedagogik hamjamiyatlar maydonga chiqishi (tashkil etishi) mumkin.

**Surdopedagogik nazariyaning obyekti sifatida** eshitishida muammolari bo'lgan insonlarning ta'limiy munosabatlari, o'quv faoliyati, atrofdegilar bilan muloqotining turli shakllaridan foydalanish imkoniyatlari haqidagi umumlashtirilgan bilim va tasavvur tushuniladi.

Surdopedagogikaning nazariy darajasidagi obyekt va subyektning o'zaro aloqadorligi, ta'siri fandagi bu yo'nalish predmetining shakllanishiga olib keladi va u defektologiyaning bu tarmog'ida o'rganiluvchi va ishlab chiquvchi qator e'tiborga molik muammolarni umumlashtirilishiga ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi kunda surdopedagogikaning predmeti sifatida eshitishida muammolari bo'lgan bolalar ta'limi, tarbiyasi va rivojlanishi qabul qilinmoqda. Ilmiy predmetning har bir tarkibiy komponenti muayyan mazmunga ega bo'lib, detallashtirilgan holda o'rganilishi mumkin.

Eshitishida muammolari bo'lgan bolalarni o'qitish muammosi surdopedagogika yo'nalishi predmetining ajralmas qismi hisoblanadi. Kar, zaif eshituvchi, kech kar bo'lgan o'quvchilarni o'qitish, ular bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik ish shakllari, tizimi, metodlari, qonun qoidalarini ilmiy asoslash muammolarini o'rganish borasida juda katta ishlar olib borilmoqda. Surdopedagogikada eshitishida muammolari bo'lgan bolalarni tilga o'qitish, o'rgatish va fanlar asosini o'qitish tizimining takomillashtirilishiga katta e'tibor qaratilmoqda.

Eshitishida muammolari bo'lgan bolalarni turli ta'lim muassasalarida maxsus ta'limni tashkil etish mazmuni va texnologiyalarini ishlab chiqish hozirgi kunning tobora dolzarb va katta qiziqish uyg'otuvchi masalalaridan hisoblanadi.

Eshitishida muammolari bo'lgan bolalar tarbiyasining tashkiliy masalalariga ta'alluqli qator muammolar surdopedagogika predmetining tarkibiy qismini tashkil etadi. Bunda, eshitishida muammolari bo'lgan bolalar aqliy, jismoniy, mehnat va estetik tarbiyasi masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Tadqiqotlar qatorida eshitishida muammolari bo'lgan bolalar imkoniyatlari, xususiyatlari, qiziqishlari, shaxsining yo'naltirilishi, xarakter



xususiylarining shakllanishiga yo'naltirilishi, ularning madaniyat, qadriyatlarini, intizomi, ahloqiy xususiylarini, amaliy faoliyati, verbal muloqot imkoniyatlari, tabiatga, jamiyatga, atrofdagilarga va o'ziga bo'lgan munosabatlarining to'g'ri shakllanishini ta'minlovchi pedagogik shart-sharoitlarni o'rganish katta o'rin egallaydi.

### ***Surdopedagogikaning maqsad va vazifalari***

Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar maxsus talimi umumiy ta'lim tizimining bir bo'lagi bo'lib, uning o'ziga xos nazariyasi va amaliyoti, maqsad va vazifalari mavjud. Bu muammoni yechishda maxsus va umumiy ta'limdagi o'xshashlik va farqlarni aniqlab olamiz. Xo'sh, ularda qanday umumiylik va qanday farqli tomonlar mavjud. O'z davrida buyuk psixolog L.S.Vigotoskiy maxsus va umumiy ta'lim maktablarining ijtimoiy masalalaridagi ya'ni vazifalari va maqsadlaridagi umumiylik haqidagi qonuniyatlarini asoslab bergan. Shunga ko'ra surdopedagogika, umuman olganda eshitishida muammosi bo'lgan bolalar talimining umumiy maqsadlarini amalga oshirmog'i lozim. Ya'ni bu maqsad eshitmaydigan o'quvchilarning ta'lim va tarbiya egallashiga nisbatan qo'yiladigan umumiy maqsaddir. Bundan kelib chiqib **surdopedagogikaning maqsadini ta'lim berishning umumiy yo'nalishini belgilovchi, muvofiqlashtiruvchi korreksion pedagogik ishning natijasi sifatida tushunish mumkin.**

Normal jihatdan qaraganda eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'limining maqsadi konkret, yakunlangan va yagonadir. Surdopedagogika maqsadlarining konkretligi, ularning muayyan darajaga, predmetga, ta'lim-tarbiya jarayonining tematik elementlarga taalluqliligi bilan belgilanadi. Ya'ni maqsadlar muayyan darajaga, predmetga, o'quv jarayonining muayyan tematik elementi-tarkibiy qismiga taalluqli bo'lib uning amalga oshirilishini ko'zlaydi. Yakunlanganligi maxsus ta'limning tarkibini yangilash imkoniyati bilan bog'liq bo'lib vaqt bilan chegaralash imkoniyatining mavjudligi, ya'ni muayyan vaqtda bajarish zaruriyati bilan belgilanadi. Surdopedagogika maqsadining birligi uning bo'linmas butunlikni tashkil etib, eshitishida muammolari bo'lganlar bilan olib boriladigan turli umumiy va maxsus vositalar, metodlar va ish turlarini umumlashtirish va tartibga solish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Ta'lim maqsadi pedagoglarning tizimli va muayyan tartibli faoliyat olib borishini ta'minlaydi. Ular faoliyatining muvaffaqiyati har bir konkret holatda bitta umumiy maqsad asosida ish olib borilishiga bog'liqdir. Umuman pedagogikada ko'p maqsadlar mavjud, bitta fan kursining o'zida mazmuni va yo'nalishiga ko'ra qator maqsadlar amalga oshirilishi mumkin. Shuning uchun ta'lim jarayonidagi ko'p qirrali maqsadlarni to'liq anglash va ularni qo'llashda adashmaslik uchun ularning barchasini birbutun tizimli «maqsadlar piramida»si sifatida ko'rib chiqamiz. Shunda surdopedagogika piramidasi cho'qqisining eng umumiy maqsadlari qismini, eshitishida muammolari bo'lgan bolalarning butun ta'limi jarayoni tashkil etadi, qolgan qismlari esa boshqa xususiy fanlar, o'quv bo'limlari, mavzuli sikllar maqsadlarini tashkil qilishi mumkin. Piramidaning asosi esa alohida mashg'ulotlar, darslarning maqsadli ko'rsatmalaridan tashkil topadi. Bunda eshitishida muammolari bo'lgan bolalar ta'limining turli bosqichidagi, darajalaridagi maqsadlari o'zaro bog'liq holda turadi: surdopedagogikaning oliy maqsadi xususiy fanlar tizimi maqsadlariga tayanadi va ular orqali amalga oshiriladi, xususiy maqsadlar esa umumiy oliy maqsadlarning amalga oshirilishiga yo'naltiriladi va o'quv faoliyati sharoitlariga moslashtirilgan holda amalga oshiriladi.

Masalan: eshitishida muammolari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berishni oliy va umumiy maqsadimiz deb olsak, eshitish qobiliyatini rivojlantirish maqsadi ularning nutqiy ko'nikmalarini shakllantirish maqsadini amalga oshirish uchun xizmat qiladi. Nutqiy ko'nikmalarini shakllantirish orqali esa ularga ta'lim-tarbiya berish maqsadini amalga oshirish mumkin.

Surdopedagogikaning maqsadlari barcha daraja va bosqichlarda ham **obyektiv va subyektiv** shaklda maydonga chiqadi. Surdopedagogikaning **obyektiv xarakteri** ijtimoiy ehtiyojlarining qay darajada e'tiborga olinishi, ta'lim berish sharoitlarining mavjudligi, ularning guruhlarini, karlar, zaif eshituvchilar real imkoniyatlari qay darajada hisobga olinganligi bilan belgilanadi. Masalan eshitishida muammolari bo'lgan bolalarga eshitish orqali ta'lim berish maqsad qilib qo'yilsa, lekin buning uchun vositalar bilan ta'minlanmagan bo'lsa, maqsad real va to'g'ri hisoblanmaydi. Chunki eshitish imkoniyati bo'lmagan bolaning eshitish qobiliyati

rivojlanmaydi, demak nutqi ham rivojlanmaydi, qo'yilgan asosiy maqsad ham real hisoblanmaydi.

Surdopedagogikaning maqsadini aniqlash, belgilashda shuni e'tiborga olish lozimki, eshitishida muammosi bo'lgan bolaning rivojlanishi ko'p o'lchovli jarayon bo'lib, individning biologik, psixologik, ijtimoiy yetukligiga erishishga qaratilishi lozirligini e'tiborga olishni talab qiladi. Shu sababli, eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'limi ko'pqirrali va yaxlit butunlikni tashkil etishi maqsadga muvofiqdir. Faqatgina maxsus tashkil qilingan, yaxlit, birbutunlikdagi ta'limgina, eshitmaydigan bolaning sog'lom analizatorlarining faolligini ta'minlay oladi. Undagi sensor kamchiliklarni kompensatsiyasini ta'minlaydi, pozitiv shaxsiy xususiyatlarining ochilishiga imkon yaratadi, eshitish qobiliyatining buzilishi natijasida vujudga kelgan ruhiy nomutanosiblik tufayli shaxslararo munosabatlardagi negativ xususiyatlarni yengishini ta'minlaydi.

Shunday qilib, surdopedagogikaning umumiy maqsadi eshitishida muammosi bo'lgan odamning faoliyat, bilish va muloqot subyekti sifatida pozitiv jismoniy, ruhiy, va ijtimoiy sifatlarini yaxlit birbutunlikda tarbiyalashga erishishdan iborat.

Surdopedagogikaning umumiy maqsadi bilan mutanosib ravishda kopleks vazifalar kelib chiqadi. Chunki birgina maqsad bunday ko'pqirrali maxsus ta'lim jarayonini qamrab ololmaydi, shuning uchun yakuniy maqsadni to'ldiruvchi, izohlovchi vazifalar belgilanadi. Har qanday maqsad uni amalga oshirish va unga erishishga yo'naltiriladigan o'zining vazifalar tizimini ko'zda tutadi va bu vazifalar tizimi to'laqonli ravishda unga bo'ysunadi. Vazifalarni maqsad sari olib chiquvchi zinalarga qiyoslash mumkin.

Ta'limiy vazifalarni umumdidaktik vazifalar deb hisoblash mumkin bo'lib, mazkur vazifalar o'quv jarayoni va mazmunini muvofiqlashtiradi. Ular qatoriga me'yordagi va eshitishida muammolari bo'lgan bolalar ta'limi uchun umumiy tartib va qonunlar kiradi.

*Surdopedagogika amaliyotida uning bosh maqsadi asosida birinchi navbatda quyidagi ta'limiy vazifalar qo'yiladi:*

Eshitishida muammolari bo'lgan bolalarni ta'lim olishga qiziqishlarini uyg'otish, rivojlanish va hayotiy ko'nikmalari, imkoniyatlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

Eshitishida muammolari bo'lgan o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirish, dunyoni ilmiy va nazariy jihatdan tanishtirish jarayonida umumiy hayotiy va ijtimoiy tushunchalarini kengaytirish;

Karlar va zaif eshituvchilarning imkoniyatidan kelib chiqqan holda tafakkurining optimal darajada rivojlanishini ta'minlash, yangi vazifa va muammolarni ijodiy hal qilish imkoniyatlarini rivojlantirish;

O'quv faoliyatiga moslashish ko'nikmalarini shakllantirish, og'zaki va yozma nutqini shakllantirish va rivojlantirish, maqsadli yo'naltirilgan o'quv faoliyati orqali ularning kognitiv jarayonlarini faollashtirish;

Hozirgi iqtisodiy, ijtimoiy sharoitda mehnat faoliyatiga tayyor bo'la olish darajasida ko'nikma, malaka va tasavvurlarini rivojlantirish orqali mehnat faoliyatiga tayyorlash.

Surdopedagogikaning tarbiyaviy vazifalari eshitishida muammolari bo'lgan bolalarning umumiy imkoniyatlari va shaxs sifatlarini rivojlantirishga qaratiladi.

Amaliy surdopedagogika vazifalari tarkibiga asosiy ta'limiy va tarbiyaviy vazifalar bilan bir qatorda maxsus **korreksiyalovchi, rivojlantiruvchi vazifalar** ham kiradi. Maxsus vazifalar surdopedagogikaning maxsus vositalari bilan bog'liq bo'lib, ular dizontogenez diagnostikasi, maxsus ta'lim muassasalarini komplektlash, rivojlanishdagi buzilishlar, kamchiliklarni korreksiyalash, vujudga kelishi mumkin bo'lgan buzilishlarning oldini olish kabilarni tashkil etadi.

**Surdopedagogikaning tarbiyaviy vazifalaridan quyidagilarini alohida ta'kidlash mumkin:**

Eshitish qobiliyatini yo'qotgan bola shaxsini har tomonlama rivojlantirish, o'z imkoniyatlarini jamiyatda qo'llay olish ishonchini rivojlantirish, shaxsga yo'naltiruvchi yondashuv orqali boladagi ichki imkoniyatlar, individual kreativ qobiliyatning ochilishiga sharoit yaratish;

Eshitishda muammosi bo'lgan bolaning ijtimoiylashuvga, mustaqil ijtimoiy, maishiy turmushga yo'naltirish, ijtimoiy tajribasini boyitib borish, eshitadigan odamlar bilan muloqatda bo'lish va hamkorlikdagi faoliyatga, madaniy qadriyat me'yorlari, odamlarga yaqinlashtirib borish, madaniy turmushda faol qatnashishga jalb etib borish;

Etnik tushunchalar va qoidalar bilan tanishtirish jarayonida ma'naviy ongini tarbiyalash, «javobgarlik va burch» tushunchasini shakllantirish va mustahkamlash, erkinlik va shaxsiy, insoniy qadr-qimmatni hurmat qilish tushunchalari orqali ma'naviy va milliy qadriyatlarni shakllantirish.

### **Surdopedagogik faoliyatda quyidagi maxsus vazifalar amalga oshiriladi.**

- Har bir o'quvchining eshitishini buzilish xarakteri, holati, sababi, nutqi va umumiy rivojlanishiga ta'sir darajasini aniqlash, eshitish va nutq imkoniyatiga ko'ra tabaqalashtirish hamda eshitish qobiliyatini rivojlantirish. Boladagi qiyinchiliklarni samarali bartaraf etishga qaratilgan optimal ish usullarini belgilash, yakka tartibdagi korreksion ishlarni tashkil etish;

- Eshitishda muammosi bo'lgan bolaning hayoti va faoliyatini normallashtirish, ijtimoiy va ruhiy rivojlanishidagi cheklanishlarni yengib o'tishga tayyorlash, kommunikativ tizim asosida nutqdan keng foydalanish imkoniyatini shakllantirish va rivojlantirish, eshitish qobiliyatiga tayangan sensor-perseptiv faoliyatini takomillashtirish, rivojlantirish, og'zaki nutqni tushunish va qabul qilish imkoniyatini takomillashtirish;

- Eshitishi buzilgan bolalarning kompensatorlik imkoniyatlarini faollashtirish va rivojlantirish, ularning ta'lim olishlari, shaxsiy sifatlarini kompleks ravishda rivojlantirishni ta'minlovchi maxsus

shart-sharoitlar yaratish. Bu borada o'quv va amaliy faoliyati jarayonida bola organizmidagi sog'lom, saqlangan funksiyasining takomillashuvi orqali sensor informatsiyani qabul qilishdagi kamchiligini to'ldirish;

Eshitmaydigan bolaning ijtimoiy muhitdan uzilgan aloqasini tiklash, ularning individual xususiyati, mehnat layoqati xususidagi ekspertiza xulosa asosida ijtimoiy-maishiy moslashuvini tiklash, eshitishda muammosi bo'lgan barcha yoshdagilar uchun ochiq ta'lim olish muhitini yaratish;

Surdopedagogikada nazariy vazifalar alohida va muhim o'ringa ega bo'lib, ular surdopedagogik amaliyot tahlili eshitishda muammolari bo'lgan bolalar ta'limi, tarbiyasi materiallarini umumlashtirishni ko'zda tutadi. Nazariy vazifalarning bir qismi metodologik yo'nalishga ega bo'lib, bilimlarni tarkib toptirish usullarini takomillashtirishga qaratilgan.

### **Surdopedagogikada quyidagi nazariy vazifalar belgilanadi:**

- Eshitishda muammosi bo'lgan bolalarning rivojlanishidagi o'ziga xosliklarni o'rganish, eshitmaydigan bola tafakkuri, nutqi va boshqa ruhiy jarayonlarning rivojlanish xususiyatini aniqlashga xizmat qiladigan diagnostik instrumentariya (tashxis qilishning maqbul usullari)ni yaratish, eshitishni yo'qotish sabablarini ochish, differensial diagnostika orqali eshitishning buzilish darajasi, saqlangan eshitish qoldig'ini aniqlash, eshitishda muammosi bo'lgan bolalar tasnifini yaratish;

- Eshitishda muammosi bo'lgan bolalar ta'limi konsepsiyasi, mazmuni, tartibi va qoidalarini ishlab chiqish, ular ta'lim-tarbiyasini tashkil etish shakllarini takomillashtirish, ular uchun maqbul bo'lgan surdopedagogik texnologiyalarni, jumladan maxsus vositalar, maxsus metodlar yaratish, eshitmaydigan bolalar uchun mavjud ta'lim muassasalarini rivojlantirishni asoslash;

- Hozirgi zamon talablari asosida surdopedagogika sohasidagi lug'at va iboralarni, umumiy va maxsus pedagogika sohasidagi tushunchalar mazmuniga tegishli o'zgartirishlar kiritish, tabiiy va gumanitar fanlarni yaqinlashtirish, fanlar ichida nazariy va metodika fanlar integratsiyasini takomillashtirish;

Surdopedagogika amaliyoti, tajribasining taxlili asosida amaldagi samarali yondashuvdagi ta'lim va zamonaviy yondashuv-

larni uyg'unlashtirgan holda yangi, zamonaviy texnika taraqqiyoti imkoniyatlarini qo'llab o'qitishning yangi texnologiyalarini yaratish.

### ***Surdopedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi***

Kar va zaif eshituvchi bolalarga zamonaviy ta'lim berish til mohiyatini tushunish ta'limotiga tayanadi. Eshitishida muammolari bo'lgan bolalar ta'lim tizimini takomillashtirish ushbu toifa bolalarining ona tilini egallashlarining qonuniyatlari, karlik va zaif eshituvchilik patofiziologiyasini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Surdopedagogika uchun L.S.Vigotskiy tomonidan taklif etilgan «nuqsonning murakkab tuzilishi» nazariyasi asos bo'lib xizmat qiladi. Ya'ni, birlamchi muammolar (karlik, zaif eshituvchilik), ikkilamchi muammo (soqovlik yoki faqat mustaqil holatda egallangan me'yordan chetga chiqqan uzuq-yuluq tovushlardan iborat nutqiy malakalarga ega bo'lish)ni yetaklab keladi. Ikkilamchi muammo esa o'z navbatida so'z-mantiqiy, abstrakt tafakkur rivojlanishini chegaralaydi. Natijada bunday bolalarning atrof olamni o'zgacha tushunishi, pirovardida dunyoqarashining tor darajada rivojlanishi holati sodir bo'ladi. Chunki aynan ikkilamchi muammo bolalarning me'yorida rivojlanishlariga katta salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Surdopedagogika umumiy pedagogika, o'zbek xalqi etnopedagogikasining ma'lumotlaridan eshitmaydigan bolalar xususiyatlari, ularning imkoniyatlarini hisobga olgan holda ijodiy foydalaniladi.

Korreksiya pedagogikasining metodologik asoslari, umumiy bosh nazariy va amaliy vazifalari surdopedagogikaning barcha yondosh tarmoqlar bilan chambarchas holda rivojlanishini taqazo qiladi.

Surdopedagogika eshitmaydigan bolalarning, psixologik shaxsiy xususiyatlari, qonuniyatlarini ochib beruvchi «surdopsixologiya» fani bilan ham izchil bog'liq.

Fiziologiya, anatomiya, otorinolaringologiya, audiologiya sohalaridagi bilimlardan surdopedagogika eshitmaydigan bolalarning tabaqalab o'qitilishi, eshitish idroki va og'zaki nutqini shakllantirish muammolarini hal qilishda foydalanadi. Xuddi shu muammolarni hal qilishda, shuningdek, surdotexnik vositalarini ham keng qo'llash talab etilishi surdopedagogikaning surdotexnika bilan aloqadorligini asoslab beradi.

Kar va zaif eshituvchi bolalar maktab, maktab-internati o'quv-tarbiya jarayoniga qo'yilayotgan yangi talablar u yerda faoliyat ko'rsatayotgan surdopedagoglar oldiga qator vazifalarni qo'ymoqda-ki, bu eng avvalo, ularning ta'lim-tarbiya jarayoniga yangicha yondashishlarini taqazo etishda namoyon bo'lmoqda. Maxsus maktab, maktab-internatlari rahbar hamda pedagog xodimlari qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari o'quv reja dasturlarida nazarda tutilgan «Surdopedagogika» o'quv predmeti, maxsus kar va zaif eshituvchi bolalar maktab, maktab-internat pedagoglari kasbiy mahoratlarini oshirishlari uchun poydevor hisoblanadi.



### **Savol:**

1.Surdapedagogikaning maqsadi vazifalari ob'ekti va predmeti deganda nimani tushunasiz ?

2.Surdopedagogika eshitishida muammolari bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasi jarayonini o'rganishda qaysi metodlardan foydalanadi ?

3.Surdopedagogikaning boshqa fanlar bilan nazariy aloqadorligini sxematik tarzda ko'rsatib bering.

4.Eshitish nuqsoni nutq rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

5.Biologik va ijtimoiy omillarning bog'liqligini ko'rsating ?

6.Eshitish analizatorida nuqsonlarning paydo bo'lish sabablarini ayting?

## **2. ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR TA'LIMI TARIXI**

***Tayanch tushunchalar:*** nutqining shakllanishi va rivojlanishi tarixi, eshitishida muammosi bo'lgan bolalar nutqiy rivojlanish masalalari, eshitish qobiliyatining darajasi va nutqning rivojlanish darajalari

### ***Surdopedagogikaning asosiy rivojlanish bosqichlari***

Jamiyatda tilni o'zlashtirish jarayoni kishilarning o'zaro nutqiy faoliyati(kommunikatsiyasi) sharoitida amalga oshadi. Ushbu jarayonda insonning eshitish faolligi o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, u so'zlashuv nutqining shakllanishi va rivojlanishidagi bosh omillardan biridir. Shunga ko'ra ham ushbu masala jamiyat

taraqqiyotining turli davrlarida yashab o'tgan olim va pedagoglarning diqqat markazida bo'lib kelgan.

Karlarni o'qitish va tarbiyalash nazariya va tajribasining muammolari uzun tarixga ega bo'lib, turli yondashuvlar bilan tavsiflanadi.

Qadimgi Yunoniston va Rimda eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni o'qitish tizimi mavjud emas edi. Antik davlatlarda karsoqovlar jamiyatning to'laqonli a'zolari sifatida tan olinmagan hamda ular «o'qitib bo'lmaydiganlar» deb hisoblanganlar.

Eramizdan avvalgi VI asrdagi Yustinian Kodeksida «to'laqonli bo'lmaganlar» ustidan vasiylik o'rnatilishi lozimligi, tug'ma karlar mustaqil faoliyat yurita olmaydiganlar sifatida qayd etilgan. Ya'ni bunday shaxslar «gapira olmaydigan, fikrlarini esa yozma va og'zaki bildiray olmaydiganlar» bo'lganlari uchun o'z mulklarini boshqara olmaydiganlar, deb hisoblanganlar. Antik davr «tibbiyot» fanida karlik g'ayrioddiy tabiatga ega hamda uni tuzatib bo'lmaydi, degan fikr hukm surgan.

Tarixiy manbalardan karlarga alohida munosabat eramizdan avvalgi IX–VIII asrlardan yuzaga kelganini kuzatamiz.

Qadimgi yunon faylasufi Arastu (er.av. 384-322 y.y.) o'zining «His etuvchilarning hissiyotlari» va «Hissiy idrok va uning ob'ektlari» kabi asarlarida sezgi organlarining o'zaro tobelik sabablari haqida fikr yuritib, karlik va soqovlikni bolaning aqliy layoqatlariga salbiy ta'sirini ochib berdi. Faylasufning inson sezgi a'zolaridan birining mavjud bo'lmasligi yoki uning buzilishi yaxlitlik va butunlikni izdan chiqarishini «kashf etishi» o'zi bilmagan holda ilk surdopedagogik ta'limotning yuzaga kelishiga asos bo'ldi. Olim sezgi a'zolaridan biri faoliyatining izdan chiqishi insonning umumiy rivojlanishiga yo'l qo'ymasligini alohida ta'kidlaydi hamda eshitish analizatoriga quyidagicha baho beradi: «Tovush fikrlash vositasi bo'lib, eshitish atrof olamni anglashning muhim organidir. Shu bilan bog'liq ravishda aytish mumkinki, tug'lgandan boshlab eshitmagan inson, tabiiyki, soqov bo'ladi». Arastu, shuningdek, karlik va soqovlikning bola aqliy faoliyatiga salbiy ta'sir etishi mohiyatini ochib berar ekan, soqovlikni, tug'ma karlikning oqibati ekanligini qayd etadi.

Nasroniylikning yuzaga kelishi bilan rivojlanishida muammolarga ega insonlarga nisbatan rahm-shafqatli munosabat

shakllana boshlasa-da, bir vaqtning o'zida bunday shaxslar, ularning nogironligiga nisbatan turli salbiy diniy e'tiqodlar ham yuzaga kela boshladi. Masalan, ushbu qarashlarga ko'ra, karlikka ega bo'lgan bolalar ota-onalarining qilgan gunohlari evaziga xudo tomonidan yuborilgan «Xudoning jazosi» sifatida qaralgan.

O'rta asrlar boshida Yevropada, rivojlanishida turli muammolarga ega shaxslarning huquqlarini chegaralash an'analari tarkib topa boshladi. O'rta asrlar dindor faylasuflari tomonidan tug'ma kamchiliklarga ega insonlarning to'laqonli insonlar emasligi nazariyasi isbotlana boshlagan bo'lsa, bu davr huquqshunosligi esa nogironlarga o'z xatti-harakatlariga javob bera olmaydiganlar sifatida qaralib, qonun bunday shaxslarni o'zini boshqara oladigan shaxslar sifatida tan olmagan.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan shaxslarni o'qitish bo'yicha dastlabki urinishlar XV asrga to'g'ri keladi. G'arbiy Yevropada yuzaga kelgan karlarni o'qitish, tarbiyalash nazariyasi va amaliyoti o'sha davrdagi ko'pchilik olimlarni o'ziga jalb qilgan. Bunga Uyg'onish davrida karlarning bilish imkoniyatlariga nisbatan ilg'or (progressiv) qarashlarining yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. Niderlandiyalik olim Rudolf Agrikola (1443-1485) o'zining «Dialektika kashfiyoti haqida» nomli kitobida maxsus metod va usullar yordamida karlarni yozma nutqqa o'rgatish haqida fikr yuritadi va bu borada aniq misollar keltiradi.

Karlarni o'qitish va tarbiyalash nazariyasi hamda amaliyotida muhim o'rin egallagan yana bir yorqin serqirra faoliyat tajribasining egasi italiyalik professori Jerolamo Kardano edi. Olim «Nafisliklar haqida», «Sezgilar fiziologiyasi haqida», «Mening hayotim haqida» kabi asarlarida karsoqovlikning fiziologik sabablarini tushuntirib berdi va karlik, kasallik oqibatida yuzaga kelishi, soqovlik esa karlik oqibati ekanligi mohiyatini ochib berdi.



Jerolamo Kardano

Jerolamo Kardano farzandlarining karsoqov bo'lib dunyoga kelishi va otaning ularni hayotga «qaytarishi»ga urinishlari natijasida karlikning dastlabki tasnifi yuzaga keldi.

Ushbu tasnifga ko'ra karlar quyidagi toifalarga bo'linadi:

- ✓ tug'ma karlar;
- ✓ erda eshitishni yo'qotganlar (bola gapirishni o'rgangunga qadar) va kech eshitishni yo'qotganlar;
- ✓ nutqi saqlangan holda kech eshitishni yo'qotganlar.

Olim, shuningdek, tarixda birinchi bo'lib karlik va soqovlikning fiziologik asoslarini ko'rsatib, sog'lom sezgi a'zolariga tayangan holda karlarni o'qitish imkoniyatlarini isbotlab berdi. U ilk bor eshitish qobiliyatining darajasi va nutqning rivojlanish darajalarini hisobga olgan holda o'qitishga tabaqlashgan holda munosabat g'oyasini ilgari suradi.

J.Kardanoning nazariy qarashlari Ispaniyada o'zining amaliy isbotini topdi. Pedro Ponso De Leon(1520-1584) karlarni o'qitishning original metodini yaratadi va kibor oilalarning farzandlarini yakka tartibda o'qitish tajribasini muvaffaqiyatli tatbiq etadi. P. Ponso o'z metodikasida nutqning turli: og'zaki, yozma, daktil va imo-ishora kabi ko'rinishlarini qo'llaydi.

X.P.Bonet (1579-1633) o'zining 1620 yilda yozilgan «Tovushlar tabiati va kar-soqovni gapirishga o'rgatish san'ati» asarida karlarni o'qitish va tarbiyalashning o'sha davrdagi maqsad va vazifalarini ko'rib chiqar ekan, ularni so'zlashuv nutqiga daktil va uning og'zaki shakli orqali o'rgatish lozimligi haqida so'z yuritadi. U maxsus o'qituvchi tomonidan savol-javob shaklidan foydalangan holda olib boriluvchi nutqni rivojlantirishga qaratilgan ishlar bolalarning aqliy rivojlanishlari ta'siriga alohida e'tiborli omil sifatida qaraydi.

E.R.Karrion (1579-1652) o'z zamondoshlarining boy tajribasidan unumli foydalangan holda ularning g'oyalarini rivojlantirar ekan, karlar ta'lim-tarbiyasida taktik-vibratsiya sezgilariga hamda eshitish qoldig'iga tayanadi.

X.P.Bonnet g'oyalarining keyinchalik taraqqiy etishiga angliyalik Djon Vallis (1616-1703) va Dj.Bulver, shveysariyalik Dj.K.Amman (1669-1724), niderlandiyalik F.M.Van Xelmont (1614-1699), italiyalik F.L.Tersiy (1631-1687) kabi amaliyotchi olimlar karlarni o'qitishga alohida urinishlar sifatida o'z hissalarini qo'shdilar.

Karlarni yakka tartibda o'qitishga urinishlar eshitish nuqsoniga ega farzandlari bo'lgan zodagonlar ijtimoiy buyurtmasining ob'ektiv sababi edi. Shu bois yakka tartibda o'qitishlar ijobiy tajribaga ega

bo'lsa-da, ushbu toifa bolalari uchun o'quv muassasalarini tashkil etishga uzoq vaqt muvaffaq bo'linmadi.

Faqat XVIII asrning 70-yillaridagina kar bolalarni o'qitish va tarbiyalash uchun maxsus muassasalar tashkil etish va rivojlantirish bo'yicha urinishlar yuzaga kela boshladi. 1770 yilda Fransiyada dunyo tarixida birinchi bo'lib Sharl Mishel de Epe (1712-1789) tomonidan Parijda xususiy maktab – kar-soqovlar instituti ochildi. De Epe Volter, Deni Didro, Jan Jak Russo kabi fransuz ma'rifatparvarlarining g'oyalari bilan yo'g'riltirilgan mimika metodini yaratdi.



Sharl  
Mishel de Epen



De Epe  
Volter



Deni Didro



Jan Jak  
Russo

Sharl Mishel de Epening g'oyalari uning shogirdi R.A.Sikar tomonidan rivojlantirildi. Amaliyotchi olim o'qitish tizimida asosiy e'tiborni kar bolalarni har tomonlama aqlan va jismonan rivojlantirishga qaratadi. Bu tizim kar bolani umumta'lim fanlariga oid bilimlarni o'zlashtirish, jamiyatda yashash va mehnat qilishga tayyorlaydi. Ammo ushbu vazifalarni hal etish uchun o'qitish davomida faqat nutqning imo-ishora shaklidan foydalaniladi hamda kar o'quvchilar uning asosida yozishni o'rganadilar. R.A.Sikar imo-ishoralarni «metodik belgilar» bilan boyitadi. Ya'ni ushbu metod asosida o'qitish jarayonida o'quvchilarga tildagi grammatik kategoriyalarni tasvirlash uchun ma'lum bir belgilar o'rgatib boriladi. Ma'lumki, tilda grammatik kategoriyalar juda ko'pchilikni tashkil etadi. O'quvchilar hajmi kundan-kunga ortib borayotgan belgilarni o'zlashtira olmasliklari natijasida fanlarga oid bilimlarni ham o'zlashtirishga ulgurmay qoladilar hamda imo-ishora metodi asosida o'qitish tizimi takomillashtirilganiga qaramay, undan amaliyotda foydalanish ta'limning oldiga qo'yilgan vazifalarni to'latigicha hal etish imkonini bermasligini ko'rsatadi.



1778 yil 14 aprelida Germaniyaning Leypsig shahrida Samuil Geynike (1727-1790) tomonidan kar-soqovlar instituti tashkil etiladi. Samuil Geynike surdopedagogika tarixida muhim o'rin egallagan karlarni o'qitishning keyinchalik «sof og'zaki metod» deb nomlangan o'z o'qitish tizimini yaratadi. Bu metod og'zaki nuqtani karlarni o'qitishning asosiy vositasi va maqsadi sifatida tan oladi. Shuningdek, bu tizimda bolalar o'qish, yozish va arifmetikani ham o'rganadilar. Karlarga ta'lim berishning ushbu metodi asosida tovushlar, bo'g'inlar, so'zlar va jummalarni talaffuz etishning mexanik mashqlar texnikasi yotadi. Ya'ni ta'limning dastlabki davrida kar bolalar, talaffuzi malakalari ustida jadal ravishdagi ishlar olib boriladi. Umumta'lim fanlariga oid bilimlarni egallash talaffuz malakalarini o'rganishga tobe bo'ladi. Masalan, agar bolalar kunda ko'radigan, iste'mol qiladigan va foydalanadigan non, sut, choy, ruchka, daftar, kitob so'zlarini talaffuz qilishni o'rganmas ekanlar, o'qitish jarayoniga bu so'zlar «olib kirilmaydi». Bunday o'qitish asosida karlar tomonidan tovush, bo'g'in, so'z va jumlar va hattoki, yirik matnlarni sof, ravon talaffuz qilishga o'rganilishiga muvaffaq bo'linsa-da, o'quv fanlariga oid bilimlarni tabiiy holatda o'rganishlariga erishilmaydi. Maktabni bitirgan o'quvchilar atrofdagilarda «chiroyli so'zlovchilar» sifatida taassurot qoldirsalar-da, ular bilan to'siqlarsiz muloqot qilish imkoniyati yo'qligi namoyon bo'ladi. Buning asosiy sababi o'qitishning hayot bilan aloqadorligi tamoyilining bu o'qitish tizimida o'z aksini topmasligidadir.



Surdopedagogikaning umumiy va xususan, ushbu kundagi rivojlanishida muhim o'rin egallagan boy tajribalardan yana biri XIX asrda Fransiyada yashab, faoliyat ko'rsatgan Aleksandr Blanshe nomi bilan bog'liqdir. Amaliyotchi olim kar bolalarni eshituvchi bolalar bilan birgalikda o'qitish eng samarali yo'l ekanligini o'z faoliyati davomida isbotlashga harakat qildi hamda birgalikda o'qitishni tashkil etdi. Bu tizimda tashkil etilgan maktabda kar bolalar oddiy maktabda alohida sinfda o'qitilsa, zaif eshituvchilar sog'lom bolalar bilan birgalikda o'qitilishlari yo'lga qo'yiladi. A.Blanshe o'zining «Ustozga qo'llanma» (1858) asarida uch asosiy qoidani taklif

etadi va ularga erishish yo'llarini batafsil yoritib berishga urinadi. Olim tomonidan taklif etilgan asosiy qoidalar quyidagilar edi:

- ✓ karlarni bu yo'l bilan o'qitishda umumiy metodikaga rioya qilinishi;
- ✓ o'qitishda karlarning toifalari: kar-soqovlar va gapiruvchi karlarga alohida yondashish;
- ✓ og'zaki nutqni, mimika va daktil shakli orqali rivojlantirish yo'llariga rioya qilish lozim.

Shuningdek, Fransiyada Jan Jak Valad-Gabel (1801-1879) tomonidan eshitishi me'yorda bo'lgan go'daklar nutqining rivojlanish yo'llariga asoslangan «Intuitiv (onalik) metod» yaratiladi. Olim ushbu metod asosida kar bolalar ta'limini tashkil etar ekan, o'qitishda imo-ishoradan foydalanishni inkor etgan holda og'zaki (jarangdor) nutqqa qo'shimcha sifatida birinchi o'rinda yozuv taxtachalarida aks ettirilgan yozma nutq shakli (yaxlit (global) o'qish)dan foydalanish yuqori samara berishini isbotlashga urinadi. Shuningdek, ta'lim jarayonida daktil nutqiga katta e'tibor qaratiladi. J.J. Valad-Gabel og'zaki nutq, kar-soqovlar uchun o'zlashtirib bo'lmaydigan nutq turi bo'lganligi bois so'zlashuv nutqiga ular alfavit harflarini alohida emas, balki yaxlit o'qish asosida deb o'rgatishlari eng samarali yo'l ekanligini isbotlashga urindi.

1779 yilda Venakar – soqovlar instituti ochiladi hamda unda L.May (1754-1874) va F.Shtorklar (1746-1820) tomonidan mimika o'qitish metodi takomillashtirilgan holda, qayta tuziladi: ta'lim jarayonida daktil alfaviti keng qo'llanilib, imo-ishora nutqidan esa yordamchi vosita sifatida foydalana boshlanadi. Ikki amaliyotchi-olim ishlari M.Menus (1774-1850) tomonidan davom ettiriladi hamda u bu metodni to'ldirgan holda o'qitish jarayoniga karlarni og'zaki nutqqa o'rgatishni kiritadi.

Bu davrga kelib, keng qo'llanilayotgan sof og'zaki metod asta-sekin o'z ko'rinishini o'zgartirib boradi. Masalan, F.M.Gil (1805-1874) tomonidan kar-soqovlarni og'zaki nutq, lab yordamida o'qish, yozuv va o'qitishga o'rgatish bo'yicha qator qo'llanmalar yaratiladi. Olim tomonidan yaratilgan o'qitish tizimining yangiligi karlarni o'qitish jarayonida umumta'lim fanlari doirasini kengaytirish bilan tavsiflanadi. F.M.Gil o'qitishda bola idrokining tabiiyligi hamda o'ziga xosligi tamoyillariga tayangani sababli keyinchalik u

tomonidan yaratilgan o'qitish tizimi, «Kar bolalarni o'qitishning tabiiy metodi» deb yuritila boshlandi.

Iogann Fatter (1842-1916) esa, aksincha, o'qitishda og'zaki nutqni o'zlashtirishga o'rgatishni asosiy maqsad qilib oladi. U karlarni og'zaki nutqqa o'rgatishni, nutq tovushlariga o'rgatishga asoslantiradi. Keyinchalik I.Fatter sistemasi, «Tovush metodi» degan ikkinchi nomni oladi.

AQShda karlarning dastlabki instituti (maktabi) 1817 yili Tomas Gallode (1787-1851) tomonidan ochiladi. Ushbu o'quv dargohda ta'lim fransuz metodi asosida yozuv, imo-ishora va daktilologiyani qo'llagan holda olib boriladi. Keyinchalik shaxsiy hamda G'arbiy Yevropa mamlakatlarida xizmat safarida qator maktablar tajribalarini o'rganish, tahlil qilish imkoniga ega bo'lgan Xoras Man (1796-1859) va Edvard Gallodelar (1837-1907) turli metodlarning chatishmasi asosida «Kombinatsiyalashtirilgan (birlashtirilgan) metod»ni yaratadilar. Bu tizim o'z tarkibiga turli metodlar, jumladan, og'zaki nutqqa o'qitishni ham qamrab oladi.



Kar bolalarni og'zaki nutqqa o'rgatish muammolari yechimini hal qilish yo'llari bilan Aleksandr Melvil Bell (1815-1905) ham shug'ullangan bo'lib, u tomonidan «Ko'rinarli nutq» tizimi taklif etiladi. Unda har bir tovush artikulyatsiyasi, o'z aksini topgan belgisiga ega bo'ladi. O'z otasi A.M.Bell ishlarining davomchisi bo'lgan Aleksandr Grexem Bell (1847-1922) Fiziologo-fonetik institut va Karlarni og'zaki nutqqa o'rgatishga ko'maklashish jamiyatiga asos solgan bo'lib, telefon ixtiro etgan, shuningdek, u karlarni kichik yoshdan o'qitish masalalariga ham katta e'tibor qaratgan.

1879 yilda Fransiya poytaxti Parij va 1880 yilda Italiyaning Milan shaharlarida karlarni o'qitish masalalariga bag'ishlangan dastlabki anjumanlar bo'lib o'tadi. Milan anjumani qarorida «Sof og'zaki metod» tizimi karlarga eshituvchilar bilan muloqot qilish imkoni berilishining ko'rsatilishi tufayli bu tizim universal (qulay, eng samarali) deb tan olinadi.

Bu davrning oxiridagi yutuqlar shundan iborat bo'ldiki, har bir mamlakatda karlarni o'qitish masalasiga ijobiy munosabatning shakllanishi yuzaga kelib, «bepul, majburiy umumiy boshlang'ich ta'lim» haqidagi qonunlar qabul qilindi. Ya'ni ushbu davr kar-soqovlar

uchun davlat muassasalarining tashkil etilishiga asos solinishi, qonunlarning qabul qilinishi, ta'limni moddiy ta'minoti manbalarining aniqlanishi, o'qitishning maqsadi va metodlari ishlab chiqilishi bilan tavsiflanadi. Maxsus ta'lim Yevropa va Amerika qit'alarining tobora katta hududlarini qamrab ola boshlagan bo'lsa, nodavlat tashkilotlarining shakllanishi esa karlarni o'qitish va tarbiyalash tizimining, kelajakdagi rivojiga turtki beradi.

XIX asr oxiri va XX asrning boshlarida Yevropa va Amerika surdopedagoglari «Sof og'zaki metod» tizimida mavjud yuzakilikni bartaraf etish hamda uni takomillashtirishga harakat qiladilar. Chunki bu tizim karlarni og'zaki nutqqa o'rgatishni asosiy maqsad qilib olgan bo'lib, bolalarning umumta'lim fanlarini o'zlashtira olishlari imkonini bermas edi.

Karlarni o'qituvchi nemis o'qituvchisi I.Geydzik (1851-1942) «sof og'zaki metod»ni, eshitishida nuqsoni bo'lgan kar bolaning tabiatiga to'g'ri kelmaydigan metod sifatida tanqid qiladi. Dastlab u «imo-ishora metodi»ga qaytish taklifini bergan bo'lsa, keyinchalik kar bolalarni nutqqa o'rgatishni daktilologiyadan foydalanish asosida olib borishni taklif etadi.

Konstantin Malish (1860-1925) karlarni og'zaki nutqqa o'rgatish dastlabki davri uchun global sintetik metodini yaratadi. Bunda nutqqa o'rgatish yaxlit so'zlar va jumalarni talaffuz etishni gugulash negizida yo'lga qo'yish orqali amalga oshiriladi.

Boshqa nemis olimi K.Gepfert (1851-1906) kar bolalarni yozma nutqqa o'rgatishni yozuv mexanizmi asosida amalga oshiradi. Uning izdoshlari esa o'qitishning dastlabki davrida yozma nutqni qo'llash g'oyasini rivojlantirdilar.

Daniyalik olim Georg Forxgammer (1861-1948) o'z tajribasi davomida yozma va og'zaki so'zlashuv metodlarini birlashtiradi hamda yozma mashqlar asosida og'zaki nutqni idrok etish va talaffuz qilishga tayanuvchi «imitatsiya (taqlid qilish) metodi»ni yaratadi.



Rudolf Linder (1880-1964), uzoq yillik tajribalariga tayangan holda kar bolalarni tilga o'qitishda «yozma obrazlar metodi»ga asoslanishni taklif etadi. U 1911 yilda «So'z va rasm» alifbosini yaratadi. Unga ko'ra kar bolalar, ko'rgazmali



qurollardan foydalangan holda o'qishga o'rgatish jarayonida yozma nutqni egallab boradilar.

Aleksandr Erlen keyinchalik «Belgiya metodi» deb nomlangan kar bolalarni tilga o'qitish tizimini yaratadi. Ushbu tizim asosida tilga o'qitishda o'quvchilar og'zaki nutqni yozma so'zlarni yaxlit o'qish va labdan o'qish orqali idrok etishga o'rgatilar edilar.

«Yozma metod»ning yana bir ko'rinishiga misol tariqasida E.Kernning «yaxlit metodi»ni keltirish mumkin. Ushbu metod bo'yicha ta'lim berish karlarni og'zaki nutqqa o'qitish jarayonida imo-ishora va daktil nutqini chiqarib tashlab, o'rniga yozuvdan foydalanish asosida olib borilar edi.

Otorinoloringologiya sohasining rivojlanishi bilan eshitishida nuqsoni bo'lgan shaxslar ta'limi nazariyasi hamda amaliyotida ham ijobiy o'zgarishlar yuzaga kela boshladi. «Eshitish mashqlari metodi»ning muallifi V.Urbanchich eshitish qobiliyatini tadqiq etishda o'zi tomonidan yaratilgan maxsus moslama (Urbanchich garmonika) dan foydalanish samara berishini namoyish etadi.



Nemis olimi F.Besold (1842-1908) ham kar bolalar ta'limida eshitish qoldig'iga, ya'ni «kamertonlar tizimi»ga tayanish lozimligini ko'rsatib o'tadi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tadqiqot ob'ekti sifatida o'rgangan rus pedagog va olimlaridan V.I.Fleri, J.Itar, Ya.T.Speshnevar bunday o'quvchilar orasida u yoki bu holda murojaat etilgan nutqni tushuna oladigan, qisman lug'at boyligiga ega bo'lgan, ba'zan, hatto, sodda jumlar tuza oladigan bolalar borligini, agar nutq ularga qarata baland ovozda aytilsa, bunday bolalar ta'lim-tarbiyasining barcha muammolari hal etilishi mumkinligini ta'kidlab, eshitishi qisman buzilgan bolalarga, ular nutqining o'ziga xos rivojlanishiga alohida e'tibor qaratganliklariga guvoh bo'lamiz. V.I. Fleri bola shaxsining shakllanishi uchun atrofidagi yaqinlari va ayniqsa, onasi alohida g'amxo'rlik, e'tibor ko'rsatishlari zarurligi hamda kar bola nutqining rivojlanishi uchun ilk yosh davri alohida o'rin tutishini ta'kidlagan holda: «Kar-soqov bola qancha kichik bo'lsa, uning o'zlashtirish layoqati shuncha yuqori bo'ladi», – deb yozadi. Olim, shuningdek, dastlabki so'zlarni bola ko'rish asosida taqlidan o'zlashtirishi lozimligini alohida qayd etadi.



1900 yilda F.A.Rau va N.A.Raular tomonidan Rossiya va Yevropada ilk kar bolalar bog'chasi tashkil etilib, unda kar bolalar og'zaki nutqini shakllantirishga qaratilgan ishlar yo'lga qo'yildi. 1920 yilda karlarni o'qitish va tarbiyalash tizimining davlat tasarrufiga o'tishi munosabati bilan eshitishida muammosi bo'lgan shaxslar ta'lim tizimini tubdan isloh qilish masalalariga muhim ahamiyatga molik ish sifatida yondashila boshlandi.

Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar nutqiy rivojlanish masalalari bir necha asrlar mobaynida ko'plab o'qituvchi va metodistlarning e'tiborini jalb qilganiga qaramay, bu muammoning yechimiga, ya'ni maxsus maktablardagi ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish bo'yicha yondashuvlarning yangi yo'nalish olishiga L.S.Vigotskiyning maxsus ta'lim tizimi masalalarini yoritib bergan qator asarlari turtki berdi.



L.S.Vigotskiy 1924 yilda bo'lib o'tgan Voyaga yetmaganlarni ijtimoiy-huquqiy muhofazalash bo'yicha bo'lib o'tgan ikkinchi s'ezdida qilgan ma'ruzasida anomal bolalar rivojlanishining o'ziga xosligini aniqlab berdi hamda nuqsonning tuzilishini yangicha yondashuv asosida tahlil qilish va uni korreksiya hamda kompensatsiyalash zarurligi mohiyatini ochib berdi (karlik – birlamchi nuqson, soqovlik uning oqibatida yuzaga keluvchi nuqson). Olim tomonidan ta'lim-tarbiya samaradorligiga erishishda «Nuqsonning murakkab tuzilishi» hamda «Ta'lim-tarbiya va rivojlanish mutanosibli» psixologik ta'limotlariga tayangan holda ish ko'rish lozimligini aniq misollar bilan asoslab berildi.

Olim maxsus maktablardagi og'zaki nutqni rivojlantirishga mo'ljallangan usul bolaning sermazmun hayoti, uning qiziqishlari bilan bog'liq bo'lmagan sharoitda olib borilishiga e'tibor qaratib, nutqni ijtimoiy hayotda ishtirok etmagan holda egallash, qirg'oq bo'yida turib suzishni o'rganish holatiga qiyoslab, ijtimoiy muhit hamda uning tuzilishi har qanday tarbiya tizimining pirovard hamda hal qiluvchi omili ekanligini alohida qayd etadi: «Bola hayotini shunday tashkil etish lozimki, unga nutq zarur va qiziqarli bo'lsin. Ta'limni bola qiziqishlariga qarshi emas, aksincha ushbu qiziqishlar tomon yo'naltirish lozim. Umuminsoniy nutqqa nisbatan ehtiyojni

yuzaga keltirish zarur, shundagina nutq paydo bo'ladi. Nutq muloqotga kirishish va fikrlash asosida, murakkab hayotiy sharoitlarga moslashish natijasida yuzaga keladi».

L.S.Vigotskiy ushbu sharoitni yaratishda sog'lom (me'yordagi) bolaning nutqiy rivojlanish bosqichlariga tayangan holda ish ko'rish lozim ekanligi haqida quyidagi fikrlarni bildiradi: «Birinchi planga, eng avvalo, bolaning bola ekanligi va shundan so'nggina kar-soqov ekanligi holati qo'yiladi. Bu shuni anglatadiki, bola, eng avvalo, umumiy qiziqish, layoqat, shuningdek, me'yordagi bola yoshi qonuniyatlariga muvofiq holatda o'sishi, rivojlanishi va tarbiyalanishi hamda xuddi shu jarayonda nutqni egallab borishi lozim. Bolalar o'zlarining muayyan sifat va ko'nikmalarini rivojlantirishga ehtiyoj sezishlari lozim. Ular o'zlarini boshqa ko'pchilik bolalar va kishilardan farqli ekanliklarini his qilmasliklari, ularga tenglasha olmasliklariga ishonch hosil qilmasliklari lozim».

Yuqoridagilar asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni so'zlashuv nutqiga o'rgatish kabi masalalar ijtimoiy tarbiya zaminidagina o'zining to'g'ri yechimini topa oladi.

1938 yilda karlar ta'limi va tarbiyasi masalalariga bag'ishlangan butunrossiya anjumanida o'sha davrda o'qitishda «hukmronlik» qilib kelayotgan sof og'zaki metod asosida o'qitish tizimi qattiq tanqidga uchraydi. Ushbu anjumandan so'ng karlarni o'qitish va tarbiyalashni takomillashtirishga qaratilgan keng qamrovli tadqiqotlar boshlab yuboriladi.

XX asrning birinchi yarmida eshitishida nuqsoni bo'lgan shaxslarni tabaqalangan ravishda o'qitish va tarbiyalash tizimi tarkib topdi va rivojlana boshladi (L.S.Vigotskiy, A.I.Dyachkov, R.M.Boskis, F.F.Rau, L.V.Neyman, Ye.F.Rau, S.A.Zikov).



L.S.Vigotskiyning shogirdi R.M.Boskis eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'limi samaradorligiga erishishdagi dastlabki qadam ushbu toifadagi bolalarning rivojlanish xususiyatlarini tushunishdan boshlanishi lozim, deb hisoblab, I.P.Pavlovning «Analizatorlar faoliyatining birligi», L.S.Vigotskiyning «Nuqsonning murakkab tuzilishi» hamda «Ta'lim-tarbiya va rivojlanish mutanosibli» psixologik ta'limotlariga tayangan holda o'z tadqiqot

ishlarini olib boradi. Ya'ni u eshitish va nutqning o'zaro aloqadorlikda rivojlanishini keng o'rgangan holda bunday bolalar rivojlanishidagi o'ziga xosliklarni keltirib chiqaruvchi qator holatlarga asoslangan pedagogik tasnifni ishlab chiqdi. Bu tadqiqotning ijobiy natijasi sifatida eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni tabaqalashtirilgan holda o'qitish tizimi tarkib topdi.

1950 yilda Butun dunyo karlar Federatsiyasi tashkil etildi. Shu davrdan boshlab eshitishida nuqsoni bo'lgan shaxslar nazariyasi va amaliyotining rivojlanishiga oid muammolar yechimiga bag'ishlangan surdopedagog va karlarning xalqaro anjumanlari o'tkazila boshlandi.

XX asrning ikkinchi yarmi va hozirgi davr surdopedagogikasi maxsus ravishda o'qitish va tarbiyalash ta'limotini yanada rivojlantirish, ya'ni eshitishida muammosi bo'lgan shaxslar tasnifi hamda ularni tabaqalangan ravishda o'qitish tizimini rivojlantirish, surdopedagoglarni tayyorlash, oila bilan ishlash, maktablarda o'qitish tizimini yanada takomillashtirishni ilmiy ravishda asoslash bilan tavsiflanadi.

1960-yillarda L.V.Neyman tomonidan eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning tibbiy tasnifi yaratilgan bo'lsa, xuddi shu yillari F.F.Rau va N.F.Slezinalar tomonidan karlarni og'zaki nutqqa (talaffuzga) o'rgatishning konsentrik analitik-sintetik polisensor metodiga, B.D.Korsunskaya tomonidan kar va zaif eshituvchilarga ta'lim-tarbiya berishda uzviylik va uzluksizlikka ega bo'lish imkonini beruvchi maktabgacha ta'lim tizimiga asos solindi.



1970-yillar S.A.Zikov rahbarligi ostida karlarni boshlang'ich sinfda predmetli-amaliy faoliyatdan keng foydalangan hamda o'qitish asosida ularda hayotiy tushunchalarni shakllantirish, nutqni muloqot, mehnat ko'nikma va malakalarini shakllantirish vositasi sifatida shakllantirishga asoslangan o'qitishning yangi tizimi amaliyotga keng joriy qilinishi bilan tavsiflanadi.

Zamonaviy surdopedagogikaning nazariy asoschilari eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topishlarining muhim omili – nutqni rivojlantirish ishlarining samaradorligi, bevosita tarbiyalanuvchining oila a'zolari, xususan, otionalarning farzandlari bilan muntazam ravishda shug'ullanishlariga

bog'liqligini alohida qayd etadilar. Jumladan, S.A.Zikov til o'qitishdagi yuqori muvaffaqiyatlar faqat maxsus muassasalarda tashkil etilgan nutqiy muhit orqaligina emas, balki bevosita ota-onalar va atrofdagilarning ishtiroki orqali ham ta'minlanishi zarurligini uqtirsa, R.M.Boskis: «Nutqqa o'rgatish ishlarini o'qituvchi ota-onalar bilan hamkorlikda amalga oshirishi lozim» – deya ta'kidlaydi.



Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasining turli yo'nalishlariga oid muammolarini tadqiq qilish K.G.Korovin, A.G.Zikeev, V.A.Sinyak, B.D.Korsunskaya, A.P.Gozova, T.V.Rozanova, J.I.Shif, I.M.Solovev, E.I.Leongard, N.G.Morozova, M.K.Sheremet, N.D.Shmatko, L.A.Golovchis kabi qator rus olimlarining ham diqqat markazida bo'lib keldi. Ular tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ham, xuddi sog'lom tengqurlari kabi, ijtimoiy shaxs bo'lib yetishishlari uchun barcha imkoniyatlarga ega ekanliklari hamda ulardagi mavjud kuchli imkoniyatlarni ishga solish nutqni rivojlantirish asosida amalga oshirilishi lozimligi isbotlandi. Bolalarning nutqni egallab borishlari sari ularda ijtimoiy (hayotiy) malakalarning shakllanishiga oid imkoniyatlar kengayib boraveradi. Aniqrog'i, faoliyat asosida rivojlantiriluvchi nutq ijtimoiy me'yorlarni egallashning zaruriy shartidir. Ushbu jarayonning jadallashuviga xizmat qiluvchi omillardan biri bolalar nutqini ilk, maktabgacha yoshda bo'lgan davrda shakllantirish sanaladi.

B.D.Korsunskaya, M.K.Sheremetlar zaif eshituvchi bolalar nutqiy muammolarini bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar nechog'li erta boshlansa, ularning hayotga, ya'ni ijtimoiy moslashuviga shu qadar erta muvaffaq bo'lishini ta'kidlaydilar.

Aynan yangi davr surdopedagogikasida oila va maxsus ta'limning bola tarbiyasi borasidagi mushtarakligi zarurati anglandi: ota-onalar surdopedagoglar tomonidan belgilangan yo'l va ko'rsatmalarsiz farzandlarining tarbiyasida va xuddi shu tarzda, surdopedagoglar ota-onalar ishtirokisiz o'z faoliyatlarida muvaffaqiyatga erisha olmaydilar (A.I.Dyachkov, F.F.Rau, B.D.Korsunskaya va b.q.). Ilk yoshdagi eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'lim muassasalari asoschilari tomonidan yaratilgan maqola hamda metodik tavsiyalar kar va zaif eshituvchi bolalar ota-

onalariga o'z farzandlarining tarbiyasini qanday tashkil etishlari, nutqini rivojlantirish yo'llari kabi masalalarni yoritib berdi.

A.I.Dyachkov oila va ijtimoiy tarbiya maqsadlarining mushtarakligi, oilaning maxsus maktabgacha tarbiya muassasasi bilan hamkorligi eshitishida muammosi bo'lgan bolalar tarbiyasining majburiy sharti ekanligini ta'kidlasa, B.D.Korsunskaya kar bolani maktabgacha tarbiya muassasasiga tayyorlash va unga joylashtirilgandan so'ng ota-onalarga qo'yiladigan talablar, shuningdek ta'lim-tarbiya borasida maslahatlar beradi. Olim bola nutqining rivojlanishida faoliyatning turli ko'rinishlari hamda harakatni shakllantirishning tutgan o'rni beqiyosligini alohida ta'kidlab, ushbu boradagi faoliyat tizimini yoritib berishda asosiy e'tiborini nutq o'stirish (rivojlantirish) masalalari: lug'at zaxirasini kengaytirish, so'zlar mazmuni ustida olib boriladigan ishlar; bolani aqliy va axloqiy rivojlanishini ta'minlovchi omil – daktil nutqiga atrofdagilar bilan muloqot o'rnatish quroli sifatida o'rgatish, shuningdek, bolaning og'zaki nutqini shakllantirish ishlariga qaratadi.



M.K.Sheremet



A.D.Korsunskaya

O'tgan asrning 70-yillaridan butun dunyoda karlar ta'limi va yashash, ijtimoiy ahvoliga nisbatan yangi ijobiy yondashuvlar shakllana boshladi. 1975 yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan «Nogironlar huquqlari haqida»gi deklaratsiyaning qabul qilinishi bilan jamiyatni «to'laqonli ko'pchilik» va «noraso ozchilik» guruhlariga bo'lish yuridik jihatdan barham topdi.

Bu yillarda ta'lim sohasida sodir bo'lgan qator ijobiy o'zgarishlar rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar taqdiri masalalarini hal qilishda turli soha vakillari yangi yo'nalishlardagi faoliyatlarining birlashuvi zaruriyatini yuzaga keltirdi. Bolaning rivojlanishidagi me'yordan chetga chiqishlarni erta tashxis qilish,

muammo oqibatini bartaraf etish, qayta tiklash, rivojlanishida u yoki bu jihatdan muammosi bo'lgan ilk va erta yoshdagi bolalarga pedagogik yordam ko'rsatish, ularni umumta'lim muassasalariga uyg'unlashtirish modellarini ishlab chiqish masalalari kun tartibida turgan dolzarb muammolardan biri sifatida maydonga chiqdi.

O'zbekistonda eshitishida muammolari bo'lgan bolalarni ilk yoshidan umumta'limga tayyorlash muammosi bilan bog'liq faoliyat olib boruvchi olimlardan U.Fayzieva, D.Nazarovlarning ilmiy va amaliy faoliyatlarini alohida ko'rsatib o'tish mumkin. Ular tomonidan yaratilgan dasturlar, o'quv qo'llanmalar hozirgi kunda maktabgacha ta'lim muassasalari mutaxassislari, tarbiyachilari, ota-onalarning bu boradaga korreksiya ishlarini tashkillashtirishda, bolalarning ilk yoshidan ijtimoiylashuviga erishishda katta ahamiyat kasb etadi.

Eshitishida muammosi bo'lgan shaxslar ta'limi tizimlarini yanada takomillashtirish, jadallashtirish jarayoni hamon davom etmoqda.

### ***O'zbekistonda surdopedagogik nazariya va amaliyotning taraqqiy etishi***

Boy ma'naviy qadriyatlar va madaniyatga ega xalqimizda asrlar davomida bolaning tarbiyasida muhim o'rin tutgan omillar, xususan uning maktab hamda oiladagi ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratib kelingan. Bu boradagi fikrlar milliy surdopedagogikaning rivojlanishida muhim manbalar vazifasini o'tagan bo'lishi, shubhasiz.



Abu Nasr Forobiy ahloq, odob, rasm-rusum, kasb-hunar, odat hamda irodaning tarkib topishida ta'lim va tarbiyaning o'rni beqiyosligi, shu bilan birga, har bir bolada yoshligidanoq tushunish, fahmlash, muhokama qilish, o'ylab topish, fikrlash layoqati mavjud bo'lishini alohida ko'rsatib o'tgan bo'lsa, milliy pedagogikamiz asoschisi A.Avloniy yosh avlod, uning tarbiyasiga jamiyat, millatning kelajagi sifatida alohida e'tibor berilib, bu ishni ilk yoshdan boshlash zarurligini alohida ta'kidlaydi hamda ta'lim bilan tarbiya bir-biri bilan bog'liq birbutun jarayon ekanligi, muallimga ushbu omilga alohida ahamiyat berish lozimligini uqtiradi. Olim til shaxs tafakkurining rivojlanishi, uning

ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topishida muhim ahamiyat kasb etishini alohida e'tirof etgan.



A. Avloniy.

A.Avloniy tarbiya masalasiga doir: «Tarbiyani kimlar qilur? Qayda qilinur? degan savol keladur. Bu savolga: «Birinchi – uy tarbiyasi. Bu – ona vazifasidir. Ikkinchi – maktab va madrasa tarbiyasi. Bu – ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidir», – kabi fikrlarni bildirgan holda, ta'lim-tarbiyada bola yashab turgan sharoit, muhit, jamoatchilikning roli katta ekanligini ko'rsatadi. Bu borada oila, maktab hamkorligi zarurligini, oilada bolaning sog'lig'iga alohida ahamiyat qaratilishi lozimligi, kasallangan farzandni darhol shifokorlarga ko'rsatish, kasallikning oldini olish, vaqtida davolash muhimligini ota-onalarga uqtiradi.

Nogironlikka bo'lgan zamonaviy yondashuvlar Respublikamiz maxsus ta'lim tizimi xodimlari tomonidan alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan bolalar ta'lim olish muammolarini ilmiy-metodik jihatdan asoslab berish masalalariga jiddiy e'tibor qaratish zarurligini taqozo etmoqda.

O'zbekistonda surdopedagogikaning rivojlanishi Toshkentda 1919 yildan faoliyat yurita boshlagan O'rta Osiyoda dastlabki barcha nuqsonli bolalar birgalikda ta'lim olishlari uchun mo'ljallangan maktabdan 1922 yilda ilk kar bolalar maxsus maktab-internatining ajralib chiqishi bilan bog'liq. Maxsus tizim amaliyoti stixiyali ravishda tizimdagi ishning rus maxsus kar bolalar maktablari o'quv dasturlari hamda umumta'lim maktablari darsliklari asosida olib borilishi orqali rivojlana bordi.

Eshitishida muammolari bo'lgan bolalarni tabaqalashtirilgan holda o'qitish (kar va zaif eshituvchilar) respublikamizda 1939 yildan boshlandi. Ushbu yildan boshlab Toshkent shahrida Respublika kar-soqovlar maktab internati va Respublika zaif eshituvchi bolalar maktab-internati tashkil etildi. 1965 yillargacha bu maktab-internatlarda ta'lim rus tilida olib borildi. Shu davrdan boshlab Toshkentda 102-sonli zaif eshituvchi va kech kar bo'lgan bolalar maxsus maktab-internatida ta'lim rus va o'zbek tilida olib borila boshlandi.

Shuni aytish joizki, o'sha vaqtlarda maktablarda o'qitish jarayoni original dastur va darsliklar asosida olib borilmay, Rossiya

maxsus maktablari yoki O'zbekistondagi umumta'lim maktablari, ba'zan aqli zaif bolalar maktablari dastur va darsliklarini biroz o'zgartirib ishlash asosida tashkil etilar edi. Tabiiyki, bir tomondan til tizimining to'g'ri kelmasligi, ikkinchi tomondan me'yorda rivojlanayotgan bolalar xususiyatlariga tayangan holda tuzilgan darsliklar asosida ishning tashkil qilinishi, eshitishida muammolari bo'lgan bolalar maktablari oldiga qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish imkonini bermas edi.

Faqat ilg'or amaliyotchi pedagoglar o'z faoliyatlari bilan nomutaxassis pedagoglar bilan ta'minlangan maxsus kar va zaif eshituvchi bolalar maktablarining ishini asta-sekin olg'a siljita bordilar. 1968 yilda nashr etilgan «Alifbe» darsligi kar bolalarni o'qitish amaliyotining sifat jihatidan biroz bo'lsa-da yuqorilashini ta'minladi (M. Do'stmuhammedov).

O'zbekistonning taniqli surdopedagog olimi U.Fayzieva va uning rahnamoligida shu sohaning rivojlanishiga katta hisasini qo'shib kelgan. Mustaqillikning dastlabki davridagi yosh olimlardan N.Dadaxo'jaeva, D.Nazarova, F.Qodirova, F.Alimxo'jaeva, R.Rustamova, va mutaxassis o'qituvchilardan M.Do'stmuxamedov, H.Roziqov, M.Xolmuxamedova, S.Obidov,, M.Badalboeva, N.Isxoqova, X.Samadova, G.Irgasheva, M.Shomurodova, A.Shoyunusova, Qayumova, J.Husanovalar hamjihatligidagi faoliyatning samarasi e'tiborga molikdir.



F.Yu.Fayziyeva



F.U.Qodirova



D.A.Nazarova

Sobiq tuzumda maxsus pedagogika yo'nalishida ilmiy tadqiqotlar faqat rus tilida olib borilishi an'ana bo'lgan bir paytda L.Muminova, R.Abdulahatovalar ilmiy rahbarligida U.Fayzieva tomonidan eshitishida muammosi bo'lgan bolalarga ona tili o'qitish maxsus metodikasini yaratish bo'yicha keng ko'lamda ish olib

borildi: Eshitishida muammosi bo'lgan («Kar, zaif eshituvchi bolalarga ona tili o'qitish metodikasi»; Kar, zaif eshituvchi bolalarni talaffuzga o'rgatish maxsus metodikasi») bolalarga ona tili fanlari turkumidagi fanlarni o'qitish bo'yicha o'quv dasturi va ma'ruza matni yaratildi. 1983 yili eshitishida muammolari bo'lgan bolalar uchun o'zbek tilida darsliklar yaratish uchun filolog, fonetika bo'yicha mutaxassis olimlar, amaliyotchi o'qituvchilardan iborat mualliflar guruhi shakllantirildi va 1988 yilda ilk darsliklar yaratilib Maorif ministrligi qoshidagi o'quv metodik kengashining defektologiya yo'nalishidagi sho'basi kengashi tomonidan nashrga tavsiya etildi. Lekin kar bolalarni o'zbek tilida o'qitilishiga qarshi chiqqan amaldorlar va ularga ergashgan ba'zi shaxslarning qat'iy qarshiliklari sababli darsliklar chop etilmadi.

Faqat mustaqillik sharofati bilangina O'zbekistonda ilk bor o'zbek tilida maxsus ta'lim yo'nalishida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilishi keng yo'lga qo'yildi. Shulardan «Zaif eshituvchi bolalarni savodga tayyorlash va savod o'rgatish» muammosiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot olib borildi va muvaffaqiyatli ravishda himoya qilindi. Bu O'zbekistonda maxsus pedagogikadagi dastlabki milliy mazmun va ruhdagi keskin burilish hisoblanadi. Respublikamizning mustaqillikka erishish borasidagi urinishlari, xalqimizning o'z davlat tili, u asosida ilm-fanning rivojlanishiga urinishlar uzoq davom etgan. Bunga misol tariqasida eshitishida muammolari bo'lgan bolalar ta'limini yo'lga qo'yishdagi urinishlarni keltirish mumkin.

«Surdopedagogika» fani eshitishida muammosi bo'lgan (kar, zaif eshituvchi) bolalar ta'limi va tarbiyasi haqidagi fan bo'lib, mazkur fan eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'limining pedagogik asoslari, nazariyasi, metodikasi va usullari bilan bir qatorda, bu bolalarni so'zlashuv nutqini shakllantirish, nutqiy tafakkurini shakllantirish, rivojlantirish va nutq asosida ta'lim berishni ko'zda tutadi. Ya'ni maxsus pedagogikaning bu yo'nalishi tilshunoslik bilan chambarchas bog'liq fandır. Chunki tili yo'q, eshitmaslik tufayli soqov bo'lib qolgan bolaning nutqini shakllantirish har bir millatning ona tili, har bir yurtning Davlat tili asosida amalga oshiriladi.

Shundan kelib chiqqan holda O'zbekistonda eshitmaydigan bolalarga tilni maxsus o'rgatish metodikasi ishlab chiqilmagan va uni ishlab chiqish uchun yetarli ilmiy salohiyatga ega mutaxassislar

yo'qligi asos qilinib, 1984 yillargacha Nizomiy nomidagi TDPI, defektologiya fakultetida o'zbek tilida guruhlar ochilishiga ruxsat berilmagan. 1982 yil O'zbekiston sobiq Ittifoq maorif ministri S.Shermuxamedov tashabbusi bilan respublikadagi nogiron bolalarni aniqlash va ta'lim bilan qamrab olish bo'yicha maxsus masala ko'rildi. Bu vazifa Respublika maxsus maktab, maktab-internatlar bo'yicha o'quv-metodika kabinetlariga yuklatildi. Bu murakkab va juda mas'uliyatli vazifani amalga oshirishda I.H.Latipov va U.Yu.Fayzievalar rahnamolik qildilar. Ularning tashabbusi bilan respublika miqyosida 130 mingdan ortiq maktab yoshidagi nogiron mavjud bo'lib ulardan 12000 nafarigina maxsus ta'lim bilan qamrab olingani aniqlandi. Bu respublikada nogiron bolalarni ta'lim bilan qamrab olishga qarata qilingan ilk va juda katta urinish edi. Bu urinishlar esa Butun ittifoq maorif ministrligi kollegiyasida katta shov-shuv hamda O'zbekiston maorif ministriga nisbatan e'tirozlarga sabab bo'lgan.

Lekin shunga qaramasdan O'zbekiston Respublikasi Maorif ministrligining 1983 yil A-16 sonli kollegiya qarori va ministr buyrug'i bilan Nizomiy nomidagi davlat pedagogika instituti defektologiya fakultetida surdopedagogika yo'nalishiga doimiy ravishda o'zbek guruhlarini ochilishi haqidagi band alohida qayd etildi. Lekin bunday guruh bir marta 1983 yil ochilib, keyingi yillar to 1989-yilgacha ochilmadi. Noma'lum sabablarga ko'ra maorif ministrligining A-16 buyrug'idagi «doimiy ravishda» iborasi olib tashlangan va shu sababli keyingi yillarda bunday guruhlar ochilmagan.

1989 yilda Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universitetiga U.Yu.Fayzieva kelgach, arxivdan A-16 buyrug'i qayta ko'tarildi va buyruqqa binoan yana o'zbek guruhlarini ochilib 1998 yillargacha o'zbek tilida surdopedagoglar tayyorlanishi davom ettirildi. Bu davrda kar, zaif eshituvchi bolalarga ona tilini o'rgatish va o'qitish metodikasi, talaffuzini to'g'rilash va talaffuzga o'rgatish metodikasi fanlari ishlab chiqildi.

Eshitishida muammolari bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasi metodikasiga bag'ishlangan ikkita ilmiy tadqiqot mavzusi tasdiqlandi va qisqa muddat ichida himoya qilindi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda bolalar va yoshlarni ijtimoiy qo'llash va alohida ehtiyojli bolalarga ta'lim berish xizmatini amalga

oshirish tizimi qator qonunlar bilan kafolatlangan. O'zbekiston qonunchiligiga binoan ular jamiyatda ta'lim olishi va ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy hayotda teng huquqli asosda to'laqonli ishtirok etish imkoniyatlari va shart-sharoitlar bilan ta'minlangan. Ya'ni, O'zbekistonda bola va uning tarbiyasi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan.

Kar va zaif eshituvchi bolalarni o'qitish dasturi va darsliklari, metodik qo'llanmalarining yaratilishi surdopedagogikaning rivojlanishiga omil bo'ldi. Respublika kar va zaif eshituvchi bolalar maktablari ilk bor ilmiy-amaliy tadqiqot mahsuli hisoblangan hududiy, milliy mentalitet, o'zbek tili qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda yaratilgan o'quv dasturlari hamda darsliklar (1989 y.) bilan ta'minlandi (U.Fayzieva «Alifbe», «Nutq o'stirish», Matematika, N.Dadaxo'jaeva «Matematika» va bosh.).

Respublikada surdopedagogikaning ilmiy asoslanishi o'tgan asrning 80-yillaridan boshlandi. Hozirgi kunda eshitishida muammolari bo'lgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash masalalariga bag'ishlangan qator tadqiqotlar mavjud (N.Sh. Bekmurodov, X.M.Gaynutdinov, F.J.Alimxo'jaeva, U.Yu.Fayzieva, N.H.Dadaxo'jaeva, F.U.Qodirova, D.Nazarova).

N.Sh. Bekmurodovning ilmiy tadqiqoti «Issiq iqlim sharoitini, eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning ishchanlik faolligiga ta'siri» (1989 y.) mavzusiga bag'ishlangan bo'lib, muallif to'plangan ma'lumotlar asosida hududimizga mos ravishda maxsus maktab-internatlari kun tartibi, o'quv jarayonini tashkil qilishda hisobga olinishi lozim bo'lgan talablarni ilgari suradi.

H.M.Gaynutdinovning «O'zbekiston sharoitida karlarning kasbiy-mehnat va ijtimoiy moslashuvlari» mavzusiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlari (1990 y.), ilk bor O'zbekiston sharoitida kar bolalar maktablari bitiruvchilarining kasbiy-mehnat va maishiy moslashuvlari jarayonining xususiyatlari kompleks (har tomonlama) o'rganildi, ushbu o'rganishlar natijasini tahlil qilish orqali kar bo'lgan shaxslarni kasbiy-mehnatga tayyorlash, keyingi mehnat faoliyatlari jarayonini takomillashtirishga qaratilgan tavsiyalar berildi, shuningdek, ularning moslashuvi darajasini ko'tarish yo'llari belgilab berildi.

F.J.Alimxodjaevaning ilmiy tadqiqoti «Chuqur nutq kamchiliklariga ega bo'lgan zaif eshituvchi o'quvchilar nutqiy eshitishlarini

rivojlantirish jarayonida didaktik materiallarning roli» (1992 y.) mavzusiga bag'ishlangan bo'lib, unda ilk bor eshitishni mashqlantirish sharoitida ushbu toifa o'quvchilarining so'zlarni idrok etishlarida didaktik materiallarning o'rnini o'rganilib, ushbu jarayon davomida ulardan o'rinli, keng foydalanish, umuman, nutqni shakllantirish jarayoniga ijobiy natija berishi ilmiy jihatdan asoslab berildi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati – zaif eshituvchi o'quvchilarning eshitish holatlari, nutqiy rivojlanish darajalarini hisobga olgan holda ularni o'qitish jarayonida didaktik materiallardan foydalanish tabaqalangan metodikasini ishlab chiqish hisobiga, ushbu toifa o'quvchilarning eshitish idrokini rivojlantirish tizimini takomillashtirish yo'llarining ko'rsatib berilishida bo'ldi.

U.Yu.Fayzievaning ilmiy izlanishlari «Zaif eshituvchi bolalarni savodga tayyorlash va savod o'rgatish» masalalariga bag'ishlangan bo'lib, eshitmaydigan bolalarga ona tilini o'rgatish muammolarini hal qilishga qaratilgan ilk tadqiqot bo'ldi (1994 y.). Bu tadqiqotda ilk bor o'zbek tilida eshitishida muammolari bo'lgan bolalarning eshitish qobiliyatini tekshirish metodikasi, lug'at boyligi va nutqiy imkoniyatlarini tekshirish metodikasi yaratildi, anamnestik ma'lumotlarni to'plash usullari yaratildi va qo'llanildi.

Ilk bor o'zbek tilida zaif eshituvchi bolalarga savod o'rgatishda tovushlar va harflarni o'rgatish ketma-ketligi, tartibi yaratildi va tayyorlov sinfdagi yoki tayyorlov guruhida savod o'rgatish uchun bola nutqining tayyorgarlik mezonlari belgilab berildi, ushbu nazariy xulosalar asosida kommunikativ ta'lim asosidagi ilk «Alifbe» darsligi yaratildi.

Savod o'rgatishga tayyorlash va savod o'rgatish davrini samarali tashkil etish va olib borish zaif eshituvchi bolalar uchun butun keyingi ta'lim jarayonining poydevori bo'lib xizmat qilishi ilmiy asoslab berildi. Aynan shu davrda, savod o'rgatish jarayonida eshitmaydigan o'quvchilarda so'zlarni talaffuz qilish va so'z boyligini egallash uchun kuchli motivatsiya hosil bo'ladi. Chunki zaif eshituvchi o'quvchilarning savodini chiqarishda analiz-sintez harf-tovush metodi asos qilib olinadi. Bu esa o'quvchilarni jadal sur'atda so'z boyligini egallashini ta'minlaydigan omil ekanligi ilmiy asoslab berilgan. Bunda alifbegacha bo'lgan davrda olib borilishi lozim bo'lgan ishlarga alohida urg'u beriladi va bu davrni tashkil etish va olib borilishi metodikasi taqdim etiladi. Alifbegacha bo'lgan

davrning birinchi chorak oxirigacha davom ettirilishi va bu davrda zaif eshituvchi o'quvchilarni, so'zlarni tahlil qilishgacha tayyorlash tavsiya etiladi. U. Fayzieva tomonidan o'tkazilgan tajribalar natijasida so'z boyligi faqat 3-5ta noaniq, tushunarsiz so'zlardangina iborat bo'lgan o'quvchilar birinchi sinfning oxirida 700-1000ga yaqin so'zlarni faol nutqda qo'llay olishganligi ta'kidlangan.

N.X.Dadaxo'jaeva tadqiqoti (1995 y.) «Zaif eshituvchi o'quvchilarni ko'p xonali sonlar ustida arifmetik amallarga o'rgatish metodikasi» mavzusiga bag'ishlangan bo'lib, ilmiy yangiligi, nazariy hamda amaliy ahamiyati ilk bor zaif eshituvchi o'quvchilarning ko'p xonali sonlar ustida arifmetik amallarni bajarishlaridagi xususiyatlar, ushbu jarayon mobaynida o'quvchilarning ularni o'rganishga nutqiy va fikrlash tayyorgarliklari holatini o'rganish, ko'p xonali sonlar ustida arifmetik amallar bajarishga o'rgatish bo'yicha ish usuli hamda metodlarini ishlab chiqishdan iborat bo'ldi.

F.U.Qodirova ilmiy izlanishlari (2006 y.) «Boshlang'ich sinf kar va zaif eshituvchi o'quvchilar so'zlashuv nutqini shakllantirish» mavzusida bo'lib, tadqiqotda eshitmaydigan bolalar ta'lim-tarbiyasi amaliyotidagi kamchiliklar tahlili orqali ularni bartaraf etishning samarali usul va yo'llari aniqlandi, so'zlashuv nutqini shakllantirish omillari va bosqichlari belgilab berildi.

Surdopedagogika uchun til va taffakur birligi haqidagi ta'limot bosh mezon hisoblanadi. Til ijtimoiy hodisa bo'lib, u birgalikda mehnat qiluvchilarning muloqotga ehtiyojlari ta'sirida yuzaga keldi. Til muloqot vositasi va fikrlash vositasidir. Til va taffakur birligini mohiyati fiziolog, psixolog, tilshunos, faylasuflarni tadqiqotlari orqali tasdiqlangan.

D.A.Nazarovanning ilmiy tadqiqotlari o'zbek olimlari U.Yu.Fayzieva, F.Alimxo'jaeva, N.Dadaxo'jaeva, F.Qodirovalar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari asosida maktabgacha yoshdagi zaif eshituvchi bolalar nutqini rivojlantirish muammolarini ilmiy-nazariy jihatdan chuqur o'rganish, tadqiqotlar natijalari asosida o'zbek tilining xususiyatlaridan kelib chiqqan, ilmiy asoslangan erta korreksion-rivojlantiruvchi pedagogik tizimni yaratishga qaratilgan (2009 y.). Ushbu tadqiqot maktabgacha yoshdagi zaif eshituvchi bolalarga ko'rsatiluvchi korreksion-pedagogik yordamning nazariy asoslarini va metodik ta'minotini ishlab chiqish maqsadiga qaratildi.

Shu tarzda eshitishida muammolari bo'lgan bolalar o'zbek tilida nutqni egallashi bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari, «Maktabgacha surdopedagogika», «Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirish metodikasi» fanlari mazmunini ilmiy-nazariy jihatdan boyitish hamda takomillashtirishga xizmat qilib kelmoqda.

R.Rustamova o'z tadqiqotida zaif eshituvchi bolalar nutqining grammatik qurilishini shakllantirishga mo'ljallangan korreksion-pedagogik tizimni ishlab chiqish borasida olib borgan ishida quyidagilarni ta'kidlab o'tgan: Zaif eshituvchi bolalarning eshituv imkoniyati turg'un pasayganligi tufayli ularning nutqida bir qator kamchiliklar: lug'atining kambag'alligi; grammatik komponentlarning rivojlanmaganligi, gap ichida so'zlarni tashlab ketishi; so'zlardagi tovushlarni tushirib talaffuz qilishi; so'zlarni o'zaro bog'lay olmasligi, kelishik, so'z yasovchi, so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalarni ishlata olmasligi; tovushlarni noto'g'ri talaffuz etishi; o'xshash jarangli-jarangsiz undoshlarni bir-biri bilan adashtirishi kabi holatlar kuzatiladi. Zaif eshituvchi o'quvchilar gapiruvchini suhbatdoshdan va so'z yuritilayotgan shaxsdan ajrata olmaydilar, ya'ni olmoshlar ayni shu shaxslarni anglatishini farqlamaydilar.

Har qanday nutqiy bayon grammatik jihatdan o'zaro bog'langan mazmunga mos so'z va so'z birikmalarining ma'lum izchillikda joylashtirilishidan tuziladi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar nutqining so'z birikmalarini strukturaviy-semantik jihatdan shakllantirilishidagi xususiyatlar ko'plab tadqiqotlarda tahlil qilingan. K.V. Komarov, K.G. Korovin zaif eshitadigan bolalarning so'z birikmalarini o'zlashtirishlarida nihoyat darajadagi qiyinchiliklar ro'y berishini ta'kidlaydilar. Bolalar kelishik qo'shimchalarini aralashtirib yuborishlari, qo'shimchalarni tushirib qoldirishlari tabiiyki, asosiy ma'naviy munosabatlarni tushunishni va grammatik jihatdan to'g'ri shakllanishini qiyinlashtiradi, oqibatda to'la-to'kis muloqotga xalaqit beradi.

«Tilning grammatik qurilishini shakllantirish» dasturida ham zaif eshituvchi bolalarga til o'qitishda so'z birikmalari ustida ishlashga katta e'tibor beriladi. Tilning grammatik qurilishini shakllantirish darslarida so'z birikmalari butun o'quv materialini tuzishdagi boshlang'ich tayanch birligi bo'lib xizmat qiladi. Grammatik qurilishni shakllantirish tizimi birinchi navbatda ayrim

grammatik qonuniyatlar o'rtasidagi o'zaro bog'lanishlarni izchil joylashtirish bilan belgilanadi. Shu tariqa otlarning grammatik hamda kelishik ma'nolari tilni amaliy ravishda o'zlashtirish asosi sifatida namoyon bo'ladi.

Ma'lumki, tilning grammatik qurilishi negizini so'z shakllari tashkil etadi. So'z shaklini tanlash va undan samarali foydalanish tufayli umumlashmalar hosil qilish grammatika darslarida amalga oshiriladi. Nutq o'stirish darslarida esa, so'z shakllari noto'g'ri ishlatilgan bo'lsa, tuzatish ishi amalga oshiriladi.

Tilni amaliy egallash ishining asosiy maqsadi so'z birikmalari yoldi qo'shma gaplarning ona tilidagi barcha mavjud turlari bilan tanishtirishdan emas, balki keng tarqalgan ma'naviy munosabatlarni to'g'ri ifodalash ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir.



#### Savol:

1. Surdopedagogikaning asosiy rivojlanish bosqichlari deganda nimani tushunasiz?

2. «Eshitish mashqlari metodi»ning muallifi kim?

3. Karlarni o'qitish va tarbiyalash nazariya va tajribasiga misollar keltiring?

4. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar nutqining so'z birikmalarini strukturaviy-semantik jihatdan shakllantirilish deganda nimani tushunasiz?

5. O'zbekistonda eshitishida muammolari bo'lgan bolalarni ilk yoshidan umumta'limga tayyorlash muammosi bilan bog'liq faoliyat olib boruvchi olimlardan kimlarni bilasiz?

6. O'zbekistonda surdopedagogik nazariya va amaliyotning taraqqiy etishi haqida ma'lumot bering.

7. Zamonaviy surdopedagogikaning shakllanishida muhim o'rin tutgan g'oya va yondashuvlar bo'yicha ma'lumot bering.

8. Zamonaviy surdopedagogikaning shakllanishida muhim o'rin tutgan yondashuvlarga misol keltiring.



### 3.ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR TASNIFI VA DIAGNOSTIKASIDAGI ZAMONAVIY YONDASHUVLAR.

**Tayanch tushunchalar:** Eshitish qobiliyati, audiometr yordamida turli chastotali tovushlar, idrok etish chegarasi, eshitish o'tkirligi, eshitishda muammosi bo'lgan bolalar, sezgi a'zolari.

Zamonaviy maxsus ta'lim muassasalarining tabaqalashtirilgan holda tashkil etilishi, shuningdek, ulardagi ta'lim-tarbiya mazmunini belgilashda asosiy omil bo'lib R.M.Boskisning eshitishda muammolari bo'lgan bolalar pedagogik tasnifi xizmat qiladi:

**Karlik** - eshitishning turg'un yo'qolishi bo'lib, unda mustaqil holda nutqni egallash, hattoki quloqqa yaqin bo'lgan masofada bo'lgan nutqni aniq idrok etish imkoniyati bo'lmaydi. Total (to'liq) karlik juda kam uchraydi. Ko'pincha karlikda baland nonutqiy tovushlar, quloq suprasiga yaqin masofadagi ba zi nutqiy tovushlarni idrok etish darajasida bo'lgan eshitish qoldiqlari saqlanib qoladi. Audiometr tekshiruvi eshitishning 80 dBdan yuqori darajada yo'qolganligini ko'rsatadi.

**Zaif eshituvchilik** - eshitishning turg'un pasayishi bo'lib, unda ushbu eshitish qoldig'i asosida nutqiy zaxirani minimal bolatda mustaqil ravishda egallash, murojaat etilgan nutqni quloq suprasiga yaqin masofada idrok etish imkoniyati bo'ladi'. Audiometr tekshiruvi eshitishning 80 dB kam bo'lmagan pasayishini ko'rsatadi.

Birinchi tasniflash 16-asrga to'g'ri keladi. Italiya olimi D.Kardano 3 guruh karlarni ajratishda karlikning vujudga kelish vaqtiga bog'liqligi va nutqiy rivojlanish darajasiga asoslangan: Tug'ma karlar. Erta kar bo'lganlar (nutqi rivojlangunga qadar). Kech kar bo'lganlar (nutqi saqlanib qolganlar). 18-asr Fransuz pedagogi R.A.Sikar eshitish nuqsoni har xil bo'lgan bolalarni guruhlariga bo'lishni va ularni bo'lak holda o'qitishni taklif qilgan. 19-asrning birinchi yarmida Rus surdopedagogi V.I.Fleri kar va zaif eshituvchi o'quvchilarni, kech kar bo'lib qolganlarni va zaif eshituvchilarni bo'lak holda o'qitish kerakligini taklif qilgan.

Eshitish buzilishlarini tasniflash bo'yicha bir qancha olimlar tadqiqot olib borganlar. Jumladan quyidagi tasniflarni keltiramiz:

1. B.S.Preobrajenskiy tasnifi
2. A.V.Neymanning audiologik tasnifi
3. R.M. Boskis tasnifi

B.S.Preobrajenskiy zaif eshituvchilikni 4 ta guruhga ajratadi.

#### Zaif eshituvchilikning tasnifi

Nuqson darajasi	Nutqni qabul qilish masofasi	
	Me'yordagi ovozda berilgan nutqni eshitish	Shivirlab aytilgan nutqni eshitish
1-yengil	6 metr	3-6 metr
2-o'rta	4- 6 metr	1-3 metr
3-og'ir	2- 4 metr	1 metr
4-juda og'ir	2 metrdan kam	0,5 metr

Parijdagi kar va zaif eshituvchi o'quvchilar instituti vrachi J.Itar besh guruh karlarni ularning tovushlar va nutqlar eshitishiga qarab ajratgan: yuqori nutq va tovushlarni qulog'ining yaqinida eshituvchilar; unli va undoshlarni ajratuvchilar; ayrim unli va undoshlarni ajratuvchilar; nutqlarni eshitmaydigan, lekin baland tovushlarni eshituvchilar; umuman eshitishda muammosi bo'lganlar. Biroq kar bolalarning differensiyasi, faqat turli darajadagi eshitish qobiliyatini yo'qotganlarni o'qitish bilan ijobiy natijalar bermadi. 19-asrning ikkinchi yarmida Peterburg kar va zaif eshituvchi o'quvchilar bilim yurtida Y.T.Speshnev ikkita bo'linma tuzdi: turli xildagi nutqlarga ega bo'lgan kar bolalar uchun; imo-lishora asosida muloqot qiluvchilar uchun. Y.T.Speshnev tomonidan eshitishda muammosi bo'lgan bolalar nutq saviyasini yaxshilash bo'yicha differensiallanadi, asosiy nuqson darajasi hisobga olinmaydi. Bunday hol ularni o'qitish mobaynida kerakli samara bermadi. Eshitish qobiliyati juda nuqsonli bo'lgan bolalarning yuqori o'zlashtiruvchanliklari boshqa tomondan eshitish qobiliyati saqlangan bolalarning nuqsonli bo'lgan o'zlashtiruvchanliklari kuzatiladi.

Bunday hol esa o'qituvchilar tomonidan o'quvchilarni aqliy rivojlanishi bo'yicha ajratib o'qitishga majbur qiladi<sup>1</sup>. L.V.Neyman bolalik davrida eshitish qobiliyatining buzilishini o'rganish va tasnifini yaratish tarixida uch bosqichni belgilaydi:

**-kar va zaif eshituvchi o'quvchilarda eshitish qobiliyatini tekshirishni tizimlashtirish boshlang'ich urinishidan, toki amaliyotda eshitishni o'lchagich uskunasi kamerton to'plamidan foydalanishni amaliyotda qo'llash;**

-kamertondan to audometr gacha bo'lgan davr, hozirgi talabga javob beradigan amaliyotga kiritilgan audiometr L.V.Neyman eshitish chastotalari maydoni yordamida qabul qilish diapazoniga asoslanib, karlarni to'rtta guruhga ajratadi.



### **Tibbiy tasnif (L. V Neyman bo'yicha).**

#### **Karlar:**

1guruh- eng past chastotalarni qabul qilish (125-250 Gs.);

2guruh- 500 Gsgacha chastotalarni qabul qilish;

3guruh- past va o'rta chastotalarni qabul qilish (1000 Gsgacha)

4guruh- 2000 Gsgacha chastotalarni qabul qilish.

#### **Zaif eshituvchilar:**

1 daraja. Eshitishni 50 Db gacha yo'qotish. Bunday bola lmdan ortiq masofadagi nutqni farqlaydi;

2 daraja. Eshitishni 50-70 Db gacha yo'qotish. Bunday bola lmgacha masofadagi nutqni farq qiladi;

3 daraja. Eshitishni 70 Db dan yuqori yo'qotish. Bunday bola quloq oldida va quloq suprasiga aytilgan nutqni ham farqlashi qiyin.

Eshitish kamchiligidagi nutqiy rivojlanishlarning darajasi va xarakteri bir qator sabablar asosida yuzaga keladi. R.M.Boskis nutqiy rivojlanish darajasining quyidagi to'rt omil bilan aloqadorligini ko'rsatib o'tgan. Zaif eshituvchi bolalarni eshitish chastotasi hajmiga qarab kar bolalarnikidek guruhlash to'g'ri kelmaydi. Chunki ko'pchilik zaif eshituvchilar keng diapazondagi 4000Gs va yuqori chastotani qabul qiladilar. Nag bir guruh zaif eshituvchilar tomonidan ayrim gaplarni eshitish imkoniyatlari bo'yicha belgilanadi. 1-darajali zaif eshituvchilarda tovush diapazonida eshitishning pasayishi 50db dan oshmaydi. Ularning chastotalarni qabul qilishi 125-8000Gs atrofida lmdan ortiqroq masofada so'zli tovush balandligida gaplarni ajratish imkoniyati bor. Ular bilan muloqotda bo'lish mumkin. 2-darajali zaif eshituvchilarda tovush diapazonida eshitishning pasayishi 70 dbgacha lmdan kamroq masofada so'zli tovush balandligidagi gaplarni ajratish imkoniyati bor. Ular bilan muloqotda bo'lish birmuncha qiyinroq. 3-guruh tovush dipozonida eshitishning pasayishi 70 dbdan yuqori. So'z tovushlari balandligida gaplarni ajratish quloq oldida ham qiyinlashadi; muloqot qilish faqat baland tovushda quloq yaqinida amalga oshiriladi. Zaif eshituvchilarda mustaqil nutq jarayonining

qiyinlashuvi, eshitish qobiliyatining pasayishi 15- 20 db da hosil bo'ladi. Buni L.V.Neyman yaxshi eshituvchilar bilan zaif eshituvchilar o'rtasidagi taxminiy chegara deb qabul qilishni taklif etadi. Zaif eshituvchilar bilan karlar o'rtasidagi taxminiy chegara esa 80 dbdir. Pedagogik tasniflashni har bir surdopedagog uchun puxta bilish, har bir toifa bolalarni keng ma'noli, maxsus bir maqsadga yo'naltirgan ishlarni olib borishga asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu tasnif bo'yicha bolalar maxsus muassasalarga yo'llanma oladilar. Eshitish nuqsonini tasniflash va u asosida har bir toifa bolalariga mos bo'lgan ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish uchun avvalo, eshitish jarayonining mexanizmi haqida ma'lumotga ega bo'lishi kerak.

Quloq insonning tashqi muhit bilan aloqa qilishida vosita bo'ladigan sezgi a'zolari (organi)dan biridir. Eshitish organining vazifasi tovushlari baland, yuqori va yoqimliga ajratishdan iborat. Tovush muhitning tebranishli harakati. Yuqori tovush jismning tebranish tezligini aniqlash bilan o'lchanadi va u «Gs»(gers) bilan belgilanadi. Muhit - havo, suv, tuproq va h.z. Tovush manbai - tebranuvchi tana, ya'ni kamerton, ovoz paychalari. Tovush to'lqinining yoyilishi 0°havoda 333 m.sek., suvda 1450 m.sek.ga teng. Tovush amplitudasi bu - tebranish kuchi, silkinish davri va to'la tebranish davri. Tovush chastotasi esa -tovushning 1 sek. tebranish soni. Qanchalik amplituda, ya'ni tebranish kuchli silkinish asosida bo'lsa, tovush shuncha kuchli bo'ladi. Aksincha bo'lsa-kuchsiz bo'ladi. Tovush kuchi «D.b.» (detsibel) bilan belgilanadi.

Tovush balandligi - manbaning tebranish chastotasiga bog'liq bo'lib, 1 sek.da to'la tebranish soni bilan o'lchanadi. Sekundiga 200-300 gacha tebranishlar «past», ya'ni kuchsiz, 2000 dan yuqorisi «kuchli» deb yuritiladi. Tembr - tovush bezagi. U orqali turli manbalardan chiqayotgan bir xil balandlik va kuchdagi tovushlar farqlanadi. Inson 16 dan to 20000 Gs.gacha bo'lgan tovushni qabul qila oladi. U 16 Gs.dan past (infratovush) va 20000Gs.dan yuqori bo'lgan tebranishli tovushlari qabul qila olmaydi.

Inson qulog'ining tovushlari eng sezuvchanlik chegarasi 1000--4000 Gs gachadir. Tovushning yo'nalishini aniqlash qobiliyati «otoptika», ya'ni ikkala quloqning eshitish qobiliyatiga bog'liq. Bir qulog'i eshitmaydigan kishida ushbu faoliyat buziladi. Shu sababli u tovush chiqqan joyni aniqlash uchun sog' qulog'i bilan turli tomonga

aylanishga majbur bo'ladi. Sog'lom kishilar esa tovush chiqqan joyni osonlik bilan topadilar. Eshituv vazifasining amalga oshishida tovush o'tkazish va tovushni idrok (qabul) qilish jarayoni kuzatiladi. Tovushlar quloqqa havo orqali, shuningdek, boshqa yo'l bilan o'tishi mumkin. Bosh suyaklari orqali tovush idroki «suyak o'tkazuvchanligi» deb yuritiladi. Ayniqsa, baland tovushlar bosh suyaklari orqali o'tadi. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar nutqiy rivojlanish masalalari bir necha asrlar mobaynida ko'plab o'qituvchi va metodistlarning e'tiborini jalb qilganiga qaramay, bu muammoning yechimiga, ya'ni maxsus maktablardagi ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish bo'yicha yondashuvlarning yangi yo'nalish olishiga L.S.Vigotskiyning maxsus ta'lim tizimi masalalarini yoritib bergan qator asarlari turtki berdi.

Olim maxsus maktablardagi og'zaki nutqni rivojlantirishga mo'ljallangan usul bolaning sermazmun hayoti, uning qiziqishlari bilan bog'liq bo'lmagan sharoitda olib borilishiga e'tibor qaratib, nutqni ijtimoiy hayotda ishtirok etmagan holda egallash, qirg'oq bo'yida turib suzishni o'rganish holatiga qiyoslab, ijtimoiy muhit hamda uning tuzilishi har qanday tarbiya tizimining pirovard hamda hal qiluvchi o'rinli ekanligini alohida qayd etadi: «Bola hayotini shunday tashkil etish lozimki, unga nutq zarur va qiziqarli bo'lsin. Ta'limni bola qiziqishlariga qarshi emas, ushbu qiziqishlar tomon yo'naltirish lozim.

Umuminsoniy nutqqa nisbatan ehtiyojni yuzaga keltirish zarur, shundagina nutq paydo bo'ladi. Nutq muloqotga kirishish va fikrlash asosida, murakkab hayotiy sharoitlarga moslashish natijasida yuzaga keladi» L.S.Vigotskiy ushbu sharoitni yaratishda sog'lom (me'yordagi) bolaning nutqiy rivojlanish bosqichlariga tayangan holda ish ko'rish lozim ekanligi haqida quyidagi fikrlarni bildiradi: «Birinci planga, eng avvalo, bolaning bola ekanligi va shundan so'nggina kar-soqov ekanligi holati qo'yiladi. Bu shuni anglatadiki, bola, eng avvalo, umumiy qiziqish, layoqat, shuningdek, me'yordagi bola yoshi qobilyatlariga muvofiq holatda o'sishi, rivojlanishi va tarbiyalanishi hamda xuddi shu jarayonda nutqni egallab borishi lozim.

Bolalar o'zlarining muayyan sifat va ko'nikmalarini rivojlantirishga ehtiyoz sezishlari lozim. Ular o'zlarini boshqa ko'pchilik bolalar va kishilardan farqli ekanliklarini his qilmasliklari,

ularga tenglasha olmasliklariga ishonch hosil qilmasliklari lozim. Yuqoridagilar asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni so'zlashuv nutqiga o'rgatish kabi masalalar ijtimoiy tarbiya zamirida o'zining to'g'ri yechimini topadi.

*Zamonaviy maxsus ta'lim muassasalarining tabaqalashtirilgan holda tashkil etilishi, shuningdek, ulardagi ta'lim-tarbiya mazmunini belgilashda asosiy omil bo'lib R.M. Boskisning eshitishida muammolari bo'lgan bolalar pedagogik tasnifi xizmat qiladi. Olim eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'limi samaradorligiga erishishdagi dastlabki qadam ushbu toifadagi bolalarning rivojlanish xususiyatlarini tushunishdan boshlanishi lozim, deb hisoblab, I.P. Pavlovning «Analizatorlar faoliyatining birligi», L.S. Vigotskiyning «Nuqsonning murakkab tuzilishi» hamda «Ta'lim-tarbiya va rivojlanish mutanosibliigi» psixologik ta'limotlariga tayanadi:*

Yosh boladagi eshitish analizatori faoliyatining buzilishi katta yoshdagilarning nuqsonlaridan farqli ravishda namoyon bo'ladi. Kattalarda nuqson paydo bo'lgunga qadar nutq, mantiqiy tafakkur va shaxsiy xislatlar shakllangan bo'ladi. Ilk yoshda orttirilgan nuqson esa bolaning me'yorda rivojlanishiga to'sqinlik qiladi.

Eshitishida muammolari bo'lgan bolalarning o'ziga xos rivojlanishlarini to'g'ri tushunish uchun ushbu holatda nutqni mustaqil egallay olish imkoniyatini, ya'ni eshitish va nutqning o'zaro tobeligini inobatga olish katta ahamiyatga ega. Bir tomondan, eshitishning buzilishi nutqning me'yorida rivojlanishiga to'sqinlik qilsa, ikkinchi tomondan eshitishning me'yordagi faoliyati bolaning nutqiy rivojlanish darajasiga bog'liq. Bolaning nutqiy darajasi qancha yuqori bo'lsa, eshitish qoldig'idan foydalanish imkoni shuncha yuqori bo'ladi.

3. Til, uning lug'at zaxirasi va grammatik tuzumini inson qancha yaxshi egallagan bo'lsa, uning eshitishdan foydalanish tajribasi shunday darajada ko'p bo'ladi. Nutqiy muloqot tajribasiga ega bo'lgan bolalar tanish bo'lgan so'z va jumalarni ma'nosiga ko'ra tushuna olishlari sababli murojaat etilgan nutqni yaxshiroq idrok etish imkoniyatiga egalar. Nutqiy rivojlanishlari yaxshiroq bo'lgan bolalar yaxshi eshituvchi sifatida taasuroot qoldirishlari mumkin. O'z navbatida, bolaning eshitish qoldig'i qancha yaxshi saqlangan

bo'lsa, unda atrofdagilar nutqiga taqlid qilishi asosida mustaqil ravishda nutqni egallab borish imkoniyati shuncha yuqori bo'ladi. Eshitish qoldig'idan nutqni egallash uchun foydalanish imkoniyati bolaning eshitish nuqsonini baholash mezoni hisoblanadi. Shuning uchun ham total (to'liq) eshitishi yo'qolgan bolalar bilan eshitishi qisman buzilgan bolalarni chegaralashda aynan eshitish va nutqiy rivojlanish omillari hisobga olinadi.

Eshitish muammolari holatidagi nutqning rivojlanish darajasi va tavsifi qator sabablar bilan bog'liq bo'lib, **R.M.Boskis** 4 omilni ajratadi:

Eshitishning buzilish darajasi;

Eshitish muammosining kelib chiqish vaqti;

Eshitish muammosi yuzaga kelgandan so'ng bola uchun yaratilgan pedagogik sharoit;

Bolaning individual (yakka) xususiyatlari.

Yuqoridagi omillardan kelib chiqqan holda eshitish qoldiqlari bir xil bolalarning nutqiy rivojlanishlari turlicha ko'rinishga ega bo'lishi kuzatiladi. Ushbu mezonlarga tayangan holda R.M.Boskis har ikki guruhdagi eshitishida muammolari bo'lgan bolalarni o'z navbatida yana ikkita guruhga bo'ladi:

**Karlar:** Tug'ma yoki erta kar bo'lib, nutqi bo'lmagan karlar. Kech kar bo'lib, nutqi saqlangan karlar.

**Zaif eshituvchilar:** Nutqida qisman chetga chiqishlari (nutqning grammatik tizimida ba'zi chetga chiqishlari, ya'ni qo'shimchalarni noto'g'ri qo'llash yoki tushurib qoldirish, ba'zan talaffuz muammolari) bo'lgan zaif eshituvchilar; chuqur nutqiy muammolari bo'lgan, ya'ni lug'at zaxirasi o'ta chegaralangan (nutqi qisqa, noto'liq so'zlardan, grammatik tizimi so'z-gapdan, bo'g'in-so'zlar qatoridan iborat) zaif eshituvchilar.

Shunga ko'ra, R.M.Boskis va S.A.Zikov eshitmaydiganlar ta'lim-tarbiyasi ularning nuqsonlariga moslab emas, balki ushbu nuqsonni yengish yoki zaiflashtirishga qaratilgan sharoitlarni yaratishga yo'naltirilishini ta'kidlaydi (S.A.Zikov 1938-y, 1970-y.)

Mahalliy audiologiya va karlarni tarbiyalashda hozirgi vaqtda eshitish qobiliyatining buzilishi darajasining xalqaro tasnifi qo'llaniladi. 1997 yilda Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan eshitish qobiliyatini yo'qotish darajalarining yagona tasnifi tasdiqlangan.

### Xalqaro tasnif (1988)

**I daraja** - 26-40dB

**II daraja** - 41-55dB

**III daraja** - 56-70dB

**IV daraja** - 71-90dB


**Karlik** (90dBdan ko'p)

Eshitishida muammolari bo'lgan bolalarning ta'lim-tarbiyasida nutqni shakllantirish jarayoni muhim o'rin egallaydi. Tilning lug'at zaxirasi, uning grammatik qonuniyatlarini egallash, tilni muloqot vositasi sifatida o'zlashtirish ushbu toifa shaxslarining ijtimoiy hayotga uyg'unlashuvlari va shaxsiy hayotlarida o'z o'rinlarini topishlaridagi muammolarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Tashxis markazlariga bola maxsus surdologik tekshiruvdan o'tkazilib, yakuniy xulosa bilan keladi. Tashxis markazi xodimlari har bir bolaning surdologik xulosasiga binoan tibbiy-pedagogik-psixologik komissiyaga yo'llaydilar. TPPKda bola chuqur psixologik-pedagogik jihatdan o'rganiladi va shundan so'ng, yakuniy xulosa chiqarilib, eshitish imkoniyatiga baho beriladi hamda yakuniy tashxis qo'yilib, ta'lim turi belgilanadi. Quyida eshitishida muammolari bo'lgan bolalarni surdopedagogik tashxis qilish metodikasi beriladi. **Tekshirish maqsadi:** Bir yoki ikki tomonlama eshitish qobiliyatining pasayishi shikoyatlarini, kelib chiqish sababini, eshitish qobiliyatining pasayishini aniqlash. To'satdan yoki asta-sekin eshitish qobiliyatining pasayishi qanday sodir bo'ldi, u quloq yoki boshda sub'ektiv shovqin bilan birga kelgan-kelmaganligini aniqlash.


#### Subyektiv metodlar

**Eshitishni nutqiy tekshirish.** Pichirlash va meyyordagi og'zaki nutq orqali o'rganish. Tekshiriluvchi 6 m uzoqlikda joylashadi. Tekshirilayotgan quloq shifokor tomon yo'naltiriladi, qarama-qarshi quloq hamshira tomonidan yopiladi, quloq ortiqchasini II barmoq bilan quloq kanalining teshishigiga bosib, III barmoqni ozgina ishqalaydi. Labda o'qishdan qochish uchun bemor shifokorga qaramasligi kerak. Shifokor pichirlab, o'pkasida qolgan havodan foydalanib, kuchsiz nafas chiqargandan so'ng, so'zlarni past tovushlar bilan, keyin baland tovushlar bilan talaffuz qiladi; bemor ularni takrorlaydi. Meyyor: pichirlagan nutq 6 m, meyyordagi

og'zaki nutq-20 m. Kamerton yordamida tekshirish. Havo o'tkazuvchanligini o'rganish (C 64, C 128 kamertonlari bilan boshlash).Tovushli kamertonning oyog'ini ikki barmog'i bilan ushlab, tekshiriluvchining tashqi eshitish kanaliga 0,5 sm masofada ushlab turiladi. Sekundomer bilan tovushni eshitish vaqti o'lchanadi. Eshitish to'xtatgandan so'ng, kamertonni tezda quloqdan uzoqlashtirish va yana yaqinlashtirish kerak, natijada odatda tekshirilayotgan kishi ovozni yana bir necha soniya eshitadi.Suyak o'tkazuvchanligini tekshirish (c128 kamertoni). Tovushli kamerton oyoqchalari kalla suyagi chakka sohasining pastki qismiga perpendikulyar ravishda joylashtirilgan, eshitish idroki davomiyligi sekundomer bilan o'lchanadi.



**obyektiv metodlar:**Tovushga shartsiz reflekslarni baholash (qorachiqning kengayishi – chig'anoq-qorachiq, ko'z qovoqlarini yopib-ochilishi – pirillovchi, teri-galvanik va qon tomir reaksiyalari)



**Impedansometriya** (bu nog'ora pardasi, o'rta quloq bo'shlig'i va evstaxiy naychasining holatini ob'ektiv baholashga imkon beradigan diagnostika muolajasi.): timpanometriya – timpanik membrananing impedansini tekshiruvdan o'tkazish (o'rta quloq timpano-ossikulyar tizimining harakatchanligini va eshitish naychasining o'tkazuvchanligini baholash) quloq ichidagi mushaklarning refleksini quloq pardasining tovushli qo'zg'atish xususiyati uchun tekshiruvdan o'tkazish (eshitish funksiyasini baholash).


Impedans testi eshitish qobiliyatini aniqlashning samarali va aniq usuli hisoblanadi. Eshitish suyaklari va quloq pardasidan iborat bo'lgan tovush o'tkazuvchi tizimning qarshiligini tekshirishga imkon beradi. Ushbu audiometriya yoki impedans o'lchovi universal usul bo'lib, kattalar va bolalar, shu jumladan chaqaloqlar uchun ham mos keladi.

Impedans deb ham ataladigan qarshilikning kuchayishi eshitish qobiliyatini yo'qotishdan dalolat beradi. Tekshiruvni boshqa diagnostika usullari bilan birlashtirish tavsiya etiladi. Keng qamrovli diagnostika bizga quyidagi muammolar va buzilishlarni aniqlash imkonini beradi: o'rta quloqda suyuqlik mavjudligi,otoskleroz, quloq pardasining gipermobilligi, eshitish ossikulyar zanjirining yorilishi.


12 oygacha bo'lgan bolalarda impedans testi o'tkazilganda beriladigan tovush chastotasi 1000 Gts, boshqa yoshdagi odamlarda - 226 Gts.

Jarayonning davomiyligi, qoida tariqasida, 30 daqiqadan oshmaydi. Raqamli analizator ma'lumotlarni ekranda ko'rsatadi, agar kerak bo'lsa, uni printerda chop etish mumkin. Ushbu ma'lumotlarga asoslanib, malakali audiolog tashxis qo'yishi yoki qo'shimcha tekshiruvni buyurishi mumkin.

### 1. Impedansometriya apparati



### 2. Kompyuter audiometriyasi



Erta yoshdagi bolalar uchun zamonaviy kompyuter audiometriyasi - bu to'g'ri va ob'ektiv natijalarni olish imkonini beruvchi eshitishni baholash usuli. Melfon markazida uch oylik va

undan katta yoshdagi bolalar uchun zamonaviy asbob-uskunalar yordamida tekshiruvlar o'tkaziladi. Sinov bola uxlayotgan paytda amalga oshiriladi.

Audiometriya - eshitish ko'rsatkichlarini baholashga qaratilgan tadqiqot. Bu sizga bemorning "eshitish chegarasini" aniqlash va quloq kasalliklarini tashxislash, shuningdek, karlikning boshlanishini aniqlash imkonini beradi. Sinov yomon eshitish, nutqning tushunarsizligi va boshqa patologiyalar shikoyatlari uchun o'tkaziladi.

Chiziq nuqtalari 0-25 dB oralig'ida. Bu oddiy eshitish. Odamda hech qanday patologiya yo'q.

### 3. Otoakustik emissiya



**Otoakustik emissiya** - tashqi tuk (tolali) hujayralarning faol mexanik tebranishlari natijasida hosil bo'lgan tovushni tekshirish. Bolaning tinch holatida tashqi eshitish kanalida joylashgan zond yordamida tekshiruv o'tkaziladi. Og'riqsiz jarayon, davomiyligi 30 soniyadan 3 daqiqagacha. Bolalarda eshitish diagnostikasi turlarining ahamiyati. Eshitishni tekshirishning barcha turlari yangi tug'ilgan chaqaloqlar, ilk yoshdagi bolalar va maktabgacha yoshdagi bolalarda eshitishni majburiy ob'ektiv diagnostika qilishning komponentidir. Ular eshitish buzilishining tabiati, darajasini aniqlash, eshitishni korreksiyalash va eshitish-nutqni,

reabilitatsiya chora-tadbirlarini ishlab chiqish uchun zarur ma'lumotlarni beradi.

Eshitishni tekshirishning barcha turlari yangi tug'ilgan chaqaloqlar, ilk yoshdagi bolalar va maktabgacha yoshdagi bolalarda eshitishni majburiy ob'ektiv diagnostika qilishning komponentidir.

Ular eshitish buzilishining tabiati, darajasini aniqlash, eshitishni korrektsiyalash va protezlash, eshituv-nutqiy reabilitatsiya chora-tadbirlarini ishlab chiqish uchun zarur ma'lumotlarni beradi.

#### **Eshitish nuqsonini tashxis qilish**

Eshitish nuqsonini tashxis qilishda quyidagi omillarni oydinlashtirish lozim:

oila yoki qarindoshlarida eshitishida muammosi bo'lgan shaxslarning bor-yo'qligi;

bolada eshitish pasayishining taxminiy sabablari (tug'ilish davriga qadar hamda tug'ilish vaqtidagi noqulay omillar, og'rikan kasalliklari);

o'tkir yiringli yallig'lanishlar, onaning homiladorlik davridagi infeksiya va virus kasalliklari (qizamiq, gripp, herpes, toksoplazmos, sitomegalovirus), giperbilivubinemiya (**qondagi bilirubin miqdorining patologik o'sishi**), chaqaloqning gemolitik kasalligi, ototoksik vositalar (furosemid, aspirin, xininlarning bola yoki onaga xomiladorlik davrida tavsifiy etilganligi)ning qo'llanilishi;

- bolalar bog'chasiga qatnagani yoki maktabda ta'lim olganligi hamda maxsus mashg'ulotlarning davomiyligi haqida ma'lumotlar;

agar mavjud bo'lsa, so'nggi audiogramma bo'yicha eshitishning holati.

Bolada eshitishini yo'qotishga qadar egallagan nutqining holatini aniqlashda quyidagilarni inobatga olish lozim:

nutqqa qadar bo'lgan vokalizatsiyalar;

noaniq so'zlashning boshlanishi va tavsifi (to'xtab qolganligi, dastlab ravon, so'ng noaniq bo'lganligi, noma'lum);

lug'at zaxirasida alohida so'zlar: ko'p, bir nechta.

Ushbu ma'lumotlar bola eshitishining yo'qolishi yoki pasayishi davrini aniqlashga imkon yaratishi mumkin.

#### **Ekspressiv (faol) nutqni tekshirish**

Bolaning atrofdagilar bilan muloqot qilish shakli (og'zaki, og'zaki-daktil, og'zaki, daktil, imo-ishora) tadqiq qilingandan so'ng:

- guvranishli nutq;

- tovush talaffuz;

alohida so'zlar;

- so'z birikmalari va gaplardan foydalanishi o'rganiladi.

Nutqning aniqligi: atrofdagilarga tushunariligi, qisman tushunariligi, tushunarsizligi aniqlanadi.

#### **So'zlarni talaffuz qilish tavsifi**

Tovushlarni talaffuz qilish holati o'z tarkibiga quyidagi asosiy bo'limlari:

tovush talaffuz holatining alohida tekshirilishini (aynan qaysi tovush nuqsonli talaffuz qilinadi hamda nuqsonning tavsifi);

talaffuz to'g'riligining bog'lanishli nutqda tekshirilishi;

artikulyatsiya organlari tuzulishi yoki harakatidagi nuqsonlariga bog'liq bo'lgan tovush talaffuzi motor shakl buzilishlarining mavjudligi (dizartriya, dislaliya).


ovozining tavsifi (past, me'yorda, baland, shovqin).

Lug'at zaxirasining hajmi, uning yosh va dastur talablariga muvofiqligi tekshiriladi.

Impressiv (passiv, ya'ni ichki) nutqni tekshirish. Bunda bolaning so'z, gap, matnlarni tushunishiga e'tibor beriladi. Keyingi bosqichda quyidagilar o'rganiladi:

-bolaning eshitish apparati bilan ta'minlanganligi hamda undan foydalanishi. Eshitish apparatidan foydalanishdagi muammolarning mavjudligi. Bolaning eshitish apparatini taqqanda eshitishini tekshirish;

-bolani tonal audiometriya metodi orqali eshitishini tekshirishga tayyorlash (zaruratga ko'ra yoshi, psixomotor rivojlanish xususiyatlarini ko'rsatish).



### KOXLEAR IMPLANTATSIYA UCHUN KO'RSATMALAR

1) 2 tomonlama tomonlama chuqur sensonevral karlik (2kGs-95dB chastotalarida eshitishning 0,5;1 pasayishi);

2) Eshitish qobiliyati 2-4 kGs chastotasida 55dB dan yuqori bo'sag'ada buzilganda eshitish apparatidan (2ta quloqda) samarali foydalanilgan bo'lsa.

3) Tanlangan eshitish apparatlaridan 3-6 oy davomida foydalanilganda nutqni eshitib qabul qilish imkoniyatining yo'qligi, 2 tomonlama sensonevral karlik (eshitish qobiliyati 90 dB) bo'lganda

4) Kongenektiv muammolarning yo'qligi;

5) Psixologik muammolarning yo'qligi;

6) Ikkilamchi somatik kasalliklarning yo'qligi;

7) Ota-onalarning bu operatsiyaga tayyorligi, operatsiyadan keyingi reabilitatsiya davrida, audiolog, surdopedagog va onaning tizimli mashg'ulotlarini tashkil qilish imkoniyatining mavjudligi;

8) Nutqni yaxshi farqlamasa, mos tushadigan apparatlar tanlanganda (jummalarni 40% farqlashi) yaxshi natija olinishi.

Shuni ta'kidlash kerakki, oxirgi yillarda KI mumkin bo'lmagan holatlar kengayib bormoqda.

KI uchun mumkin bo'lmagan holatlar

- Eshituv analizatorining markaziy va o'tkazuvchi qismlari zararlangan bo'lsa, (ya'ni, chig'anoqdan keyingi retrokoxlear karlik.

- Chig'anoqning kal'sifikatsiyasi va ossifikatsiyasi. Bunda chig'anoq bo'shlig'i berkilib qoladi va elektrodni chig'anoqqa kiritish imkoniyati bo'lmaydi. Operatsiya muvaffaqiyatsiz chiqish extimoli bor.

- Sensonevral karlikda yillar davomida «jim-jitlikda» yashaganlar, umuman eshitish apparatlaridan foydalanilmagan, kam foydalanilgan, apparatda eshitish jarayoni o'rgatilmagan.

- Aqliy zaiflikning turli shakllari;
- Miyada tutqanoq o'choqlarining mavjudligi;
- Ichki quloq nervining tug'ma yo'qligi;
- Organizmda og'ir somatik kasalliklar borligi;
- Bolaning imo-ishorali nutqni to'liq egallaganligi;
- Ota-ona yoki vasiylarning bolani reabilitatsiya qilish

jarayonida qatnashish imkoniyati va xohishi yo'qligi

**Xulosa va tavsiyalar:** eshitishni pedagogik tekshirish hamda bolani tonal o'yin audiometriya metodi orqali tekshirishga tayyorlash bo'yicha tavsiyalar:

Bunda, eng avvalo, bolaning tovush chiqarayotgan o'yinchoqlar ohangini idrok qilish layoqati (berilayotgan tovushlarning ketma-ketligi, childirma, nay, baraban ovozi idrok qilish);

-shivirlashni idrok etish layoqati;

-so'zlashuv nutqi balandligidagi ovozni idrok etish layoqati;

Eshitish qoldig'ini aniqlashda baland ovozni idrok etish layoqati;

Bolaning: unli tovushlar, undosh tovushlarning unli tovushlar bilan idrok eta olish layoqati tekshiriladi.

Surdopedagogik tekshiruvni o'tkazish uchun tavsiya etiluvchi metodikalar ro'yxati:

-musiqiy o'yinchoqlar to'plami va rezina chiyildoqlar;

-tovush signaliga harakat reaksiyasini ishlab chiqish uchun o'yinchoqlar to'plami;

-asosiy va yordamchi so'zlar ro'yxatiga mos bo'lgan predmetga oid rasmlar (so'zlashuv nutqi mavjud bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalar uchun);

-so'zlar ro'yxati (so'zlashuv nutqi mavjud bo'lgan bolalar uchun);

-holat, harakatlar aks ettirilgan rasmlar;

-yakka tartibdagi ovoz yozib olish apparaturasi.

Tekshirish shovqinsiz, tinchlik, osudalik sharoitida, tashqaridan izolyatsiyalangan xonada olib boriladi.



Bola tovushlarning tebranishi (vibratsiyasi)ni sezmasligi uchun oyog'i tagiga yumshoq mato tashlanadi. Uning qarshisida oyna yoki boshqa aks etuvchi predmet bo'lmasligi lozim.

Bolalarning bu muhit bilan notanishligiga reaksiya berishni kamaytirish kerak va u bilan tez muloqotga kirishish uchun tekshirish ota-ona yoki pedagog ishtirokida o'tkazilishi tavsiya qilinadi.

Bolaga eshitilgan tovushga qanday javob berishi tushuntiriladi (qo'lini ko'taradi, o'girilib qaraydi, audiometr tugmasini bosadi).

#### **Savollar.**

1.L.V.Neyman eshitish chastotalari maydoni yordamida qabul qilish diapazoniga asoslanib, karlarni necha guruhga ajratadi?

2.M.Boskis nutqiy rivojlanish darajasining qaysi omillar bilan aloqadorligini ko'rsatib o'tgan?

3.Eshitish nuqsonini tashxis qilishda qaysi omillarni oydinlashtirish lozim?

#### **4.ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR TA'LIM TIZIMI**

**Tayanch tushunchalar:***Umumiy metodlar, maxsus metodlar, xususiy metodlar, zaif eshituvchilarning og'zaki nutqi, nutqning lug'at asosini shakllantirish, nutqning grammatik qurilishini shakllantirish, til tizimi bilan boshlang'ich tanishuv, nutqni rivojlantirish, talaffuz malakalarini rivojlantirish.*

#### **Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar uchun tashkil etilgan ta'lim muassasalari tarmog'i**

Mamlakatimizda eshitishida muammosi bo'lgan shaxslar uchun samarali uzluksiz ta'lim tizimi yaratilgan bo'lib, bu tizim kar va zaif eshituvchi shaxslarning ijtimoiy moslashuvi va integratsiyasining zaruriy sharti hisoblangan birlamchi muammo oqibatlarini bartaraf etishga hamda jamiyatning barcha sog'lom a'zolari bilan teng darajada ma'lumot olishiga imkoniyat beradi.

Hozirgi bosqichda eshitishida muammosi bo'lgan bolalarga hayotining ilk paytlaridan (eshitishi pasayganligi aniqlangan

vaqtdan) boshlab psixologik-tibbiy-pedagogik korreksiya yordami ko'rsatib kelinmoqda. Maktabgacha yoshdagi eshitishida muammosi bo'lgan bolalar uchun maxsus maktabgacha ta'lim muassasalarida hamda sog'lom bolalar bilan teng holda umumiy maktabgacha ta'lim muassasalarida integratsiyalashgan sharoitlarda ta'lim olish, shuningdek, eshitishni qayta tiklash va reabilitatsiya (surdologik) markazlarida qisqa vaqtli guruhlarda konsultativ yordam olish imkoniyatlari yaratilgan.

Eshitishida muammosi bo'lgan bolalarga hayotining dastlabki oylaridan boshlab yordam berish tizimining rivojlanishi maktab yoshidagi yaxshi tayyorgarlikka ega zaif eshituvchi va eshitmaydigan bolalar qismiga umumiy tipdagi umumta'lim maktablarida o'qishga imkon beradi. Tug'ma yoki orttirilgan (nutqgacha davrda) kar bo'lgan o'quvchilarning asosiy qismi kar bolalar uchun maxsus (korreksion) ta'lim muassasalarida ta'lim oladilar, bunda ularning eshitadiganlar bilan teng ma'lumot olish huquqlari amalga oshiriladi.

Maxsus maktablardagi ta'lim jarayonida ta'limning korreksion yo'nalishi ta'minlanadi. Korreksion-tiklash ishi barcha pedagogik jarayonni qamrab oladi va maxsus ravishda tashkil qilingan, elektr akustika apparaturasidan keng foydalanishni ko'zda tutadigan, eshitish-nutq muhiti sharoitida amalga oshiriladi.

Maxsus ta'lim jarayonida shaxsiy-faoliyatli yondashuv asosiy hisoblanadi. Karlar oliy kasbiy ta'limi bo'yicha yaratilgan modelning yetakchi tamoyili-insonparvarlik yo'nalishidan iborat.

Insonparvarlikka yo'naltirilgan ta'limning tizim hosil qiluvchi o'rinli har bir, shu jumladan eshitishida muammosi bor odamning o'z qobiliyatlari, o'zining potensial imkoniyatlarini ochish va namoyon qilish huquqi hisoblanadi. Insonparvarlashtirishning eng jiddiy aspekti talablarning umumiy madaniy, ma'naviy rivojlanishi, ularning umuminsoniy qadriyatlar olamida keng yo'naltirilishi hisoblanadi. Oliy o'quv yurtlarida eshitishida muammosi bor shaxslar ta'limi jarayonida ta'lim dasturlarini fundamentallashtirish tamoyili amalga oshiriladi, bu esa zarur hollarda mutaxassislarni qaytadan moslashtirishni, ularning hozirgi jamiyatdagi mehnat sharoitlari o'zgarishlariga tez munosabat bildirishlarini ta'minlaydi. Bu esa imkoniyati cheklangan shaxslar uchun alohida ahamiyatga ega.


Eshitishida muammosi bor shaxslar oliy ta'limi asoslarini ishlab chiqishda tizimli-modulli yondashuv amalga oshiriladi, bunda ta'lim spiralsimon yo'nalish bo'yicha olib boriladi va ilgari modullardagi bilimlarni keyingilarini o'rganishga mos ravishda joriy qilish, bo'lajak mutaxassisning o'quv, ilmiy, kasbiy faoliyatining integrativ o'zaro bog'liqligini aks ettirish imkoniyatini beradi.

Eshitishida muammosi bor shaxslar ta'limida o'quv reja quyidagi bloklarni o'z ichiga oladi: umumta'lim-gumanitar va kasbiyning o'zi, bu esa, masalan, tibbiy, psixologik-pedagogik, maxsus pedagogik va metodik fanlardan tarkib topgan. Fundamental umummadaniy va kasbiy tayyorgarlik har xil qo'shimcha mutaxassisliklar va ixtisoslashuvlarni (maxsus psixologiya, ijtimoiy ish, oilaviy tarbiya va b.) olish imkoniyatlari bilan qo'shib olib boriladi. Universitet talabalari fundamental umumkasbiy va maxsus - kasbiy bilimlarni oladilar, bu oliy o'quv yurti ta'limi standartining zamonaviy umumiy tendensiyalariga mos keladi.

Shu bilan birga eshitishida muammosi bor shaxslarni tayyorlash tizimiga eshitish - nutq reabilitatsiyasi bo'yicha maxsus mashg'ulotlar ham kiritiladi. Ta'lim jarayonida eshitishida muammosi bor talabalar rivojlanishining shaxsiy xususiyatlari hisobga olinadi, bu mustaqil rivojlanish uchun sharoitlar yaratishni hamda shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanishni ko'zda tutadi.

Rivojlangan davlatlarda eshitmaydigan talabalardan mutaxassislar tayyorlash tajribasi ko'rsatadiki, faoliyatning muvaffaqiyatligi ko'p jihatdan faqat bilimlarning yuqori darajasi, bilim olish va faoliyatning unumli metodlarini egallaganlik bilan emas, kasbiy ishga kompleks tayyorgarlik bilan ham belgilanadi.

Eshitishida muammosi bor shaxslarning muvaffaqiyatli kasbiy faoliyati faqatgina o'qish va o'rganishning yuqori darajadali bilan emas, balki ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-psixologik, maxsus texnologik axborot (moslashtiruvchi va kompensatsiyalovchi) va muloqot madaniyati bilan ham belgilanadi. Ta'limda eshitishida muammosi bor shaxslarning hayotiy makoni to'siqlarsiz shakllanishiga (imkoniyat darajasida) va atrofdagi normal eshituvchilarni eshitmaydiganlar bilan kasbiy va ijtimoiy sohalarida faol sheriklik munosabatlariga tayyorlashga katta e'tibor qaratiladi.



**Eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning maktabgacha ta'lim tizimi.** Eshitishida muammosi bo'lgan shaxslarning uzluksiz ta'lim tizimida maxsus maktabgacha muassasalar jiddiy ahamiyatga ega. O'zbekistonda 2 yoshdan 7 yoshgacha maktabgacha yoshdagi eshitishida muammosi bo'lgan bolalar uchun ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari tizimi mavjud. Eshitish va nutq holatini hisobga olgan holda kar va zaif eshituvchi bolalar uchun maktabgacha ta'lim muassasalari tashkil qilinadi. Ularning faoliyati "Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari va qo'shma turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari to'g'risidagi namunaviy Nizom" (2019) bilan boshqariladi.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 11 avgustdagi 510-son qaroriga ko'ra eshitishda og'ir nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun qo'shma tipdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv guruhlarini tashkil etish belgilab berilgan. Koxlear implantatsiya jarahligi o'tkazilgan bolalarning nutqiy-eshituv reabilitatsiyasining 4 davridan I "Dastlabki" hamda II "Asosiy" davrlarining muvaffaqiyatli o'tishi bolaning ommaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv tarzda amalga oshiriladi.

Demak, kar va zaif eshituvchi maktabgacha yoshdagi bolalar ko'p tarmoqli, qo'shma yoki umumiy tipdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanishi va o'qishi mumkin.

**Kar yoki zaif eshituvchi bolalar uchun ko'p tarmoqli maktabgacha ta'lim tashkilotlari.**

Bu turdagi tashkilotlarda eshitishida og'ir nuqsoni bo'lgan bolalar guruhleri Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi, viloyatlar maktabgacha ta'lim boshqarmalari va Toshkent shahar maktabgacha ta'lim bosh boshqarmasi huzuridagi tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya qarori bilan yuborilgan kar yoki zaif eshituvchi bolalar soni yetarlicha bo'lganda ochiladi. Ko'p tarmoqli maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bolalar 2 yoshdan qabul qilinadi. Ta'lim jarayoni bolalar bog'chaga kelgan kundan boshlab, tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya xulosasida ko'rsatilgan muddatlarda olib boriladi.

Ko'p tarmoqli maktabgacha ta'lim tashkilotlarining kunduzi va tungi vaqtda (butun sutka davomida) faoliyat olib borishiga yo'l

qo'yiladi. Bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotlarida erkin qatnashlari ham ko'zda tutiladi.

Ta'lim-tarbiya jarayoni mazmunini belgilashda pedagoglar jamoasi maktab yoshigacha bo'lgan kar va zaif eshituvchi bolalarni tarbiyalash va o'qitish bo'yicha mavjud dasturlarni qo'llashi, shu bilan birga, tarbiyalanuvchilarning shaxsiy xususiyatlari (yoshi, eshitishi, nutqi, intellekti ahvoli va sh.k.)larga muvofiq ravishda variativ umumiy) rivojlantiruvchi va korreksion dasturlar kompleksidan tanlab olishi mumkin.

**Qo'shma tipdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari(inklyuziv guruhleri).**

Bunday maktabgacha ta'lim muassasalari tarkibiga umumiy rivojlantiruvchi guruhlar bilan bir qatorda eshitishida muammosi bo'lgan bolalar uchun kompensatsiyalovchi guruhlar ham kiradi. Odatda eshitishi va nutqi ahvoliga bog'liq ravishda maktabgacha ta'lim muassasalari qoshida kar yoki zaif eshituvchi bolalar uchun guruhlar tashkil qilinadi. Kar va zaif eshituvchi bolalarni birgalikda bitta guruhda tarbiyalash va ta'lim berish tavsiya qilinmaydi. Guruhlar bir xil yoshdagi yoki yaqin yoshdagi bolalardan tarkib topadi.

**Umumiy tipdagi maktabgacha ta'lim muassasalari.**

Ularda kar, zaif eshituvchi yoki kech kar boigan maktabgacha yoshdagilarning eshitadiganlar bilan integratsiyalashgan ta'limini amalga oshirish mumkin. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar uchun o'qituvchi-defektolog (surdopedagog, logoped), pedagog-psixolog bilan yakka korreksion - rivojlantiruvchi mashg'ulotlar tashkil qilinishi mumkin.

Kar, zaif eshituvchi yoki kech kar bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalar uchun maxsus (korreksion) maktablar, maktab-internatlardagi maktabgacha guruhlar, bo'limlar.

Eshitmaydigan, zaif eshituvchi yoki kech kar bo'lgan bolalar uchun maktabgacha guruhlar ularni rivojlantirishni va maktabga tayyorlashni ta'minlashga mo'ljallangan. Maktabgacha bo'limlar (guruhlar)ga bolalarni 2-3 yoshdan mavjud sharoitlarni hisobga olgan holda qabul qilinadi. Turli sabablarga ko'ra (eshitish nuqsonlari kech aniqlangan, bolaning kundalik kasalliklari va b.) sababli maxsus ta'lim berish kechiktirilgan muddatlarda boshlanadigan zarur hollarda maktabgacha katta yoshdagi bolalar

uchun guruhlar tashkil qilinadi. Ikki yillik davr davomida maktabgacha yoshdagilarni kar yoki zaif eshituvchi bolalar uchun maktabning birinchi sinfida o'qishga tayyorlashga yo'naltirilgan umumiy rivojlantiruvchi va korreksion ish amalga oshiriladi.

Kar va zaif eshituvchi bolalarni tarbiyalash va ta'lim berishni tashkil qilish va mazmunini aniqlashda pedagoglar eshitishida muammosi bo'lgan bolalar uchun maktablardagi maktabgacha ta'lim guruhlarining tarbiya va ta'lim dasturlarini qo'llashlari mumkin. Dastur ikki yillik korreksion-rivojlantiruvchi ishga mo'ljallangan. Shuningdek, kar va zaif eshituvchi bolalar uchun maktabgacha ta'lim muassasalariga tavsiya qilingan dasturlardan foydalaniladi, bundan tashqari, variativ korreksion va umumiy rivojlantiruvchi dasturlar ishlab chiqilishi mumkin.

Kar va zaif eshituvchi maktabgacha bolalarni tarbiyalash va ta'lim berish dasturlari ular rivojlanishining umumiy qonuniyatlari va psixik jarayonlar rivojlanishidagi senzitiv davrlar asosida tuziladi.

Dasturlar mazmuni tarbiyalash va ta'lim berishning quyidagi tamoyillarini amalga oshirishga yo'naltirilgan:

maktabgacha yoshdagi eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning yosh psixofiziologik imkoniyatlarini o'rganish va ularni eshitadigan tengdoshlariga mumkin bo'lgan hamma narsalar bilan tanishtirish asosida umumiy har tomonlama rivojlantirishni taminlash;

bolalarning shaxsiy xususiyatlari va nuqsonlarining tarkibini hisobga olgan holda maxsus korreksion-tarbiyaviy ishni tashkil qilish;

kar va zaif eshituvchi bolalar tarbiyasiga faoliyatli yondashuvni, ya'ni tarbiyaviy ishning turlarini (ta'limiy va korreksion) bolalar faoliyatining asosiy turlari o'zanida o'tkazishni amalga oshirish;

eshitish qoldig'idan keng foydalanish va rivojlantirish hamda barcha mashg'ulotlarda va rejimli vaqtlarda jamoaviy va shaxsiy foydalaniladigan zamonaviy ovoz kuchaytiruvchi apparatlarni qo'llash;

nutqiy vositalardan bolalar bilan muloqotning tabiiy va maxsus uyushtirilgan vaziyatlarida foydalanish;

maxsus maktabgacha ta'lim muassasasi bilan tegishli turdagi maktab o'rtasida uzviy aloqalarni amalga oshirish.

Dasturning o'quv materiali har xil bo'limlarda maktabgacha ta'limning boshdan oyoq davrida umumiy bo'lgan va turli tuman faoliyat turlari jarayonida yagona nutq vositalari bilan ishlab chiqiladigan mavzular bo'yicha guruhlashtirilgan.

Dastur talablarini va atrofdagi olam haqidagi ma'lumotlarni o'zlashtirish uchta usullar bilan: faoliyat, tasvirlash, nutq (og'zaki, yozma, daktil) ularning ta'lim bosqichi va muloqot sharoitlariga bog'liq holdagi turli nisbatlarida amalga oshiriladi.

Sanab o'tilgan tamoyillar maktabgacha yoshdagi eshitishida muammosi bo'lgan bolalar rivojlanishidagi muammolar, nuqsonlar va korreksiyalash yo'llarining hozirgi tushunilishini aks ettiradi.

Bolalar maktabgacha ta'lim muassasasida kamida 4-yil davomida bo'lgan mobaynida zarur moddiy baza va pedagoglarning tegishli malakasi (maxsus oliy ma'lumotli o'qituvchi-defektolog, oliy yoki o'rta ma'lumotli maktabgacha ta'lim tarbiyachisi - maxsus pedagogika va maxsus psixologiya sohasida muntazam malaka oshirgan holda) bo'lgan sharoitda dasturning barcha talablari to'liq hajmda bajarilishi mo'ljallangan.

Dasturning har bir bo'limidan o'rin olgan tarbiyaviy-ta'limiy ishning aniq vazifalarini hal qilish faqat tarbiyaga kompleks yondashuv, o'qituvchi-defektolog bilan tarbiyachining ishida uzviy o'zaro bog'liqlik hamda ota-onalarning bolalar tarbiyasidagi, ular bilan ishlash bo'yicha yagona talablarni joriy qilishdagi ishtiroki bo'lgan sharoitlardagina mumkin. Dasturni bajarish uchun mas'uliyat maktabgacha ta'lim muassasasi xodimlariga to'liq yuklatiladi.

Dastur to'qqizta bo'limdan iborat bo'lib, ularning jami turli yo'nalishlar bo'yicha pedagogik ishni (aqliy rivojlanish, jismoniy, axloqiy, estetik tarbiya, mehnat, so'zlashuv nutqiga o'rgatish, qoldiq eshitishni rivojlantirish) ta'minlash imkonini beradi. Dastur bo'limlari eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni tarbiyalash xususiyatlarini hisobga olgan holda ma'lum ketma-ketlikda joylashtirilgan. Ayrim bolalar maktabgacha ta'lim muassasasiga o'qishlarining ikkinchi yilidan keladilar. Shuning uchun birinchi-yil o'qitish ishining mazmuni, dasturiy talablari ma'lum manoda ikkinchi yil takrorlanadi.

Avval maktabgacha yoshdagilarni tarbiyalash va ularga ta'lim berishning asosiy vazifalarini: jismoniy rivojlantirish, asosiy

harakatlarni rivojlantirish, bolalar sog'lig'ini saqlash va ularning maxsus maktabgacha ta'lim muassasasidagi maishiy sharoitlarini ta'minlashga yo'naltirilgan bo'limlar o'rin olgan. Shundan keyin maktabgacha yoshdagi bola faoliyatining asosiy turlari bo'yicha ishning mazmuni va unga talablar bayon qilinadi. O'yin, produktiv va elementar mehnat faoliyatini rivojlantirish bo'yicha materiallarni beruvchi bo'limlardan keyin "Atrofdagi olam bilan tanishtirish", "Nutqni rivojlantirish" va "Elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish" bo'limlari o'rin olgan.

"Eshitish idrokini rivojlantirish va talaffuzga o'rgatish" korreksion ishi dasturining mustaqil bo'limi sifatida berilgan.

"Korreksion ritmika" hamda "Musiqiy tarbiya" - dasturning so'nggi bo'limi bo'lishiga qaramay, o'zining korreksion ahamiyati, bolalarni estetik tarbiyalash va rivojlantirish vazifalari bo'yicha, bu bo'lim hech ham ikkinchi darajali yoki kar ahamiyatli hisoblanmasligi lozim.

Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotining rivojlantiruvchi ta'lim va tarbiya dasturlari, umuman, bolani rivojlantirishni boyitish (amplifikatsiya)ga, uni rivojlantirish davomida nuqsonini korreksiyalashga, bolalarni maktab ta'limiga, ijtimoiy moslashuvga muvaffaqiyatli tayyorlashga yo'naltirilgan.

Eshitishda muammosi bo'lgan bolalarning maktabgacha tarbiyasidagi muvaffaqiyatlar barcha mutaxassislarining bir-birini o'zaro tushinishi va kasbiy hamkorliklari darajasi, korreksion-rivojlantiruvchi pedagogik ta'sirning natijaviyligi, puxta o'ylab chiqilganligi, tarbiyalanuvchilar oilalaridagi mikroiklimning yaxshilanishi, eshitishda muammosi bo'lgan bolalar uchun maxsus maktabgacha ta'lim muassasalarining jamoatchilik va oilalar bilan uzviy o'zaro aloqasi darajasi bilan belgilanadi.

**Surdologik markazlar va kabinetlar.** Diagnostika va konsultatsiya, psixologik - tibbiy - pedagogik rehabilitatsiya va korreksiya markazlari.

Eshitishda muammosi bo'lgan maktabgacha yoshdagilarga psixologik-pedagogik yordam surdologiya kabinetlari va markazlarida ko'rsatiladi. Surdopedagoglar bolalar bilan korreksion - rivojlantiruvchi mashg'ulotlar olib boradilar, ota-onalarga bolalarni oilada tarbiyalash va ularga ta'lim berish masalalari bo'yicha konsultatsiyalar beradilar, maktabgacha ta'lim

muassasalariga jalb qilingan bolalarning rivojlanishi ustidan nazorat olib boradilar.

Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlari eshitmaydigan bolalarni jamiyatga integratsiyalash, ularda jamiyatga kirishishning adekvat usullarini shakllantirish va bu jarayonda bolani va uning oilasini psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash uchun optimal sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan kompleks ijtimoiy ahamiyat masalalarni hal etadilar.

Eshitishda muammolari bo'lgan bolalarni maktabgacha tayyorlashning asosiy maqsadi har bir bolaning to'liq har tomonlama rivojlanishi, unda ijobiy shaxsiy sifatlarining shakllanishi uchun sharoitlar yaratish hisoblanadi.

Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlarida diagnostika, tarbiyaviy-ta'limiy va korreksion-rivojlantiruvchi masalalar hal etiladi.

Yetakchi diagnostik masala bolani korreksion-ta'limiy jarayon sharoitida dinamik kuzatish orqali diagnozni aniqlash hamda uni shaxsiy rivojlantirish dasturini ishlab chiqish maqsadlaridagi kompleks tibbiy-psixologik-pedagogik o'rganish hisoblanadi.

Ta'limiy-tarbiyaviy vazifalarni hal qilish maktabgacha yoshdagi bolada ijobiy shaxsiy sifatlarini tarbiyalashga, bolalarning har xil turdagi faoliyati (loy va plastlindan qurish-yasash, applikatsiya, rasm chizish, konstruksiyalash, qo'l mehnati, kundalik turmushdagi mehnat, hamda o'yinlar: didaktik, harakatli, syujetli-rolli)dan foydalanish sharoitlarida bolaning rivojlanishini boyitishga (amplifikatsiyaga), elementar o'quv faoliyatini, bilim olish faolligini rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Ta'limiy-tarbiyaviy masalalarni hal qilib borishda maktabda o'qishga tayyorlash uzviylikka, eng avvalo, til o'rgatish, eshitish - nutq rehabilitatsiyasi va shu kabilar tamoyillariga rioya qilgan holda amalga oshiriladi.

Korreksion-rivojlantiruvchi ish eshitish idrokini rivojlantirishga va og'zaki nutqni o'rgatishga, rehabilitatsiyaga (korreksion ishni erta - 1 yoshgacha davrda boshlangan holda) va bolada uning bilish sohasi, xulqi, qadriyatli - shaxsiy oriyentirlari rivojlanishidagi, har bir yosh davri uchun yetakchi bo'lgan faoliyat turlarining: go'daklik davridagi emotsional - shaxsiy muloqot, ilk bolalik (1 dan 3 yoshgacha) davridagi predmetli faoliyat,

maktabgacha yoshdagi (3 dan 7 yoshgacha) bolaligidagi - o'yin faoliyati shakllanishida yuz berishi mumkin bo'lgan chetga chiqishlarni yengib o'tishga yo'naltirilgan. Agar o'yin haqida gapiradigan bo'lsak, eshitmaydigan bolalarda o'yin mexanizmlarining o'zini: rolli xatti-harakatlarni, boshqaning o'rnida bo'lishni, o'yinning g'oyasini ijodiy rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirishga e'tibor qaratilgan bo'lishi lozim.

***Maktab yoshidagi eshitishda muammosi bo'lgan bolalar ta'limining zamonaviy tizimi.***

O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi va "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq ravishda aqliy va jismoniy rivojlanishida muammolari bo'lgan o'quvchilar boshqa bolalar bilan teng huquqlarga ega. Salomatliklari tufayli imkoniyatlari cheklangan bolalar ta'limi ular uchun eshitadigan bolalar bilan teng rivojlanish nuqsonlarini korreksiyalash, davolash va sog'lomlashtirish, ijtimoiy moslashtirish uchun adekvat sharoitlarni, maxsus korreksion-rivojlantiruvchi ta'lim tizimini yaratishni ko'zda tutadi.

**Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etish.**

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (keyingi o'rinlarda — alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar) uchun inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibini belgilaydi. Inklyuziv ta'lim — alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlagan holda amalga oshiriladi.

Inklyuziv ta'lim sinfi — maktabdagi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning boshqa (sog'lom) bolalar bilan teng huquqli va birgalikdagi ta'lim olish shaklida tashkil etilgan sinf hisoblanisa, boshlang'ich tayanch korreksion sinf — maktabda eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun alohida tashkil etilgan boshlang'ich sinf bilan tavsiflanadi.

Inklyuziv ta'lim va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarda tahsil olayotgan sog'lom yoki alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar. Maktabda o'quvchilar boshqa (sog'lom) bolalar bilan bir qatorda maktabga qatnab muayyan sinfning o'quv rejasiga mos keladigan o'quv dasturlari doirasida tahsil oladi.

Maktabga qatnab o'qish imkoniyati bo'lmagan o'quvchilarga ta'lim berish o'quv rejalari va o'quv dasturlariga muvofiq ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar bilan kelishilgan tavsiyaga muvofiq zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni masofadan turib yoki uyda yakka tartibda ta'lim berish orqali amalga oshiriladi.

Inklyuziv ta'limni tashkil etish insonparvarlik, umuminsoniy qadriyatlar, bag'rikenglik, oshkoralik tamoyillariga asosan amalga oshirilib, boshlang'ich tayanch korreksion sinflar bolalarning yosh va individual xususiyatlari, aqliy rivojlanishi darajasi, somatik va asab-ruhiy sog'lig'i holatiga muvofiq tashkil etiladi.

Shu nuqtai nazardan, inklyuziv ta'limning vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- rivojlanishning turli imkoniyatlariga ega bo'lgan o'quvchilar uchun har qanday kamsitilishni istisno qiladigan, barcha bolalarga teng munosabatda bo'lishni ta'minlaydigan yagona moslashtirilgan ijtimoiy muhitni yaratish;

- jamoatchilik hamda ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar muammolariga nisbatan bag'rikenglik munosabatini shakllantirish;

- ta'lim jarayonida sog'lom bolalar bilan bir qatorda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning aqliy va ijtimoiy salohiyatlarini rivojlantirish;

- barcha o'quvchilar uchun davlat ta'lim standartlariga muvofiq umumiy o'rta ta'lim dasturlarini o'zlashtirish uchun imkoniyat yaratish;

- o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishi, emotsional-tirodaviy sohasi, bilish faoliyatini faollashtirish, ijtimoiy ko'nikma va salohiyatini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga maslahat yordami berish hamda ota-onalarni farzandlariga ta'lim-tarbiya berish, pedagogik texnologiyalar, ta'lim-tarbiya metod va vositalarini qo'llash sohasida xabardorlik darajasini oshirish, ularni psixologik-pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlash.

Maktabda inklyuziv ta'lim va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarni tashkil etish quyidagilar bilan tavsiflanadi:

- Maktabda inklyuziv ta'lim va boshlang'ich tayanch korreksion sinflar hududdagi aholi ehtiyoji va ota-onalar yoki ularning o'rnini

bosuvchi shaxslar taklifi bilan hududiy xalq ta'limi boshqarmasi buyrug'iga ko'ra tashkil etiladi;

-nodavlat ta'lim tashkilotlari ham barcha zarur sharoitlar mavjud bo'lgan taqdirda inklyuziv ta'lim va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarni tashkil etishlari mumkin;

-nodavlat ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarni tashkil etish tegishli hududiy xalq ta'limi boshqarmasi bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi;

-inklyuziv ta'lim va boshlang'ich tayanch korreksion sinflar o'quvchilarning bino ichida harakatlanishi va ta'lim olishlari uchun maxsus sharoitlar yaratilgan maktablarda tashkil etiladi;

-inklyuziv ta'lim va boshlang'ich tayanch korreksion sinflar tashkil etilgan maktablar faoliyati O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi hamda hududiy boshqarmalari tomonidan metodik ta'minlanadi va muvofiqlashtiriladi.

O'quvchilarni inklyuziv ta'lim sinflariga va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilish tartibi quyidagilarga muvofiq amalga oshiriladi:

-maktabning inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarning birinchi sinfiga o'quvchilar ular yetti yoshga to'ladigan yilda qabul qilinadi;

-alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ta'lim olish huquqini ta'minlash maqsadida umumta'lim maktablari uchun belgilangan yosh me'yoridan ikki yilga oshgan bolalarni qabul qilishga ruxsat etiladi;

-o'quvchilarni inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilish hamda chiqarish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligining hududiy boshqarmalari huzurida tashkil etilgan Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya xulosasiga ko'ra, ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar roziligi bilan amalga oshiriladi;

-psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya yo'llanmasi o'quvchilarni inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilinishiga asos hisoblanadi;

-inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga boshqa ma'muriy-hududiy birlikdan kelib o'qish istagini bildirgan o'quvchilar o'quvchini qabul qilayotgan maktab joylashgan hududning psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyasi yo'llanmasiga asosan qabul qilinadi;

-o'quvchilarni inklyuziv ta'lim sinflariga va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilish o'quv yili boshlanguncha hamda o'quv yili davomida amalga oshiriladi va maktab direktorining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi;

-inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga yo'llangan har bir o'quvchiga ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan shaxsiy hujjatlar yig'majildi rasmiylashtiriladi va maktab rahbariyatiga taqdim etiladi.

O'quvchining shaxsiy hujjatlar yig'majildida quyidagi hujjatlar bo'ladi:

- ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning arizasi;

- psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya xulosasi;

- ta'lim olganligi to'g'risidagi hujjatlar (ta'lim muassasalarida o'qiyotgan bolalar uchun);

- o'qish joyidan ta'limning muddati, o'quv fanlarini o'zlashtirishi va xulq-atvori, o'quvchiga yakka tartibda ko'mak berish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlarning batafsil tahlili aks ettirilgan ma'lumotnoma va tavsifnoma;

- o'quvchining yashash joyidagi shifoxona bosh vrachi tomonidan imzolangan, uning rivojlanishi tarixidan mufassal ko'chirma.

Inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar ya'ni yeshitish qobiliyatining yo'qotilishi 60 Db gacha bo'lgan rivojlanishida qo'shimcha buzilishlar bo'lmagan bolalar qabul qilinadi.

**Ixtisoslashtirilgan ta'lim maktablarda ta'limni tashkil etish.**

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari ta'lim-tarbiya berish, korreksiyalash va davolash-sog'lomlashtirish muassasalari hisoblanadi hamda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning umumiy o'rta ta'lim olishda va ularni bilish imkoniyatlariga muvofiq tarbiyalashda, ularning jamiyatga moslashuvi va

integratsiyalashuvida ko'maklashish, shuningdek, ijtimoiy yordamga muhtoj oilalarga farzandlarini tarbiyalash va ularga ta'lim berishda yordam ko'rsatish maqsadida tashkil etiladi.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari turlari:

I — kar (eshitmaydigan) bolalar uchun maktab-internatlar;

II — zaif eshitadigan va keyinchalik kar bo'lgan bolalar uchun maktab-internatlar (1, 2-bo'lim).

Ushbu maktablarni tashkil etish tegishli hududda oxirgi 5 yilda 3 yoshdan 16 yoshgacha bolalar o'rtasida tegishli kasalliklarning ko'payganligini ko'rsatadigan sog'liqni saqlash organlarining rasmiy statistika ma'lumotlari bilan asoslanishi kerak.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida o'quvchilar soni 250 nafardan oshmasligi kerak. Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga bolalar 7 yoshga to'ladigan yilda, tayyorlov guruhlariga 6 yoshdan qabul qilinadi. O'quvchilar soni 250 nafardan oshishiga sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga muvofiq, ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasining o'quvchilar bilan to'ldirilish sig'imidan kelib chiqib O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi bilan kelishgan holda vazirlikning roziligi asosida yo'l qo'yiladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ta'lim olish huquqini ta'minlash maqsadida umumta'lim maktablari uchun belgilangan yosh me'yoridan ikki yilga oshgan bolalarni qabul qilishga ruxsat etiladi.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida sinflarning soni, eng avvalo, ta'lim jarayoni uchun sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari talablarini hisobga olgan holda hamda ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasi turiga, undagi o'quvchilar kontingenti va sinflarning to'ldirilishiga ko'ra belgilanadi:

Ta'lim yo'nalishi turlari va sinflardagi bolalar toifalari	Sinflarning o'quvchilar bilan to'ldirilishi	
	O'quvchilarning minimal soni	O'quvchilarning maksimal soni
1. I — II turlar:		
Kar (eshitmaydigan) bolalar uchun	8	10

Zaif eshituvchilar va keyinchalik kar bo'lgan (1, 2-bo'limlar) bolalar uchun	10	12
--	----	----

Ixtisoslashtirilgan maktab-internatlardagi tarbiya guruhlarida va ixtisoslashtirilgan maktablardagi kuni uzaytirilgan guruhlarda bolalar soni quyidagicha belgilanadi:

Ta'lim yo'nalishlari turlari va bolalar toifalari	Tayyorlov sinflaridagi bolalar soni	Tarbiya guruhlari va kuni uzaytirilgan guruhlarining minimal to'ldirilishi	
		Boshlang'ich sinflardagi bolalar soni	Yuqori sinflardagi bolalar soni
1. I-II tur:			
Kar (eshitmaydigan) bolalar uchun	8	8	12
Zaif eshituvchilar va keyinchalik kar bo'lgan (1, 2-bo'limlar) bolalar uchun	8	8	12

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining majburiy umumiy o'rta ta'limning 11 yillik dasturini tamomlagan bitiruvchilarga 9-sinfda shahodatnoma va 11-sinfda attestat, majburiy umumiy o'rta ta'limning 9 yillik (intellektual rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun (yordamchi) maktablar, maktab-internatlar) dasturini tamomlagan bitiruvchilarga guvohnoma beriladi. Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasi o'quvchilarini bir sinfdan ikkinchi sinfga o'tkazish pedagogik kengashning qarori asosida, ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasining tibbiyot xodimlari va pedagog xodimlari xulosasi asosida amalga oshiriladi. O'quvchilarni bir ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasidan boshqa ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasiga yoki inklyuziv sharoitda ta'lim olishi uchun umumta'lim tashkilotiga o'tkazish psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyaning xulosasiga ko'ra, bolaning ota-onasi yoki ular o'rnini bosuvchi shaxslarning roziligi bilan amalga oshiriladi.



Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga yuborish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligining hududiy boshqarmalari huzurida tashkil etilgan psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya (keyingi o'rinlarda — psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya) xulosasiga ko'ra, ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar roziligi bilan amalga oshiriladi.

Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya yo'llanmasi bolalar ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga qabul qilinishiga asos hisoblanadi. Bolalarni qabul qilish o'quv yili davomida amalga oshiriladi va ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasi direktorining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

Maktaga jalb etilgan bolaning shaxsiy hujjatlar yig'ma jildida quyidagi hujjatlar bo'ladi:

ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning arizasi;

psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya xulosasi;

ta'lim olganligi to'g'risidagi hujjatlar (ta'lim muassasalarida o'qiyotgan bolalar uchun);

o'qish joyidan ta'limning muddati, o'quv fanlarini o'zlashtirishi va xulq-atvori, bolaga yakka tartibda ko'mak berish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlarning batafsil tahlili aks ettirilgan ma'lumotnoma va tavsifnoma (ta'lim muassasalarida o'qiyotgan bolalar uchun);

bolaning yashash joyidagi shifoxona bosh vrachi tomonidan imzolangan, uning rivojlanishi tarixidan mufassal ko'chirma:

pediatrning bolaning umumiy rivojlanishi holati to'g'risidagi xulosasi;

psixonevrologning tibbiy tashxisi va bolaning aqliy rivojlanishiga tavsifi;

otorinologning quloq, tomoq, burun va talaffuz artikulyasiyasida ishtirok etuvchi organlarning holatiga tavsifi (eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun - so'zlashuv nutqi va shivirlab aytilgan so'zlarni idrok etish holati to'g'risidagi ma'lumotlar, audiogramma ma'lumotlari);

oftalmologning ko'rish organiga tavsifi (ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun batafsil tashxisi);

ortoped vrachning xulosasi (tayanch-harakatlanish apparatida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun).

### **Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish.**

Hozirgi bosqichda ta'limning turli tashkiliy shakllari ko'zda tutilgan: eshitishda muammosi bo'lgan bolalar maxsus ta'lim muassasalarida, integratsiyalashtirilgan ta'limning turli sharoitlarida, umumiy umumtalim muassasalarida, uyda, stasionar davolash muassasalari sharoitlarida ta'lim olishlari mumkin.

Maxsus ta'lim jarayonida salomatlik imkoniyatlari cheklangan bolalarni o'qitish va ularni ijtimoiy moslashtirishning adekvat sharoitlari yaratiladi, davolash profilaktika va sog'lomlashtirish ishlari, rivojlanish nuqsonlarini korreksiyalash, umumta'lim tayyorgarligi, mehnat va boshlang'ich kasbiy tayyorarlik amalga oshiriladi. Ta'limning variativ shakllarini kiritishda zarur maxsus ta'lim sharoitlari ta'minlanishi lozim.

Har bir maxsus ta'lim muassasasida ta'lim jarayonining o'ziga xos xususiyatlari, ta'lim olayotgan aqliy va jismoniy rivojlanishida muammolari bo'lgan tarbiyalanuvchilar rehabilitatsiyasi bo'yicha faoliyat yo'nalishi hamda amalga oshirilayotgan ta'lim dasturlari darajasi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Sog'likni saqlash vazirligi bilan kelishilgan holda belgilanadi.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchining hayoti va fuqarolarning bepul ta'lim olish konstitusion huquqini amalga oshirish uchun javobgar. Muassasa o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi qonunlari, farmoyishlari, bola huquqlarini himoyalash sohasidagi xalqaro hujjatlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va farmoyishlari, tegishli ta'lim boshqaruvi organi qarorlari, umumta'lim muassasalari, boshlang'ich kasbiy ta'lim muassasalari to'g'risidagi namunaviy nizomlarga asoslanadi. Ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasasi faoliyati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 13 sentyabrdagi 256- son Qarori bilan tasdiqlangan "Jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalari (maktablar, maktab-internatlar) to'g'risidagi Nizomga muvofiq tashkil qilinadi.

Hozirgi bosqichda mamlakatda nodavlat maxsus ta'lim muassasalari ham tashkil qilinmoqda, ularning faoliyati ham Nizomni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasa ro'yxatga olingan vaqtidan boshlab yuridik shaxs huquqiga, mustaqil balansga, bank va boshqa kredit muassasalarida hisob schetiga, joriy va boshqa schetlarga ega bo'ladi. Korreksion muassasa O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va tegishli me'yoriy hujjatlarga muvofiq attestatsiyadan o'tkaziladi.

Maxsus ta'lim jarayonida salomatlik imkoniyatlari cheklangan bolalar ta'limi va ularning ijtimoiy moslashuvi uchun moslashuvchan sharoitlar yaratiladi, davolash-profilaktika va sog'lomlashtirish ishlari, rivojlanish nuqsonlarini korreksiyalash, umumta'lim tayyorgarligi, mehnat va boshlang'ich kasbiy tayyorgarlik amalga oshiriladi.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasada sinflar (guruh)lari soni ta'lim jarayonini amalga oshirish uchun zarur sanitar me'yorlar va sharoitlarga bog'liq holda muassasa ustavi bilan belgilanadi. Sinf (guruh)dagi o'quvchilarning eng ko'p soni ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasaning turiga bog'liq.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasada ta'lim mazmuni tarbiyalanuvchilarning psixofiziologik rivojlanishi va shaxsiy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasa tomonidan mustaqil qabul qilinadigan va amalga oshiriladigan ta'lim dasturlari bilan belgilanadi. Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasada mehnat ta'limi hududiy, mahalliy, etnomilliy sharoitlardan kelib chiqqan, u yoki bu kadrlarning ehtiyojiga yo'naltirilgan, tarbiyalanuvchilarning psixofiziologik rivojlanishi, sog'lig'i, imkoniyatlari, shaxsiy xususiyatlari hamda ularning ota-onalari (qonuniy vakillari) manfaatlarini hisobga olgan holda, tarbiyalanuvchilari shaxsiy yakka mehnat faoliyatiga tayyorlashni o'z ichiga olgan mehnat yo'nalishini tanlash asosida amalga oshiriladi.

Ixtisoslashtirilgan muassasada ta'lim jarayonini tashkil qilish Respublika ta'lim markazi tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlanadigan o'quv rejasi asosida, muassasa rahbari tomonidan tasdiqlangan yillik reja va mashg'ulotlar jadvali bilan boshqariladi.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasaning pedagoglari va tibbiy xodimlari, tarbiyalanuvchilar va ularning ota-onalari (qonuniy vakillari) ta'lim jarayoni ishtirokchilari hisoblanadi. Bolalarni maxsus (korreksion) ta'lim muassasasiga yo'llash ta'limni

boshqaruv organlari tomonidan, faqat ota-onalarning (qonuniy vakillarning) roziligi bilan va tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyaning xulosasi bo'yicha amalga oshiriladi.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasaning yordamchi sinfi guruhiga tarbiyalanuvchilar ota-onalarning (qonuniy vakillarning) roziligi bilan va tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya xulosasi asosida faqat korreksion muassasada birinchi-yil o'qiganidan keyin o'tkaziladilar. Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasada murakkab tarkibli nuqsoni bo'lgan tarbiyalanuvchilar uchun sinflar (guruh)lar shunday tarbiyalanuvchilarning ta'lim jarayoni sharoitlaridagi psixologik - tibbiy-pedagogik kuzatuv davomida aniqlanishiga qarab tashkil qilinadi.

Tarbiyalanuvchi ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasadan boshqa ta'lim muassasasiga o'tkazish ta'limni boshqarish organlari tomonidan ota-onalar (qonuniy vakillar)ning roziligi bilan va tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya xulosasi asosida amalga oshiriladi. Mazkur jarayonda "Aqliy va jismoniy nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni maxsus ta'lim muassasasidan boshqasiga yoki inklyuziv sharoitlarida ta'lim olish uchun umumta'lim muassasasiga o'tkazish to'g'risida"gi Nizomiga amal qilinadi (Xalq ta'limi vazirligi. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi 2685-raqamli hujyati. 2015 y. 17 iyun).

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasada ta'lim jarayoni korreksion pedagogika sohasidagi mutaxassislar hamda ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasa faoliyati yo'nalishida qayta tayyorlashdan o'tgan o'qituvchilar, tarbiyachilar tomonidan amalga oshiriladi.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasadagi ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilarini psixologik qo'llab-quvvatlashni uning shtatidagi psixolog amalga oshiradi.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasada tibbiy ta'minotni shtatdagi tibbiy xodimlar amalga oshiradilar, ular ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasa ma'muriyati bilan birgalikda tarbiyalanuvchilarning sog'lig'ini muhofaza qilish va ularning psixofiziologik ahvollarini mustahkamlash, dispanserizatsiyalash, profilaktik tadbirlarni o'tkazishni amalga oshiradilar va sanitariya-gigiyena va epidemiyaga qarshi rejimga rioya qilinishi, jismoniy tarbiya va chiniqtirish, ovqatlanish, shu jumladan parhezli ovqatlanishning tashkil qilishini nazorat qiladilar.

Barcha turdagi ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida medikamentoz va fizioterapevtik davolash, iqlim bilan davolash va chiniqtirish, davolash jismoniy tarbiyasi, massaj va psixoterapiya amalga oshirilishi mumkin.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasada yashovchi va to'liq davlat ta'minotida bo'lgan tarbiyalanuvchilar o'rnatilgan me'yorlarga muvofiq ovqatlanish, kiyim-kechak, poyafzal, jihozlar bilan ta'minlanadi.

Amaldagi psixologik-pedagogik tasnif va tibbiy differensial-diagnostik mezonlarga muvofiq zaif eshituvchilar toifasiga eshitishi pasayganligi darajasi ularga nutqiy faoliyatni mustaqil, maxsus ta'limsiz, kamida eng kam hajmda egallash imkonini beradigan bolalar kiritiladi. Zaif eshituvchi bolalar nutqi shakllanganligi darajasidagi farqlar diapazoni yetarlicha keng: nutqning ilk belgilaridan (o'ta kambag'al, ko'pincha so'zlarning parchalaridan iborat lug'at, nutqning talaftuz va grammatik jihatlari shakllanmaganligining ko'plab holatlari bo'lgan) dan nisbatan shakllangan, ayrim leksik-semantik, fonetik va grammatik nuqsonlari bo'lgan nutqgacha. Kech kar bo'lgan bolalar zaif eshituvchi bolalar bilan bitta maktabda ta'lim oladi. Kech kar bo'lgan bolalarda eshitish nuqsoni ularning nutqi shakllanib bo'lgan davrda hosil bo'lgan. Kech kar bo'lganlar uchun eng jiddiy muammo og'zaki nutqni kelgusida rivojlantirish va uning buzilib ketishi oldini olish maqsadlarida idrok etishning yangi usullariga (ko'rish, taktil - tebranishli va b.)ga, o'tish zarurati hisoblanadi. Kech kar bo'lganlarda muloqotning to'laqonli vositasi va bilish faoliyatining asosi sifatida shakllangan nutqning mavjudligi, ularni nisbatan saqlangan nutqga ega bo'lgan zaif eshituvchi bolalar bilan birlashtirib maxsus ta'lim berish imkoniyatini beradi.

Zaif eshituvchi va kech kar bo'lgan bolalar uchun maktabning tarkibiy tuzilishi tabaqalashtirilgan ta'lim tamoyillaridan kelib chiqqan holda, eshitish nuqsoni emas, nutqiy rivojlanish xususiyatlariga va bilim olish faolligiga taalluqli ikkilamchi holatlar asosida belgilandi. Aynan shuning uchun maktabning tarkibiy tuzilishida ikkita bo'lim faoliyat ko'rsatadi: 1- bo'lim biroz grammatik va talaffuz nuqsonlari bo'lgan mustaqil, keng nutqqa ega bolalar uchun; 2-bo'lim chuqur nutqiy rivojlanmagan bolalar uchun bo'lib, ularga birinchi navbatda, ularning maktabga kelguncha

tarbiya olgan sharoitlarini, maktabgacha tayyorgarlik olganligi yoki yo'qligini (bu qanday shakllarda - maxsus maktabgacha muassasada yoki oilada bo'lganligidan qat'iy nazar) hisobga olgan holda tabaqalashtirilgan yondashuvni qo'llaymiz. Maktabgacha tayyorgarlik olingan zaif eshituvchi bolalar uchun maktabning 2-bo'limi tarkibida tayyorlov sinfi ko'zda tutilgan. Ikkita birlamchi nuqsonga ega zaif eshituvchi bolalar: karlik va aqliy zaiflik; karlik va psixik rivojlanish sustlashgan va boshqalarni alohida guruhlariga ajratiladilar.

Hozirgi bosqichda mamlakatda eshitishida muammosi bor bolalarga nuqson ma'lum bo'lgan vaqtdan, go'dak yoshdan boshlab korreksion yordam ko'rsatiladi: Qoraqalpog'iston Respublikasi va har bir viloyatda erta diagnostika va yordam ko'rsatish markazlari faoliyat ko'rsatib, eshitishida muammosi bo'lgan shaxslarga erta korreksion yordam ko'rsatish tizimi yaratilganligi haqida gapirish imkonini beradi. Bunday ish maxsus maktabgacha va maktab muassasalarida, surdologiya va reabilitatsiya markazlarida olib boriladi va eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning erta har tomonlama rivojlanishiga yo'naltirilgan.

Eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni o'qitish tajribasi va ishlab chiqilgan pedagogik ta'sirning korreksion yo'llari, maxsus tashkil qilingan korreksion-rivojlantiruvchi ishni amalga oshirilganda, asosiy nuqson asoratlarini yengillashtirishi va eshitmaydigan bolalarning eshitadiganlar bilan teng darajadagi umumiy ta'lim olishi imkoniyatini isbotladi. Ulardan ko'pi umumiy o'rta va oliy o'quv yurtlarida ta'lim olishni davom ettirishga intiladilar.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim maxsus ta'lim muassasalarida ta'lim mazmunini belgilashda o'quvchilar ta'lim va tarbiyasining umumiy vazifalari hamda maxsus vazifalar hisobga olinadi. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'limi asosiy hisoblanadi, ya'ni zaif eshituvchi va kech kar bo'lgan o'quvchilarga umumiy o'rta ta'lim umumta'lim maktabining asosiy bosqichi hajmda ta'lim olish ta'minlanadi. O'quv rejalari va dasturlarida fanlarni o'rganish ketma-ketligi ularning xususiyatlari va fanlararo aloqalarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Maxsus maktabda o'qitish mazmuni, umumiy o'rta ta'lim maktabdagidek, uzluksiz ta'lim g'oyasining real amal qilishini ta'minlovchi yagona ta'lim tizimi tamoyiliga muvofiq

ishlab chiqiladi. Dasturlarning tuzilishi asosiy didaktik tamoyillarga mos keladi.

Pedagogik jarayon o'quvchi shaxsining barcha jihatlarini shakllantirishga, uning komil inson bo'lib shakllanishiga yo'naltirilgan. Ta'lim jarayonida bola uchun eng ahamiyatli bo'lgan psixik funksiyalar, ularning sifatleri va xususiyatlari shakllanadi hamda korreksiyalanadi. Maxsus ta'lim natijasida eshitishda muammosi bo'lgan bolalarda tafakkur va nutq, so'zlar xotirasi shakllanadi, nuqsonning o'rnini bosish imkoniyatlarini, maxsus ta'lim jarayonida rivojlanib boradigan eshitish idrokini rivojlantirish va foydalanish hisobiga ham, shu bilan birga, boshqa saqlangan analizatorlar va kompensator imkoniyatlar hisobiga ham kengaytirish uchun sharoitlar yaratiladi.

So'zlashuv nutqini rivojlantirishdagi, tilni o'rganish jarayonida bo'lib o'tadigan, har qanday chetga chiqishlar atrof-dagilar bilan muloqotni cheklaydi, ijtimoiy ehtiyojlarning rivojlanishida asorat qoldiradi. Shuning uchun maxsus maktabdagi korreksiya-tiklash ishi barcha pedagogik jarayonni qamrab oladi va bolalarning to'liq maktab bilimlari hajmini o'zlashtirishlari davomida olib boriladi. Eshitishda muammosi bo'lgan bolalarni o'qitishdagi korreksion yo'nalganlik alohida korreksion predmetlar, maxsus ta'lim metodlari, bilimlarni yetkazish va ishlab chiqishning alohida sharoitlarini yaratish, fanlararo aloqalar va bolalarning bilim olishga qiziqishini, ijtimoiy munosabatlari va ehtiyojlarini rivojlantirish orqali amalga oshiriladi.

Ta'lim har xil turdagi elektr akustik ovoz kuchaytiruvchi apparaturadan (statsionar jamoaviy va shaxsiy foydalaniladigan va shaxsiy eshitish apparatlaridan) muntazam ravishda foydalanish sharoitlarida olib boriladi.

Eshitish va eshitish-ko'rish idrokini rivojlantirishga, nutqning talaffuz jihatlarini shakllantirishga, maxsus e'tibor qaratiladi, bu esa o'quvchilarning og'zaki nutqini shakllantirish va takomillashtirish hamda ularning atrof-olamdagi nonutqiy ovozlar to'g'risidagi tasavvurlarini boyitishning prinsipial yangi eshitish ko'rish asosini yaratish imkonini beradi. Kech kar bo'lganlar uchun (yoshidan qat'iy nazar), eshitishning og'ir nuqsoni sababli, butun o'quv-tarbiya jarayoni davomida, og'zaki nutqni ko'rish (lablardan o'qish) asosida idrok qilishga o'rgatish hamda ularning eshitadiganlar bilan og'zaki

muloqotlarini tiklash maqsadida eshitish-ko'rish, ko'rish-tebranish asosida idrok qilishga o'rgatish bo'yicha yakka va guruhli mashg'ulotlarni ham qo'shgan holda, maxsus yakka yordam tashkil qilinadi. Musiqani idrok qilishni rivojlantirishga, tarbiyalanuvchilarni jamiyatning musiqaviy madaniyati bilan tanishtirishga, musiqaviy vositalardan foydalangan holda korreksion-rivojlantiruvchi ishni amalga oshirishga jiddiy ahamiyat beriladi.

Eshitishda muammosi bo'lgan bolalarning maxsus ta'limi o'ziga xos vositalardan ham, shuningdek umumiy o'rta ta'lim umumta'lim maktabida qo'llaniladigan vositalardan ham foydalanishni o'z ichiga oladi. Maxsus vositalarga daktitologiyani kiritish mumkin, undan nutqni idrok qilishni, so'zlarning tovush tarkibini o'zlashtirishni yengillashtiruvchi yordamchi vosita sifatida foydalaniladi. Bu vositalarga ovoz kuchaytirgich apparaturasi, shaxsiy eshitish apparatlari ham kiradi. Ikkinchi guruhdagi vositalarga yozma nutq kiradi. Eshitishda muammosi bo'lgan bolalar uchun yozish va o'qish faqatgina bilimlarni o'zlashtirishning mumkin bo'lgan usuli bo'lib qolmay, shu bilan birga ular tilni o'zlashtirishdagi eng to'laqonli manbalar ham hisoblanadi. Yozma nutqning, o'quvchilarning umuman nutqiy va bilish faoliyatini rivojlantirish vositasi sifatidagi ahamiyati, o'ziga xosdir. Tasavvurlar va tushunchalarni, u yoki bu hodisalarning sabab-oqibat munosabatlarini, fanlararo aloqalarni ko'rgazmali ifodalashni shakllantirishga yordam beruvchi ko'rgazmali-amaliy vositalar va usullar alohida ahamiyatga ega. Bu vositalarning hammasi o'quvchilarga o'z darajalarida tushunarli va motivli bo'lgan fikrlarni ifodalashning so'zlardan foydalaniladigan usullari bilan qo'shib qo'llaniladi; ularning yordamida o'quvchilarni muloqotga undash mumkin bo'ladi, bu esa nutqiy ko'nikmalar va umumlashmalarining shakllanishiga imkon beradi.

Mehnat (texnologiya) ta'limi va tarbiyasi ta'limiy-korreksion ishning jiddiy bo'lagi hisoblanadi. Mehnat ta'limi (texnologiya fani) milliy sharoitlar va ehtiyojlarni hisobga olgan holda tashkil qilinadi. U dastlabki mehnat tayyorgarligini (1-4-sinflar), umumiy mehnat tayyorgarligini (5-9-sinflar), ilk kasbiy tayyorgarlikni (10-sinf) (10-12-sinflar)ni o'z ichiga oladi. Ilk kasbiy tayyorgarlik mehnat ta'limi tashkil qilingan sanoat korxonalarida yoki maktab ustaxonalarida

amalga oshiriladi va pirovardida o'quvchilar tomonidan ishlab chiqarish topshirig'ini boshlang'ich malaka razryadi darajasida mustaqil bajarishlariga mo'ljallanadi.

Murakkab tarkibdagi nuqsonli (aqliy, ko'rish va boshqa nuqsonlari bo'lgan) bolalar uchun amaldagi qoidaga ko'ra yordamchi sinflar, RRS bo'lgan bolalar uchun sinflar, eshitishida va ko'rishida nuqsoni bo'lgan va sh.k. bolalar uchun sinflar tashkil qilinadi. Shuningdek, bolalar soni sinflarda kam bo'lib, ularni aslida yakka yondoshuvni talab qiladigan alohida dasturlar asosida o'qitiladi.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida olib borilgan ko'p yillik tajriba-sinovlar, tadqiqotlar asosida ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining o'quv rejasi va dasturlari ishlab chiqilib, zamonaviy talablar asosida takomillashtirib borilmoqda.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim ta'lim muassasalarining boshlang'ich va asosiy maktabida o'qish davomiyligi 10-11-yil (tayyorlov, 1-10-sinflar), 1-dan 12-sinfgacha o'qish davrida bolalar o'rta ma'lumot oladilar.

Asosiy maktabdagi ta'lim 4 bosqichga bo'linadi, bu bosqichlar ta'lim mazmunining izchil rivojlanib va murakkablashib borishi bilan xarakterlanadi:

- dastlabki davr (tayyorlov sinfi);
- boshlang'ich bosqich (1-3-sinflar);
- 1-asosiy bosqich (4-7-sinflar);
- 2-asosiy bosqich (8-12-sinflar).

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida tayyorlov sinfidan boshlab 7-sinfgacha hamma dasturlar original hisoblanadi. Bu davr uchun asosiy umumta'lim sohalari ona tili va adabiyot, matematika, tabiatshunoslik, tarix, san'at (rasm chizish), chizmachilik, jismoniy tarbiya, mehnat tayyorgarligi hisoblanadi. Maxsus korreksion kurslar ham mavjud bo'lib, ular atrof olam bilan tanishish, predmetli-amaliy ta'lim, nutqiy eshitishni va nutqning talaffuz jihatlarini rivojlantirish, musiqiy-ritmik mashg'ulotlarni o'z ichiga oladi. 8-10-sinflarda o'quvchilar umumiy o'rta ta'lim (eshituvchilar uchun) umumiy o'rta ta'lim maktabi dasturlari bo'yicha ta'lim oladilar. Tayanch korreksion kurslar nutqiy eshitishni va nutqning talaffuz jihatlarini, nutqni va muloqot madaniyatini rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Zaif eshituvchi va kech kar bo'lgan bolalar ta'limi mazmunining sususiyatlari o'quvchilar nutqini shakllantirish va korreksiyalashga bo'lgan o'ziga xos talablardan, atrofdagi olam to'g'risidagi ma'lumotlar zaxirasidagi bo'shliqlarni to'ldirish va bilim olish faoliyatining zarur darajasini ta'minlash zaruratidan kelib chiqadi. 1-bosqichdagi til o'rgatish bo'yicha ta'lim mazmuni eng ko'p o'ziga xosligi bilan ajralib turadi, bu eng avvalo, nutqni va so'z-mantiqiy tafakkurni shakllantirish vazifalarini amalga oshirishga yo'naltirilgan bo'limlarga tegishli. Matematika, tabiatshunoslik va boshqa fanlar asoslari bo'yicha dasturlarning o'ziga xosligi shundan iboratki, ularning har birida tegishli predmetni o'rganish propedevtikasi (kirish qismi)ni (borliqning tegishli jihatlari to'g'risidagi tasavvurlarni shakllantirish, har xil faoliyat turlaridagi amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash)ni ta'minlaydi, o'rganilayotgan material bilan bog'liq nutqiy rivojlantirishni ko'zda tutadi, o'quv yillari bo'yicha o'quv materialini umumiy o'rta ta'lim maktabga nisbatan boshqacha taqsimot qilinadi.

Zaif eshituvchi va kech kar bo'lgan bolalar uchun maxsus umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflari uchun dasturlar o'quv materialining hajmi bo'yicha umumiy o'rta ta'lim umumta'lim maktabining boshlang'ich (1-4-sinflar) o'quv kursi mazmuniga mos keladi. Bu dasturlar o'zining korreksion yo'nalganligi bilan farqlanadi va amaliy nutqiy ko'nikmalarni shakllantirishni, eshitish idrokini rivojlantirishni ta'minlaydi. Bu, birinchi navbatda, dasturning "Rus tili", "Atrofdagi olam bilan tanishish", "Eshitish idrokini rivojlantirish", "Talaffuzga o'rgatish" bo'limlariga tegishli bo'lib, ularda ta'limning bilim berish - rivojlantirish yo'nalishi mantiqiy jihatdan amaliy ko'nikma va malakalarni egallash bilan qo'shib olib boriladi.

Zaif eshituvchi va kech kar bo'lgan bolalarning keyingi ta'limi 2-bosqich (to'liqsiz o'rta maktab) va 3-bosqich (o'rta maktab) sinflarida umumiy o'rta ta'lim umumta'lim maktabi dasturi bo'yicha amalga oshiriladi.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarning erishgan darajalari o'qitishning butun davri davomida baholanadi. Bu maqsad uchun o'qitishning butun davri davomida asosiy fanlar bo'yicha nazorat-tekshiruv ishlari uchun vazifalar, eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning shaxsiy qiziqishlari va ehtiyojlarini

aniqlaydigan ijodiy mustaqil ishlar, ta'lim bosqichlari bo'yicha erishilgan darajani o'rganish yuzasidan test topshiriqlari, og'zaki nutqni idrok qilishning rivojlanishi darajasini va talaffuz ko'nikmalari ahvolini tekshirish bo'yicha maxsus topshiriqlar va boshqalardan foydalaniladi.

Ta'limning barcha asosiy bosqichlarida (tayyorlov sinfi, 1-3-, 4-7-, 8-10-sinflar)da o'quvchilarning erishgan darajalari quyidagi parametrlar bo'yicha baholanadi: fan bo'yicha dasturdagi mazmuni bilishi, bilimlarni nutqiy (og'zaki-daktil, yozma, og'zaki nutq) ifodalash darajasi, bilimlarni izlab topish va o'zlashtirish qobiliyati (ta'lim oluvchanligi), bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llash qobiliyati. O'quvchilarni navbatdagi bosqichga ko'chirish maktab ma'muriyati tomonidan tuziladigan yakuniy nazorat ishlari natijalari bo'yicha amalga oshiriladi. Maxsus maktabni bitiruvchilar uchun umumta'lim muassasalari uchun ishlab chiqilgan imtihon biletlaridan foydalaniladi. O'quvchilar asosiy maktab fanlari bo'yicha imtihonlar topshiradilar.

Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar bilan maxsus ta'limiy-korreksion ishni olib borish sharoitlari hayot faoliyatining adekvat muhitini yaratishni o'z ichiga oladi, bular: eshitish xonalari, sinflar, o'quv xonalari, musiqiy-ritmik mashg'ulotlar uchun zal, o'quv ustaxonalari, o'yinlar xonalari, oshxona, hojatxonalar, dush xonalari, psixologik dam olish uchun xonalar, sport zali, kino sinfi, kutubxona, kompyuter sinfi, maktab oldi yer maydoni, tibbiy blok, izolyatordan iborat. Maktab binosi maxsus loyiha bo'yicha quriladi. O'qitishning majburiy sharti ovoz kuchaytirish apparaturasidan, shaxsiy eshitish apparatlaridan, musiqa asboblaridan, videotexnikadan, kompyuter texnikasidan foydalanish hisoblanadi. Maktablarda bolalarga tizimli tibbiy xizmat ko'rsatiladi. Maktabda davolash - tiklash ishini tashkil qilish bolalarning o'qishda qiyinchiliklarni keltirib chiqaruvchi quyidagi klinik xususiyatlari mavjudligidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi: asosiy nuqson (eshitish nuqsoni); asab tizimi funksiyalarining umumiy yetishmovchiligi (yuqori ozg'inlik, emotsional so'lg'inlik yoki chidamsizlik, vegetativ - tomir distoniyasiga moyillik); tananing ko'pincha asabni boshqarishning umumiy nuqsoni va asosiy nuqsonning ta'siridan kelib chiqadigan zaiflashganligi bu o'z navbatida, sanitariya-gigiyena rejimi va davolash-profilaktika tadbirlarini (asosiy nuqsonning o'ziga xos

metikamentoz, tabiiy iqlim terapiyasi, maxsus davolash jismoniy tarbiyasini o'z ichiga oladigan tibbiy korreksiyasi) tadbirlarini moslashtirilgan ravishda boshqarishni ta'minlaydi. Turli elektr akustik apparaturadan muntazam foydalanish sharoitlaridagi eshitish idrokini rivojlantirish bo'yicha jadal ish muntazam ravishda o'quvchilarning audilogik tekshiruvini va eshitish protezlashini amalga oshiradigan vrach-surdologlarning aniq maqsadli kuzatish olib borishlarini talab qiladi.

Hozirda O'zbekiston Respublikasida salomatlik imkoniyatlari cheklangan bolalarni kompleks tizimli o'rganishni, ular uchun ma'lumot olishning moslashuvchan yo'llarini aniqlashni, ota-onalar va pedagoglarga maslahatlar berishni amalga oshiradigan psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyalar tarmog'ini rivojlantirishga jiddiy e'tibor berilmoqda.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining tabaqalashtirilgan tarmog'ini takomillashtirish davom etmoqda, ularning innovatsion modellari yaratildi va tarqaldi, salomatlik imkoniyatlari cheklangan shaxslarga turli, shu jumladan, kasbiy ta'lim muassasalarida o'qitishning har xil integratsion shakllari paydo bo'ldi.

Hozirgi bosqichida rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalar ta'limiga integratsiyalashgan yondashuvni amalga oshirishga maxsus ta'lim tizimining kelgusi rivojlanish istiqbollari va imkoniyatlari asosida qarash zarur. Bunda, ta'lim jarayonida qisman amalga oshirilayotgan integratsiya-rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalarni rivojlantirish, kelgusi mustaqil hayotga tayyorlash va jamiyatga moslashtirish tayyorgarligining jiddiy yo'nalishlaridan biri ekanligini nazarda tutish lozim. Shu bilan birga, bolalarning rivojlanishda og'ir nuqsonlari bo'lgan qismi uchun integratsiyalashtirilgan ta'limni amalga oshirib bo'lmaydi. Angliyalik mutaxassislarining ma'lumotlariga ko'ra, muvaffaqiyatli integratsiyalash mumkin bo'lgan bolalar soni maktab yoshidagi barcha bolalarning 2 % ini tashkil qiladi.

Aqliy va jismoniy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalarni umumiy o'rta ta'lim maktabida o'qitish ularning kelgusida jamiyatga moslashuvining bitta muhim yo'nalishi - kasbiy tayyorgarlikni amalga oshirishni qiyinlashtiradi, chunki umumiy o'rta ta'lim maktab o'z oldiga bunday vazifalarni qo'ymaydi va buning uchun zarur moddiy negizga ega emas. Integratsiyalashtirilgan

bitiruvchilarni maktabdan keyin maxsus kasbiy tayyorlash zarurati kelib chiqadi. Ushbu holatlar xorijiy mutaxassislariga ma'lum bo'lgan holatni, ya'ni integratsiyalashtirilgan ta'lim tabaqalashtirilgan (maxsus) ta'limga nisbatan qimmatroq turishini tasdiqlaydi. Shunga qaramay, integratsiyalashgan yondashuvni amalga oshirish zarur, chunki u nogiron bolalar va rivojlanishida nuqsoni bor bolalar bir qismi uchun samarali.

Hozirgi bosqichda O'zbekiston Respublikasida eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning bir qismi umumiy o'rta ta'lim muassasalariga qatnaydilar. Bu bolalar toifalari har turli va ular normal rivojlanayotgan tengdoshlari bilan birgalikdagi inklyuziv ta'lim muhitiga jalb etilgan.

O'qituvchi-defektologlar va ota-onalari tomonidan uzoq vaqt davomida olib borilgan korreksion ish natijasida yosh tengdoshlari muhitida o'qishga tayyorlangan bolalar, bunday hol ular uchun mutaxassislar tomonidan inklyuziv ta'limni tavsiya etish imkoniyatini beradi; odatda, bu bolalar kelgusida faqat epizodik korreksion yordam oladilar, bunda o'qituvchi-defektologlar va pedagoglar bilan aloqa asosan faqat ota-onalar orqali amalga oshiriladi.

#### Savol:

Kar yoki zaif eshituvchi bolalar uchun ko'p tarmoqli maktabgacha ta'lim tashkilotlarini bilasiz?

Ixtisoslashtirilgan ta'lim ta'lim muassasalarining boshlang'ich va asosiy maktabida o'qish davomiyligini qanday?

Umumiy tipdagi maktabgacha ta'lim muassasalari haqida tushunchalarni izohlang?

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ilk yosh davrida qanday ishlar olib boriladi?

Karlik va zaif eshituvchilik nutqning shakllanmaganligiga nima sabab bo'ladi?

## 5. SURDOPEDAGOGIKANING TAMOYILLARI

**Tayanch tushunchalar:** didaktik tamoyillar tizimi, ilmiylik, onglilik va faollik, tushunarliklik, ko'rgazmalilik, puxtalik, yakka yondashish, izchillik va muntazamlilik, eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni o'qitishda onglilik va ijodiy faollik tamoyili, fan asoslarini va so'zlashuv nutqni o'zlashtirish jarayonining birligi tamoyili

### Ta'lim tamoyillari haqida tushuncha

Ta'lim tamoyillari quyidagilardan iborat: ta'limning ustuvorligi - uning rivojlanishining birinchi darajali ahamiyatga ega ekanligi, bilim, ta'lim va yuksak intellektning nufuzi, ta'limning demokratlashuvi - ta'lim va tarbiya uslublarining tanlanishida o'quv yurtlarining mustaqilligini kengayishi, ta'limni boshqarishning davlat jamiyat tizimiga o'tilishi. Ta'limni tashkil etishda maqsadlilik tamoyili birlamchi hisoblanadi. Unga ko'ra, tashkil etiladigan ta'lim jarayoni aniq maqsadga yo'naltirilishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida va ta'limga oid bir qator me'yoriy-huquqiy xujjatlarda ta'limni tashkil etishda insonparvarlik maqsadi ustuvor qo'yilgan. Insonparvarlik maqsadining negizida ta'lim bilan barcha bolalarni qamrab olish va ularni savodxon shaxslar sifatida voyaga yetkazish mazmuni mavjud. Shu sababli pedagogik ilmiy-tadqiqotlarda ta'lim jarayonini tashkil etishda maqsadlilik tamoyiliga alohida e'tibor qaratiladi.

Chex pedagog mutafakkiri Yan Amos Komenskiy (XVII asr) "Buyuk didaktika" asarida "Maqsadlilik - ta'lim jarayonini tashkil etishning poydevoridir" - deb ko'rsatgan edi. Aynan mana shu yondashuvdan boshlab, ta'lim jarayonini tashkil etishda maqsadlilik ilmiy xarakterda tushunila boshlandi va natijada bu tushuncha tamoyilga aylandi.

Ta'lim tamoyillari yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish maqsadlariga muvofiq o'qtishning xarakterini belgilaydigan asosiy yetakchi qoidalardir. So'ngi yillarda olimlar tomonidan yaratilgan pedagogik adabiyotlarda didaktik qoidalar turlicha tasniflanmoqda. Shularga asoslangan holda quydagicha ta'lim tamoyillarini ko'rsatib o'tish mumkin.

1. Ta'limning ilmiylik tamoyili
2. Ta'limning tizimlilik va izchilik tamoyili
3. Ta'limning tarbiyalovchilik xarakteri

4.Ta'limda nazariyaning amaliyot bilan bog'lilik tamoyili

5.Ta'limda onglilik, faollik va mustaqillik tamoyili

6.Ta'limda ko'rsatmalilik tamoyili

7.Ta'lim jarayonida har qaysi o'quvchiga xos hususiyatlarni hisobga olish tamoyili

8.Ta'limda ilmiy bilim va ko'nikma malakalarini puxta mustahkam o'zlashtirish tamoyili

9.Ta'limning o'quvchiga mos bo'lish tamoyili

10.Ta'lim tarbiyaning birligi tamoyili.

Ta'lim tamoyillari dars mazmuni va darsni tashkil etishga tegishlidir.

#### **Surdopedagogikaning tamoyillari.**

Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar zamonaviy umumta'lim maktablari umumiy pedagogikada asoslab berilgan didaktik tamoyillar tizimi, ilmiylik, onglilik va faollik, tushunarlik, ko'rgazmalilik, puxtalik, yakka yondashish, izchillik va muntazamlilik, nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi va boshqa tamoyillari bo'yicha ish olib boradi.

**Ilmiylik tamoyili.** Ilmiy bilimlarning egallab olinishini ta'minlash uchun kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining idrok qila olish imkoniyatlarini hisobga olgan holda eng muhim ilmiy ma'lumotlarni tanlab olish kerak. O'quvchilarning idrok qila olish imkoniyatlari jismoniy kuch va aqliy kuchlanish talab qiluvchi o'quv mavzulari va amaliy masalalarni izchillik bilan murakkablashib borish jarayonida kengayib boradi. O'quv materialining ilmiyliligi tushunarli bo'lish bilan uyg'unlashishi kerak. Bunga uni o'quvchilarning aqliy va ruhiy rivojlanishiga, shuningdek, ularning tayyorgarligiga moslashtirish bilan erishiladi. Bilimlar mazmunining tushunarligi kichik yoshdagi maktab o'quvchilarida o'qishga qiziqish uyg'otadi, aqlga ozuqa beradi, mantiqiy fikrlashga, taqqoslash va xulosalar chiqarish, amaliy masalalarni yechishga majbur qiladi.

Eshitishida muammosi bo'lgan o'quvchilarni o'qitish jarayonida nazariyani amaliyot bilan bog'lash tamoyili. Nazariyani amaliyot bilan bog'lash o'quvchilarni amaliy masalalarni hal qilishda nazariyaning ahamiyatini tushunishga olib keladi. Bu o'quv materiallarini o'zlashtirishda uning sifatini ko'taradi. Bu tamoyil mehnat ta'limi va o'quvchilarni amaliy faoliyatga tayyorlash

vazifalarini hal qilishda alohida ahamiyat kasb etadi. O'qitishda nazariya bilan amaliyotning bog'lanish xarakteri o'quv fanining mazmuni bilan taqozo qilinadi.

O'qitishda nazariy bilimlar o'quvchilarni tabiatning u yoki bu hodisalari bilan amaliy tanishtirish jarayonida puxtaroq o'zlashtirib olinadi. Bunda amaliyot o'quvchilarni nazariyani o'zlashtirishga qiziqtirish uchun undan oldinroq kelishi mumkin. O'quvchilarning jonli tabiat burchagidagi, shuningdek, o'simliklarning suvga, issiqlikka, yorug'likka ehtiyojini, gul, manzarali o'simliklarning o'sishi va rivojlanishiga organik va mineral o'g'itlarning ta'sirini, pomidorning pishishi va hosildorligini aniqlash bo'yicha tajribalar o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan o'quv tajriba maydonchasidagi mehnat jarayonida nazariya bilan amaliyot bog'lanishi yaxshi amalga oshiriladi.

Darslarda nazariyaning amaliyot bilan bog'lanishini amalga oshirib borishda shuni yodda tutish kerakki, o'quvchilarning amaliy faoliyati ularning nazariy bilimlarni o'zlashtirib olishga bo'lgan intilishlarini bo'shashtirmasligi lozim. Karlarni o'qitishda nazariyaning amaliyot bilan bog'lanishi uning barcha bosqichlarida amalga oshirilmog'i, nazariy bilimlarning chuqurlashishiga va amaliy faoliyatga tayyorlashga yordam berishi kerak. O'rgatiladigan nazariy bilimlarning mazmuniga qarab, dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarning har xil shakllari mavjud.

**Eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni o'qitishda onglilik va ijodiy faollik tamoyili.** O'quvchilarning bilimini ongliligi va ijodiy faolligi qoidasi:

-o'quvchilarning o'qishga ongli va ijodiy munosabatda bo'lishlarini;

-o'rganilayotgan materialni tushunib olishlari va tushunganlarini ifodalay olishlarini;

-o'qish faoliyatini ijodiy xarakterda bo'lishini bilimlarning amaliyotda ongli qo'llanilishi va ularning ishonchga aylanishini o'z ichiga oladi. Onglilik tamoyilini amalga oshirishda bosh rol o'qituvchiga taalluqlidir. U o'quvchi oldida turgan vazifalarni aniq qilib ifodalashi va ularni yaxshilab bajarishga qiziqish uyg'otishi kerak. O'qitishda onglilikning namoyon bo'lishining oliy shakli o'quvchilarning ijodiy faolligidir. Bilimni egallashda onglilik mavjud bo'lsa, o'quvchilarda ijodiy faollik shakllanishi ijobiy samara beradi.



**O'qitishning ko'rgazmalilik tamoyili.** Ko'rgazmalilik qoidalaridan foydalanishning asosiy vazifasi o'quvchilarning bilish faoliyatlarini faollashtirishdir. Bu tamoyil atrof-olamni bevosita qabul qilib olish asosidagi o'qitishni nazarda tutadi. Ko'rgazmalilik tamoyiliga rioya qilish tabiatni o'rganishning dastlabki bosqichlarida, ayniqsa, muhimdir. Chunki kichik yoshdagi maktab o'quvchilar ko'rganlarida hosil qilgan xususiy taassurotlari asosida to'g'ri tushuncha va xulosalar hosil bo'lishiga yordam beruvchi to'la qimmatli bilimlar olishlari kerak. Tabiatshunoslikni o'qitishdagi ko'rgazmalilikni mashg'ulotlar jarayonida faqat tabiiy jismlar foydalaniladigan yoki tajriba ko'rinishidagi hodisalarni eslatuvchi fanli ko'rgazmalilikka va tabiat jismlari yoki hodisalarining jadval, doskadagi rasm, model, mulyaj, diapozitiv, kinofilm, xarita, sxema va boshqalardan foydalaniladigan tasviriy ko'rgazmalilikka ajratish maqsadga muvofiqdir. Fanli va tasviriy ko'rgazmalilikni amalga oshirish asosida o'qitish ayniqsa, bolalar rivojining dastlabki bosqichlarida kuzatuvchanlikning faollashishiga yordam beradi, o'rganilayotgan masalalarga qiziqishini oshiradi. Ularni oddiy tadqiqotlar olib borishga o'rgatadi, bilimlarni faol qabul qilishga yordamlashadi, ularni o'zlashtirib olish jarayonini osonlashtiradi, bilimlarning mustahkamligini ta'minlaydi.

**Bilimlarni puxta o'zlashtirish tamoyili.** Bu tamoyil olingan bilimlarni, shakllantirilgan o'quv ko'nikmalari o'quvchilar xotirasida uzoq saqlanishini nazarda tutadi. O'quvchilar bilimining puxta bo'lishi ko'rsatib o'tilgan tamoyillardan o'quvchilarning saviyasi hamda qiziqishiga qanchalik muvofiq tarzda foydalanilishiga bog'liq. Bilimlarning puxta bo'lishiga erishish uchun, avvalo, o'quv yili boshlanishida ilgari o'tilgan materialni yangi bilimlarning o'zlashtirilishini ongli bo'lishi uchun tiklash zarur.

Birinchi navbatda, dasturning yangi material bilan ko'proq bog'liq bo'limlarini takrorlash lozim. Bunda yangi bilimlarini o'zlashtirishning birinchi bosqichida o'qituvchi o'quvchilar yangi materialni asosli ravishda tushunishlari va o'zlashtirib olishlari uchun uning barcha hajmini emas, balki asosiy mazmunini berishi kerak. Chunonchi, "Vatanimiz tabiatining xilma-xilligi" mavzusini o'rganishda o'quvchilarda avval o'lkadagi tabiiy sharoitning turli-tumanligi, keyin har bir hudud bilan tanishadilar. Bu yangi axborotlarni kiritib borish imkoniyatini beradi. Ular yordamida har

bir hudud uchun xos bo'lgan xususiyatlarni jumladan, o'simlik va hayvonot dunyosi aniqlanadi, o'quvchilarning bilish faoliyatlarini faollashtiruvchi qo'shimcha ma'lumotlar berib boriladi. Puxta bilimlarga erishishda ularni o'quvchilarning faol fikr yuritishlari asosida tizimlashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. O'quvchilar yangi bilimlar ilgari o'rganilgan material bilan bog'lab yaxshiroq o'zlashtiradilar.

**O'qitishda muntazamlilik va izchillilik tamoyili.** Atrofdagi olam haqida juda ko'plab ma'lumotlardan kichik yoshdagi maktab o'quvchilari uchun tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlari, vatanimiz tabiatining xilma-xilligini, jonajon o'lka tabiatini va boshqalarni ochib beruvchi, ta'lim-tarbiyaviy jihatdan ancha qimmatli o'quv materiali tanlanadi.

Materialning bunday berilishi shu bilan izohlanadiki, kichik yoshli maktab o'quvchilarining tabiat to'g'risidagi fan asoslarini faqat atrof-olamning jism va hodisalarini aks ettiruvchi va ular o'rtasidagi bog'lanishlarni ochib beruvchi dastlab oddiy tabiiy obyektlar bilan, keyin esa murakkabrog'i bilan izchil tanishtirib borish jarayonida egallab olishlari mumkin. Bu bilan o'qitishda muntazamlilik tamoyili amalga oshiriladi.

O'qitishning muntazamliligi, yani tizimliliigi bilimni bayon qilishda muayyan tizimga amal qilishdan tashqari amaliyot bilan bog'lanishning xilma-xil shakllari amalga oshirilishini jumladan, nazariy bilimlarini kuzatishlar va bilib olishga qaralilgan qiziqarli o'yinlar, atrofdan hayot va qurilish amaliyoti bilan mehnat ta'limi va ijtimoiy-foydali mehnat maktab oldi uchastkasidagi ish va unumli mehnat bilan bog'lanishini nazarda tutadi.

**Yakka yondashish tamoyili.** Maktabga kirayotgan har bir bola muayyan axborot yig'indisiga va yakka xususiyatlarga ega, ular bilimlarni o'zlashtirish jarayonlariga ta'sir ko'rsatadi. Biroq o'qitish jarayonida bolalar guruhida bilimlarni o'zlashtirish darajasi bir xil bo'lishi mumkin. Binobarin, bolalar rivojida to'g'ri keladigan umumiylikni aniqlash mumkin. U rivojlanish darajasi, bilim zaxirasi, filtrlash xarakteri, faoliyat va xulq-atvor baholarining o'xshashligi bo'lishi mumkin.

Ammo umumiylik bilan bir qatorda, har bir o'quvchi uchun o'zining yakka xususiyatlari: diqqatining rivojlanishi, darsdagi xulq-atvorining xarakteri, fanga munosabati, ko'rgazmali va og'zaki

materalni qabul qilishining tezligi va aniqligi, o'quv materialini tushunib olishi va fikrlash xarakteri, tabiat to'g'risidagi bilimlarining sifati va og'zaki hamda yozma nutqlarining rivojlanish darajasi o'ziga xosdir.

O'qituvchi, sinfda ish olib bora turib, har bir o'quvchi bilan yakka tarzda ishlash, ijobiy hislarni rivojlantirish va salbiylarini bartaraf qilish, sinfni jamoa ishiga tortish maqsadida har bir bolaning shaxsiy qobiliyatini o'rganish va hisobga olish zarurligini unutmash kerak.

**Korreksion yo'nalganlik tamoyili.** Korreksion yo'nalganlik tamoyili bolaning sog'lomligiga tayanishni, kar bolaning rivojlanishida kompensator imkoniyatlarini ta'minlashni nazarda tutadi. Kar bola sog'lom tanaga ega bo'lib, ko'rgazma-harakatli va ko'rgazma-obrazli darajada atrof dunyoni aks ettirib anglay oladi. Ifodali harakatlar tizimini imo-ishorali nutqni egallab, muloqotga kirishish ehtiyojini qidiradilar. Karlarda yo'qolgan, buzilgan eshitish funksiyasini qisman ko'rish, kinestetik va boshqa analizatorlar faoliyati egallaydi. Saqlanib qolgan ko'rish idrokiga tayanish karlarda nutq a'zolarining ko'rinadigan harakatlari orqali og'zaki nutqni idrok etishning maxsus metodi labdan o'qishni shakllantirishga imkon beradi. Bunda labdan o'qishning sifati tinglovchining faolligiga bog'liq.

Bunday qarama-qarshi faollik, eng avvalo, kutilayotgan xabarni ehtimollashda, so'zlarni aks ettirib talaffuz etishda, berilayotgan barcha ma'lumotlarni qayta ishlashda namoyon bo'ladi. Kar bolalar maktabining o'quv rejasi ham korreksion yo'nalganlik tamoyilini e'tiborga olgan holda tuzilib, unga talaffuzni shakllantirish va eshitish idrokini rivojlantirish, tevarak- atrof bilan tanishtirish, predmetli-amaliy o'qitish fanlari kiritilgan.

Korreksion yo'nalganlik tamoyili har bir darsda amalga oshiriladi. Surdopedagog bolalarda og'zaki nutqni shakllantirishga, bilish faoliyatini rivojlantirishga harakat qiladi, yangi tushunchalarni hosil qilayotib o'qituvchi saqlangan barcha analizatorlarning ishini faollashtiradi. Korreksion yo'nalganlik tamoyili og'zaki metodlar bilan birgalikda ko'rgazmali va amaliy metodlarni qo'llashni nazarda tutadi.

**Fan asoslarini va so'zlashuv nutqni o'zlashtirish jarayonining birligi tamoyili.** Umumta'lim maktab o'quvchilari fan

asoslarini maktabgacha yoshda saqlangan eshitish asosida kattalar va tengdoshlari bilan aloqa qilishda shakllangan nutq yordamida o'zlashtirib olsalar, kar o'quvchilarda esa fan asoslarini va so'zlashuv nutqni egallash jarayonlari o'zaro aloqadordir. Lug'at xazirasini boyitish va grammatik ko'rilishini shakllantirish karga fan asoslarini egallash jarayonini osonlashtiradi va aksincha, fan asoslarini egallash o'quvchilar lug'atini yanada boyitib, og'zaki nutqni rivojlantiradi. Kar bolalar maktabining dasturlarida o'quv fani bo'yicha dastur mazmunini o'zlashtirish ishlari bilan parallel ravishda nutqni rivojlantirish ishlari zarurligi maxsus ta'kidlab o'tilgan.

Fan asoslari va og'zaki nutqni o'zlashtirish jarayonining birligi tamoyili boshlang'ich sinf o'qituvchisi va fan o'qituvchisidan kar o'quvchilar nutqining barcha tomonlarini (fonetik, grammatik, leksik) korreksiyalashni talab etadi. Bu o'qituvchidan sinfning va har bir o'quvchining nutq imkoniyatlarini bilishni, o'quvchining nutqiga yakka ish mazmunini e'tiborga olgan holda talablar qo'yishni nazarda tutadi. Ushbu tamoyilga asoslanib, fan o'qituvchisi o'z fani bo'yicha atamaologiyani o'zlashtirishdan tashqari bolalar tomonidan boshqa fanlarni o'rganishda to'plagan lug'atini faollashtirishni amalga oshiradi. O'quvchilarni sinonimlar, antonimlar turli umumlashtiruvchi so'zlardan faol mashq qildirish mumkin. O'qituvchi o'quvchilarda bog'langan nutqning og'zaki va yozma shakllarini dialogik va monologik nutq malakalarini rivojlantirishga alohida ahamiyat berishi kerak.

**Ta'limda eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni eshitish idrokini jadal rivojlantirish tamoyili.** Ta'limda eshitish idrokini jadal rivojlantirish tamoyili kar bolalarni atrofidagi odamlar nutqini eshitish, ko'rish asosida apparat yordamida aniq va to'liq idrok etish maqsadida qoldiqli eshitish ehtiyojini imkoni bor darajada rivojlantirishni nazarda tutadi.

Ushbu tamoyil asosida kar bolalar uchun umumta'lim maktablarining o'quv rejasi tuzilgan bo'lib, unda eshitish idrokini rivojlantirish va talaffuzni shakllantirish bo'yicha yakka mashg'ulotlarga alohida vaqt ajratilgan.

"Eshitish idrokini rivojlantirish" predmeti dasturida eshitish idrokini rivojlantirish bo'yicha ishlarning vazifalari, mazmuni va tashkiliy shakllari ko'rsatib berilgan. Asosiy talab ta'limni nutq

eshitish sharoitida ovozni kuchaytiruvchi asboblardan keng foydalanish orqali amalga oshirishdir.

Eshitish idrokini jadal rivojlantirish tamoyili eshitishni mashq qilish va sensor bazani kengaytirishning shunday didaktik sharoitlarini hosil qilishga yo'naltiradiki, unda har bola faqatgina eshitish, ko'rish, kinestetik, daktil-tebranuvchi(vibrasion) sezgilaridan bir vaqtning o'zida foydalanib borayotgan akustik ma'lumotlarni interpretatsiya qilishgagina o'rganmasdan, balki unda ijobiy motivatsiya, nutqni eshitishida foydalanish ehtiyojini ishlab chiqadi.

**Predmetli-amaliy faoliyatga tayanish tamoyili.** Predmetli-amaliy faoliyatga tayanish tamoyili kar bolani har tomonlama rivojlanishini ta'minlashda, o'quvchilarni umumta'limga tayyorlash va kasbiy yo'naltirishda predmetli-amaliy faoliyatining turli ko'rinishlaridan maxsus korreksiya vositasi sifatida keng foydalanishni nazarda tutadi. Predmetli-amaliy faoliyat sharoitida kar o'quvchilarning bilim faoliyati takomillashadi.

Fanlardan amalda foydalanish (ko'zdan kechirish, paypaslab, ushlab ko'rish, qilish-yasash) obyektlarning turli xususiyatlari va sifatlarini, ular orasidagi ba'zi muhim munosabatlarni eshitishni rivojlantirishga yordam beradi. Predmetli-amaliy faoliyatning turli xillari kar o'quvchida hayotiy tushunchalarni shakllantirish, fikrlash operatsiyalari, mantiqiy bog'lanishlari o'zlashtirib olish jarayonini osonlashtiradi.

Bunday faoliyat jarayonida kar o'quvchilar atrofdagi hodisa va voqealarning mantiqiy aloqadorligini o'rnatish ko'nikmasini tezroq egallaydilar. Predmetli-amaliy faoliyat harakat, obyekt xususiyatlari va sifatleri nomlarini beixtiyor eslab qolishini taminlaydi va so'z mantiqiy hodisalarini rivojlantirishga yordam beradi. Predmetli-amaliy faoliyatga tayanish tamoyilini muvaffaqiyatli ravishda amalga oshirish o'quvchilarning darsda turli ish shakllarini tashkillashtirish bilan bog'liq (jamoali, guruhli juft bilan, yakka holda).

**Nutqiy muloqotni jadallashtirish tamoyili.** Tilni o'rganish, nutqiy aloqa karlar uchun korreksiya va kompensatsiyaning muhim vositasi sifatida ahamiyatga ega. Nutqiy muloqotni jadallashtirish tamoyili tilning kommunikativ funksiyasini amalga oshirish, karlarda nutq asosida aloqa qilish ehtiyojini shakllantirish, o'quv-

tarbiyaviy jarayonning barcha bo'g'inlarida o'quvchilarning keng nutqiy amaliyotini ta'minlash zarurligini ko'rsatadi.

Nutqiy aloqani jadallashtirish tamoyili nutqni daktil, og'zaki va yozma shakllarda shakllantirishni nazarda tutadi. Daktil nutqiy muloqotning boshlang'ich shakl sifatida kar bolaga so'zlari og'zaki va yozma shakllari o'zlashtirilmagan vaqtda taqlid orqali daktil belgilar yordamida ifoda etishni ta'minlaydi. Daktil nutq og'zaki va yozma nutqning shakllarini o'zlashtirib olishni tezlashtirish vositasidir.

Yozma nutqni o'zlashtirish bolaning nutqiy muloqotni jadallashtirish maqsadiga xizmat qiladi. Bunda nutqiy kommunikatsiyaning hisobot, ariza, xat va hokazo shakllariga alohida ahamiyat beriladi.

Og'zaki nutq daktil bilan bir vaqtda shakllanadi. Asosiy tovushlarni o'rganib olib, (fonemalarning qisqartirilgan tizimi) bolalar atrofdagilar bilan aloqa qilish uchun daktil shaklda o'zlashtirib olgan zarur nutqiy materiallardan foydalana oladilar.

Tilning alohida nutq vositasi sifatida o'rganib olish og'zaki nutqni to'g'ri idrok etish tushunarli talaffuzsiz iloji yo'q. Ularning sifatini oshirish uchun bolada rivojlanayotgan eshitishiga tayanish lozim. Nutqiy muloqotni eshitishni rivojlantirish bo'yicha ishlar barcha o'quv va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda zarur komponent-nutqiy aloqani jadallashtirishning muhim sharti hisoblanadi.

Nutqiy muloqotni jadallashtirish tamoyilini amalga oshirish kar o'quvchilarda nutq ko'nikmalarining kompleksini shakllantirishda namoyon bo'ladi.

Ularga barcha fanlar bo'yicha darslarda rivojlantiradigan savollarga javob berish, savol tuzish, o'z munosabatini, faoliyatini, topshiriqni bajarganligini ifodalovchi nutqiy ko'nikmalar kiradi.

Nutqiy aloqani jadallashtirish tamoyiliga sinfdan tashqari vaqtda pedagogik jihatdan tashkil etilgan turli kommunikativ sharoitda amalga oshiriladigan nutqni rivojlantirish ishlari ham kiradi. Ushbu tamoyilni amalga oshirishning yana bir yo'li maktabda yagona nutq tartibini tashkil etish. Pedagogik jarayon tomonidan o'quvchilar nutqiga qo'yiladigan talabning yagonaligi o'quvchilarning aloqa qilish sharoitini yaratib berishdan o'quvchilarning darsdagi turli ish shakllaridan: jamoali, guruhli, yakka holdagilardan iborat.

### **Ta'lim va tarbiya tamoyillari**

Ta'lim va tarbiya tamoyillari o'qituvchi va bolalar faoliyatining xususiyatini belgilovchi boshlang'ich nuqtalardir. Zaif eshituvchi maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitish va o'qitishda maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashga xos bo'lgan didaktik tamoyillar tizimi qo'llaniladi. Yetakchi didaktik tamoyillar zaif yeshituvchi bolalarning ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil yetishga asoslanadi va ushbu jarayonning korreksion yo'nalishini hisobga olgan holda amalda qo'llaniladi.

Umumiy didaktik tamoyillardan tashqari, eshitishda nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini, ular bilan ishlashning mazmunini hisobga olgan holda aniq tamoyillar aniqlanadi (N.I.Belova, B.D.Korsunskaya, L.P.Noskov va boshqalar.). Bu tamoyillar maxsus pedagogikada ishlatiladigan asosiy yondashuvlar va o'quv talablarini o'z ichiga oladi (V.A.Lapshin, B.P.Puzanov). Maktabgacha ta'limning o'ziga xos tamoyillarini aniqlash, shuningdek, kar va eshitish qobiliyatiga ega bo'lgan maktab yoshidagi bolalarni o'qitish va o'qitish nazariyasi va amaliyotini rivojlantirish bilan bog'liq (S.A.Zykov, R.M.Boskis, F.F.Pay va boshqalar.). Eshitishda nuqsoni bo'lgan maktabgacha tarbiyachilarni o'qitish va o'qitish uchun asos bo'lgan quyidagi asosiy tamoyillarga ajratish mumkin.

**1.Ontogeneza aqliy funksiyalar va neoplazmalarning paydo bo'lishi va rivojlanishi ketma-ketligini hisobga olishga asoslangan genetik tamoyili.** Ushbu tamoyilni amalga oshirish eshitish qobiliyati zaif bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarga nisbatan rivojlanishning umumiy modellarini hisobga olish, aqliy funksiyalarni rivojlantirishda sezgir davrlarni hisobga olishga qaratilgan tuzatish va rivojlanish treninglari modelini yaratish imkonini beradi.

**2. Rivojlantiruvchi ta'lim tamoyili.** Ta'lim va tarbiya mazmuni bolaning sog'lom kuchiga yo'naltirish va aqliy rivojlanishning yoshga mos darajasini ta'minlashga asoslanadi. Bolaning o'z-o'zidan rivojlanishining o'ziga xosligi, hayotning ayrim tomonlari haqidagi bilimlarni mustaqil o'zlashtira olmaslik, bu jarayonda ota-onalarning yetarli ishtirok yetmasligi bolaning ulg'aygan sari aqliy rivojlanish darajasi yosh me'yorida orqada qolishiga olib kelishi mumkin. To'rt-besh yoshida bog'chalarga

chiqqan ko'pchilik bolalar pedagogik jihatdan e'tiborsiz bo'lib chiqadilar. Shuning uchun rivojlantiruvchi ta'lim va tarbiya tamoyili nafaqat qoloqlikni yengish va rivojlanishni normallashtirish, balki uni boyitish, ya'ni rivojlanishni kuchirish zarurati bilan bog'liqdir.

**3.Ta'lim va tarbiyaning korreksion yo'naltirilganligi tamoyili.** Rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasining yetakchi tamoyillaridan biridir. Ushbu tamoyil ta'lim jarayonining barcha aloqalarini qamrab oladi. Ta'lim va tarbiyaning korreksion yo'nalishi bolaning buzilishlarining tuzilishi va og'irligini hisobga olish, uning salohiyatini aniqlashga asoslangan bolaga alohida tabaqalashtirilgan yondashuvni nazarda tutadi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar rivojlanishining o'ziga xosligi, birinchi navbatda nutq rivojlanishi va ular bilan bog'liq muloqotning buzilishi tizimli korreksion ishlarni taqozo etadi. Trening mazmuni asosiy tuzatish yukini ko'taradigan maxsus bo'limlarni ta'kidlaydi: nutqni rivojlantirish, eshitish idrokini rivojlantirish va talaffuz ta'limi. Ishning ushbu bo'limlarining vazifalari yo'qligi yoki eshitish qobiliyatining yeng og'ir oqibatlarini bartaraf etish bilan bog'liq bo'lib, og'zaki va yozma nutqni shakllantirish, nutq va nutqsiz eshitish, nutqni idrok etish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Ushbu ishning yakuniy maqsadi nutqni muloqot vositasi sifatida shakllantirish, undan foydalanish bolaning kattalar va bolalar bilan muloqot qilishiga imkon beradi.

Ta'limning korreksion yo'naltirilganligi rivojlantiruvchi va korreksion ishlar uchun o'ziga xos vositalardan foydalanishda ham ifodalanadi.

Eshitish idrokini rivojlantirish va qoldiq eshitishni faollashtirish uchun jamoaviy va individual maqsadlar uchun ovoz kuchaytiruvchi uskunalar keng qo'llaniladi. Uni qo'llash nutqni idrok yetish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi, og'zaki nutq sifatini oshiradi, bolaning tovushlar dunyosiga yo'nalishini kengaytiradi. Bolalarni o'qitishda saqlanib qolgan analizatorlarga tayanish keng qo'llaniladi: ko'rgazmali, motor, taktil. Ta'lim mazmunidan tashqari korreksion yo'nalganlik bolalar bilan ishlash shakllarida ham o'z aksini topadi: frontal, kichik guruhli, kichik guruhli mashg'ulotlardan (har biri 2-3 bola), individual foydalanish. Tashkilot shakllari guruh tarkibiga, buzilishlarning tuzilishiga va har

bir bolaning shaxsiy xususiyatlariga bog'liq. Ushbu tamoyilni amalga oshirishning muhim sharti tuzatish ishlarining erta boshlanishi hisoblanadi.

**4. Faoliyat tamoyili.** Turli xil turlari orqali bola atrofidagi dunyoni o'rganadi, unda yo'nalish yo'llarini kengaytiradi va chuqurlashtiradi, inson hayotining ijtimoiy sohasini tushunadi, boshqa odamlar bilan munosabatlarni aniqlaydi. Psixikaning rivojlanishi yetakchi faoliyat bilan bog'liq. Huning uchun turli bosqichlardagi ta'lim mazmunida bolalar faoliyatining yetakchi turlari ajratiladi, ularning rivojlantiruvchi va korreksion ahamiyati aniqlanadi, umum insoniy qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratiladi. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanish va tarbiya jarayoni predmet, o'yin, ko'rgazmali, konstruktiv faoliyati elementar mehnat bilan bog'liq.

Turli bo'limlarda ishlash bolaning faoliyati bilan aloqani, umumiy rivojlanish va tuzatish vazifalarini hal qilishda foydalanishni o'z ichiga oladi. Nutqni rivojlantirish jarayonida faoliyat prinsipi katta ahamiyatga ega. O'yin va bolalar faoliyatining boshqa turlarida real muloqot sharoitida nutq vositalarini tushunish va ulardan foydalanishni o'zlashtirish uchun optimal sharoit yaratiladi.

**5. Buzilishning jiddiyligi va tuzilishini hisobga olish tamoyili.** Kar va eshitishi qiyin bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalar guruhi eshitish, nutq va intellektual rivojlanish darajasi jihatidan tavsiflanadi. Differensial tamoyil eshitishda nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitish va o'qitishni tashkil yetishda buzilishlarning tuzilishini hisobga olishni o'z ichiga oladi. Avvalo, bu tamoyilga muvofiq kar va zaif eshituvchi bolalar ta'lim-tarbiyasida turli dasturlar qo'llanilib, ular nutqni rivojlantirish, eshitish idroki va talaffuzga o'rgatishning turli talablarini belgilaydi. Turli xil nutq sharoitlariga ega bo'lgan bolalarning ikkita kichik guruhlari eshitish yoki karlar uchun guruhning bir qismi sifatida ajralib turishi mumkin, bu ularning imkoniyatlarini va nutqni rivojlantirish sur'atlarini hisobga olish imkonini beradi.

**6. Nutqiy muloqotning shakllanish tamoyili.** Ushbu tamoyil nutqiy muloqotni shakllantirish tamoyiliga asoslangan til o'qitishni nazarda tutadi. Bu tamoyil bolalarning nutqiy muloqotga bo'lgan ehtiyojlarini shakllantirish, muloqot ehtiyojlariga xizmat qiluvchi

zarur nutq vositalarini o'zlashtirish, turli sharoitlarda nutqiy amaliyot imkoniyatlarini ta'minlovchi eshitish-nutq muhitini yaratish ehtiyoji bilan bog'liqdir. Nutqning turli shakllari, birinchi navbatda og'zaki, muloqot vazifalariga to'liq javob beradi. Nutqning yozma shakli, birinchi navbatda, o'qish va yozishni o'z zimmasiga oladi. Kommunikativ yo'nalish tamoyili, avvalo, nutqni rivojlantirish dasturida, shuningdek, bolalar faoliyatining barcha turlarida amalga oshiriladi. Korreksion-tarbiyaviy ishlarni to'liq o'taydi.

7. Eshitish idrokini rivojlantirish tamoyili individual va jamoaviy foydalanish uchun ovozni kuchaytiruvchi uskunalardan foydalanish jarayonida qoldiq eshitishni maksimal darajada rivojlantirishni nazarda tutadi. Eshitish idrokini rivojlantirish atrofidagi tovushlarni yo'naltirish uchun yaxshiroq hissiy bazani yaratadi. Ayniqsa, bu tamoyil boshqalarning nutqini eshitish-ko'rish qobiliyatini kengaytirish bilan bog'liqligini ta'kidlash muhimdir. Eshitishning rivojlanishi og'zaki nutqning talaffuz tomonini o'zlashtirishga zamin yaratadi. Eshitish idroki va talaffuz tarbiyasini rivojlantirish ishlarining katta ahamiyatga ega bo'lganligi tufayli bu ish maxsus bo'limga ajratiladi va frontal hamda individual mashg'ulotlarda amalga oshiriladi. Uni aniq tashkil yetishning yeng muhim sharti jamoaviy maqsadli tovush kuchaytiruvchi uskunalar va individual eshitish vositalaridan to'g'ri foydalanishdir. Jamoa jibzlari frontal va kichik guruh darslarida, individual qurilmalar ayrim frontal mashg'ulotlarda (musiqa, jismoniy tarbiya) qo'llaniladi. Ovozni kuchaytiruvchi uskunalardan doimiy foydalanish eshitish-nutq muhitining zarur tarkibiy qismi bo'lib, uni tashkil yetish nutq va motivasion muloqotni shakllantirish uchun muhimdir.

#### Savol:

1. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni o'qitish rayonida ta'lim tamoyillarining qo'llanishi deganda nimani tushunasiz?

2. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni o'qitishda og'zaki va ijodiy faollik tamoyili nima?

3. Korreksion yo'nalganlik tamoyili boshqa tamoyillardan farqi nimada?

4. O'qitishda muntazamlilik va izchillilik tamoyili deganda nimani tushunasiz?

## 6. SURDOPEDAGOGIKANING DIDAKTIK MASALALARI

**Tayanch tushuncha:** *Didaktika, eshitishda muammosi bo'lgan bolalar uchun tashkil etilgan ta'lim muassasalari tarmog'i, eshitish nuqsonlarini ilk aniqlash va eshitishni erta tiklash.*

### Didaktika haqida tushuncha

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng o'zbek pedagogika fani va amaliyoti milliy asoslarga tayangan holda didaktikaning tamomila yangicha yo'nalishda taraqqiy etishiga zamin hozirladi. Ijtimoiy ongning o'zgarishi pedagogik tafakkurning sog'lomlashuviga, u esa, o'z navbatida, didaktikaning milliy asoslarda rivojlana boshlashiga olib keldi. Bunda milliy didaktikaning asosiy tamoyillarini to'g'ri belgilash hal qiluvchi ahamiyatga ega. Milliy didaktikaning asosiy tamoyillaridan biri ta'limning insoniylashuvidir.

Mazkur tamoyil ta'lim jarayoni uchun bilim emas, balki o'quvchi shaxsi asosiy qadriyat ekanligini anglatadi. Bunda o'quvchi shaxsini shakllantirishga ustuvor o'rin beriladi. Ta'limning insonparvarlashuvi tamoyili o'zbek didaktikasining asosiy talablaridan bo'lib, ta'lim mazmunini belgilash va pedagogik amaliyotni tashkil etishda shaxs ma'naviyatini shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv fanlariga ustuvor ahamiyat berilishini kuzda tutadi.

Estetik, badiiy turkumdagi predmetlarni o'qitishga alohida e'tibor qaratish yo'li bilan bolalarning hissiyotini shakllantirishga erishish, ularda iroda xususiyatlarini tarkib toptirish muhimdir.

**Didaktika** (ta'lim nazariyasi "didaktikos" "o'rganuvchi", "didasko" esa "o'rganuvchi" ma'nosini bildiradi) ta'limning nazariy jihatlarini ta'lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, o'qituvchi va o'quvchi faoliyati mazmuni, ta'lim maqsadi, shakli, metod, vositalari natijasi, jarayonini takomillashtirish yo'llari va hokazo muammolarini o'rganuvchi fan.

O'quvchi ma'naviyati bilan uning o'zlashtirishi o'rtasida uzviy aloqa borligi zamonaviy psixologiya fani tomonidan asoslab berilgan.

"Didaktika" atamasi ilk bor Yevropada 17-asrda o'qitish va ta'lim jarayoni haqida asarlar yaratgan olimlar tomonidan qo'llanila boshlagan. **Chex pedagogi Yan Amos Komenskiy o'zining "Buyuk didaktika" asarida (1657) bolalar va o'smirlarni ma'lumotli qilish va ularga ta'lim berishning didaktik jihatlarini ishlab chiqdi.**

O'zbek milliy pedagogikasi tarixida ham didaktikaning asosiy xususiyatlarini aks ettirishga bag'ishlangan ko'pgina tadqiqotlar mavjud. Garchi turkiy mutafakkirlarning asarlarida didaktika hozirgi nom bilan atalmagan bo'lsada, lekin ular ta'lim jarayonining qonuniyatlarini belgilashi, uni tashkil etishning yo'l-yo'riqlarini ko'rsatishi jihatidan beqiyos ahamiyatga ega. Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ahmad Al-Farg'oniy, Marg'inoniy, Davoniy, Alisher Navoiy, Munis singari mutafakkirlarning ta'limni uyushtirish, uning samaradorligini oshirish, o'qitish jarayonida o'qituvchi va o'quvchi munosabatlari borasidagi qarashlari jahon pedagogik taraqqiyotining o'ziga xos bosqichini tashkil etadi. Muayyan yoshdagi bolalarni jamoa tarzida bir joyda o'qitishning samaradorligi ilk bor Ibn Sino tomonidan ko'rsatib berilgan bo'lsa, muallimning o'zida ezgu insoniy sifatlar bo'lmasa, bolalarda bunday hislatlarni shakllantirish mumkin emasligi Navoiy asarlarida aks etgan. Marg'loniy esa, bilimlarni o'zlashtirish yuzasidan umumiy tavsiyalar beribgina qolmay, o'rganilgan tushunchalarni bolalar sotirasida uzoqroq saqlash yuzasidan aniq metodik usullar ham tavsiya etgan.

O'zbek milliy didaktikasining shakllanishida jadidchilik harakati, xususan, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abduqodir Shukuriy, A.Ibodiyev, M.Behbudiy, A.Avloniy, .Saidazizov, B.Yusufbekov kabi ma'rifatparvar-pedagoglarning faoliyati alohida muhim bosqich bo'ldi. Jahon pedagogikasining eng so'nggi yutuqlaridan xabardor bo'lgan, ayni vaqtda ta'limni tashkil etishda ko'p asrlik milliy tajribalarni hisobga olgan, didaktikaning metodologik asosi sifatida islomiy e'tiqodni belgilagan jadidlar o'qitish borasida yuksak natijalarga erishdilar.

**Didaktikaning vazifalari**-ta'lim jarayonlari va ularni amalga oshirish shartlarini ta'riflash, ta'lim jarayonlari va ularni amalga oshirish shartlarini tushuntirish, ta'lim jarayonini yanada

mukammal tashkil etish ya'ni ta'lim tizimlari va texnologiyalarini ishlab chiqish, ta'lim jarayoni uchun xos bo'lgan umumiy qonuniyatlarni aniqlash, omillarini tahlil qilish va ta'riflash.

**Didaktikaning asosiy kategoriyalari quydagilardan iborat:** bilim shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui, ko'nikma olingan bilimlarga asoslanib qo'yilgan vazifalar va shartlarga binoan bajariladigan harakatlar yig'indisi, malaka ongli xatti-harakatning avtomatlashtirilgan tarkibiy qismi.

## **2. Surdopedagogikaning didaktik masalalari**

Mamlakatimizda eshitishida muammosi bo'lgan shaxslar uchun samarali uzluksiz ta'lim tizimi yaratilgan bo'lib, bu tizim kar va zaif eshituvchi shaxslarning ijtimoiy moslashuvi va integratsiyasining zaruriy sharti hisoblangan birlamchi muammo oqibatlarini bartaraf etishga hamda jamiyatning barcha sog'lom a'zolari bilan teng darajada ma'lumot olishiga imkoniyat beradi.

Hozirgi bosqichda eshitishida muammosi bo'lgan bolalarga hayotining ilk paytlaridan (eshitishi pasayganligi aniqlangan vaqtdan) boshlab psixologik-tibbiy-pedagogik korreksiya yordami ko'rsatib kelinmoqda. Maktabgacha yoshdagi eshitishida muammosi bo'lgan bolalar uchun maxsus maktabgacha ta'lim muassasalarida hamda sog'lom bolalar bilan teng holda umumiy maktabgacha ta'lim muassasalarida integratsiyalashgan sharoitlarda ta'lim olish shuningdek, eshitishni qayta tiklash va reabilitatsiya (surdologik) markazlarida qisqa vaqtli guruhlarda konsultativ yordam olish imkoniyatlari yaratilgan.

Eshitishida muammosi bo'lgan bolalarga hayotining dastlabki oylaridan boshlab yordam berish tizimining rivojlanishi maktab yoshidagi yaxshi tayyorgarlikka ega zaif eshituvchi va eshitmaydigan bolalar qismiga umumiy tipdagi umumta'lim maktablarida o'qishga imkon beradi. Tug'ma yoki orttirilgan (nutqgacha davrda) kar bo'lgan o'quvchilarning asosiy qismi kar bolalar uchun maxsus (korreksion) ta'lim muassasalarida ta'lim oladilar, bunda ularning eshitadiganlar bilan teng ma'lumot olish huquqlari amalga oshiriladi.

Maxsus maktablardagi ta'lim jarayonida ta'limning korreksion yo'nalishi ta'minlanadi. Korreksion-tiklash ishi barcha pedagogik

jarayonni qamrab oladi va maxsus ravishda tashkil qilingan, elektr akustika apparaturasidan keng foydalanishni ko'zda tutadigan, eshitish-nutq muhiti sharoitida amalga oshiriladi. Maxsus ta'lim jarayonida shaxsiy-faoliyatli yondashuv asosiy hisoblanadi.

O'quvchilarning og'zaki nutqini, ularning eshitish idrokini intensiv rivojlantirish sharoitlarida shakllantirishga jiddiy ahamiyat beriladi.

Ibu yo'nalishdagi ta'limning kelgusidagi tabaqalashtirilishiga misol sifatida nuqsonning murakkab strukturasi (karlik - RRS, ko'rish, aqli zaif nuqsonlari) bo'lgan bolalar uchun ta'limning yangi modeli misol bo'la oladi. Bu holda maktabda alohida ijtimoiy madaniy pedagogik muhit yaratilgan bo'lishi lozim. Ta'limning boshlanishida tibbiy - psixologik - pedagogik konsilium o'tkaziladi, unda har bir o'quvchi uchun sog'lomlashtirish, ta'lim berish, psixologik korreksiya, pedagogik qo'llab-quvvatlash dasturlari tanlanadi. Maktabda tabaqalashtirilgan o'quv dasturlarining har xil turlari yaratiladi, bu dasturlar bazaviy ta'lim - asosiy umumiy ta'lim hajmida ham va RRSli kar bolalar sinflarida, yordamchi sinflarda, uyda o'qitish uchun kompleks turida ham yaratiladi.

Kar va zaif eshituvchi o'quvchilar o'rta maktabni bitirgandan keyin asosiy maktab fanlari bo'yicha imtihonlar topshiradilar. Shunday qilib, yagona ta'lim muhitini shakllantiriladi. Go'dak yoshidan boshlab yasli, maktabgacha, o'quvchilar, boshlang'ich va asosiy umumiy ta'lim ta'minlanadi hamda eshitmaydigan yoshlarning kelgusida kasb-hunar maktabi, oliy o'quv yurtlarining ta'lim markazlarida o'qishlari imkoniyati yaratildi. Oliy o'quv yurtlarida eshitishida muammosi bor shaxslar ta'limi jarayonida ta'lim dasturlarini fundamentallashtirish tamoyili amalga oshirildi, bu esa zarur hollarda mutaxassislarni qaytadan moslashtirishni, ularning hozirgi jamiyatdagi mehnat sharoitlari o'zgarishlariga tez munosabat bildirishlarini ta'minlaydi. Bu esa imkoniyati cheklangan shaxslar uchun alohida ahamiyatga ega.

Eshitishida muammosi bor shaxslar ta'limida o'quv reja quyidagi bloklarni o'z ichiga oladi: umumta'lim-gumanitar va kasbiyning o'zi, bu esa, masalan, tibbiy, psixologik-pedagogik, maxsus pedagogik va metodik fanlardan tarkib topgan. Fundamental umummadaniy va kasbiy tayyorgarlik har xil qo'shimcha mutaxassisliklar va ixtisoslashuvlarni (maxsus

psixologiya, ijtimoiy ish, oilaviy tarbiya va b.) olish imkoniyatlari bilan qo'shib olib boriladi. Universitet talabalari fundamental umumkasbiy va maxsus - kasbiy bilimlarni oladilar, bu oliy o'quv yurti ta'limi standartining zamonaviy umumiy tendensiyalariga mos keladi. Shu bilan birga eshitishda muammosi bor shaxslarni tayyorlash tizimiga eshitish nutq reabilitatsiyasi bo'yicha maxsus mashg'ulotlar ham kiritiladi.

Ta'lim jarayonida eshitishda muammosi bor talabalar rivojlanishining shaxsiy xususiyatlari hisobga olinadi, bu mustaqil rivojlanish uchun sharoitlar yaratishni hamda shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanishni ko'zda tutadi.

Rivojlangan davlatlarda eshitmaydigan talabalardan mutaxassislar tayyorlash tajribasi ko'rsatadiki, faoliyatning muvaffaqiyatliliigi ko'p jihatdan faqat bilimlarning yuqori darajasi, bilim olish va faoliyatning unumli metodlarini egallaganlik bilan emas, kasbiy ishga kompleks tayyorgarlik bilan ham belgilanadi.

Eshitishda muammosi bor shaxslarning muvaffaqiyatli kasbiy faoliyati faqatgina o'qish va o'rganishning yuqori darajadaliigi bilan emas, balki ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-psixologik, maxsus texnologik axborot (moslashtiruvchi va kompensatsiyalovchi) va muloqot madaniyati bilan ham belgilanadi. Ta'limda eshitishda muammosi bor shaxslarning hayotiy makoni to'siqlarsiz shakllanishiga (imkoniyat darajasida) va atrofdagi normal eshituvchilarni eshitmovchilar bilan kasbiy va ijtimoiy sohalarda faol sheriklik munosabatlariga tayyorlashga katta e'tibor qaratiladi.

Hozirgi jamiyat nogironligi bo'lgan shaxslarni, shu jumladan eshitishda muammosi bo'lgan, ijtimoiy qo'llab-quvvatlaydi, bu esa ularning har biriga ijodiy qobiliyatlarini o'stirish, hayot yo'llarini ongli tanlashlari imkoniyatini beradi.

Ilk yoshdagi kar va zaif eshituvchi bolalar bilan korreksion-rivojlantirish ishlarining tashkil etilishi.

Hozirda eshitish nuqsonlarini ilk aniqlash va eshitishni erta tiklash (protezlash) sharoitlarida kar va zaif eshituvchi bolalarda korreksion ish ilk yoshdan boshlanadi (YE.I.Isenina, T.V.Pelinskaya, N.D.Shamatko va b.). Eshitish qoldig'idan foydalanish eshitishda muammosi bor ilk yoshdagi bolaning psixologik rivojlanishida jiddiy rol o'ynaydi. U ovozlarni olamiga qancha ilgari kirsam, uning bilish faoliyati shakllanishi jarayoni shunchalik tabiiy yo'l bilan boradi. U

bilan maxsus ishlarni olib borish jarayonida unda nonutqiy eshitish shakllanadi. Rivojlantiruvchi eshitish idroki eshitishda muammosi bor bolada talaffuz hosil bo'lishi jarayonini, normal eshituvchi bolalarda bo'ladigandek, yaqinlashtirishga imkon beradi.

Bir yoshgacha bolalar bilan korreksion mashg'ulotlarni surdologiya kabineti o'qituvchi-defektologi, eshitishda muammosi bor bolalar uchun maxsus maktabgacha ta'lim muassasasi yoki bir yoshga to'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan reabilitatsiya markazi surdopedagogi rahbarligida ota-onalar olib boradilar. Bundan tashqari, reabilitatsiya markazining o'zida surdologiya kabineti pedagogi bilan tizimli mashg'ulotlar tashkil qilish maqsadga muvofiq.

Korreksion mashg'ulotlarning erta boshlanishi bolaning eshitish idrokini uning eshitish analizatorining jismoniy yetilishi ro'y beradigan yosh davrida rivojlantirish imkoniyatini beradi.

Analizatorlarning, shu jumladan eshitish, rivojlanishi faqat tashqi dunyodan axborot muntazam kelib turgan sharoitdagina mumkin. Eshitishda nuqson bo'lganda, eshitish analizatori ishlay boshlashi va rivojlanishi uchun shaxsiy eshitish apparatlaridan doimiy foydalanilgan sharoitda intensiv pedagogik ta'sir zarur.

Kar yoki zaif eshituvchi go'dak bilan uni parvarishlash jarayonida faqatgina to'g'ri munosabatda bo'lish, uning faoliyatini tashkil qilish, tarbiyalash bo'yicha tavsiyalarni bajarish emas, balki uning og'zaki nutqini shakllantirish bo'yicha maxsus ish olib borish ham talab qilinadi.

Bularning hammasi bola unga aytilayotgan nutqni eshita oladigan sharoitlar yaratishni talab qiladi. Bunga ayrim hollarda gapiruvchining bola qulog'iga oddiy yaqinlashuvi bilan erishiladi, ammo eshitishni protezlashni sifatli amalga oshirish zarur.

Eshitishni protezlash vrach-surdolog tomonidan otiotrik va audiologik tekshiruvlar natijalari asosida amalga oshiriladi. Bir yoshgacha bolalarni quloq orqasiga o'rnatiladigan tipdagi ikkita apparatlar bilan protezlash maqsadga muvofiq.

Apparatning tipi vrach-surdolog tomonidan tanlanadi. Apparatni ishlatishning individual rejimi o'qituvchi-defektolog tomonidan korreksion mashg'ulotlar jarayonida aniqlanadi.

Apparatning rejimi tanlangan vaqtdan boshlab, bolani undan butun kun davomida foydalanishga o'rgatish kerak. Apparatlarni



ertalab yuvilib bo'lgan zahoti taqiladi va faqat uyquga yotish yoki cho'milish oldidan olinadi. Apparatlar bilan sayr qilishning ahamiyati katta, chunki ko'chada go'dak qulog'iga eshitiladigan ovozlarning ko'p bo'ladi. Bola bezovtalansa, apparatni olib qo'yishga intilsa, bunday bezovtalikning sababini aniqlash lozim. Bolaning apparatga ko'nikish davri, odatda, bir haftaga yaqin davom etadi.

Korreksion ishni o'z vaqtida boshlash va uni tizimli hamda to'g'ri olib borish, bolalarning bir qismi, og'ir eshitmasligi yoki hattoki karligiga qaramasdan, 3-5 yillardayoq keng iborali, eshitilishi normalga yaqin bo'lgan nutqni egallashlariga ularning faqat umumiy darajasi emas, nutqiy rivojlanishi ham shu yoshdagi eshitadigan bolalardagiga yaqinlashuviga olib keladi.

Qoldiq eshitishni rivojlantirish bo'yicha ishning mazmuni va metodikasi, bola bilan mashg'ulotlarni qaysi yoshdan boshlanganiga bog'liq.

3 oylik bolada eshitish va ko'rishni yo'naltirish rivojlanadi. Korreksion ishni olib borishda go'dakni har xil ko'rish, eshitish va sezish taassurotlari bilan ta'minlash zarur. Bola u bilan gaplashayotgan katta yoshdagi odamning yuziga tikilib qarashni, rangli va yaltiroq o'yinchoqlarga qarab turishni, harakatlanayotgan predmetlarni kuzatishni o'rganadi. Unda turli ovozlarga: nutq, ashula, o'yinchoqlarning jaranglashi va shu kabilarga quloq solish qobiliyati rivojlanadi. Shu maqsadda katta yoshdagilar go'dak bilan erkalatib gaplashadilar, uning ismini aytib chaqiradilar, biroq vaqt u bilan o'z yuzlariga e'tiborini tortgan holda, suhbatlashadilar.

3 oylikdan boshlab, bola tinch holatda o'zi ovoz chiqara boshlaganda, katta yoshdagi uning ovozini takrorlash bilan, uni taqlid qilishga undaydi. Bunda faqatgina bola o'zlashtirgan tovushlarni taklif qilmasdan, boshqa yangi, turli intonatsiya ritmi bilan talaffuz qilinadigan tovushlarni ham taklif qilish lozim.

Eshitishni yo'naltirishni shakllantirishda ovozdan tashqari, bola qulog'iga eshitiladigan ovozlarning chiqaruvchi o'yinchoqlardan foydalaniladi. Uni o'yinchoq ovoz chiqarayotgan vaqtda unga ko'z bilan qarashga o'rgatiladi. Ba'zan bolani tovush qaysi tomondan kelayotganini bilishga undaladi.

6 oylik zaif eshituvchi bolaga ta'sir o'tkazishning asosiy usuli uni har turli eshitish, ko'rish, sezish taassurotlari bilan ta'minlash hisoblanadi. Eshitishga eng asosiy ta'sir katta yoshdagi odamning

nutqi hisoblanadi. Bola bilan nutqiy muloqot u uxlamayotgan faol vaqtining hammasida amalga oshiriladi. Katta yoshdagilar go'dak bilan, uni qo'llariga olib turli intonatsiyalarda gaplashadilar, unga oddiy, lekin ritmi va tempi bo'yicha har turli ashulachalarni, u bilan birga ovoz taktiga mos harakatlangan holda, aytib beradilar.

Bu bosqichda eshitish funksiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus mashqlarni o'tkazishni boshlaydilar. Bularga turli yo'nalishlarda va muntazam uzoqlashib boradigan masofalarda joylashgan ovoz manbalari joylashgan joyni aniqlay olishni rivojlantiruvchi mashqlar kiradi.

O'yinchoqlar jaranglashini farqlay olish qobiliyatini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Go'dakni predmetlardan biri jaranglayotgan vaqtda o'ng tomonga va boshqasi jaranglayotgan vaqtda chap tomonga qarashga undaladi. Natijada ovozga va uning yo'nalishiga nisbatan shartli farqlovchi refleksi hosil qilinadi. Jaranglash uning manbayi bilan bog'liqligi qanchalik mustahkam ekanligini tekshirib ko'rish uchun, 1-2 marta ovozni boshqa tomondan eshittirish mumkin. Agar bola ilgariidek ovoz doim kelgan tomonga boshini bursada, bu farqlovchi refleksi hosil qilinganligini va go'dak ovozlarni farqlayotganligini bildiradi.

Birinchi yilning 2-yarmi eshitadigan bola passiv idrok qilishdan katta yoshdagilar bilan faol hamkorlikka o'tishi bilan xarakterlanadi. U bilan hamkorlikdagi faoliyat jarayonida, turli predmetlar bilan harakatlarni ham nazarda tutgan holda, oddiy so'zlarni tushuna boshlaydi.

Bola tomonidan so'z yaxlit vaziyatning komponenti, uning ajralmas qismini tashkil qiluvchi sifatida idrok etiladi.

Maxsus ishning boshlanish vaqti yakka tartibda nutqni tushunish shakllanishiga muvofiq belgilanadi. Bolada so'zga farqlovchi refleksi hosil bo'lishi va u doimiy joyida turgan predmet tomoniga boshini buradigan bo'lishi bilan faqat eshitish orqali idrok qilinadigan so'zlarni farqlashga o'rgatish bo'yicha ishni boshlash lozim.

Eshitish idroki ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha mashqlarni nutqni rivojlantirish mashg'ulotlari jarayonida olib boriladi. Bu bosqichda, go'dak onasining "Qani vov-vov?" savoliga nomi aytilgan predmet tomonga qarab boshini buraganida, unga faqat eshitishi asosidagi ovozga taqlid qilishni maxsus undash kerak.

So'ngra go'dak nomi aytilgan predmet tomonga boshini ishonch bilan buradigan bo'lganida, uni boshqa o'yinchoqning nomini ham xuddi shunday eshitishga o'rgatishni boshlash lozim. Shunday qilib, bolani faqat eshitish asosida ikkita ovozga taqlidni idrok qilishga ketma-ket o'rgatiladi. Keyin ularni faqat eshitish orqali farqlash qobiliyati shakllantiriladi. Undan keyin katta yoshdagi odam so'ragan u yoki bu o'yinchoqni olib berishga o'rgatiladi.

Birinchi yilning oxirida bolada ma'lum 5-10 nutq birligi: ovozga taqlid qilish va o'yinchoqlarning nomini gugulab aytishdan iborat eshitish lug'ati to'planadi.

Ikkinchi-yil eshitadigan bolaning psixik hayotida nutq alohida o'rin tuta boshlaydi. Korreksion ish mazmuni murakkablashadi: eshitish lug'ati kengayadi, bolaning faol ishtirokini nazarda tutadigan faoliyat turlari kiritiladi.

Eshitish lug'atini kengaytirish to'liq so'zlarni - o'yinchoqlar, real predmetlar, harakatlar nomlarini kiritish hisobiga amalga oshadi. Ovozga taqlid qilish asta-sekin tegishli to'liq so'zlar bilan almasha boshlaydi.

Ikkinchi yilning oxirida eshitish lug'atiga ikkita so'zli iboralar: "Qo'g'irchoq (ni-ni) ni ber", "Miyov uxlayapti (ux-ux qilayapti)" va boshqalar kiradi. Shunday qilib, eshitib idrok qilinadigan nutq birliklari soni asta-sekin o'sa boshlaydi. Shuningdek, mikrofonigacha, apparatgacha yoki bolaning qulog'igacha masofa ham uzaytirib boriladi.

Nutq materialini eshitib farqlash bo'yicha mashqlarni o'tkazishda bolaning faoliyati emotsional jihatdan rang-barang bo'lishi lozim. Bolaga u yoki bu predmetni, o'yinchoqni katta yoshdagi odamning yo'riqnomasi bo'yicha tanlab olish vazifasi beriladigan vaziyat hosil qilinadi. Yo'riqnoma eshittirish-ko'rsatishni ko'zda tutadi, ayrim hollarda tabiiy imo-ishora bilan ko'rsatiladi, va faqat so'zni, ya'ni eshitishni mashq qildirish materialini, doimo eshitish uchun talaffuz qilinadi. Materialni eshitib farqlash avval o'yin jarayonida, keyin o'yinchoqlarni yig'ishtirishda amalga oshiriladi. Ikkinchi yilning oxirida pedagog nutq materialini farqlash bo'yicha stolda ko'rgazmali material sifatida faqat o'yinchoqlar va real predmetlarni emas, balki ularning tasvirlaridan ham foydalangan holda ishlashni boshlaydi.

Bola faoliyatini shunday tashkil qilish kerakki, uning qiziqishi so'nib qolmasin.

Eshitish lug'ati 4-5 so'zga yetgandan keyin nutq materialini tanib olish, ya'ni tanish so'zlarni faqat eshitish bilan ko'rgazmali namunaga tayanmagan holda bilib olish qobiliyatini shakllantirish bo'yicha ish boshlanadi.

Bu turdagi ishni tashkil qilishda bola taklif qilinayotgan vaziyatga muvofiq harakat qilishi jiddiy ahamiyatga ega. Bolaning faol nutqi shakllanib borishi bilan undan o'yinchoqlarning nomini albatta aytish talab qilinadi. Asta-sekin mashqlarda ilgari eshitish mashqiga kiritilmagan so'zlardan foydalaniladi. Ammo bu mashqlar hozircha tizimli xarakterga ega bo'lmaydi. Keyinchalik bolaning eshitish lug'ati kengayadi, unga bolaning nutqi rivojlanishi davomida o'zlashtiradigan yangidan-yangi so'zlar, so'z birikmalari va iboralar kirib keladi. Bunda bola nutqni eshitadigan masofani uzaytirishga alohida e'tibor qaratiladi. Tanlab olish uchun 4-5 tagacha oshirilgan sondagi so'zlardan taklif qilinadi.

Bu ishni olib borishda asosiy metodik usul sifatida eshitalayotgan so'zning ma'lum predmetga tegishligini bilishni o'rgatish hisoblanadi. Ma'lum so'zning eshitalishi u yoki bu o'yinchoq bilan bog'lanadi, masalan, baraban ovozi doimo quyoning paydo bo'lishi bilan, sumay ovozi qo'g'irchoqning paydo bo'lishi bilan bir vaqtda eshittiriladi. Bola eshitalayotgan ovozga muvofiq bo'lgan o'yinchoqni tanlashi kerak. Uni so'zni og'zaki aytishga undash (bu so'zning fonetik jihatlari go'dakning talaffuz qilish ko'nikmalariga mos bo'lishi zarur) shart hisoblanadi. M.D.Shmatko va T.V.Pelimskeyalar taklif qilgan ish tizimi korreksion mashg'ulotlar hayotining birinchi yarmidan boshlab olib borilgan bolalarga mo'ljallangan.

Mashg'ulotlarni 6-12 oylardan boshlangan hollarda ular yosh xususiyatlariga muvofiq tashkil qilinadi, bunda 1 yoshlik bolalar bilan ishlashning alohida usullaridan, lekin, bu holda bolaning katta yoshdagi odam bilan hamkorlik faoliyatida faol ishtiroki darajasi sezilarli yuqori ekanligini hisobga olgan holda foydalaniladi. Agar bola bilan korreksion mashg'ulotlar ikkinchi-yil davomida boshlansa, ularning mazmuni va o'tkazish metodikasi go'dakning o'sgan imkoniyatlariga muvofiq ravishda o'zgartiriladi.

Birinchi navbatda uni qulog'iga eshitalayotgan ovozlarni eshitishga o'rgatiladi. Bolani har xil maishiy shovqinlar: eshik taqillashi, maishiy texnika ishlayotgandagi shovqin, tushib ketgan predmetning zarbasi, transport shovqini va signallari va shu kabilarga e'tibor qaratishga o'rgatiladi. Bu ish maxsus mashg'ulotlarni talab qiladi, u butun kun davomida olib boriladi. Bolaning reaksiyalarini diqqat bilan kuzatish jiddiy ahamiyatga ega. Shaxsiy eshitish apparatida u ko'plab ovozlarni eshitadi. Bola eshitayotib tang qoladi, ko'zlarini pirpiratadi kamroq hollarda esa ovoz manbayini topishga harakat qiladi. Katta yoshdagilarning vazifasi nima ovoz chiqarayotganini go'dakka doimo ko'rsatishdan iborat. Idrok etish mumkin ovozlarni qiziqarli va ahamiyatga ega qilish lozim. Lekin bu kamlik qiladi. Bolani nonutqiy ovozlar bilan aniq maqsadli tanishtirish zarur.

Bolani uning qulog'iga eshitaladigan ovozlarga quloq solishga o'rgatish uchun go'dakda ovozga nisbatan shartli harakat reaksiyasini hosil qilish bo'yicha maxsus mashg'ulotlar o'tkaziladi. Bunday reaksiya yordamida uning eshitishi ahvolini aniqlash mumkin bo'ladi.

Bola 1 yosh 4 oylik - 1 yosh 6 oylik bo'lganda, uni katta yoshdagi odamning signali bo'yicha biron-bir harakatni: to'pni dumalatish, parovozni g'ildiratish va shu kabilarga o'rgatish kerak. Katta yoshdagining signali bolaga ko'rinadigan bo'lishi lozim. Ikki nafar katta yoshdagilar ishtirok etgani maqsadga muvofiq: birlamchisi go'dakdan 1-2 metr masofada signal beradi, ikkinchisi bola bilan birgalikda harakat qiladi. Bayroqchani silkitganda bola katta yoshdagiga to'pni dumalatadi. U signalni kutishi, ungacha harakatni boshlamasligi zarur. Mashqlar qiziqarli bo'lishi uchun signal bo'yicha bajariladigan harakatlarni almashtirib turish kerak: masalan, 2-3 kun go'dak to'pni dumalatadi, undan keyin mashina, parovozni g'ildiratadi. Bola bilan rollarni almashish mumkin. U o'yinga o'rganganidan keyin, u bilan rollarni almashish va ko'rinadigan harakatli nutq signaliga reaksiyasini hosil qilishga o'tish maqsadga muvofiq. Buning uchun katta yoshdagi odam go'dak bilan bir stol atrofida unga qarama-qarshi tomonda o'tirib, qoidalarini stolga qo'yadi, ularning oldiga esa kattakon tugmachani qo'yadi. U bolaning diqqatini o'zining lablariga qaratib, gaplashish balandligidagi ovoz bilan "ta-ta- ta-ta", "tu-tu-tu-tu" turidagi

ovozlarni talaffuz qiladi. Talaffuz qilishni boshlash vaqtida u go'dakning qo'li bilan tugmachani oladi va uni bankachaga tashlaydi. Bu mashqni bola uni o'zi, aytib berishlarsiz, bajaradigan bo'lgunicha o'tkaziladi. Bunga odatda 8-10 ta mashg'ulot talab qilinadi. Unlilar orasidagi pauzalarning cho'ziqligini, bola signallarning berilish ritmiga emas balki ovozga e'tibor berishi uchun, doimo o'zgartirib turish kerak.

Bola vazifani yaxshi bajara boshlaganda, katta yoshda odam u bilan yonma-yon o'tirib, gaplashish balandligidagi ovoz bilan bo'g'inlarni uning qulog'i oldida talaffuz qiladi. Go'dak ovoz chiqarilayotgandagi havo oqimini his qiladi va tugmachani bankachaga tashlaydi. Bunga 1-2 ta mashg'ulot talab qilinadi.

Oxirida katta yoshdagi odam ishning asosiy qismiga kirishadi: u bolaning gaplashish balandligidagi ovozni eshitayotganligini va qancha masofadanligini aniqlashi kerak. Buning uchun o'sha mashqning o'zini, lekin havo oqimini bekitadigan ekrandan foydalangan holda, bajariladi. Go'dak qulog'i chig'anog'i oldida (ekran bilan) gaplashish balandligidagi ovoz bilan talaffuz qilinayotgan bo'g'inlarning eshlatilishiga e'tibor qaratishni o'rganganidan keyin, bolaning qulog'idan masofani asta-sekin 5, 10, 20, 50 sm va shu kabi oshirib borish lozim. Agar bola gaplashish balandligidagi ovozga 1 metr va undan ortiq masofadan e'tibor qaratsa, u shivirlashni eshitadimi, yo'qmi ekanligini avval quloq chig'anog'i oldida, keyin uzoqdan tekshirib ko'rish kerak. Bu ish yuqorida bayon qilinganga o'xshagan holda amalga oshiriladi.

Go'dakda nutqiy signalga shartli harakat reaksiyasi hosil qilish bo'yicha ish bilan bir vaqtda, go'dakni o'yinchoqlarning jaranglashini idrok qilishga o'rgatiladi. O'rgatishni hamma bolalar uchun mos bo'lgan baraban ovozidan boshlanadi. Katta yoshdagi odam boladan baraban chalinayotgan vaqtda u yoki bu harakatni bajarishni so'raydi. Bola avval katta yoshdagi odam qanday chalayotganligini ko'radi, shundan keyingina uning orqasida 0,5 metr masofada chalinadigan baraban ovozini eshitadi.

Ovozga shartli-harakatli reaksiyani hosil qilish bo'yicha mashqlar har kuni 3-5 minutdan o'tkaziladi. Bu mashqlar uchun materialni muntazam almashtirib turiladi.

Hosil qilingan ovozga shartli-harakatli reaksiya vrach-surdolog uchun shaxsiy eshitish apparatini ishlatish rejiraini tanlash

imkoniyatini beradi. Eshitish apparatining ishlash rejimini bir-yil 2-3 marta aniqlanadi.

Ovozga shartli-harakatli reaksiyani hosil qilish bilan bir vaqtda bolani nutqiy materialni eshitish orqali farqlashga o'rgatiladi.

Ovoz taqlidlarini eshitish orqali farqlashga o'rgatishda katta yoshdagi odam ichidagi narsa ko'rinmaydigan qopchaga 3-5 ta o'yinchoq kuchukcha va otlarni soladi. U bitta o'yinchoqni, masalan, kuchukchani qopchadan oladi va uni lablari oldiga keltirib, "vov-vov-vov" deb talaffuz qiladi, keyin uni stolga qo'yadi, boshqa o'yinchoqni, masalan otni oladi va uni "chu-chu" deb talaffuz qiladi va uning qanday yugurishini namoyish qiladi, so'ngra uni stolning boshqa chekkasiga qo'yadi.

O'yinchoqlarni turli ketma-ketlikda qopdan olish bilan katta yoshdagi odam go'dakni kuchukchalarni kuchukchalar bilan, otlarni otlar bilan to'plashga o'rgatadi. Shundan keyin eshitish orqali farqlashga o'tish mumkin. Avval katta yoshdagi odam taqlid qilinadigan ovozlarni namunalari namoyish qiladi. Buning uchun u o'yinchoqni olib ekran orqasidan gaplashish balandligidagi ovoz bilan taqlid qilinayotgan ovozni talaffuz qiladi. Keyin go'dak shu ovozlarni farqlashni o'rganadi u ovozlarga javoban ma'lum harakatlarni bajarishi kerak.

Bir juft taqlid qilinadigan ovozni o'zlashtirish ikki-uch kunga mo'ljallangan. Apparatning to'g'ri tanlangan rejimida hatto kar bolalar ham kamida 1,5-2 metr masofadan taqlid qilinadigan ovozni farqlay oladilar.

Bolaning eshitish lug'ati 8-10 ta nutqiy birlikdan iborat bo'lganda, eshitib farqlash uchun turli guruhlariga: o'yinchoqlar, ovqatlar, kiyim va shu kabilarga tegishli so'zlarni tanlash kerak. Agar bola eshitish orqali tanlangan 4 ta birlikdan 4 ta nutqiy materialni farqlay olsa, ishda "Laylo uxlayapti", "Oyisi ovqatlanayapti" va shu kabi turdagi iboralardan foydalaniladi.

Bu iboralarga tegishli suratlar va fotolar tanlanadi. Bolaning oldiga suratlar yoki predmetlar: uy, tarelka, uxlayotgan bola qo'yiladi. Katta yoshdagi odam go'dakni suratlarini to'g'ri tartibda qo'yishga o'rgatadi, keyin so'zlar va iboralarni eshitib farqlashni taklif qiladi. Avval bolaga har bir so'z va iboraning eshitiishi namunasi beriladi, u eshitganini takrorlaydi, suratni yoki predmetni ko'rsatiladi. Keyin katta yoshdagi odam, suratlarini ko'rsatmagan

holda, so'zlar va iboralarni har xil ketma-ketlikda talaffuz qiladi. Go'dak tanish so'zlar yoki iboralarni tanib olishi lozim.

Bola 2-2,5 yoshda o'ziga yaxshi tanish bo'lgan 4-5 nutqiy birlikdan iborat materialni, tegishli predmetlar va suratlariga tayangan holda eshitish orqali farqlashga o'rganadi.

U eshitish orqali faqat taqlid qilinadigan ovozlarni emas, balki gugulash va to'liq so'zlarni, so'ngra esa iboralarni farqlashga o'rganib borishi bilan, bu materialni eshitish orqali tanib olish uchun taklif qilinadi. Eshitish orqali tanib olishga o'rgatish bo'yicha ishni eshitish orqali farqlashga o'rgatish bilan parallel olib boriladi. Eshitish orqali tanib olish uchun materialni har bir mashg'ulotda o'zgartirish kerak.

Nutqiy materialni eshitish orqali tanib olish va farqlashga o'rgatishni shaxsiy eshitish apparati bilan ham, hamda usiz ham o'tkazish lozim. Bola apparat bilan va usiz eshitganini bilib oladigan masofani asta-sekin oshirib borishga katta e'tibor qaratiladi. O'rgatish qiziqarli va jozibali shaklda o'tkazilishi kerak.

Qoldiq eshitishni rivojlantirish bo'yicha ishning yo'nalishlaridan biri bolalarni nonutqiy ovozlarni xarakteri bilan tanishtirish hisoblanadi. Maxsus mashg'ulotlarda har xil jaranglaydigan o'yinchoqlar: baraban, surnaycha, garmoshka va shu kabilardan foydalaniladi. Bolada ovozga shartli harakatli reaksiya hosil bo'lgandan keyin, uni o'yinchoqning ovozini biron-bir harakatga bog'lashga o'rgatiladi, keyin esa ikkita o'yinchoqning, masalan, baraban va surnaychani, baraban va garmoshkaning ovozlarni farqlash taklif qilinadi. Bola avval nonutqiy ovozni eshitish - ko'rish bilan idrok qiladi va faqat shundan keyingina ularni eshitish orqali farqlashga o'rganadi. Bola har bir o'yinchoq ovozini yaxshi eshitadigan masofani tanlanadi.

O'yinchoqlar ovozini farqlash bilan bir vaqtda bolani ularning davomiyligini, tempi, bog'liqligini va balandligini farqlash hamda qayta takrorlashga o'rgatiladi.

Turli ovozlarni eshitib farqlash bo'yicha ishni asosan shaxsiy eshitish apparati bilan o'tkaziladi. Agar bola kamida 0,5-1 metrdan ovozni apparatsiz eshitsa, bunda uni bu ovozlarni apparatsiz farqlashga o'rgatish kerak. Ovozlarni pedagog tomonidan bola ularni qaysi masofadan eshitsa, shu masofadan eshittiriladi.

Bayon qilingan go'dak yoshidagilar bilan ishlash metodikasi go'dakning maktabgacha yoshda muvaffaqiyatli nutqiy va umumiy rivojlanishi hamda uning rivojlanishini normal eshitadigan tengdoshlari rivojlanishining tabiiy borishiga yaqinlashtirish garovidir.



#### Savol:

1. O'zbek milliy didaktikasining shakllanishi deganda nimani tushunasiz?
2. Surdopedagogikaning didaktik masalalari haqida o'z tushunchalaringizni izohlang?
3. Didaktikaning vazifalari ....?
4. Eshitish idroki ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha nimani tushunasiz?

## II BOB

### KAR VA ZAIF ESHITUVCHI BOLALAR TA'LIMINING METODIK ASPEKTLARI

#### 7. KAR VA ZAIF ESHITUVCHI BOLALAR TA'LIMI, TARBIYASI, IJTIMOY MOSLASHUVIGA OID TADQIQOTLAR

**Tayanch tushunchalar:** *Ijtimoiylashtirish, jamoa ta'lim-tarbiya, korreksiya va rivojlantirish, tamoyil*

"Ijtimoiylashtirish" tushunchasi "jamoa" va "indivud" tushunchalari bilan bog'liqdir. Ushbu tushunchalarning mazmuni, mohiyati va o'ziga xos hususiyatlarini ochish masalalari bilan falsafa, sosiologiya, psixologiya va pedagogika shug'ullanadi.

Ijtimoiylashuv individning shaxsga aylanish jarayoni ostida kechuvchi qayta aloqaning sifati bilan bog'liq tushuncha hisoblanadi. Shaxs hayoti davomida ehtiyojlarini qondirishi, o'zi va o'zgalar manfaatlarini ko'zlagan holda ma'lum harakatlarni amalga oshirishi uning boshqa insonlar bilan o'zaro muloqoti orqali amalga oshiriladi. Shaxsning muhitga moslashuvi ijtimoiy va shaxsiy omillarning o'zaro aloqadorligida amalga oshadi. Ma'lum muhitda rivojlanayotgan bola o'z faolliklarini anglay boshlaydi, ya'ni o'z-o'zini bilishi, anglashi sodir bo'ladi. Bu jarayon ijtimoiy anglashdir. Asta-seldn muhit ta'sirida o'z hatti-harakatlari orqali faoliyatini qayta o'zgarishga yo'naltiradi, bu davr unda dunyoqarashning kengayishi, tajribalarning ortishi, ma'lumotlar, voqeliklar haqida mustaqil fikrlaydigan hamda o'z fikrini qarshi qo'ya oladigan darajada shakllanganligi bilan bog'liqdir.

**A.V.Petrovskiy** ijtimoiylashish jarayonida subyekt-obyekt munosabatlarining rivojlanishini uch darajaga ajratib ko'rsatgan: moslashish, individuallashish va integratsiyalashuv.

Moslashish darajasi bolalik davri bilan bog'liqdir. Bu darajada bola odamlar dunyosiga kirib boradi, belgilar tizimini o'zlashtiradi, odamlar tomonidan yaratilgan oddiy me'yorlar va xulq-atvor qoidalari, inson faoliyatining oddiy ko'rinishlarini egallaydi. Bola o'zi shaxs sifatida rivojlanishni o'rganadi. Bu davr ijtimoiylashish jarayonida juda ham muhimdir.

Individuallashish darajasida insonning ehtiyojlariga bog'liq o'zgarishlar kuzatiladi. Bunda shaxs-ommaviy munosabatlar subyekti hisoblanadi. subyekt faoliyati birinchi darajada o'zlashtirishga yo'nalgan bo'lsa, ikkinchi darajada esa, uni qayta tuzgartirishga ham kirisha oladi. Bu davrda bolada "men", ya'ni individuallik yuzaga keladi, o'z-o'zini ko'rsatish ustuvorlik qiladi.

Integrasiyaning uchinchi darajasi ijtimoiylashish bo'lib, bu jarayonda inson rivojlanadi. Bu bosqichda insonlarda ijtimoiy qadriyatlar paydo bo'ladi. Aynan shu davrga yetgach, inson ma'lum bir ijtimoiy guruhga tegishlilikini anglaydi.

Bola ilk rivojlanish davrida ijtimoiy munosabatlar dunyosiga kirib boradi. Yaqin odamlar bilan muloqotda bo'lishi orqali asta-sekin xulq-atvor me'yorlarini o'rganadi. Lekin bu davrda uning harakatlari anglanmagan bo'ladi. Asta-sekin bolaning ichki dunyosi shakllanadi. Bolaning kattalar bilan munosabat shakli o'zgaradi, atrof-muhitdagi narsalar dunyosiga kirib boradi va shu asosda predmetli faoliyatni o'zlashtiradi. Ana shu predmetli faoliyat asosida bola kattalar bilan muloqotga kirishadi, predmetlarning obrazi bilan bog'liq ravishda atrof-muhitni o'rganadi.

Oila ijtimoiylashishning muhim instituti hisoblanadi, chunki oilaning o'rnini hech qanday boshqa jamoa egallay olmaydi. Oilada insonning dastlabki ijtimoiy moslashish davri kechadi. 6 yoshgacha bola uchun bu asosiy ijtimoiy muhitdir. Asosiy ijtimoiy munosabat va odatlarni bola oilada egallaydi. Oila bolani jamoada o'zini tutishga o'rgatadi va unga diniy qadriyatlar, etnik qarashlar va ma'naviy qadr-qimmatlarning mohiyatini tushuntiradi.

Ijtimoiy moslashuv turli munosabatlar sharoitida amalga oshadi. Shaxsning moslashganlik darajasi ijtimoiy muhit xususiyatlari va insonning shaxsiy sifatlari bilan ifodalanadi. Ma'lumki, ijtimoiylashuv jarayonining asosi insonning muhitga moslashuvidan iborat bo'lib, uning ta'sirida shaxs jamiyatning teng huquqli a'zosiga, turli munosabatlarning faol ishtirokchisiga aylanadi. Insonning ijtimoiy moslashuvi jamiyatga munosabatlari bilan bog'liq ravishda o'zgarib boradi va unda jamiyat talablariga javob berish darajasi ortib boradi.

**G.M. Mostyukova** va **O.M. Usanova** o'z ilmiy tadqiqotlarida "Ijtimoiylashish orqali inson egallagan ijtimoiy tajribasi, ahloq me'yorlari asosida jamiyatga moslashadi va qo'shiladi. Shaxs o'z

tabiatiga ko'ra mustaqillikka erishishga, shaxsiy fikrini shakllantirishga intiladi" -deb e'tirof etadi.

Ijtimoiylashuv va ijtimoiy moslashuv o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, shaxs va jamiyatning o'zaro munosabati birligini o'zida aks ettiradi. Ijtimoiylashuv, odatda, umumiy rivojlanish bilan, moslashuv esa, yangi sharoit, muloqot va faoliyat bilan belgilanadi. **E.Erikson** atrof-muhitga moslashishning ikki turini ajratadi:

-allaplastik, ya'ni tashqi olam o'zgarishi bilan bog'liq moslashuv (tibbiy lug'aviy ma'nosi - plastik jarroxlik operatsiyasi, ya'ni nuqsonli yoki kasallangan organ yoki to'qimaning o'rniga boshqa yoki organ yoki to'qimani qo'yish);

-autoplastik (auto grekcha plastika, yasash, xaykaltaroshlik) individning o'z-o'zini o'zgartirish orqali moslashishi.

Allaplastik adaptatsiya rivojlanish, shaxsiy o'sishga, yangi faollikka intilish uchun asos yaratadi. Autoplastik adaptatsiya shaxsning muxitga moslashishiga imkon beruvchi o'zgarishlarni ta'minlaydi.

Har doim ham bolalarning ma'lum bir jamoaga qo'shib ketishi oson bo'lmaydi. Aksincha, u yoki bu ta'sirlar doirasida bola hayotida yuz beradigan to'siqlar dezadaptatsiya jarayoni yuzaga keladi. Hozirgi kunda amaliyotda bu kabi ijtimoiylashuv muammolarini bartaraf etishning yaxlit uslublari mavjud emas. Chunki bu muammo bola hayotining turli jihatlarini o'z ichiga oladi. Bu vaziyatda tibbiy, pedagogik, psixologik va ijtimoiy omillarni inobatga olish zarur.

Amaliy psixologiyada dezadaptatsiyani bartaraf etishda quyidagi tartibda ish olib borish yo'lga qo'yilgan:

- bola yashayotgan ijtimoiy muhit o'rganiladi, anamnez yig'iladi;
- bolada mavjud ichki qarshilik xarakteri o'rganiladi;
- bolaning moslashuviga qarshi omillar aniqlanadi, jamlanadi;
- bolaning yosh hususiyatlariga ko'ra psixofizik rivojlanish darajasi maxsus testlar orqali o'rganiladi;
- bolaning individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda pedagogik-psixologik korreksiya ishlari rejalashtiriladi.

Agar ushbu ish reja maqsadli tuzilib, u bo'yicha mashg'ulotlar tashkil etilsa, bolada hayotni sevisish va unga ijobiy munosabatda bo'lish xissi kuchayadi.

Hozirgi zamonda **Z.Freyd** g'oyalari tayangan holda moslashuv jarayonining ikki darajasini farqlash mumkin:

adaptatsiya va dezadaptatsiya (insonning tashqi sharoitga qisman yoki to'liq moslashmasligi).

Moslashuv shaxs va muhitning o'zaro munosabati - ta'sir maydoni yuzaga kelganda amalga oshadi. Shaxs va muhit o'rtasidagi munosabat yuzaga kelmasa, dezadaptatsiya amalga oshadi. Ijtimoiy ta'sirlarga xar bir shaxs o'z jinsi, yoshiga muvofiq javob beradi. Har bir inson hayotda uchraydigan to'siqlar va qiyinchiliklarni yengish uchun mos va xos usullarni qo'llaganligi sababli, moslashuvchanlikni usullar tizimi deya talqin etish mumkin.

**A.A.Rean** ijtimoiy moslashuv modelini ichki va tashqi ko'rsatkichlar bilan bog'laydi. Ichki ko'rsatkichlarni psixoemosional mo'tadillik, qoniqish, qulaylik mavjudligi hamda, stress, havf-xatar mavjud emasligi holatlari tashkil etadi. Tashqi ko'rsatkichlarni muhit qonun-qoidalari, talablari, jamiyat me'yorlari qamrab oladi. Sog'lom bolalar va kattalar kabi kar hamda zaif eshituvchi bolalarning ijtimoiylashuvi psixologik ildizga ega bo'lib, pedagogik ta'sirdan oziqlanadi, rivojlanadi. Shuning uchun bu yo'nalishlardagi ilmiy tadqiqotlar mazmunida psixologik jarayonlarning hususiyatlarini o'rganish va ularning ta'siriga tayanish muhimdir. Quyida kar va zaif eshituvchi bolalarning shaxs sifatida shakllanishida psixologik jarayonlarning o'ziga xos o'rni va ta'siriga doir nazariy ma'lumotlar va amaliy xulosalar bayon etiladi.

Eshitishda muammolari bo'lgan bolalar va kattalarda psixologik jarayonlarning o'ziga xos shakllanishi va rivojlanishi masalalari bilan umumiy psixologiyaning mustaqil bo'limi - surdopsixologiya shug'ullanadi. Ushbu fanning rivojlanishiga qator olimlar, jumladan V.I.Fleri, F.F. Ostrogradskiy, M.I. Logovskiy, F.A.Rau kabilar katta hissa qo'shishgan. Ularning ilmiy ishlarida eshitishda muammolari bo'lgan bolalarning ruhiy xususiyatlarini kuzatish va aniqlashga doir tavsiyalar va ilmiy qarashlar bayon etilgan.

**V.I.Fleri** eshitishda muammolari bo'lgan bolalarning harakat tizimi xususiyatlarini o'rgangan va noto'g'ri koordinatsiya, ishonchsiz harakatlanish mazkur toifa bolalar uchun xosligini ta'kidlagan.

Eshitishda muammolari bo'lgan bolalarda psixik jarayonlarning o'ziga xosligi eshitish nuqsonining paydo bo'lish vaqti hamda darajasiga bevosita bog'liqdir.

Ma'lumki, eshitish buzilishlari bolalarda turli infeksiyon kasalliklar va boshqa ta'sirlar tufayli ichki, o'rta, tashqi quloqlarning shikastlanishi natijasida yuzaga keladi. Ichki quloq va quloq nervi shikastlangan bo'lsa, ko'p holatlarda karlik, agar o'rta quloq shikastlangan bo'lsa, eshitish pasayishi kuzatiladi. Bolada eshitish nuqsoni yuzaga kelishiga xomiladorlikning noqulay davom etishi, onaning virusli kasalliklar bilan kasallanishi ham sabab bo'ladi. Eshitish buzilishi sabablariga eshitish sezgilarining tug'ma deformatsiyasi, eshitish nervi atrofining lat yeyishi, ximik zararlanish, tug'ish davridagi shikastlanishlar, mexanik shikastlanishlarni ham kiritish mumkin.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ruxiy rivojlanishi tashqi olam bilan aloqa sharoitida amalga oshuvchi rivojlanishning o'ziga xos yo'lidir.

Eshitishda muammolari mavjud bolalarning ruxiy rivojlanishi eshituvchi bolalarning ruxiy rivojlanishi qonun-qoidalariga bo'ysunadi. Sog'lom bolalar kabi eshitishda muammolari bo'lgan bolalar ruxiy rivojlanishi biologik va ijtimoiy omillarning o'zaro aloqadorligi ostida kechadi. Biologik omillarga nerv tizimining sususiyati, temperament tiplari, qobiliyat hamda bolaning fiziologik holatini kiritish mumkin. Onaning homiladorlik davrining qanday davom etishi, qaysi kasalliklar bilan kasallangani hamda qabul qilingan dorilarning ta'sirida yuzaga kelgan asoratlar, tug'ish travmalari xam biologik omil turkumiga kiradi.

Ijtimoiy omillar bola yashab, rivojlanayotgan jamiyat va muhitdir. Ijtimoiy muxit shu jamiyat hayotidagi mavjud me'yorlar, qoidalar, odatlar, ta'lim-tarbiya mazmunidir.

Avloddan-avlodga o'tadigan ijtimoiy tajribani egallash passiv idrok etish bilan emas, balki faol shaklda faoliyatning turli ko'rinishlari - o'yin, muloqot, mexnat, bilim olish jarayonlarida namoyon bo'ladi. Bolalar bu tajribani kattalar yordamida egallaydilar.

Eshitishda muammolari mavjud bolalarning ruxiy rivojlanishi sususiyatlari ruxiy rivojlanishdan orqada qolgan bolalar psixik rivojlanishi qonuniyatlariga o'xshab ketadi. Rivojlanishda nuqsoni mavjud bolalar atrofdagilar bilan muloqotda qiyinchiliklarga duch keladilar. Ma'lum bir nuqsonlarga ega bolalarning ruxiy rivojlanishini o'rganish L.S.Vigotskiy ning fikricha, shu nuqson

tuzilishi, murakkablik darajasidan kelib chiqadi. Karlik bu birlamchi nuqson bo'lsa, uning oqibatida ikkilamchi, uchlamchi nuqsonlar yuzaga keladi. Uchlamchi nuqsonlar odatda bolaning psixologik og'ishmalarida namoyon bo'ladi. Ta'lim jarayonidagi dastlabki to'siq bo'lib, birlamchi nuqson, ya'ni karlik yoki zaif eshituvchilik hisoblanadi. Karlik va zaif eshituvchilik bolalarning diqqati, xotirasi, tafakkuri va boshqa psixik jarayonlar rivojlanishiga to'sinlik qiladi.

**Q.F. Usmanov**ning ta'kidlashicha bola eshitmagani uchun gapirmaydi, gapirmagani uchun fikrlash doirasi cheklanadi, fikrlashi tor doirada bo'lganligi esa jamiyatga uyg'unlashishini sekinlashtiradi. Bola tor doiradagi odamlar orasida o'ziga xos ijtimoiy qiyinchiliklar olamida qoladi.

Ikkilamchi nuqsonlar tizimli xarakterga ega bo'ladi, funksional o'zaro munosabatlar tuzilishini o'zgartiradi. Ikkilamchi nuqson qanchalik birinchisiga yaqin bo'lsa, uni korreksiyalash shunchalik murakkabdir. Masalan, eshitishida muammolari bo'lgan bolalarning talaffuz nuqsoni eshitish buzilishi bilan bog'liq bo'lib, uni korreksiyalash mushkul vazifadir. Kar va zaif eshituvchi bolalar ruxiy rivojlanishining o'ziga xosligi ikkilamchi nuqsonlarni erta korreksiyalashga ehtiyoj tug'diradi. Ya'ni kar va zaif eshituvchi bolalardagi ikkilamchi nuqsonlarni bartaraf etish choralari qanchalik erta ko'rilsa, bola shunchalik ertaroq ijtimoiy muhitning faol ishtirokchisiga aylanadi. Ayniqsa, psixik jarayonlar ustida maqsadli ish olib borilishi bolalarni ta'lim-tarbiya jarayoni talablarini to'laqonli egallashga tayyorlaydi. Shuning uchun kar va zaif eshituvchi bolalar maktabgacha va maktab ta'limi davrida ijtimoiy hayot uchun zarur ko'nikma va malakalarni egallash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Chunki maktabgacha va maktab ta'limi o'zining mazmuni va maqsadlariga ega jarayon sifatida defektolog mutaxassislar tomonidan tashkil etiladi. Eshitishning buzilishi yoki boshqa bir rivojlanish muammolari bola ruxiy rivojlanishining o'ziga xos qonuniyatlarini keltirib chiqarishi haqida **B.I.Lubovskiy** o'z ilmiy tadqiqotlarida aytib o'tgan. Ya'ni olimning fikricha, buzilishning barcha toifalarida ma'lumotni qabul qilish, qayta ishlash, saqlash va qo'llash imkoniyatini pasayishi kuzatiladi.

Imkoniyati cheklangan bolalarning shaxs sifatida shakllanishini nazariy asoslash uzoq tarixga borib taqaladi. Antik psixologiyada

shaxs shakllanishi uning turmush tarziga bog'liq (Aristotel) degan g'oya ustuvorlik qilib, "rivojlanish" ning ma'nosi "yetilish" tushunchasi bilan ifodalangan. XX asrga kelib, **L.S.Vigotskiy** shaxs yetilmaydi, shaxs biologik va ijtimoiy omillar ta'sirida shakllanadi, degan g'oyani ilgari suradi.

Faoliyat nazariyasi muallifi **A.E.Leontyev** ham shaxsning hayot davomida turli ehtiyojlar doirasida zarur harakatlarni amalga oshirishi orqali rivojlanishini ta'kidlagan. Agar insonda tug'ma nuqsonlar mavjud bo'lsa, biologik faktorlar o'zining ta'sirini ko'rsatadi, ya'ni nuqson qanchalik murakkab bo'lsa, uning ta'siri shunchalik kuchli bo'ladi. Bu vaziyatda insonga kerakli yordam - ta'sirlar ko'rsatilmasa, unda rivojlanish yetilish bilangina cheklanadi. Inson tug'ma nuqsonlarsiz dunyoga kelsa, u nafaqat biologik yetiladi, balki ma'lum davrda u ijtimoiy muhit ta'sirida shakllana boshlaydi. Yuqori psixik jarayonlar ta'sirida o'z-o'zini anglaydi va o'zini o'zi namoyon qila boshlaydi.

Yuqorida keltirilgan nazariy ma'lumotlar karlik yoki zaif eshituvchilik bilan tug'ilgan bolalarning shaxs sifatida shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni anglashga imkon beradi. Kar yoki zaif eshituvchi bolalarning ijtimoiylashuvida eng muhim va hal qiluvchi omil bu ular bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlardir.

Kar va zaif eshituvchi bolalarning shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart- sharoitlarni sanab o'tamiz.

1. Kar va zaif eshituvchi bolalarning emotsional - hissiy sohasiga ta'sir etish. Buning uchun ularning ichki olamiga kira olish yo'llarini topishga ehtiyoj tug'iladi. Eng samarali yo'l bu oila qurshovida bo'lish, yaqinlarning ochiq muloqotidir. Oilalarda kar va zaif eshituvchi bolalarning qiziqishlarini anglash va ularning rivojlanishi uchun sharoitlar yaratish lozim.

2. O'quvchilarning mustaqilligi va faolligini yuzaga keltirish. Kar va zaif eshituvchi bolalarda o'z-o'ziga xizmat qilish, atrofdagilarga o'z fikrini tushuntira olish, o'zini namoyon qilish ko'nikmalarini rivojlantirish lozim.

3. Bolalarda faoliyatning turli yo'nalishlari, ya'ni o'yin, o'qish, dam olish, ijodkorlik kabilarni rivojlantiruvchi maqsadli yondashuvlar tashkil etish: ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, nutqiy tartib, tarbiyaviy mashg'ulotlar dasturi, oilalar bilan birgalikda



seminarlar, tadbirlar, mashg'ulotlar, ochiq dars va mashg'ulotlar tashkil etish.

4. Bolalarni rag'batlantirish va jazolash vositalarini tanlash va joriy etish. Ushbu vazifa bola tarbiyasida, xususan, uning shaxs sifatida shakllanishida muhim omillardan biri sanaladi. Chunki bolalar har bir bajargan ishining o'z vaqtida baholanishini, maqtalishini xush ko'rishadi. Shu o'rinda ularni ayb ish yoki xato qilganda albatta javobgar bo'lishga o'rgatish ham muhimdir. Buning uchun bolalarning shaxsiy hususiyatlari, psixologik sezuvchanligini hisobga olgan holda yondashish lozim.

5. Bolalarning o'zigagina xos bo'lgan muhim psixologik hususiyatlarni inobatga olish.

6. Ta'lim jarayonida bolalarda yuzaga keluvchi vaqtinchalik psixik o'zgarishlarni inobatga olish va kutilishi mumkin bo'lgan muammolarning oldini olish.

Kar va zaif eshituvchi bolaning ijtimoiylashishida ijtimoiy tajribaning ta'siri beqiyosdir. Bolalar kattalarga taqlid asosida turli faoliyatlarni mustaqil, boshqalarini esa, o'zgalor yordamida o'zlashtirishga erishadilar.

*Ijtimoiylashish natijasida kar bolalar sog'lom shaxslar kabi madaniyat va sivilizatsiyaga uyg'unlashadi.*

F.U. Qodirova


Imkoniyati cheklangan bolalarda psixik jarayonlarning kech va sust rivojlanishi bilan bog'liq ravishda ularning ta'lim muddatlari belgilanib, mos usul va vositalar tanlanadi. Mazkur yo'nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqot ishi quyidagi xulosani asoslashga xizmat qildi. Ya'ni ta'lim-tarbiya ishlari oilalarda yo'lga qo'yilgan bo'lsa va albatta maktabgacha ta'lim muassasasida to'ldirilib, davom ettirilsa, kar bola maktab ta'limiga tayyor bo'ladi va u yangi muhitga qiyinchiliksiz moslashadi.

Qachonki kar va zaif eshituvchi bola maktab ta'limi uchun zarur ko'nikma va malakalar bilan qurollangan bo'lsa, shundagina ta'lim mazmuniga qo'yiluvchi davlat talablarining bajarilishiga erishish imkoniyati yaratiladi. U yoki bu toifadagi nogironlikka ega bolaning yosh xususiyatlari va individual imkoniyatlari o'z vaqtida aniqlanib, yoshga oid yangi o'zgarishlar va individual hislatlar shakllanishi uchun shart-sharoitlar yaratilmasa, keyingi yosh bosqichida

korreksiya yoki qo'shimcha rivojlantiruvchi ishlarni olib borishga zaruriyat kuchayadi.

Kar va zaif eshituvchi bolalarning to'laqonli ruhiy va shaxs sifatida rivojlanishini ta'minlash kompleks yondashuvlarni talab etuvchi jarayondir. Agar bu vazifa o'z vaqtida amalga oshirilmasa, ya'ni kattalar bolaning individual xususiyatlarini tushunmasalar yoki uning xayoti va faoliyati uchun mos shart-sharoitlar yaratib bermasalar, ma'lum vaqt o'tgach, korreksion ishlarga, alohida yondashuvlarga ehtiyoj tug'iladi. Biz olib borgan tadqiqot ishimizning pedagogik jarayonni o'rganishga yo'naltirilgan tajribasirov ishlari natijalariga tayangan holda kar va zaif eshituvchi bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning quyidagi tamoyillarini ajratdik.

Kar va zaif eshituvchi bolalar qayerda yashamasin, qaysi ta'lim turi bilan qamrab olingan bo'lmasin, uning ijtimoiylashuvi quyidagi tamoyillar asosida amalga oshiriladi:



**1. Ta'lim-tarbiya jarayonida korreksiya va rivojlantirish ishlarining birligi.** Ushbu tamoyil kar va zaif eshituvchi bolalarda mavjud nuqsonlarni bartaraf etish, tuzatish va yumshatish ishlari faqat bir tomonlama bo'lmasligini ta'minlaydi. Masalan, tovush talaffuzini to'g'rilash ishi ma'lum rivojlantiruvchi kontekst asosida olib boriladi.

Bola tovushning hosil bo'lish o'rne, usuli, ovoz va shovqinning ishtirokini his qilishga o'rgatilgan holda so'zlar va ulardagi tovushlarni talaffuz qiladi. Bu so'zlar aynan bola hayotida uchragan, uchraydigan so'zlar bo'lishi talab etiladi. Bola so'zning nafaqat tovushli, balki ma'no jihatini ham o'zlashtirgan holda o'z nutqini, talaffuzini nazorat qiladi. Shundagina bola shu tovush ishtirok etgan so'zlarni boshqalarda ko'rib-eshitishi natijasida (labdan o'qib yoki qisman bo'lsa-da eshitib) xotirasida saqlangan va egallangan ko'nikmalaridan foydalana oladi.

**2. Ta'lim-tarbiya jarayonida bolalarni har tomonlama rivojlantirishda yosh davri hususiyatlari va bolaning individual hususiyatlari birligi.** Bu tamoyil ta'lim-tarbiya jarayonining sog'lom bolalar ta'lim-tarbiyasi jarayoni qonuniyatlaridan kelib chiqishi bilan bir qatorda kar va zaif eshituvchi bolalarning o'ziga xos hususiyatlarini inobatga olishni taqozo etadi. Kar va zaif eshituvchi bola ham sog'lom bolalar kabi shaxs rivojlanish davrlarining har birini bosib o'tadi. Me'yorda rivojlanishning yoshga ko'ra chegaralari va ma'lum mezonli o'lchamlari mavjud. Bunda bolaning yoshiga mos ravishda ham jismoniy, ham ruxiy rivojlanishi tushuniladi.

Biroq har bir bolaning o'ziga xos takrorlanmas hususiyatlari ham mavjuddir. Bu hususiyatlar bolalarning fiziologik, psixologik rivojlanishi bilan bog'liqdir. Ya'ni rivojlanishning bosqichma-bosqichligi, bir tekis emasligi, «latent» (inkubasion davr, masalan, organizmda kasallik paydo bo'lgan, lekin bilinmaydigan davridan uning belgilari yuzaga chiqqunga qadar o'tadigan vaqt) davrlarning mavjudligi, ayrim o'zgarishlar yashirin tarzda o'tishi va faqat ma'lum vaqtdan keyin namoyon bo'lishi bolalarning o'ziga xos rivojlanishini yuzaga keltirib chiqaradi.

**3. Kar va zaif eshituvchi bolalarni rivojlantirishda tashxis va korreksiya ishlarining birligi.** Ushbu tamoyil eshitishning buzilish darajasi, bolaning psixofiziologik rivojlanishini o'rganib, unga tegishli tashxis qo'yish va shu asosda keyingi davrda korreksiya ishlarini to'g'ri rejalashtirish hamda amalga oshirish uchun muhim hisoblanadi.

Korreksion ishlarining vazifalari faqat to'g'ri va to'liq tashxislash orqali hamda bolalarni rivojlantirishning eng maqbul natijalarini bashoratlash asosida belgilab olinishi lozim. Bu vazifalarni

defektolog mutaxassislar maxsus metodlar va vositalar yordamida amalga oshiradilar. Rivojlantirish ishlari bolaning eng yaqin rivojlanish zonasidan kelib chikib belgilanadi. Bu zona L.S.Vigotskiy tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, korreksiya va rivojlantirish ishlarining o'zaro bir-biri bilan aloqadorligiga asoslanadi. Ta'lim-tarbiya mazmuni, usullari va vositalari bola imkoniyatidan murakkabroq bo'lishi va bolaning hatti-harakatlari to'siqlarni yengib o'tishga yo'naltirilgan bo'lishi rivojlantirish ishlarining asosini tashkil etadi.

**4. Kar va zaif eshituvchi bolalar bilan korreksiya ishlarini amalga oshirishda turli faoliyatlarga tayanish.** Bu tamoyil ustubiy vazifalar bilan bog'liq ravishda pedagogik jarayondan ko'zlangan maqsadga erishishning vositalari, yo'llari, usullarini belgilab beradi. Faoliyat tamoyili bola qaysi yosh davrni bosib o'tayotgan bo'lsa, shu davrda u uchun qaysi faoliyat ustuvorlik qilishini anglagan holda rivojlantirish ishlarini rejalashtirish va olib borishni ko'zda tutadi.

L.S.Vigotskiy, A.E. Leontyev, P.Y.Galperin, S.L.Rubinshteyn va boshqalar bolalar rivojlanishida o'yin va o'qish faoliyatlarini maxsus tashkil etishning muhimligini ochib berishgan V.V. Davidov so'zining "Rivojlantiruvchi o'qitish muammolari" va "Rivojlantiruvchi o'qitish nazariyasi" nomli ilmiy ishlarida o'qish faoliyatini tashkil etishning modellarini ko'rsatib bergan. Masalan, o'quv faoliyatida bolaning qiziquvchanligi, intiluvchanligi, bilim va kashfiyotlarni bilishga, qidirishga chanqoqligi uni muvoffaqiyatga olib keladi. Kar va zaif eshituvchi bolalarda sanab o'tilgan motivatsiyalarni uyg'otish oson emasdir.

**5. Korreksion ishlarni olib borishda har bir bolaga alohida bir olam, shaxs yoki iqtidorli bola sifatida yondashish.** Bu tamoyil korreksion ish olib borilayotganda bolalarni ajratmaslik, ularga nisbatan mensimaslik munosabatida bo'lmaslikni taqozo etadi.

L.S.Vigotskiy korreksion ishning asosiy mazmuni sifatida bolaning faoliyati va shaxs rivojlanishining yaqin zonasini yaratish kerakligini ta'kidlagan.

Kar va zaif eshituvchi bolalar ham sog'lom tengdoshlari kabi jamiyat rivojiga xissa qo'shish imkoniyatlariga egadirlar. Biroq

bunday bolalar ushbu imkoniyatlarga ega bo'lishlari uchun zaruriy ta'lim-tarbiya sharoitida o'qishi, tarbiyalanishi va rivojlanishi lozim.

Ma'lumki, kar va zaif eshituvchi bolalar ta'limga jalb etilgunga qadar atrofdagilar bilan muloqotda o'ziga xos nutqiy shakl va vositalardan foydalanadilar. Chunki ularda eshitmaganliklari uchun nutq rivojlanmaydi. Kar va zaif eshituvchi bolalar nutqni, atrofdagilar bilan muloqot ko'nikmalarini maxsus tashkil etilgan korreksion-pedagogik yondashuvlarsiz egallamaydilar. Shu sababli ta'lim muassasasi ular uchun nutqni egallash, fanlarni o'zlashtirish orqali olamni anglash, sog'lom kishilar bilan muloqot qilishni o'rgatadigan, provardida ijtimoiy hayotga tayyorlaydigan asosiy va muhim maskan hisoblanadi.

Ta'lim-tarbiya nafaqat ta'lim maskanlarida, balki oilalarda ham maqsadli tashkil etilishi bolalarni ma'naviy jaiatdan yetuk, jismoniy jihatdan mustahkam, aqliy jihatdan raqobatbardosh mutaxassis etib tarbiyalashning muhim shartlaridandir. Biroq, aksariyat oilalarda kar va zaif eshituvchi bolalarni mustaqil hayotga tayyorlash borasida kerakli pedagogik-psixologik ishlar yo'lga qo'yilmagan. Oilalarda kar bolalarga nisbatan avaylash va rahmdillik nuqtai-nazari bilan qarash munosabati o'rnatilgan bo'ladi. Mazkur holat kar va zaif eshituvchi bolalarda sog'lom bolalardagi kabi muomala, muloqot, o'z-o'ziga xizmat va boshqa faoliyatlarda ishtirok etish ko'nikmalarining yetarlicha shakllanmasligiga olib keladi. Natijada kar va zaif eshituvchi bolalar maxsus ta'lim muassasasiga kelgan kunidanoq, oddiy kundalik maishiy hayot uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni egallashga jalb etiladilar. Bu ko'nikmalar oddiy va sodda tuyulsa-da, biroq kar bolalarning ijtimoiylashuvi uchun asos bo'luvchi omillardandir. Jumladan, o'quvchilarning:

-kiyinishi (mavsumbop, boradigan joy xususiyatiga bog'liq, toza va ozoda, jinsiga to'g'ri keladigan, zamonaviy...);

-muomalasi (ona tilida to'g'ri va ravon so'zlash, shirinsuhan bo'lish, so'zlashganda suhbatdoshini tinglay olish, birovlarining so'zini bo'lmaslik, aniq va mavzu doirasida gapirish, nutqida noo'rin so'zlarni ishlatmaslik va x. k.);

-jamoat joylarida o'zini tutishi (qoidalarga rioya qilish, qattiq gaplashmaslik, atrofdagilarga halaqit qilmaslik, kattalarga salom berish, atrof-muhitni iflos qilmaslik va x. k.);

-gigiyenik qoidalarga rioya qilish: to'g'ri ovqatlanish, vaqtida dam olish, mehnatda me'yorlarni bilish, zararli odatlar (chekish, spirtli ichimliklar, yoshiga mos bo'lmagan munosabatlar)dan yiroq bo'lish, bo'sh vaqtini to'g'ri rejalashtirish va mazmunli o'tkazish, sog'lom turmush tarzi va tibbiy madaniyat talablariga qat'iy rioya qilish va x. k. larga o'rganishi uchun tizimli ish, maqsadli yondashuvlar, zamonaviy usul va vositalar, o'qitishning samarali innovasion texnologiyalari taqozo etilmoqda.

Har bir inson shaxs-fuqaro sifatida shaxsiy extiyohlari, xuquq va manfaatlariga egadir va u o'zi yashayotgan davlatda qabul qilingan me'yorlar doirasida harakatlanadi. Natijada shaxs o'z harakatlarini nazorat qilgan holda extiyohlari ko'lamini belgilaydi. Xuddi shunday extiyohlar imkoniyati cheklangan, xususan eshitishida muammolari bo'lgan o'quvchi yoshlarda ham mavjuddir. Eshitishida muammolari bo'lgan bolalar maxsus ta'lim muassasalarida ta'lim va tarbiya oladi, shu muassasada yashaydi. Demak maxsus ta'lim muassasalar-maktab-internatlar mazkur o'quvchilar uchun ham ta'lim-tarbiya, ham mehr-oqibat o'chog'idir. U yerda o'quvchilar akademik bilim olishdan tashqari muomala madaniyatiga, atrofdagilar bilan muloqot qilishga, mehnatga, o'z-o'ziga xizmatga, o'zгалar mehnatini qadrlashga, o'z qarorini asosli himoya qilishga, salomatligini nazorat qilishga o'rganadi.

Hozirgi kunda kar va zaif eshituvchi bolalar uchun tatisoslashtirgan ta'lim muassasalari bitiruvchilarining 73 % keyingi bosqich ta'limga jalb etilmayapti. Keyingi ta'limga jalb etilmagan bolalar o'z oilalari qaramog'ida qolib ketmoqdalar. Ushbu muammoning sabablari o'rganilib, tahlil qilinganda quyidagilar aniqlandi:

-aksariyat ota-onalar bolalari atrofdagilar bilan muloqot qilishda qiynalغانliklari uchun ularni mustaqil hayotga tayyor emas, deb hisoblaydilar;


Kar va zaif eshituvchi bolalarning oilalari o'z farzandlarini uzoq masofadagi ta'lim muassasalarida o'qishga yubormasliklarining sabablarini ular bilan olib borilgan suxbatlar asosida umumlashtirdik:

Kar va zaif eshituvchi bola atrofdagilar bilan tez va samarali muloqotga kirisha olmaydi.

Oilalarning bolani uzoqda o'qishi, yashashini nazoratga olish va tashkil etish uchun imkoniyati yetarli emas.

Bola o'zini himoya qilish ko'nikmasiga yetarlicha ega emasligi uchun turli salbiy vaziyatlar (jinoyatga sherik bo'lish, bironing g'araz niyati uchun vositachi bo'lish....) qurboniga aylanib qolishi ehtimolining oldini olish.

O'zbek millatiga xos bo'lmagan urf-odatlar, qarashlarga berilib ketishidan saqlash.



Санаб ўтилган ва бошқа  
вазиятларда ўзини  
Ўқотмасликлари учун кар ва  
заиф эшитувчи болаларда  
ижтимоий-хаётий кўникмалар  
етишмайди. Мактаб  
таълимидан сўнг кейинги  
таълимга жалб этилмаган  
ёшлар мустақил ҳаёт дарвозаси  
олдида янги тутилган  
чақалоқдек атрофдагилар  
кўмагига муҳтожлик сезади.

Sog'lom o'quvchilarga kundalik hayot ehtiyojlarini qondirish jarayonida oila a'zolari hamrox bo'ladi. Shuning uchun ham ular ijtimoiy daldani bolaligidan sezib yashaydi. Maktab-internatda yashab o'qiydigan bolalar esa, o'qituvchi, tarbiyachi, enaga hamda muassasaning boshqa xodimlari tomonidan qo'yilgan talablar doirasida o'z hayotini tashkil etadi. Bu qo'yilayotgan talablarni aksariyat oilalar "davlat buni qilishi kerak", -deb tushunadi va natijada ularning farzandlari bir umr "boqimanda" likka o'rganadilar. Faqat o'zgalarning ko'magi ostida yashab, o'z ehtiyojlarini birovlarining sa'y-harakatlari evaziga qondirishga o'rgangan o'quvchi ta'limdan so'ng mustaqil hayotda sarosimaga tushadi. U endi ijtimoiy hayot qo'yayotgan talablarni, jumladan, mehnat qilish, mehnatga yarasha haq olish, tegishli haq-xuquqlaridan samarali foydalanish, ish qog'ozlarini yuritish, turli kasb egalari va atrofdagilar bilan muloqotga kirishish, oila qurish va uning ma'naviy-moddiy ehtiyojini ta'minlash, oila byudjeti masalasini real tasavvur qilish, yaqin va uzoq kelajakka maqsad belgilash kabi oddiy farovon hayot uchun zaruriy talablar oldida

yakkalik qilib qoladi. Chunki maktab ta'limidan so'ng ularning yonida daktil va imo-ishorali nutqda muloqot qiladigan, yo'l-yo'riq ko'rsatib beruvchi o'qituvchisi, tarbiyachisi, enagasi bo'lmaydi.



#### Savol:

1. Kar va zaif eshituvchi bolalar bilan korreksiya ishlarini amalga oshirish deganda nimani tushunasiz?
2. Ta'lim-tarbiya jarayonida bolalarni har tomonlama rivojlantirishda yosh davri hususiyatlari va bolaning individual hususiyatlarini izohlang?
3. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolar ijtimoiylashuvining tamoyillari nechta?
4. Kar va zaif eshituvchi bolalarning shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart- sharoitlarni sanab bering?

### 8. KAR VA ZAIF ESHITUVCHI BOLALAR TA'LIMINING ASOSIY SHAKLLARI. DARS VA KORREKSION MASHG'ULOTLAR

**Tayanch tushunchalar:** Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar nutqida gap qurilishini shakllantirish va gap bo'laklarining semantik susiyatlarini o'rgatish metodikasi, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning eshituv idrokini rivojlantirish

Eshitish muammosi karlik va zaif eshituvchilikka ajratilib, karlik eshitishning turg'un buzilishi, zaif eshituvchilik eshitishning turg'un pasayishi hisoblanadi. Kar va zaif eshituvchi bolalar ta'limi muddati o'ziga xos belgilanadi. Ya'ni kar bolalar 12 yil, zaif eshituvchi bolalar 11 yil davomida umumiy o'rta ta'limni Davlat ta'lim standartlari asosida egallaydilar.

Kar va zaif eshituvchi bolalar ta'limining tashkiliy, pedagogik-psixologik hususiyatlari quyidagilar:

1. Ta'lim jarayoni umumiy didaktik tamoyillarga tayanadi hamda korreksion-kompensasion yondashuvlar asosida tashkil etiladi. Ya'ni maxsus ta'lim jarayonida bola rivojlanishidagi cheklanganliklarning darajalari va belgilariga ko'ra, ularni bartaraf etish choralarining ko'rilishi uchun maxsus yondashuvlardan foydalanish ko'zda tutiladi.

2. Kar va zaif eshituvchi bolalar maktablarida umumta'lim maktablari uchun o'quv rejada mavjud barcha o'quv fanlari o'qitiladi. Umumta'lim o'quv predmetlaridan tashqari qo'shimcha korreksion fanlar ham o'qitiladi:

a) "Ona tili" o'quv fani uchun ajratilgan soatlar tarkibida "Nutq o'stirish", "Nutqiy muloqot" kabi darslar o'quvchilarni ona tilida og'zaki va yozma ravishda nutqiy muhitga mos holda muloqot qilishga tayyorlaydi;

b) "Texnologiya" (mehnat ta'limi) fani uchun soatlar miqdori sog'lom bolalar maktablariga nisbatan ko'p ajratiladi va boshlang'ich snflarda "Predmetli amaliy ta'lim" deb nomlanadi. Bu fan bo'yicha darslar korreksion yondashuvlarga asoslangan holda olib boriladi, o'quvchilarni og'zaki va yozma muloqotga o'rgatish vazifalarini amalga oshiradi;

v) "Eshitish idrokini o'stirish va talaffuzni shakllantirish" nomli korreksion mashg'ulotlarda mutaxassislar har bir bola bilan yakka holda ishlaydi. Bunday mashg'ulotlarda har bir bola xaftasiga 3 marta 20 daqiqadan ishtirok etadi. Mashg'ulotlar o'quvchilarning nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etish hamda mavjud eshitish qoldig'ini rivojlantirishni ko'zda tutadi;

g) "Jismoniy tarbiya va ritmika" darslarini ikki nafar mutaxassis olib boradi. Bu darsda bolalar musiqiy ohang asosida jismoniy harakatlarni tizimli holda bajarish orqali nutqiy va nonutqiy tovushlarni eshitib farqlashga o'rganadilar.

### **Maxsus korreksion mashg'ulotlarni tashkil etilishi**

Korreksion mashg'ulotlar bu - ta'lim muassasada tarbiya va tuzatish ishlarini tashkil etishning asosiy shakli bo'lib, ushbu mashg'ulotlarni tashkil etishda pedagoglar va bola o'rtasidagi muloqotning eng an'anaviy shaklidan foydalaniladi, uning davomida bolaning dunyoni tushunish usullari, rivojlantirish va uning kamchiliklarini tuzatish bo'yicha turli vazifalar hal qilinadi.

Korreksion mashg'ulotlarda bolalarning umumiy rivojlanishi xususiyatlari hisobga olinadi.

Korreksion mashg'ulotlarda har bir bola uchun alohida individual rejalar tuziladi. Korreksion mashg'ulotlarda o'quvchilarning birlamchi va ikkilamchi nuqsonlarini bartaraf etiladi. Koreksion mashg'ulotlar ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim

muassasalari uchun ishlab chiqilgan va maktabgacha va Xalq ta'limi vazirligi tominidan tasdiqlangan o'quv rejada korreksion mashg'ulotlar alohida o'ringa egadir.

O'quv rejada korreksion mashg'ulotlar nomi, haftalik soatlari belgilab beriladi. Korreksion mashg'ulotlar olib borish davomida birlamchi va ikkilamchi nuqsonlarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Mazkur mashg'ulotlar 2 turga bo'linadi: 1 tur frontal mashg'ulotlar, 2 tur yakka mashg'ulot tarzda olib boriluvchi korreksion mashg'ulotlardir.

Korreksion mashg'ulotlar jarayonida mutaxassislar o'quvchilarda mavjud nuqsonlari bartaraf etish uchun bolaga mos va xos bo'lgan texnologiyalardan foydalanish tavsiya etiladi. Bolalarning umumiy rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratib beruvchi ta'lim-tarbiya bilan uzviy bog'langan holda olib boriladi.

Korreksion mashg'ulotlar bolaning imkoniyati cheklanish turiga qarab tavsiya etiladi va bu jarayonda aynan tuzatish ishlari bolaning individual holatidan kelib chiqib olib boriladi. Korreksion mashg'ulotlar albatta kompensator xususiyatga ega bo'lishi va bir birini to'ldirib olib borilishi kerak.

Korreksiya-lotincha *correctio* - tuzatish, lingivistik lug'at tahlili manbalarida "to'g'rilash, tekislash" kabi ma'nolarni anglatadi. Lekin faqat pedagogik atama bo'lmay, psixologiya, sotsiologiya, iqtisodiyot va geografik atamalar lug'atida ham uchratish mumkin. Ushbu atama barcha atamalar lug'atida bir xil ma'no ya'ni tuzatishni aks ettiradi va vazifasi bir ekanligidan dalolat beradi.

Kompensatsiya- lotinchada *compensatio*- o'rnini qayta tiklash demakdir. Bu buzilgan yoki rivojlanmagan tana funksiyalarini qayta qurish yoki almashtirishning murakkab, ko'p qirrali jarayoni hisoblanadi.

Kompensatsiya jarayonida insondagi mavjud imkoniyatlar yoki tana a'zolaridan nuqsonli zonalar uchun yetakchi yordamchi o'rnida ishlashni tushunishimiz mumkin. Ushbu atama ham nafaqat korreksion pedagogik tushuncha, balki ko'p manoli va qirrali hisoblanib juziy jihatdan pedagogik sohasiga oidligini isbotlashimiz mumkin.

Maxsus maktablarda korreksion mashg'ulotlarning tashkil etilishi o'rganildi. Buning uchun:

1. Dastlab bu mashg'ulotlarning maqsad va vazifalari aniqlashtirildi.

**Korreksion mashg'ulotlarning maqsad va vazifalari:**

-o'quvchilar rivojlanishidagi muammolar natijasida kelib chiqqan ikkilamchi nuqsonlarni bartaraf etish, yumshatish, bilinmaydigan holatga keltirish;

-muammolarning ta'limni egallashga bo'lgan salbiy ta'sirini kamaytirish;

-fanlarni o'zlashtirishda uchraydigan qiyinchiliklarning oldini olish va bartaraf etishning tegishli choralarini ko'rish;

-o'quvchilarni samarali muloqotga o'rgatish, mustaqil faoliyatning turli shakllariga tayyorlash;

-salomatligini nazorat qilish va tiklashga o'rgatish;

-o'z-o'zini baholash va namoyon qilish uchun qulay sharoitlarni yaratish.

2. Korreksion mashg'ulotlar sifat va samaradorligini tahlil etish uchun qator savollarga javoblar olindi. Jumladan: korreksion mashg'ulotlarda o'quvchilarning faoliyatlari qanday nazoratga olingan?

Kar va zaif eshituvchi bolalarning og'zaki nutqini rivojlantirishga mo'ljallangan korreksion mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarda kuzatiladigan o'zgarishlar ko'rsatkichi tahlil etilmagan, ya'ni o'quvchilardagi muammolarning bartaraf etilish dinamikasi kuzatilmagan, hatto o'qituvchilar bunday jarayonni ko'z oldiga keltira olmayaptilar ham.

Ular o'quvchilardagi nutqiy rivojlanish ko'rsatkichini qanday baholab bera olasiz?—degan savol qo'yilsa, faoliyatiga dahldor tushunchalardan foydalangan holda bo'lsa ham, yaqin bir aniq javob bera olmadilar.

Bundan tashqari amaliyotda korreksion fanlar bo'yicha mashg'ulotlarda o'quvchilar qanday ko'rsatkichlarga ega bo'lishi lozimligini belgilab beruvchi mezonlar ishlab chiqilmagan.

Ta'lim sohasidagi islohotlarni hayotga tatbiq qilish, har tomonlama kamol topgan fuqarolarni tarbiyalash mexanizmini yaratish maqsadida ishlab chiqilgan. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida yangi talablarga javob beradigan pedagog kadrlar tayyorlash, ta'lim standartlarini yaratish va yangi o'quv dasturlari ustida ishlash, ta'lim tizimini uzilish va mazmun jihatdan

modernizatsiya qilish ta'lim odimlarining oldida turgan asosiy vazifalardan ekanligi ta'kidlanadi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar nuqsonlarini maxsus korreksion fanlarni o'qitish orqali korreksiyalash masalasining dolzarbligidan kelib chiqqan holda, eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning nutqini rivojlantirish asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Xususan, rus olimi S.A.Zikov shunday ta'lim tizimini ishlab chiqdiki, uning yordamida o'quv jarayonida samarali o'zgarishlarni amalga oshirish mumkin.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni og'zaki nutq orqali muloqotga kirishishga o'rgatish uchun turli faoliyat turlaridan foydalanish va eng asosiysi, ularda atrofdagilar bilan muloqotga kirishishiga ehtiyoj uyg'otish lozim. Uning tadqiqot natijalariga ko'ra, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarga «tayyor bilimlar»ni berish yaxshi natijalarga olib kelmaydi va ularning bilish jarayonlarini rivojlantirishga ham xizmat qilmaydi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni turli faoliyatlar jarayonida rivojlantirish XX asrning 70-yillaridayoq taklif etilgan bo'lib, o'sha vaqtning o'zidayoq o'quv jarayoniga predmet-amaliy faoliyat, tasviriy faoliyat, o'lchov-hisoblov faoliyatlarini kiritish haqidagi fikrlar ilgari surilgan edi.

Barcha yuqorida sanab o'tilgan faoliyat turlarini qamrab oluvchi dars shakli bu predmet-amaliy ta'lim hisoblanadi. Aynan shu sababdan ham eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar maktab-maxsus maktablarida o'rta ta'lim vazifalarini hal qilish va ta'lim muddatini qisqartirishni ko'zda tutgan holda predmet amaliy ta'lim faniga asosiy e'tibor qaratiladi.

Bugungi kunda mamlakatimizdagi kar va zaif eshituvchi bolalar maxsus maktablarda predmetli amaliy ta'limni o'qitishda F.Qodirova tomonidan ishlab chiqilgan dastur va darslik asosida mashg'ulotlar olib borilmoqda. Ushbu fan kar va zaif eshituvchi bolalar maktablarining boshlang'ich sinflarida asosiy fanlardan biri bo'lib, unda ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning aqliy, nutqiy, jismoniy imkoniyatlaridan har tomonlama optimal foydalanish uchun sharoit yaratiladi.

Predmetli amaliy ta'lim darsi o'z mazmunida ham tilga o'rgatish, ham mehnat fanining talablarini aks ettiradi. Shu bilan

bog'liq holda ushbu darsda nutqiy muloqotning ustuvorligi mehnat ko'nikmalarini rivojlantirish orqali ta'minlanadi.

Kar bolalar maktabining zamonaviy ta'lim tizimida ta'limning turli usul va vositalaridan keng foydalaniladi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarga grammatik material tayyor holda berilmasdan, balki o'quvchilar tomonidan o'qituvchi ko'rsatmasiga binoan turli shakldagi gaplarni tahlil qilish jarayonida o'zlashtirilishi lozim. Ushbu tizimga binoan hech bir qoida yoki ta'rif bolalarga yod olish uchun berilmasligi zarur, balki o'quvchilar tomonidan mashqlarni mustaqil ishlash jarayonida tushunib yetilishi va ular chiqargan xulosalar orqali esda qolishi maqsadga muvofiqdir.

Grammatik material bilan ishlashda bilimlarni o'zlashtirishning tadqiqotchilik tamoyili ustunlik qilishi kerak. O'quvchilar so'z birikma va gaplarning modelini o'zlashtirish orqali ona tilining nazariy jihatlarini o'rganishlari lingvistik usulga misol bo'la oladi. O'quvchilarga og'zaki nutqni o'rgatish jarayoni yetarli darajada tashkillashtirilgan jarayon hisoblanib, bunda o'qituvchi aynan o'sha vaziyat mazmuniga mos bo'lgan yakka tarzdgagi gaplar bilan kifoyalanmasligi lozim.

Aksincha, o'quvchilarga u yoki bu gapni «boshqa usul bilan» tuzish yo'llari, ayrim so'zlarni ma'nodoshlari bilan almashtirish, ifoda shakli va ma'no ko'lankalarini o'zgartirishni o'rgatish kerak. Shundagina o'quvchilar mavzuni yaxshi o'zlashtiradilar, yaxshi tushunib yetganliklari sababli mustahkam eslab qoladilar. Eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar nutqida

gap qurilishini shakllantirish va gap bo'laklarining semantik xususiyatlarini o'rgatish metodikasida asosiy e'tibor til birliklari orasida ikki tomonlama munosabatni kuzatishga qaratiladi:

- odatiy nutq oqimidan bir xil darajadagi til birliklari (so'zlar, morfemalar, fonemalar)dan oson ajratib olish mumkin bo'lgan sintamatik munosabatlar;

- bir xil darajadagi til birliklari orasiga o'rnatiladigan, lekin turli shakldagi gaplarni shakllantirishga xizmat qiluvchi paradigmatic munosabatlar.

Shu ikki turdagi kuzatuv natijasida o'quvchilar, birinchi vaziyatda so'z birikma va gaplar, undan so'ng so'zlar ichidagi aloqani ilg'ashga, buning natijasida aniq gaplarni eslab qolish va ushbu aloqalarning grammatik

formulasini umumlashtirgan holda eslab qolishlari mumkin. Ikkinchi vaziyatda esa paradigmatic munosabatlar bo'yicha o'quvchilar kuzatuv va tahlil ishlarini olib borganlarida, ular paradigmalar majmui (tuslash shakllari, bog'lovchilar, gaplar paradigmati)ni o'zlashtiradilar, buning natijasida lingvistik toifalar va ularning til tizimidagi o'rnini tushunib yetadilar. Bunday yondashuv natijasida ona tili tizimli o'qish orqali ikki usulda o'zlashtiriladi:

1. Ma'lumotlarni tayyor holda o'zlashtirish (ro'yxatlar, jamlanmalar ko'rinishida eslab qolish).

2. Bilvosita o'zlashtirish, ya'ni ma'lumotlarni amaldagi til qoidalari bilan mos ravishda, tushunchalar ko'rinishida o'zlashtirilgan bilimlar asosida, nutqiy material bilan ishlash usullari va xulosalar asosida o'zlashtirish.

Ta'lim jarayonida qandaydir faktlarni yodga tushirishni talab qiluvchi reproduktiv xarakterdagi savollardan ko'ra o'quvchilarni oldin o'zlashtirilganlarni qaytadan ko'rib chiqish, oldingi bilimlarni yangi vaziyatlarda qo'llashni talab qiluvchi produktiv xarakterdagi savollar muhim ahamiyat kasb etadi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarga o'qituvchi doimo «nega?», «bu nimani anglatadi?», «bu nimadan dalolat beradi?», «buni qanday bilding?», «sen qanday fikrdasan?», «bundan qaerda foydalanish mumkin?» kabi savollar bilan murojaat qilishi lozim.

O'qish darslarida ta'lim metodlaridan foydalanishni 1-jadvalda ko'rishimiz mumkin. Tabiiyki, o'qish darslarida foydalanish mumkin bo'lgan metodlar bu jadvalda berilgan metodlar bilan cheklanib qolmaydi.

Bir narsani doimo inobatga olish lozimki, asar bilan ishlash bosqichi, asar turi, janri va boshqa xususiyatlariga ko'ra qo'llaniladigan metodlar shakl jihatdan o'zgarishi mumkin. Masalan, asar ustida ishlashning birinchi bosqichida asosan reproduktiv metodlardan, qisman evristik metodlardan: avval o'tilgan she'rlarni ifodali o'qish, shaxsiy hayotida sodir bo'lgan qiziqarli voqealar, mustaqil ravishda o'qilgan hikoyalarni so'zlab berish kabi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Asarni chuqurlashtirib o'rganish bosqichida esa evristik metodlar yetakchilik qilib, reproduktiv va ijodiy metodlar ikkinchi

darajali hisoblanadi. O'qilganlarni umumlashtirish bosqichida ham evristik metodlardan keng foydalaniladi.

**O'qish darolarida foydalanish tavsiya etiladigan ta'lim metodlari.**

Ushbu metodlarning amalda qo'llanilishini 5-sinfda R.Isoqovning «Boychechak» she'rini o'qitish jarayonida ko'rib chiqamiz.

**1-bosqich. She'rni idrok etishga tayyorgarlik bosqichi.**

- Bolalarning boychechak haqida bilganlarini so'zlab berishlari;
- boychechak haqida kichik mavzular tuzdirish;
- leksik-uslubiy mashqlar bajarish.

**2-bosqich. She'rni bevosita idrok etish bosqichi.**

- She'rning o'qituvchi tomonidan ifodali o'qib berilishi;
- she'rning ta'sirchanligi haqida suhbat;
- she'rning bolalar tomonidan o'qilishi.

**3-bosqich. She'rni chuqurlashtirib o'rganish.**

- Alohida to'rtliklarni o'qish;
- tanlab o'qish;
- so'zli rasm chizish;
- leksik-uslubiy mashqlar bajarish;
- suhbat;
- ifodali o'qish.

**4-bosqich. O'rganilganlarni umumlashtirish.**

- Tahlilga asoslangan suhbat;
- ifodali o'qish;
- rasmlar bilan solishtirish;
- o'qilganlarga baho berish

Ushbu metodikada o'qishning asosiy turlarini rivojlantirish ko'zda tutiladi. Xususan, to'g'ri o'qish, ongli o'qish va ifodali o'qish.

**To'g'ri o'qishni shakllantirish usul va vositalari:**

- matndagi talaffuzi murakkab bo'lgan so'zlarni o'qish;
- orfoepiya qoidalari, so'zli va mantiqiy urg'ularga rioya qilgan holda so'z, gap va kichik matnlarni o'qish;
- alohida so'zlar, so'z birikmalari, gaplarni eshitib farqlash;
- matnni alohida gaplar, qismlar va butunligicha o'qish;
- so'zdagi tovush va bo'g'inlarni oldindan tahlil qilish;
- so'zlarning ma'nolarini aniqlashtirish;

- matnni o'qishni boshlashdan avval maxsus tekshirish;
- matnning turli variantlarni ko'p marta o'qish.

**Ongli o'qishni shakllantirish metodlari:**

- analitik o'qish;
- o'qilganlar mazmuni asosida suhbat;
- matn yoki matnning alohida qismlarini bolalar tomonidan chizilishi;
- applikasiya yoki maket yordamida asosiy qahramon harakatlarini ko'rsatib berish;

harakatlarini ko'rsatib berish;

- berilgan mavzu bo'yicha tanlab o'qish; o'qilganlarga so'zli va rasmlari reja tuzish;

- matn va rasmlarni solishtirish;
- leksik-uslubiy mashqlar bajarish.

**Ifodali o'qishning shakllantirish usul va vositalari:**

- ifodali o'qish namunalarini tinglash;
- intonatsiyasi o'xshash va farqli bo'lgan tovushlarni eshitib farqlash;

intonatsiyasi turlicha bo'lgan matnlarni eshitib farqlash;

- o'qish texnikasini mashq qilish: gaplarni undagi pauzalar, so'zli va mantiqiy urg'ularni bo'rttirib o'qish;

- savollarga javob berish, alohida so'zlarga gap tuzish;
- rollarga bo'lib o'qish;
- yod olish;

jamoaviy deklamatsiya, ya'ni barcha bilan birgalikda ifodali o'qish.

**1-jadval**

Reproduktiv	Evristik	Ijodiy
Dalillarga asoslangan suhbat, o'qituvchi hikoyas	Tahlilga asoslangan suhbat, o'quvchi hikoyasi	Muammoli suhbat, insho, ertak, topishmoqlar
Batafsil hikoya qilib berish	Leksik-grammatik topshiriq asosida batafsil hikoya qilib berish	Hikoyani davom ettirish
O'qituvchi o'qib berishi, o'quvchilar o'qishi	Alohida tanlangan qismlarni ifodali o'qish	Rollarga bo'lib o'qish



Rasmlarni ko'rib chiqish	Rasmlarni izohlab berish, matndan shu rasmlarni tasvirlovchi qismlarni topish	Turli yozuvchilarning hikoyalarini bir-biriga moslashtirish
Film yoki diafilm tomosha qilish	Filmni tahlil qilish	Filmga ssenariy tuzish
Maket, applikasiya yoki konstruktiv rasm bo'yicha harakat	Maket va applikasiya asosida syujetni gapirib berish	Qahramon taqdirini oldindan taxmin qilish
Bolalar rasm chizishi	Bolalar rasmlarini matnga moslashtirish	Spektakl ko'rsatish
Rasmi reja tuzish	Rasmi reja asosida gapirib, hikoya qilish	Kitob bayramiga tayyorgarlik
Yangi, murakkab yoki ta'sirchan so'zlarni ajratish	Yangi lug'atni izohlash, leksik-uslubiy mashqlar bajarish	Kitob va uning qahramonlari haqida bolalarning analitik fikr yuritishi
	So'zli rasmlar chizish. Reja tuzish. Bolalar hikoyasi (savollar, lug'at va rejaga tayangan holda)	O'qilganlar haqida bolalarning mustaqil hikoya qilishi

Shunday qilib, pedagog o'qish darslarida qancha ko'p metodlardan foydalansa, o'quv jarayoni shuncha qiziqarli va o'zlashtirish darajasi yuqori bo'ladi. Metodlardan almashtirib foydalanish bir xillikka yo'l qo'ymaslik, o'quvchilarni zeriktirib qo'ymaslik va ularda o'qishga bo'lgan motivatsiyani shakllantirishga xizmat qiladi. Adabiy o'qishni shakllantirish uchun tushuntiruvchi va izohlovchi o'qish metodlari, o'qilganlar mazmunini chizish yoki drammatizatsiyalash; tanlab yoki qisqacha so'zlab berish; kino va diafilmlar tomosha qilish; asosiy qahramonlarga tavsifnoma berish;

o'rganilayotgan mavzuga oid qo'shimcha ma'lumotlar topish va boshqa shunga o'xshash metodlardan foydalaniladi.

Bundan tashqari adabiy material ustida turli leksik va grammatik kuzatuvlar o'tkaziladi, o'qilgan asarlardagi ma'lumotlar doimo turli grammatik vazifalar ichiga kiritiladi. Adabiy o'qishga oid ma'lumotlar asosan nutq o'stirish darslarida beriladi; butun asar yoki uning qismi bo'yicha bayon, asosiy qahramonlarga tavsifnoma, yozdiriladi, umumlashtiruvchi xarakterdagi savollarga javoblar beriladi va boshqa shunga o'xshash ish turlaridan foydalaniladi.

Nutq o'stirish va adabiy o'qish bo'yicha ish turlari ichida ijodiy xarakterdagi metodlar yetakchilik qiladi. Masalan, tasvirlash va so'zlab berish, ijodiy qo'shimchalar, insho, bayon, tavsifnomalar. Baholash uchun asosiy ko'rsatkich sifatida o'quvchining mustaqillik darajasi hisobga olinadi, asosiy e'tibor uning ishi boshqalarnikini takrorlamasligi, individual bo'lishi lozimligiga qaratiladi.

Ta'lim yuqori sifat darajasida olib boriladi, faol va mustaqil ishlovchi o'quvchilar rag'batlantirib boriladi. Ona tili darslarida yuqorida keltirilgan metodlardan foydalanish orqali o'quvchilarga nafaqat yaxshi ta'lim, balki yaxshi tarbiya ham beriladi, chunki har bir o'tilayotgan mavzuning axloqiy, estetik, badiiy jihatlarini ochib berishga alohida e'tibor qaratiladi. Bundan tashqari, o'quvchilarni o'ngi ravishda vaziyatni baholashga o'rgatib, jamoaviy faoliyat motivlarini tarbiyalashga ham harakat qilinadi.

Kar bolalarni o'qitishda ularda yozma nutqni shakllantirishga ham alohida e'tibor qaratiladi. Ma'lumki, kar bolalar tomonidan yozma nutqning o'zlashtirilishi nafaqat ta'limning vazifalaridan biri, balki ulardagi nuqsonning korreksiyasi hamdir. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda axloqiy xislatlarni va estetik didni shakllantirishda insholar katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari, kar bolalar maktabida insho ustida ishlash korreksion vazifalarni ham hal qilishga yordam beradi.

Maxsus ta'lim sharoitida ushbu vazifalarni amalga oshirish maqsadida maxsus muassasa o'quvchilarining so'z-mantiqiy tafakkurlarini rivojlantirish, so'zli xotiralarini yaxshilash, lug'atlarini boyitish, o'z gaplarini grammatik jihatdan to'g'ri tuzishga o'rgatuvchi turli mashqlardan foydalaniladi. Kar bolalar yozma ishlaridagi xatoliklarning oldini olish maqsadida agrammatizm va alogizmi bartaraf etishga yo'naltirilgan maxsus ish turlaridan ham

foydalaniladi. Kar bolalar maktabida nutqni idrok etishni rivojlantirish bo'yicha ham maxsus ish turlari olib boriladi. Kar bolalarning biosensor va monosensor idroklari ularni o'qitish uchun maxsus sharoit yaratib beradi.

Biosensor idrok – ko'ruv-eshituv idroki deb atalib, og'zaki nutqni idrok qilishning asosiy vositasi hisoblanadi. Monosensor idrok esa eshituv idroki bo'lib, uning yordamida kar bolalar nafaqat maxsus mashg'ulotlarda, balki butun o'quv-tarbiyaviy jarayon mobaynida og'zaki nutqqa o'rgatiladi. Ma'lumki, sezgi analizatorlarimiz sezuvchanligi mashq qilish jarayonida rivojlanadi va mukammallashadi.

Sezgi analizatorlarining nozik sezuvchanlik darajasiga yetishi uchun ma'lum bir sharoit va ayniqsa maxsus mashqlar zarurdir. Kar bolalar bilan ishlash jarayonida shu ma'lum bo'ldiki, eshituv differensirovkalarini ishlab chiqishda, eshituv va nutq-harakat kinesteziyalarining orasidagi aloqani o'rnatishda maxsus eshituv mashqlarining o'rni beqiyos ekan. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning eshituv idrokini rivojlantirishda avval «Bugun ob-havo qanday?», «Havo ochiqmi yoki bulutlimi?», «Osmon qanday rangda?», «Havo harorati qanday?», «Quyosh qanday isityapti?» kabi aniq savollardan, asta-sekin kengroq javob talab qiladigan savollarga o'tiladi. Masalan, «Bugun ob-havo qanday? Biroz kuzatib, so'ng aytib ber!», «Kuz kelgandan so'ng o'simliklarda qanday o'zgarishlar sodir bo'ldi?». 2-sinfning ohiriga kelib, bu turdagi savollarga o'quvchilar bemaol javob bera oladigan bo'lishlari kerak. Kar bolalar maktabida tabiatshunoslik darslarida bolalarning kuzatishlari va mavjud taassurotlariga tayangan suhbat metodning ahamiyati katta. O'quvchilar kuzatilayotgan ob'ektni tahlil qilish va unga tavsif berishga yo'naltirilgan savollar tuza olishlari lozim.

Shu maqsadda, o'qituvchi xayolidagi predmetni topish (1-2-sinflarda bolalar ko'z oldilaridagi predmetlar tanlanishi lozim), berkitib qo'yilgan yoki suratdagi predmetni uning belgilariga ko'ra topish kabi didaktik o'yinlardan foydalaniladi. Bolalar predmetning asosiy belgilarini ajratishni o'rganganlaridan so'ng, osongina uni tahlil qilib, ta'rif bera oladilar. Kar bolalar maktabining 3-sinfida tabiatshunoslik darslarida o'quvchilar biror-bir predmet yoki hodisani tasvirlash uchun avval reja tuzadilar.

Ibu vaqtga kelib bolalar ko'p miqdordagi so'roq gap shakllarini o'rgangan bo'lishlari lozim. Bolalarni tabiat hodisalarini tasvirlovchi hikoya tuzishga o'rgatishda avval ularga shunday hikoyadan namuna beriladi, ushbu namuna predmetlarning belgi va xususiyatlari, tabiat hodisalarini tasvirlashlarida qolip o'rnida sizmat qiladi. Bundan tashqari, tabiatshunoslik darslarida ekskursiyalarning ham o'rni katta bo'lib, ekskursiya vaqtidagi suhbatlar va ekskursiyadan keyin xulosalarga ham alohida e'tibor qaratiladi. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, kar bolalar maktablarida maxsus korreksion fanlar bo'yicha mashg'ulotlarda ta'lim metodlari va vositalaridan kompleks yondashgan holda foydalanilsagina eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni rivojlantirish va ularga ta'lim-tarbiya berish jarayonida yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Bundan tashqari, biz eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar korreksion ta'limidagi muammolarni hal etishda quyidagilarni amalga oshirish lozimligini ta'kidlaymiz:

- bog'langan nutqni o'stirish jarayoni metodik jihatdan to'g'ri, o'quvchilarning eshitish va nutqiy qobiliyatlari hamda imkoniyatlarini hisobga olgan holda samarali tashkil etish;

- o'qituvchi va tarbiyachi har bir dars davomida egallanishi zarur bo'lgan majburiy va amaliy nutqiy materiallarni ko'rgazmali ravishda tayyorlashi;

- nutqni rivojlantirish jarayoni tizimli va maqsadga yo'naltirilgan holda tashkil etilishi (avval lingvistik dalil va hodisalarni sof holda tizimli va maqsadli kuzatish).

Grammatik bilimlarning katta qismi pedagog tomonidan tayyor holda berilmasdan, balki o'quvchi tomonidan turli tuzilishga ega bo'lgan gaplarni tahlil qilish, gap tuzish va nutqiy materialni shaklan o'zgartirish jarayonida o'zlashtirilishi lozim. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarga ona tiliga oid ta'riflar va qoidalar yod oldirish yo'li bilan emas, balki o'qituvchi tomonidan yo'naltirilgan o'quvchilarning mustaqil faoliyatlari natijasida xulosa chiqarish yo'li bilan uqtiriladi.

O'quvchilar tomonidan grammatik materialning yaxshi o'zlashtirilishi uchun «bitta gapni yana qanday shaklda aytish mumkin?» degan savolga yetarlicha javob topish lozim. Buni ta'minlash maqsadida kar va zaif eshituvchi bolalar maktab-

internatlarda o'qish darslarida 1-jadvalda berilgan metodlardan foydalanishni tavsiya qilamiz.

Bunda asar bilan ilk tanishish bosqichida asosan reproduktiv metodlardan, shuningdek, oldingi darslarda o'tilgan she'rlarni ifodali o'qish, erkin mavzuda hikoya aytib berish, mustaqil tarzda o'qilgan asarni so'zlab berish kabi evristik metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan ishlarning amalga oshirilishi eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilardagi ikkilamchi bo'lgan nutqiy nuqsonni bartaraf etuvchi korreksion ish mazmunini takomillashtiradi, samaradorligini oshiradi va buning natijasida, ularni jamiyat hayotiga integratsiyalashuvini ta'minlaydi.

#### Savol:



1. Kar va zaif eshituvchi bolalar ta'limining asosiy shakllari deganda nimani tushunasiz?
2. Dars va korreksion mashg'ulotlar sizningcha qanday olib borilishi kerak o'z fikringizni bildiring?
3. Eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar nutqida gap qurilishini shakllantirish sizningcha qanday amalga oshirish maqsadga muvofiq deb o'ylaysiz?

### 9. ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNI O'QITISHNING MAZMUNI VA METODLARI

**Tayanch tushunchalar:** ta'lim mazmuni, o'quv rejalari, o'quv dasturlari, darsliklar, o'quv metodik qo'llanmalar, pedagogik texnologiyalar

*"O'zbek tili o'qitish metodikasi" nomli o'quv qo'llanmada ta'kidlanishicha, "Ta'lim mazmuni davlat va jamiyat talablariga ko'ra, pedagogik texnologiyalarning eng so'nggi yutuqlari asosida belgilanadi, shakllanadi."*

O'quvchilarning bilim olishida va ulardagi nutq shakllarini rivojlantirishda ta'lim mazmunining o'рни beqiyosdir. Ta'lim mazmunining asosiy mohiyatini ko'plab olimlar tomonidan asoslab berilgan. Shuningdek, pedagogik texnologiyalar qanchalik

amaliyotga rivojlangan holatda tatbiq qilinsa, ta'lim mazmuni shu darajada rivojlanadi. Ta'lim mazmuni deganda 1) o'quv rejalari, 2) o'quv dasturlari 3) darsliklar, 4) o'quv metodik qo'llanmalar nazarda tutiladi.

Eshitishida muammosi boigan bolalar maktabida ta'lim mazmuni deganda ta'lim jarayonida o'quvchilar egallab olishlari lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning ma'lum bir hajmi va tizimi tushuniladi. Ta'lim mazmunini takomillashtirish o'rganilayotgan fanlarning ro'yxati, har bir o'quv fani bo'yicha material hajmini aniqlash o'quv dasturlari va darsliklarda ortiqchalarini chiqarib tashlash, asosiy tushuncha va g'oyalarni aniq yoritib berish, o'quvchilar egalashi lozim bo'lgan ko'nikma va malakalarning eng muvofiq hajmini belgilash yo'li bilan amalga oshiriladi. Ta'lim mazmuni o'quv rejasi, o'quv dasturlari va darsliklarda yoritilgan.

Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar maktabining o'quv rejasi, o'quv reja davlat tomonidan tasdiqlangan hujjat bo'lib, asosiy o'quv fanlari belgilanadi. Unda o'quv yillari bo'yicha fanlarni o'qitish tartibi, ketma-ketligi, har bir o'quv faniga ajratilgan soatlar soni ko'rsatilgan bo'lib. O'quv rejasini tuzishda kar o'quvchilarning yosh xususiyatlari, ularning umumiy va nutqning rivojlanish darajasi e'tiborga olinadi, o'quv rejasida kar bolaning umumiy va mehnat ta'limining o'zaro bog'liqligi nazarda tutiladi.

Respublikamizda karlar maktabida fanlar umumta'lim maktablaridagidek bo'lib, faqat musiqa va chet tili darslari o'tilmaydi. Boshlang'ich sinflarda esa maxsus o'quv fani - predmet-amaliy ta'lim kiritilgan. Umumta'lim maktablaridan farqli karlar maktabining o'quv dasturida umumiy soatlar soni va ularning o'quv fanlariga ajratilishida tafovutlar mavjud. Nag bir o'quv fanini o'rganishga vaqtni taqsimlashda ushbu fanning karlarga umumiy ta'lim berish tizimidagi ahamiyati va o'z mi, shu kurs bo'yicha nazariy ma'lumotlar va amaliy ishlar hajmi, shuningdek, ularni kar o'quvchilar tomonidan o'zlashtirish xususiyatlari e'tiborga olinadi. Kar bolalar maktabining o'quv rejasi maxsus bo'lib, eshitishni rivojlantirish bo'yicha talaffuzni shakllantirish bo'yicha maxsus mashg'ulotlar kiritilganligi bilan xarakterlanadi. Maxsus korreksiyalash mashg'ulotlari 0-5 sinflarida har bir o'quvchi bilan yakka holda, 6-10-sinflarda kichik guruhlarda olib boriladi (2-3 bola

bilan). Kar bolalar maktabining o'quv rejasi tushuntirish xati va o'quv soatlarining taqsimlanishidan iborat. Tushuntirish xatida o'quv yilining tuzilishi belgilanadi (choraklar va ta'tillarning ketma-ketligi, muddati), shuningdek, tashkiliy masalalar yuzasidan tavsiyalar beriladi.

#### **Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar maktabining o'quv dasturlari.**

O'quv dasturlari o'quv rejasi asosida har bir fan uchun tuziladi. Dasturlarda har bir fanni o'qitishdan tnaqsad, uning mazmuni, bolalar egallash kerak bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalar yoritib beriladi, o'quv yillari bo'yicha fanni o'rganish tartibi ko'rsatiladi.

Kar bolalar maktabining boshlang'ich va o'rta sinflari maxsus dasturlar bo'yicha, yuqori sinflari umumta'lim maktablari dasturlari bo'yicha ishlaydi. Kar bolalar dasturlari umumiy pedagogik talablar asosida tuziladi. Shu bilan birgalikda, kar bolalar tomonidan har bir o'quv fani bo'yicha bilimlarni egallash va amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish xususiyatlari e'tiborga olinadi. Dasturlarda u yoki bu bo'limni o'rganish jarayonida kar bolalar tomonidan egallanishi lozim bo'lgani nutq materialining hajmi va xarakteri ko'rsatiladi.

**Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar maktablari darsliklari.** O'quv rejasi asosida va o'quv dasturlariga muvofiq har bir fan bo'yicha darsliklar tuziladi va ularda tizimli tarzda o'quv fani mazmuni bayon etiladi. Darslikning asosiy vazifasi - kar o'quvchilarning darsda olingan bilimlarini mustahkamlash va chuqurlashtirishdir. Kar bolalar uchun maxsus maktablarining darsliklarini tuzishda umumiy pedagogik va maxsus talablarni e'tiborga olish zarur. Maktab darsliklarining mazmuni ta'lim maqsadlari, maktab vazifalari, o'quv dasturlariga, ilm-fan, texnikaning zamonaviy yutuqlari, fanlararo bog'lanishlariga mos kelishi lozim.

Unda asosiy ilmiy g'oyalarning, nazariya, qonun tushunchalarining mohiyati yoritilishi, hayot bilan bog'liqligi ochib berilishi kerak.

Darslikning metodik apparati kar o'quvchilarda o'rganilayotgan materialga qiziqish uyg'onishini rivojlantirishga, ularni ijodiy faollashtirishga, nazariy va amaliy malakalarni shakllantirishga

qaratilishi lozim. Metodik apparatda asosiy matnga kiritilgan yangi so'zlar yuzasidan olib boriladigan lug'at ishlari berilgan.

Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'limi jarayonida qo'llanuvchi metodlar tavsifi.

*Metod - eng umumiy ma'noda - maqsadga erishish usuli, ma'lum tarzda tartibga solingan faoliyat. Ta'lim metodlari deyilganda, o'rganilayotgan materialni egallashga qaratilgan turli didaktik vazifalarni hal etish bo'yicha o'qituvchining o'rgatuvchi ishi va o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish usullari yig'indisi tushuniladi.*

O'qituvchining o'rgatuvchi ishi va u tashkil etgan o'quvchilarning faol o'quv-bilish faoliyati uyg'unlashadi. Didaktikada, ta'lim usullari atamasi ham keng qo'llanadi. Ta'lim usuli - ta'lim metodining tarkibiy qismi yoki alohida tomoni. Metodlar bilan usullar munosabati o'zaro bir-biriga bog'langan. Usul va metod butun va qism sifatida bir-biriga bog'lanadi.

O'qitish jarayonida turli metodlardan foydalaniladi. Bu metodlar, birinchi navbatda, kar o'quvchilarning fiziologik va psixologik xususiyatlaridan kelib chiqadi. Kar bolalarni o'qitish jarayonida foydalaniladigan metodlarni shartli ravishda 3 guruhga bo'larni: umumiy, maxsus va xususiy.

*Umumiy metodlar.* Bu metodlarga barcha tipdagi o'quv muassasalarida o'qitish jarayonida qo'llaniladigan metodlar kiradi. Bunda ommaviy maktablarda o'qitiladigan barcha fanlarda bu metodlardan foydalaniladi.

*Maxsus metodlar.* Bunda kar bolalar maxsus maktabida o'quv rejasi ko'zda tutilgan ma'lum bir o'quv fanini o'zlashtirish, o'qitishda qo'llaniladigan metodlar tushuniladi. O'quv materialining ahamiyatli tomonlari va shu o'quv materialining kar bolalar tomonidan o'zlashtirish xususiyatlariga tayaniladi, muhim metodologik metodlar, o'qitishning tashkiliy shakllaridan foydalaniladi.

*Xususiy metodlar.* Xususiy bo'limlar ustida ish olib boruvchi surdopedagoglar tomonidan qo'llaniladigan metodlar, ya'ni kar bolalarning so'zli nutqini muomala vositasi sifatida shakllantirish, talafuz va labdan o'qishga o'rgatish kabi ishlarda qo'llaniladigan metodlar.

**Fan asoslarini o'qitishning ko'rgazmali metodlari.** *Kuzatish metodi* - atrof-olamni hissiy bilishning faol shakli bo'lib, fan va hodisalarning obyektiv faoliyati haqida dastlabki tasawurlarni paydo qiladi. U kar bolalarning aqliy rivojlanishining muhim manbayidir. Bu ishga asosiy diqqat kar bolalarni o'qitishning dastlabki bosqichlarida ajratiladi. Atrof olamni o'rganish kuzatuv metodidan foydalanish uchun katta imkoniyatlar ochib beradi.

*Namoyish metodi* - o'rganilayotgan fanlar, hodisalar bilan hissiy- ko'rgazmali tanishtirishdir. Bunda o'quvchilarda obrazli tasawurlar shakllanadi. Kar bolalar maktabida namoyishning turli shakllari (tabiatda mavjud bo'lgan narsalar namoyishi, ularning tasviri, kinofilm va diafilmlar ko'rsatish, sxemalar, jadvallar, xaritalar ko'rsatish va hokazolar)dan foydalaniladi.

**Fan asoslarini o'qitishning so'zlashuv metodlari.** *Hikoya* - kar o'quvchilarning bilimlarni muayyan tizimda o'zlashtirishlariga ko'maklashadigan anialiy materialni jonli, obrazli, emotsional bayon qilishdir. Surdopedagog so'zi kar o'quvchilar bilimlarining muhim manbayidir. Hikoyaning qimmatliligi shundaki, qisqa vaqt ichida o'qituvchi kattagina hajmli ma'lumotlarni berishi mumkin. O'qitish metodi sifatida hikoya o'quvchilarning bilimlarini yangi amaliy material bilan to'ldirish zarur bo'lganida qollaniladi. Ushbu metod barcha sinflarda jami o'quv fanlarini o'qitishda ishlatiladi. O'qituvchining nutqiga qo'yiladigan talablar nihoyatda muhimdir. U artikulyatsiyaga zo'r bermasligi, yuzi yaxshi yoritilgan, nutqi aniq; ifodali, ravon, barcha orfoepiya me'yorlariga rioya qilingan bo'lishi kerak. O'qituvchining nutq sur'ati nutqiy material xususiyati va o'qitish bosqichiga bog'liq bo'ladi. Kichik yoshdagi bolalar sinflarida hikoyadan foydalanilganda surdopedagogning nutqi me'yordan sekinlashgan, aniq, lekin tabiiy

artikulyatsiyali bo'lishi darkor. O'quvchilarning ko'rib, eshitib qabul qilish ko'nikmalari rivojlanib borgan sayin o'qituvchining nutqi so'zlashuv sur'atiga ega bo'la boradi.

*Tushuntirish - so'zlashuv metodi* ishlatilishi jarayonida hodisalar qonuniylari ochib ko'rsatiladigan, sabab-oqibat bog'lanishlari aniqlanadigan so'zli metoddur. O'qituvchining tushuntirishida hamisha mulohaza, isbot va xulosalar ko'p bo'adi. Uning tushuntirishi o'qitilayotgan hodisalar va qonun-qoidalar mohiyatini ochib berishga qaratilgan. Tushuntirish o'quvchilarning

faol fikrlash faoliyatini nazarda tutadi. Bunda o'quvchilarning mustaqilligi, ularning kitob bilan, ko'rgazmali va didaktik material bilan ishlay olishi muhimdir. Pedagog vazifasi - zaruriy yordam ko'rsatgan holda karlarning amaliy va fikrlash faoliyatiga mohirlik bilan boshchilik qilishdir. Tushuntirish fan asoslarini o'qitish metodi sifatida maktab amaliyotida hikoya, suhbat, ko'rgazmali va amaliy metodlar bilan birga ko'riladi.

*Suhbat* Monologik bayondan farqli o'laroq, suhbat dialogik so'zlashuv metodidir. Uning qimmatliligi shundaki, u surdopedagogga o'quvchilar faoliyatini ancha faollashtirishga imkon beradi. Muloqotning savol-javob shakli kar o'quvchilarda dialogik nutqni shakllantirishga ko'maklashadi. Suhbat turlicha pedagogik maqsadlar bilan o'tkazilishi mumkin. Shunga ko'ra, uning xususiyati va o'tkazish uslubi o'zgaradi. Jumladan, surdopedagog amaliyotida kirish suhbatlari keng qollaniladi. Shu jarayonda surdopedagog kar bolalardagi bilimlar darajasi, hajmi va xususiyatlarini aniqlaydi. Bunday qilish keyingi ishlar uchun va materiallarni o'qitish metodlarini belgilash uchun boshlang'ich nuqta bo'ladi. Kirish suhbatlari kar o'quvchilarning ilgari o'zlashtirgan bilimlarini

dolzarblashtirish va ularni yangi materialni qabul qilishga tayyorlashga yordam beradi. Suhbat o'tkazishda surdopedagogning savollarni tanlashi va ta'riflashi eng qiyini hisoblanadi. Savollar kar o'quvchilar haqiqiy bilimlarini aniqlashgagina emas, balki hodisalarning sababiy bog'lanishini, o'zaro aloqadorligini tushunib olishga, ularning mohiyatini anglashga qaratilishi lozim. Bu esa o'quvchilarni evristik izlanishga rag'batlantiradi. Suhbat boshqa metodlar: suhbatga kiritsa bo'ladigan hikoya, suhbatga qo'shimcha qilinadigan namoyish va hokazolar bilan uzviy bog'langandir. Xususiyatiga ko'ra suhbat axborot - reseptiv, reproduktiv yoki izlanish metodlariga kiritilishi mumkin. Uni o'tkazishning mantiqiy yo'li ham turlicha bo'lishi mumkin. Suhbat usulidan foydalanganda kar bolalar fikrlash faoliyatining kuchayishi bilan bir qatorda ularda nutqni ko'rib qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish, eshitib qabul qilishni rivojlantirish, shuningdek, nutqning to'g'ri talaffuzi ustida ishlash uchun qulay sharoitlar yaratiladi.

**Fan asoslariga o'qitishning amaliy metodlari.** *Darslik va kitob bilan ishlash* — kar o'quvchilar uchun muhim bilim o'chog'i

hisoblanadi. Kar o'quvchilarning kitob bilan ishlashi birinchi o'quv yilidan boshlanadi. Sinfdan sinfga ko'chgan saralash faoliyatlari murakkablashadi. Bundan tashqari, surdopedagog darslik bilan ishlashgina emas, kar o'quvchilarni turli toifadagi lug'atlar va ma'lumotnomalardan foydalanishga ham o'rgatadi.

*Amaliy ishlar* - o'quvchilar bilimlarini chuqurlashtirish va mustahkamlashga, shuningdek, bilimlarni amaliyotda qo'llash, nazariya bilan amaliyot o'rtasidagi aloqani o'rnatishga qaratiladi. Amaliy ishlar bilim va malakalarni shakllantirishda kar o'quvchilarning mustaqilligini va bilish faolligini rivojlantirishda, ularni hayot va mehnat faoliyatiga tayyorlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Amaliy ishlar barcha sinflarda, barcha o'quv fanlarini o'zlashtirishda qo'llaniladi. Karlar maktabining quyi sinflarida amaliy ishning o'ziga xos ko'rinishi o'quvchilarning ko'rgazmali amaliy faoliyatidir. Bunga quyidagilar kiradi: predmetli- amaliy faoliyat, o'Mchov ishlari faoliyati va boshqalar. Kar o'quvchilarning quyi sinflarida predmet amaliy ta'lim (predmetli- amaliy ta'lim) faoliyatining qurish-yasash, applikasiya modellashtirish, konstruktoralash ishlari keng tarqalgan.

*Mashq* - o'qitishning muhim metodlaridan biridir. Bu metod kar bolalar maktabining barcha o'quv fanlarini o'qitishda keng qo'llaniladi. Mashqning metodikasi va xarakteri o'quv fanining xususiyatlariga, aniq materialga va o'zlashtirilayotgan savolga bog'liq. Mashq qoida bo'yicha qayta tiklovchi (reproduktiv) metodga tegishlidir. Mashqlarni rejalashtirish asosida surdopedagog sinf rejasini va har bir o'quvchining yakka xususiyatlarini inobatga olishi lozim.

*O'qitishning o'ziga xos xususiy metodlari.* Surdopedagoglarga ushbu metodlarning ilmiy-nazariy asosi va tavsifi berilgan. Ulardan biri kar o'quvchilarning so'zlashuv nutqini shakllantirish hisoblanadi. Shuningdek, kar o'quvchilarning eshitish idrokini shakllantirish ishlari o'quv-tarbiya jarayonining o'ziga xos jihati hisoblanadi. Uning vazifasiga kar bolalarning saqlangan qoldiq eshituvini maksimal darajada rivojlantirish, nutqiy ovozlarni olami haqidagi tasavvurlarini boyitish kiradi.



#### Savol:

1. Ta'lim mazmuni deganda nima tushuniladi?
2. Metod nima?
3. ENB bolalar ta'lim mazmunini umumta'limda o'qitish mazmunidan farqini Venn diagrammasida yoritib bering.
3. ENB bolalar ta'limida o'qitish metodlarini klasterda tushuntiring.
4. Umumiy metod, xususiy metod va maxsus metodlarning farqi nimada?
5. ENB bolalar maxsus ta'limida INTERFAOL metodni *Jamboard* aktiv oynasida yoriting.

### 10. KAR VA ZAIF ESHITUVCHILARNI TA'LIMINI ASSISTIV TEXNOLOGIYA VA VOSITALAR

Assistiv (yordamchi) texnologiyalar - bu muayyan ta'lim ehtiyojlari bo'lgan talabalarga nazariy vazifalarni mustaqil ravishda bajarishga imkon beradigan, ularning o'qish va ilmiy yutuqlarni davom ettirishda faol rivojlanishiga yordam beradigan, shu bilan ularning o'quv jarayoniga to'liq jalb qilinishiga yordam beradigan har qanday texnik yoki dasturiy ta'minot.

Eshitish qobiliyatining pasayishi, birinchi navbatda, bolaning nutqi rivojlanishiga salbiy ta'sir qiladi, bu esa o'z navbatida ijtimoiy muloqotni va atrofdagi dunyoni bilishni murakkablashtiradi. Muloqotning cheklanganligi ruxiyatning shakllanishiga ta'sir qiladi, yuqori ruhiy jarayonlarning (fikrlash, idrok etish, xotira) rivojlanishiga salbiy ta'sir qiladi.

Zamonaviy mikroelektronika va kompyuterlashtirish nafaqat juda murakkab eshitish vositalarini yaratish, balki ularni eshitish apparati imkoniyatlarini oshiradigan uskunalarni, masalan, to'liqroq ovozli ma'lumot olish uchun qo'shimcha mikrofon bilan to'ldirish imkonini beradi.

Bugungi kunda individual eshitish vositalarini kompyuterli tanlash eshitishning ko'plab individual xususiyatlari va bemorning boshqa ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi; eshitish vositasida uning individual ma'lumotlari dasturlashtirilgan bo'lib, ular qurilma

ta'mirlanganda yoki uning qismlaridan birortasi almashtirilganda tiklanishi mumkin. Eshitish moslamasini sensorli faollashtirish va sozlash ustida ish olib borilmoqda, eshitish vositalarining oksidlanish va boshqa salbiy atrof-muhit ta'siriga duchor bo'lmaydigan qismlar ishlab chiqarish uchun yanada ilg'or materiallar izlanmoqda.

Hozirgi vaqtda koxlear implantatsiya eshitish nuqsonlari bo'lgan odamlar uchun ijtimoiy reabilitatsiyaning eng istiqbolli yo'nalishi hisoblanadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 1000 nafar yangi tug'ilgan chaqaloqdan 1dan 3 nafargasi umumiy karlik va IV darajali sensorli quloq yopiqligi bilan bola tug'iladi. Rossiya Federatsiyasida 2015 yil holatiga 12 milliondan ortiq eshitish qobiliyati zaif odamlar bor.

Koxlear implantat - bu tibbiy asbob bo'lib, og'ir yoki og'ir sensonevral quloq yopiqligi bo'lgan ba'zi bemorlarda eshitish qobiliyatini yo'qotishni kompensatsiyalovchi protezdir.

Koxlear implantatsiya eshitish protezining bir turi bo'lib, akustik signallarni kuchaytiruvchi oddiy eshitish vositasidan farqli ravishda, koxlear implantat ularni eshitish asab tolalarini qo'zg'atuvchi elektr impulslariga aylantiradi.


Koxlear implantatni qo'llashdan asosiy maqsad bolalarni og'zaki nutqga o'rgatishdir, buning uchun bolaga kundalik eshitish va nutq stimullari va eshitish-nutq mashqlarini qilish kerak.

Koxlear implantat quyidagicha ishlaydi: mikrofon akustik signallarni qabul qiladi, keyin ularni nutq prosessoriga uzatadi.

Nutq prosessori - bu akustik signallarni elektr signallariga aylantiruvchi kompyuter.

Keyinchalik, u elektr signallarini qayta ishlaydi, so'ngra ular uzatuvchi antennaga o'tkaziladi va qabul qiluvchi antenna signallarni qayta ishlab, ularni eshitish nervini qo'zg'atadigan elektrodlarga o'tkazadi, so'ngra qo'zg'alish eshitish nervi orqali miyaga uzatiladi. Implant ikki qismdan iborat: tashqi (olinadigan) va ichki (implantatsiya qilinadigan). Implantatsiya qilinadigan (ichki) qismda bosh suyagining peshona-orqa qismiga kiritiladigan induksion qabul qiluvchi va ichki quloqning chig'anog'iga kiritilgan elektrodlar zanjiri mavjud. Koxlear implantning bu qismi to'liq avtonom bo'ladi, chunki unda tashqi chiqishlar yo'q, batareyalar yoki almashtirilishi kerak bo'lgan boshqa qismlar mavjud emas.

Koxlear implantning tashqi (olinadigan) qismi maxsus ilg'ak



yordamida quloq chig'anog'iga biriktiriladi va quloq orqasidagi eshitish apparati korpusiga joylashtirilgan mikrofon hamda kichik o'lchamli ixtisoslashtirilgan kompyuter deyish mumkin bo'lgan nutq prosessori, imlantatsiya qilingan priyomnikning magnit maydoni tomonidan ushlab turiladigan uzatuvchi antennadan tashkil topgan bo'ladi. Ovoz mikrofon orqali qabul qilinadi, so'ngra implantning tashqi

qismining asosiy va eng murakkab qismida - nutq prosessorida - elektr impulslari ketma-ketligiga kodlanadi va teri orqali radiokanal orqali implantatsiya qilingan qismning priyomnikiga uzatiladi.

Ko'p elektrodlı tizim yordamida chig'anoq yonidagi eshitish nervining turli eshitish asab tolalari guruhları qo'zg'atiladi. So'ng, elektr impulslari eshitish sezgilari paydo bo'ladigan bosh miyaga yo'naltiriladi. (12-chizma)

Koxlear implantatsiya bo'yicha chora-tadbirlar tizimi uch bosqichga bo'linib, ularning har biri AKT yordamida amalga oshiriladi.

Operatsiyadan oldingi bosqichda koxlear implantatsiya ehtimolini istisno qiladigan buzilishni aniqlash uchun temporal suyaklar va ichki quloqning kokleasini dastlabki kompyuter (KT) yoki magnit-rezonans tomografiyasi (MRT) amalga oshiriladi: koldear implantatsiyaning rivojlanishidagi anomaliyalar. ichki quloqning koklear va boshqalar - otorinolaringologlarning qanday malakasi, zamonaviy optik va mikrojarrohlik uskunalari mavjudligi. Implantatsiya operatsiyasining davomiyligi taxminan ikki soatni tashkil qiladi va umumiy behushlik ostida amalga oshiriladi. Quloq orqasidagi kesma orqali mastoid jarayonining maydoni ochiladi, unda elektr impulslarini qabul qilish uchun burslar bilan burg'ulash amalga oshiriladi. Keyinchalik, bo'shliqning medial devoriga yaqinlashishni ta'minlash uchun standart mastoidotomiya amalga oshiriladi. Shundan so'ng koxleostomiya amalga oshiriladi, bu orqali

24-32 mm uzunlikdagi faol elektrod kokleaning timpanik narvoniga kiritiladi. Passiv elektrod temporal mushak ostiga joylashtiriladi. Operatsiya koxlear implantni sinab ko'rish va temporal suyak rentgenogrammasida uning to'g'ri holatini tekshirish bilan yakunlanadi. Implant butun umr boshda qolishi mumkin.

Operatsiyadan keyingi reabilitasiya bosqichida nutq prosyessori ulanadi. Bu operatsiyadan keyin darhol sodir bo'lmaydi, teridagi jarrohlik kesma to'liq davolangandan keyin (3-4 haftadan keyin). Nutq prosessorining birinchi ulanishi (birinchi sozlash, dasturlash) koxlear implantatsiya markazida amalga oshiriladi.

KI prosessorini sozlashda audiologning vazifalari (I.V. Koroleva, 2009 yil) quyidagilardan iborat:

Telemetriya, KI prosessorini yoqish, dasturlash.

KI prosessorini sozlash parametrlarini KI prosessorini sozlash paytida bolaning reaksiyalari (ixtiyoriy, shartli-motor), kar o'qituvchi va ota-onalarning bolaning reaksiyalarini kuzatishlari asosida tuzatish.

Bolaga nutq tovushlarini butun chastota diapazonida 5-6 m gacha bo'lgan masofada idrok etishga imkon beruvchi KI prosessorining sozlamalariga erishish.

2. Kar o'qituvchining EARS/LittleEARSning (MED-Yel) obyektiv usullari, kuzatishlari va test natijalariga asoslangan optimal sozlashlarga erishish, bemorni subyektiv baholash.

3. Bemorga ota-onalarga prosessor boshqaruvchilarini nazorat qilish va uning holatini kuzatishni o'rgatish.

4. KI elektrodlarini elektr qo'zg'atuvchisining stapedia refleksini ro'yxatga olish.

5. Elektr stapedia refleks chegarasini ro'yxatga olish ma'lumotlariga ko'ra maksimal qulay darajani aniqlashtirish.

6. Tonal audiometriyani erkin maydonda o'tkazish.

7. Eshitish vositasini qayta sozlash.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning korreksion ta'lim jarayoni ko'p sensorli asosga tayanadi. Bunda sezishning asosiy kanali vizual tahlilchi hisoblanadi. Eshitish qobiliyati zaif odamlarni o'qitish uchun maxsus ishlab chiqilgan kompyuter texnologiyalari, birinchi navbatda, inson ovozini monitor ekranida ko'rsatiladigan vizual belgilarga aylantirishga asoslangan.

Eshitish qobiliyati zaif bolalar uchun MAUDni amalga oshiradigan ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonga AKTni joriy etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Diagnostika, o'qitish va tarbiyalashda, tuzatish va rivojlantirish ishlarida turli xil texnik vositalar va dasturiy ta'minot qo'llaniladi. Eshitish qobiliyati zaif bolalarning eshitish idrokini rivojlantirish uchun kompyuter dasturining nazorati ostida tovushni kuchaytiruvchi uskunalar majmualari qo'llaniladi. Individual auditoriya ish xonalari standart o'qitish dasturlarini qo'llash imkoniyatiga ega bo'lgan kompyuter eshitish va nutq murabbiylari bilan jihozlangan.

Eshitish qobiliyati buzilgan shaxslar uchun ovoz kuchaytirgichlar - mikserlar, kuchaytirgichlar - ovozli signal ekvalayzerlari, kommutatsiya moslamalari, o'qituvchi mikrofonlari, o'quvchilar quloqchilari, ovoz bosimi yuqori bo'lgan quloqchilarni o'z ichiga olgan jamoaviy va individual foydalanish uchun ovoz kuchaytiruvchi uskunalar qo'llaniladi.

Maxsus maktabda texnik o'qitish vositalaridan (TO'V) foydalanish kar bolalarning rivojlanish kamchiliklarini qoplash va tuzatishda muhim rol o'ynaydi va bir qator muammolarni hal qiladi:

1. Talabalarning bilim sifatini oshirish. TO'Vdan foydalanish kar o'quvchilarga atrofdagi dunyo bilan uning xilma-xilligi, rivojlanishi bilan tanishish, ushbu rivojlanishning individual bosqichlarini ko'rsatish, majmuadagi ayrim elementlarni ajratib ko'rsatish, ularning dialektik aloqalari va naqshlarini ochish imkonini beradi. Natijada, kar o'quvchilarga o'rganilayotgan materialni tahlil qilish, taqqoslash va umumlashtirish, sabab-oqibat munosabatlarini o'rnatish, asoslash; ilmiy tushunchalarni shakllantirish imkoniyatlari kengaymoqda.

2. Darslar zichligini oshirish, o'qitish vaqtdan oqilona foydalanish, o'qituvchi va o'quvchilarning mehnat unumdorligini oshirish.

3. Treningning ko'rinishini ta'minlash. TO'Vni qo'llash natijasida kar o'quvchilarning psixojismoniy xususiyatlarini, ularning kognitiv faoliyati imkoniyatlarini to'liqroq hisobga olish uchun sharoitlar yaratiladi. Maktabda ishlatiladigan TO'Vning o'ziga xos didaktik xususiyatlari ekspressivlik, boylik, vizual texnika, hissiy to'yinganlikdir. Bu materialni yaxshiroq idrok etish va o'zlashtirishga yordam beradi.



4. Mustaqil ijodiy faoliyatni rag'batlantirish va kar maktab o'quvchilarini o'qitish motivatsiyasini oshirish. Ekrandagi qo'llanmalarni ko'rayotganda, o'qituvchi o'quvchilarga muammoli savollar va vazifalarni qo'yishi mumkin (masalan, taqqoslash, yetishmayotgan ma'lumotlarni qidirish, umumlashtirish, tizimlashtirish uchun), shu bilan kognitiv faollik va bilim olishga qiziqishni faollashtiradi.

Hozirgi vaqtda karlar maktablarida turli xil audio-vizual o'quv materiallari, jumladan, ekran (filmlar, transparentlar, diagrammalar, bannerlar yoki pozitivlar, epio-linzalar) va ekran ovozi o'quv qo'llanmalari (filmlar, filmlar, o'quv televideniyesi dasturlari, video yozuvlar) qo'llaniladi). Ovozli vositalardan (tovush yozish) foydalanishga, xususan, eshitish idrokini, ritmni rivojlantirish darslarida tobora ko'proq e'tibor berilmoqda.

Audiovizual vositalar proyektorlar, televizorlar, kompyuterlar va hokazolar yordamida namoyish etiladi. Proyeksiyalovchi asbob-uskunalar kompleks tarzda qo'llanilganda eng katta samara beradi.

Yangi zamonaviy jihozlarning mavjudligi darsni o'tkazishning an'anaviy usullarini, o'quv materialini taqdim etish shakllarini, eshitish qobiliyati zaif o'quvchilarning kognitiv va amaliy faoliyatini boshqarish xarakterini o'zgartiradi. Barcha audiovizual vositalar o'quvchilarga ta'sirida bir-biri bilan bog'liq, lekin bir-birini almashtirib bo'lmaydi.

Proyeksiya uskunalari yordamida ko'rsatilgan statik ekran vositalaridan (transparentlar, diagrammalar) mavzuni uzoq va har tomonlama tekshirishni talab qiladigan hollarda foydalanish tavsiya etiladi. O'qituvchi har bir tasvirni o'rganilayotgan obyekt yoki hodisani ko'rib chiqish, tushunish, umumlashtirish uchun zarur bo'lgan vaqtgacha va o'quv materialini taqdim etish mantiqiga mos keladigan ketma-ketlikda namoyish etadi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun MAUDni qo'llaydigan maktabda kodoskopdan keng qo'llaniladi, u nafaqat tayyor rasmlar, balki darsdan oldin yoki hatto dars paytida ham har qanday materialni loyihalash mumkin bo'lgan interfaol doskadir. Bunda o'quvchilar muammoni yechish jarayonini dinamikada ko'radilar. Chizma materialning tushuntirilishini osonlashtiradi, butunning qismlarini, uning qismlari nisbatini va hokazolarni vizual tarzda idrok etish imkonini beradi. Ramkalar to'g'ri tartibda qo'yilganda

obyekt yoki hodisaning ketma-ket o'zgarishini bolalarga ko'rsatish mumkin bo'ladi.

Eshitish qobiliyati buzilgan bolalar uchun MAUDni amalga oshiradigan maktabda statik ko'rgazmali qurollar orasida taqdimotlar keng qo'llaniladi, ular mavzuli ravishda birlashtirilgan slaydlar seriyasidir. Taqdimot yordamida hal qilinadigan kognitiv vazifalar bir vaqtning o'zida so'z va matndan foydalangan holda turli xil ish shakllari bilan nisbatan oson birlashtirilishi mumkin. Agar sizga cheklangan miqdordagi ketma-ket, eng muhim hodisalar, jarayonlarni batafsil tahlil qilish kerak bo'lsa, taqdimotlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Karlar maktabining o'quv jarayonida statik yordamchilardan ko'ra ko'proq ma'lumot beruvchi o'quv filmlari ham qo'llaniladi.

Eshitish qobiliyati zaif bolalarni o'qitish jarayonida maxsus dasturlar qo'llaniladi.

"Ovoz spektri" moduli alohida tovushlarning spektrlarini ko'rish orqali ularni to'g'ri talaffuz qilishni mashq qilishga qaratilgan. Ushbu modul bilan ishlashni oyna oldida ishlash bilan birlashtirish tavsiya etiladi.

Maxsus dasturlardan tashqari, kompyuter musiqasi muharrirlari, normal rivojlanayotgan bolalar uchun ishlab chiqilgan didaktik kompyuter o'yinlari, logopediya kompyuter o'yinlari qo'llaniladi.

Shu bilan birga, topshiriqlar yoki ko'rsatmalar mos yozuvlar tugmalari maydoniga kiritiladi, ular og'zaki nutq bayonotlarini eshitish yoki eshitish-vizual idrok etishdan keyin taqdim etiladi, bu barcha talabalar uchun materialni idrok etish imkoniyatini ta'minlaydi. Shunday qilib, o'qituvchi nutq aloqasini tashkil etish, o'quvchilarning eshitish idrokini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Eshitish qobiliyatida nuqsoni bor bolalarni o'qitishda turli taqdimotlar keng qo'llaniladi. Slaydda kerakli nutq materiali namoyish etiladi, nutq materialining bir qismi esa eshitish orqali taqdim etiladi. Bunda ma'lumotnoma tugmalari maydoniga og'zaki nutqni eshitish yoki eshitish-vizual idrok etishdan keyin taqdim etiluvchi vazifalar yoki ko'rsatmalar kiritiladi, bu materialni idrok etishning barcha talabalar uchun ochiqligini ta'minlaydi. Shunday

qilib, o'qituvchi nutq aloqasini tashkil qilish, o'quvchilarning eshitish idrokini rivojlantirish imkoniyatini oladi.

AKTdan foydalanishda surdopedagog tomonidan taqdim etiladigan material mazmunini bilish, yechimi ekrandagi qo'llanmada bayon qilingan o'quv vazifalarini aniq shakllantirishni nazarda tutuvchi puxta tayyorgarlik, qo'llanmadan foydalanish maqsadini aniqlash (o'quv faoliyati tartibi, motivi, munosabatni shakllantirish yoki kognitiv maqsadlarda); darsni aniq rejalashtirish - darsning qaysi qismida qo'llanma qanday qo'llanilishini, boshqa usullar bilan (so'z, harakatlar bilan) qanday mos kelishini aniqlash; yozuvlarni moslashtirish, o'quvchilar uchun savol va topshiriqlar tayyorlash talab etiladi.

Imkoniyati cheklangan bolalarni o'qitishda maxsus texnik qurilmalardan foydalanish

Imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim muhitining asosiy tamoyili - har bir bolaning alohida ta'lim ehtiyojlarini inobatga olgan holda, turli toifadagi bolalarning shaxsiy ehtiyojlariga moslashuvchan qayta qurish orqali moslashishga tayyorligi.

Imkoniyati cheklangan bolalar uchun ta'lim muhiti har qanday bolani o'qishga, tarbiyalashga va uning shaxsiy rivojlanishiga qadriyat sifatida qarash tizimi, ularning ta'limini tashkil etish uchun resurslar (vositalar, ichki va tashqi sharoitlar) bilan tavsiflanadi. Imkoniyati cheklangan bolaga ta'lim va tarbiya berish uchun maxsus shart -sharoitlar yaratishga moslashuvchan, individual yondashuv pedagogik jamoaning samarali faoliyatining ko'rsatkichlaridan biridir.

Bu yondashuv, birinchi navbatda, ta'lim muhitini yaratishda va turli toifadagi imkoniyati cheklangan bolalarning ehtiyojlariga mos keluvchi maxsus ta'lim sharoitlarini ishlab chiqishda namoyon bo'ladi. Bolalarning psixojismoniy xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim olishlari uchun keng qamrovli shart -sharoitlarni yaratish imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim olish huquqini tadbiiq etish sohasidagi asosiy vazifa sifatida qaralishi lozim.

Moddiy-texnik shartlarga bo'lgan talablar tuzilmasi quyidagi talablarni o'z ichiga oladi:

- boshlang'ich umumta'limning moslashtirilgan asosiy umumta'lim dasturlari (BU MAUD) amalga oshiriladigan muassasa,

shu jumladan uning me'moriy qulayligi va universal dizaynini tashkil etish;

- vaqtinchalik tayyorgarlik rejimini tashkil etish;

- texnik o'qitish vositalari;

- o'quvchilarning maxsus ta'lim ehtiyojlariga javob beradigan va dasturning tanlangan variantini ishga tushirish imkonini beruvchi maxsus darsliklar, ish daftarchalari, didaktik materiallar, kompyuterli o'qitish vositalari.

Ta'lim jarayoniga jalb qilingan har bir kishi tashkiliy usullardan yoki tashkilotdagi maxsus resurs markazidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Moddiy-texnik ta'minotni, shu jumladan ta'lim jarayoniga jalb qilingan turli profil mutaxassislari, nogironligi bo'lgan o'quvchining ota-onalari (qonuniy vakillari) tarmog'ini, muvofiqlashtirishni va o'zaro hamkorligini ta'minlaydi.

Moddiy-texnik ta'minot talablari ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilariga qaratilgan. Ta'lim jarayonida ishtirok etadigan har bir kishi tashkiliy texnika yoki maxsus resurs markazidan foydalanish imkoniga ega bo'lishi kerak. Ta'lim jarayonida ishtirok etadigan turli profildagi mutaxassislar, imkoniyati cheklangan o'quvchining ota-onalari (qonuniy vakillari) tarmog'ini, muvofiqlashtirishini va o'zaro ta'sirini o'z ichiga olgan moddiy va texnik yordamni ta'minlaydi. Agar masofaviy ta'limni tashkil etish zarur bo'lsa, mutaxassislar kompyuter va periferik uskunalarning to'liq to'plami bilan ta'minlanadi.

Zamonaviy axborot-ta'lim muhiti, jumladan, elektron axborot resurslari, elektron ta'lim resurslari, axborot texnologiyalari majmuasi, telekommunikatsiya texnologiyalari, tegishli texnik vositalar (jumladan, flesh-simulyatorlar, Wiki-asboblar, raqamli video materiallar va boshqalar) faoliyati uchun shart-sharoitlar yaratilishi kerak, har bir talaba BU MAUDni o'zlashtirishning maksimal mumkin bo'lgan natijalariga erishishni ta'minlash zarur. Tashkilotlar masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish huquqiga ega.

Imkoniyati cheklangan bolalarning maxsus ta'lim ehtiyojlarining xilma -xilligi, shuningdek, resurslarning turli sohalari bo'yicha (moddiy -texnik ta'minot, shu jumladan me'moriy sharoit, kadrlar, axborot, dasturiy-uslubiy va boshqalar) taqsimlangan maxsus ta'lim sharoitlarining sezilarli variantlilikini belgilaydi.

Shunday qilib, maxsus ta'lim shart-sharoitlarining yaxlit tizimini – nogironligi bo'lgan bolalarning barcha toifalari uchun ularning xususiyatlari va ta'lim imkoniyatlariga muvofiq zarur bo'lgan umumiy holatlardan, o'quv jarayonini amalga oshirish samaradorligini va bolaning ijtimoiy moslashuvini belgilaydigan individual holatlargacha tavsiflash mumkin.

Imkoniyati cheklangan bolalarni maktab ta'limi bilan qamrab olishning moddiy-texnik ta'minoti imkoniyati cheklangan bolalar guruhining nafaqat umumiy va maxsus ta'lim ehtiyojlarini, balki va har bir toifa ehtiyojlarini qondirishi kerak. Shu tufayli moddiy-texnik ta'minot tuzilmasida quyidagilarga qo'yilgan talablar aks etishi lozim:

Imkoniyati cheklangan bola ta'lim oladigan muassasani tashkil qilish.

Vaqtinchalik o'quv rejimini tashkil etish.

Imkoniyati cheklangan bola uchun ish joyini tashkil etish.

Imkoniyati cheklangan bola uchun qulaylikni ta'minlovchi texnik vositalar (yordamchi qurilmalar va texnologiyalar).

Imkoniyati cheklangan bolalarning har bir toifasi uchun texnik o'quv vositalari (shu jumladan, maxsus ta'lim ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallangan ixtisoslashtirilgan o'quv kompyuter uskunalari).

Ta'lim muassasalarini maxsus, shu jumladan ta'limiy, reabilitasion, kompyuter uskunalari hamda eshitish, ko'rish va tayanch -harakat apparati buzilgan shaxslar uchun tuzatish ishlarini tashkil etish uchun avtotransport vositalari bilan jihozlash bo'yicha chora -tadbirlarni amalga oshirish uchun Rossiya Federatsiyasining subyektlari tomonidan maxsus, shu jumladan ta'limiy, reabilitasion, kompyuter uskunalari va transport vositalari, dasturiy ta'minot xarid qilinmoqda:

maxsus jihozlar, jumladan, balandligi sozlanuvchi, sathi bukilgan stollar, balandligi sozlanuvchi stullar;

imkoniyat cheklangan bolalar uchun maxsus uskunaviy-dasturiy majmualar; imkoniyat cheklangan bolalar bilan ishlash uchun kompyuterli, logopedik, psixologik dasturlar;

nutqi, o'quv jarayonlari va hissiy-irodaviy buzilishlari bo'lgan bolalar bilan ishlash uchun o'qituvchi-psixolog, logoped-o'qituvchilar uchun o'quv qo'llanmalar;

nutq va harakat rivojlanish darajasini aniqlash uchun diagnostik usullar to'plami;

ruhiy-hissiy tuzatish uchun sensorli xonalar uskunalari; sensomotor reabilitasiya va tuzatish uchun multisensor va ultrabinafsha uskunalarining mobil majmualari; proyektor, noutbuk va ekranli interfaol doskalar; kompyuter, telekommunikasion, maxsus uskunalar va dasturiy ta'minot to'plamlari;

reabilitasion uskunalar:

kislород konsyentratorelari va kokteylyerlar;

reabilitasiya trenajyorlari (elliptik ergometrlar, veloergometrlar, vibroplatformalar, yugurish va massaj yo'lakchalari);

ixtisoslashtirilgan ko'p funksiyali reabilitasiya sog'lomlashtirish majmualari;

logoterapevtik tuzatish va ruhiy-hissiy holatni tuzatish xonalar;

universal raqamli o'qish moslamalari; SD flesh -kartalardagi raqamli ovozli kitoblar;

kichik obyektlar va matnni kattalashtirish uchun kompyuterli hujjat-kameralar;

tekis bosma matnlarni o'qish uchun ko'chma qurilmalar; elektron kattalashtiruvchi qurilmalar;

matn bilan ishlash va axborot makonining turli komponentlarini boshqarish uchun raqamli modulli tizimlar;

eshitish bo'yicha "Solo-01V" (M) trenajyorlari; AK-Z (M) "Sonnet-01-1" audiosinflari; lingvodidaktik majmualar;

Moddiy-texnik ta'minotga qo'yiladigan talablar nafaqat bolaga, balki ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilariga qaratilgan bo'lishi kerak.

Bu imkoniyati cheklangan bolalar uchun ta'lim jarayonini individuallashtirish zarurati bilan bog'liq. Bu talablar guruhining o'ziga xos xususiyati shundaki, ta'lim jarayonida ishtirok etadigan barcha kattalar nogironligi bo'lgan bolaning ta'lim jarayoni uchun kerakli individual materiallarni tayyorlash mumkin bo'lgan tashkiliy texnikadan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak. Ta'lim jarayonida ishtirok etayotgan turli soha mutaxassislari va otionalarning o'zaro ta'sir jarayoni moddiy-texnik tomondan to'liq ta'minlanishi lozim.

Dasturiy-uslubiy ta'minot inklyuziv amaliyot asosida ta'lim beruvchi muassasaning barcha o'quvchilariga to'liq va samarali ta'lim berishga qaratilishi kerak.

Salomatlik imkoniyatlari cheklangan bolalarning o'quv jarayonini dasturiy va uslubiy ta'minlash bolaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim tashkiloti tomonidan tavsiya etilgan ro'yxat asosida ishlab chiqilgan asosiy o'quv dasturi (AUD), moslashtirilgan asosiy umumta'lim dasturi (MAUD), moslashtirilgan ta'lim dasturidan (MTD) tashkil topgan korreksion ishlar dasturida aks ettirilishi mumkin.

Maxsus ta'lim sharoitlariga muhtoj bolalarni aniqlash, ushbu shartlarni aniqlash va ularni yaratish jarayoni quyidagicha tashkil etiladi:

Tibbiyot muassasidan xulosa va nogironligi bo'lgan bolalar o'quv jarayonini tashkil etish bo'yicha tavsiyalar olish zarur.

Tuman psixologik, tibbiy-pedagogik komissiyasi (PTPK) bolalarning jismoniy va (yoki) ruxiy rivojlanishidagi va (yoki) xulq-atvoridagi o'zgarishlarni o'z vaqtida aniqlash maqsadida bolalarni har tomonlama psixologik, tibbiy-pedagogik ko'rikdan o'tkazadi hamda tekshirish natijalariga ko'ra ta'lim olish uchun maxsus shart-sharoitlar yaratish bo'yicha tavsiyalar beradi, shuningdek ilgari berilgan tavsiyalarni tasdiqlaydi, aniqlaydi yoki o'zgartiradi.

Tashkilot kengashi maxsus ta'lim sharoitlarini yaratish xarakterini, davomiyligini va samaradorligini belgilaydi, PTPKning bolaning psixojismoniy rivojlanishining umumiy tavsifi va maxsus sharoitlar bo'yicha tavsiyalar va moslashtirilgan ta'lim dasturi (agar kerak bo'lsa), mutaxassislarining tavsiyalarini o'z ichiga olgan kengash xulosasini tuzadi. Mutaxassislarining xulosalari, PTPK kengash xulosasi tushunarli shaklda ota-onalarga (qonuniy vakillarga) yetkaziladi, taklif qilingan tavsiyalar faqat ularning roziligi bilan amalga oshiriladi.

Pedagog xodimlar birgalikda tuzatish ishlari dasturini tuzadilar, uni maktab Boshqaruv kengashining tasdig'idan o'tkazish uchun muhokamaga taqdim etadilar va muhokama xulosasiga ko'ra amalda tadbiq etadilar. Har qanday dasturning ijrosi baholab boriladi, tuzatiladi va qayta ishlab chiqiladi.

Tuzatish ishlarini amalga oshirishning asosiy mexanizmlaridan biri bu nogironligi bo'lgan bolalarning o'quv jarayonida turli profilli

mutaxassislar bilan tizimli ishlashini ta'minlaydigan ta'lim muassasasi mutaxassislarining o'zaro optimal munosabati.

Ta'lim tizimida yetishmayotgan kadr manbalari o'rnini to'ldirish, doimiy uslubiy yordam, imkoniyati cheklangan bolalarni umumiy boshlang'ich ta'limining asosiy o'quv dasturini amalga oshirish, korreksion pedagogika sohasida ilmiy asoslangan va ishonchli innovasion ishlanmalarni qo'llash borasida tezkor maslahatlar berish imkoniyatini yaratuvchi umumta'lim, maxsus (korreksion) va ilmiy muassasalarning majmuaviy o'zaro munosabati uchun sharoitlar yaratilishi kerak.

7. Har xil toifadagi nogironligi bo'lgan bolalar uchun, ularning xususiyatlariga qarab, ta'limning zarur darajasi va sifatini amalga oshirishni, shuningdek, ushbu toifadagi bolalarni zarur ijtimoiylashtirishni ta'minlaydigan maxsus shartlarning yuqoridagi tarkibiy qismlarining har biri turli darajada, turli sifat va hajmda amalga oshirilishi kerak. Masalan, eshitish va ko'rishda nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim maydonini yaratishda moddiy-texnik ta'minot ajralmas tarkibiy qismlardan biri sifatida maksimal darajada mavjud bo'ladi, shu bilan birga turli autizm sohasi buzilishi bo'lgan bolalar uchun bunday ustuvor ahamiyatga ega bo'lmaydi. Ular uchun maxsus sharoitlar, maxsus o'qitilgan murabbiylar (tyutorlar) va boshqa tashkiliy-pedagogik sharoitlarning mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi. Tayanch-harakat tizimida nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun (qoida tariqasida, eshitish yoki ko'rish qobiliyatining buzilishi bo'lmasa), to'siqsiz me'moriy muhitini yaratishdan tashqari, ular uchun ta'lim sharoitlarini tashkil etishning eng muhim sharti sifatida dasturiy ta'minot va uslubiy ta'minotni qurish xususiyatlari, xususan, miya falajligi tufayli nogironligi bo'lgan bolaning operasion-faoliyat imkoniyatlariga mos ravishda pedagogik jarayonni tashkil etish birinchi o'ringa chiqadi.

8. Shunday qilib, imkoniyati cheklangan va alohida ehtiyojga ega bolaning ta'lim jarayonini amalga oshirish uchun individual shart-sharoitlar yaratishda, har safar yangilanishi, bolaning imkoniyatlari va xususiyatlariga mos ravishda individuallashtirilishi kerak bo'lgan ta'lim shartlarining umumiy tavsifi namoyon bo'ladi. Psixologik, tibbiy va pedagogik komissiyalar faoliyati - ularning ta'lim yo'nalishi va uni amalga oshirish

shartlarini belgilab beruvchi yakuniy xulosasi, shuningdek, ta'lim muassasasi konsiliumi faoliyati asosida aynan shunday o'zgaruvchanlik jarayoni, individual ta'lim yo'nalishini amalga oshirish uchun maxsus shartlarni individuallashtirish jarayoni yotishi lozim.

<b>Ta'lim muhitining moslashuvi</b>	
<b>Umummaktab muhiti</b>	<b>Sinf muhiti</b>
«Yuguruvchi qator» (qavatlarda). Ta'lim muassasasining devorlarida hulq-atvor, xavfsizlik to'g'risida maktabning ichki qoidalari bayon etilgan stendlar. Defektolog-o'qituvchi (surdopedagog) uchun individual va guruhli darslarni o'tkazish uchun ovoz izolyasiyal xona (15 m2dan kam bo'lgan) Mutaxassislar bilan individual mashg'ulotlar uchun xona	Birinchi parta/stol (deraza va o'qituvchi stoli yonida). Interfaol doska va boshqa multimediyaviy uskunalar. Kolonka va Internetga ulanuvchi kompyuter. Axborotni saqlash va ko'chirish vositalari (USB xotiralar), printer, skaner.
<b>Maxsus uskunalar va didaktik ta'minot</b>	
Sinf xonalari va umumiy foydalanish joylarida (zallar, dam olish, ovqatlanish xonasi, kutubxona va h.k.) darsning boshlanishi va tugashini bildiruvchi yorug'lik belgisi. Zarur periferik qurilmalari (karnay, mikrofon, quloqchin, midi-sintezator va boshqalar) mavjud va individual / guruhli darslar uchun Internetga ulangan multimedia kompyuteri. Xonada individual / guruhli darslar uchun ma'lumotlarni saqlash va uzatish vositalari (USB xotiralar), printer, skaner. Individual va guruhli darslar uchun simsiz tizimlar (FM-tizim) (sinf, zal, o'qituvchi-defektolog (surdopedagog) xonasida). Talaffuz qilish va eshitishni rivojlantirish ustida ishlash uchun maxsus audiovizual qurilmalar va kompyuter dasturlari (masalan, INZ tovush indikator, Heap World, Speech W dasturlari va boshqalar, Delfa 142 surdologopedik trenajyori va boshqalar). Jonli va jonsiz tabiat tovushlari, musiqiy yozuvlar, audiokitoblar to'plamidan iborat musiqa markazi. Pedagogik diagnostika va nutq va nutqsiz tovushlarni eshitish, nutqni eshitib-ko'rib idrok etish, talaffuzning rivojlanish holati va	

dinamikasini baholash uchun didaktik material. O'rganilgan mavzular bo'yicha namuna materiallar (illyustratsiyalar, taqdimotlar, o'quv filmlari). Surdopedagogika va surdopsixologiya bo'yicha maxsus adabiyotlar.

Autistik sohada buzilishi bo'lgan o'quvchilarning ta'lim olishi uchun maxsus shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha tavsiyalar

<b>Umummaktab muhiti</b>	<b>Sinf muhiti</b>
Dam olish xonasi Ota-onalar uchun kutish joyi O'yin xonasi Harakat hududi Dam olish hududi	bolaning yoshi va xohishiga qarab jihozlangan o'yin xonasi dam olish xonasi uchun jihozlar: yumshoq jihozlar, gilamlar, akvarium, audio uskunalar (musiqa va tabiat tovushlari diskleri to'plami bilan) bolaning yoshi va xohish-istaklariga muvofiq jihozlangan harakatlanish zonasi uchun uskunalar
	kutish joyi uchun jihozlar (stol, kursi, maxsus adabiyotlar, filmlar to'plami hamda mavzuli filmlarni tomosha qilish uchun uskunalar) shirma; yumshoq matlar va modullar; kitob javonlari; o'yin burchagi; teatrlashtirish uchun o'yinlar to'plami burilish burchagi o'zgaruvchi individual partalar; ruchkalar, qalamlar uchun podstavka axboriy stendlar (maktabda, sinfda o'zini tutish qoidalari, sxema, diagrammalar) kompyuter uskunalari (kompyuter, proyektor, ekran). kutish joyi uchun jihozlar (stol, kursi, maxsus adabiyotlar, filmlar to'plami va mavzuli filmlarni ko'rish uchun uskunalar)

Tayanch-harakat apparatida buzilishi bo'lgan o'quvchilarning ta'lim olishi uchun maxsus shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha tavsiyalar.

Ta'lim-tarbiya jarayonini dasturiy va uslubiy ta'minoti individual ta'lim dasturini amalga oshirishning asosiy shartlaridan biri sifatida ta'lim jarayonining barcha subyektlari individual ta'lim dasturni amalga oshirish bilan bog'liq har qanday ma'lumotga doimiy va barqaror ega bo'lishiga qaratilgan. ITDni amalga oshirish doirasida ta'lim muassasasi imkoniyati cheklangan bolalarning maxsus ta'lim ehtiyojlarini qondiruvchi darsliklar, shu jumladan ularning ajralmas qismi bo'lgan elektron ilovali darsliklar, asosiy ta'lim dasturining barcha o'quv fanlari bo'yicha o'quv-uslubiy adabiyotlar va materiallar bilan ta'minlanishi kerak. Ta'lim muassasasi, yordamchi mutaxassislar bosma va elektron ta'lim resurslari, jumladan, imkoniyati cheklangan bolalar uchun mo'ljallangan elektron ta'lim resurslaridan (ETR) foydalanishlari kerak.

Ta'lim muassasasining kutubxonasi o'quv rejasidagi barcha o'quv fanlari bo'yicha umumiy va imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan bosma o'quv resurslari va ETR bilan jihozlangan bo'lishi, shuningdek, qo'shimcha adabiyotlar fondiga ega bo'lishi kerak. Qo'shimcha adabiyotlar fondiga bolalar badiiy va ilmiy-ommabop adabiyotlari, boshlang'ich umumiy ta'limning asosiy ta'lim dasturini amalga oshirishga yordam beruvchi ma'lumotnoma-bibliografik va davriy nashrlar kiritilishi kerak.

Imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim oluvchi muassasa kutubxonasi maxsus psixologiya va korreksion (maxsus) pedagogika, bosma ta'lim resurslari va ETR, jumladan, imkoniyati cheklangan bolaning akademik bilimlarini va hayotiy salohiyatini oshirishga yordam beruvchi ilmiy-uslubiy adabiyotlar bilan to'ldirilgan bo'lishi, shuningdek, ushbu maktabda tahsil oluvchi turli toifadagi nogironligi bo'lgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash bilan bog'liq dolzarb masalalar bo'yicha qo'shimcha adabiyotlar fondiga ega bo'lishi zarur.

Mazkur qo'shimcha fondga nogironligi bo'lgan bolani o'qitish davomida foydalaniladigan ilmiy-uslubiy adabiyotlar, ma'lumotnoma-bibliografik va davriy nashrlar kiritiladi.

Ta'lim muassasasidan tashqari muhit	O'quv muhiti
<p>Inoga kirish imkoni (pandus; tutqich va bola tik turgan holda tayanishi va harakatlanishi mumkin bo'lgan aravacha, ruchka, skobka; hojatxonalar; liftlar — 1 qavatdan ko'p bo'lgan binolarda; yo'laklarda burilishlar va boshqa yordamchi uskunalar); eshiklar uchun (avtomatik ochilish), zinalar (ko'tarma maydon); hojatxona (o'tirgich, ushlagichlar, vanna uchun ko'tarish qurilmasi) uchun taglikni almashtirish mumkin bo'lgan yotoq o'rnatilgan moslashtirilgan hojatxonalar.</p>	<p>Maxsus tashkil etilgan partalar joylashuvi            Dam olish zonasini            Maxsus jihozlar va uskunalar            Ta'limni rivojlantirish uchun ustaxonalar (ruchka va qalam, ushlagichlar, qo'l uchun og'irlashtiruvchilar), yumshoq mat, harakatlanish uchun maxsus vositalar: gigiyenik talablarga javob beruvchi o'yinchoqlar,            Aravacha (gigiyenik talablar va xususiyatlarga javob beruvchi qo'lda boshqariladigan va elektr);            O'qishni osonlashtiruvchi tugmachali vositalar, elektron kitoblar, (maxsus likoplar, krujka, lupa (agar ko'rishda buzilish bo'lsa), qoshiqlar;            Kompyuterlar va dasturiy ta'minot;            Ko'tarma vositasi mavjud mikroavtobus);            Xona uchun multimedia proyektorli, planshetli (yoki personal kompyuterli) uskunalar.</p>

Ko'zi ojizlar, zaif ko'ruvchilar hamda ko'rish defektining murakkab tuzilmasiga ega o'quvchilarning ta'lim olishi uchun maxsus shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha tavsiyalar

O'qishdan tashqari muhit	O'quv muhiti
<p>Yo'lak bo'ylab harakatlanish uchun:</p> <p>Xonalar nomi tushirilgan taxtalar</p> <p>dahlizda taktil yo'lak (g'adir-budir yo'lakcha); zinalar, yo'laklar uchun mo'ljallar — derazalarga to'q rangli parda tutish mumkin emas, sinfxonani yoritish oson bo'lishi zarur; devor, zina tutqichlarida yorqin va kontrast rangli belgilar: sariq yoki qizil, 10 sm.</p> <p>zinapoyalar, yo'laklar uchun taktil ko'rsatmalar (teginib bilish) devorlar va eshiklarda ko'rsatmalar;</p> <p>zaif ko'ruvchilarga hamrohlik qilish uchun ovozi ko'rsatmalar (yo'lakning boshi va oxirida, qavat belgisi);</p> <p>ko'zi ojizlar uchun: bino bo'ylab harakatlanish uchun individual tayog;</p>	<p>Sinfxona uchun:</p> <p>har bir partada Brayl tizimi bo'yicha taktil ko'rsatmalar (partani ushlab topish); sinflar devorlari ochiq neytral ranglarda, xususan och yashil, och sariq ranglarda bo'lishi maqsadga muvofiq</p> <p>doska va partalar yuzasi yaltiroq bo'lmasligi kerak</p> <p>bolaning bo'yi va stol usti qiyaligiga qarab sozlanishi mumkin bo'lgan o'quv stollari;</p> <p>zaif ko'ruvchilar uchun: yorqin uchli ko'rsatkichlar;</p> <p>zaif ko'ruvchilar uchun: turli kattalashtiruvchi moslamalar (stol lupalari va mobil foydalanish uchun);</p>
<p>ko'zi ojizlar uchun: taktil yuzasi bo'lgan sport zalidagi anjomlar; zaif ko'ruvchilar uchun: sport anjomlarida vizual ko'rsatmalar;</p> <p>zaif ko'ruvchilar uchun: bolaning ish joyida (partada) qo'shimcha yorug'lik va doskani qo'shimcha yoritish</p> <p>yumshoq modullar va gilam bilan jihozlangan psixologik hordiq xonasi;</p> <p>o'qituvchi-defektolog (tiflopedagog) xonasi</p>	<p>o'qitishning turli texnik vositalari: «INFA-100» o'qish mashinasi, brayl chizig'i bilan to'ldirilgan kompyuterlar, maxsus brayl printeri, ekran ma'lumotlari bilan nutqli ishlash dasturi, qo'lda videokattalashtiruvchi "RUBIN" va boshqalar.</p>



### Savol:

Assistiv texnologiyalarga ta'rif bering?

Assistiv texnologiyalarni o'rganishning maqsadi va vazifalari?

Assistive texnologiyalarning turlarini klaster usulida sanab bering?

ENB o'quvchilar uchun ishlab chiqilgan assistive texnologiyalarning maqsadini aniqlang?

Mavzu yuzasidan INSERT yuzing?

Mavzu doirasida slayd tayyorlang?

## 11. KAR VA ZAIF ESHITUVCHI BOLALAR ESHITUV NUTQIY FAOLIYATGA TA'LIM METODLARI

**Tayanch tushunchalar:** talaffuz malakalari – ko'pgina so'zlarning tovush tarkibini, ulardan foydalanishni o'zlashtiradi, so'zlar va gaplarning grammatik jihatdan o'zgarib borishi va hosil bo'lishi bilan bog'liq

*Eshituv nutqiy faoliyat deganda ENB bolalarning eshituv qoldig'id va eshituv imkoniyatlaridan oqilona foydalagan holda ularni nutqiy faoliyatga yo'naltirish tushuniladi.*

Kar va zaif eshituvchi bolalarning shaxs sifatida shakllanishi sog'lom bolalarga nisbatan farqli kechsa-da, rivojlanishning umumiy qonuniyatlariga bo'ysunadi. Sog'lom bola ilk yosh davrida ehtiyojini guvranish, g'udurlash kabi nutqning sodda ko'rinishi, bir yoshlariga kelib esa, dastlabki so'zlar orqali qondiradi. Uning nutqi dastlab atrofidagi kattalarning nutqiga taqlid qilish asosida rivojlanadi. Bola avval o'z hohish va fikrlarini aniq grammatik tizimdan mustasno bo'lgan alohida so'zlar yordamida ifoda etsa, 2 yoshlarga yaqin nutqi til tizimi hamda uning qonuniyatlariga asoslangan holda tarkib topa boshlaydi.

U til tarkibiga oid hech qanday qonun-qoidalarni bilmasa-da, so'zlarni hech bir xatosiz turlaydi, tuslaydi, so'z birikmalarini tuza oladi, hatto-ki, so'z birikmalari qonunlariga mos ravishda mutlaqo yangi so'zlarni tuza oladi. Bola tilning murakkab tizimini eshitish

yordamida o'zlashtiradi: talaffuz malakalari – ko'pgina so'zlarning tovush tarkibini, ulardan foydalanishni o'zlashtiradi, so'zlar va gaplarning grammatik jihatdan o'zgarib borishi va hosil bo'lishi bilan bog'liq holda yuzaga kelayotgan ma'nolarning mazmunini tushuna boshlaydi. Nutq, dastlab ijtimoiy hodisa, muloqot vositasi sifatida yuzaga kelgan bo'lsa, asta-sekin atrof olamni anglash, faoliyatni rejalashtirish vositasiga aylana boradi.

Bola ulg'aygan sari murakkab bo'lgan til birliklarini egallaydi: lug'atni, frazeologik birikmalarni o'zlashtiradi, so'z tuzilishi, so'z o'zgarishi va so'z birikmasi, shuningdek, turli-tuman sintaktik birliklar qonuniyatlarini egallab boradi. Tilning ushbu vositalaridan u murakkablashib borayotgan bilimlarini o'zgalarga yetkazish, faoliyati jarayonida atrofni o'rab turgan insonlar bilan muloqotga kirishish uchun foydalanadi.

Nutqni tushunish, bola hali so'zlamasdan avval sodir bo'lib, o'z rivojlanishida turli bosqichlar (hajmiga ko'ra o'sib borish va sifat jihatdan o'zgarib boruvchi jarayonlar) ni bosib o'tadi. Nutqni tushunish deb ataluvchi jarayon tovush signaliga nisbatan reaksiya berish emas, balki uning ma'nosiga bo'lgan munosabatni bildiradi.

2-3 yoshdagi bolaning faol nutqi uning tajribasidan kelib chiquvchi va muloqot doirasidagi nutqdan iborat bo'lsa-da, nafaol nutqi nafaqat undovchi (topshiriqli) nutqni idrok etishni, balki atrof olamni idrok etish vositasi bo'lgan hikoya-nutqni ham tushunish imkonini beradi. 2 yoshga kirgan bolaning faol lug'at zaxirasi 250-300 so'zni (nafaol lug'atda) tashkil etadi. Bu davrda bolaning ma'noli nutqi ham rivojlanib boradi. U fikrlarini bir necha so'zlardan iborat bo'lgan sodda gap orqali yetkazishga erishadi. 3 yoshga kirgan bola faol lug'atining tarkibi 800-1000 ta so'zni tashkil etsa, 4 yoshga kirganida – 1500-2000 ta, 5 yoshga yetganida esa 2500-3000 ta so'zni tashkil etadi.

Nutq faqatgina atrofdegilar bilan muloqotga kirishish uchungina emas, balki eng avvalo, o'z ehtiyojlarini qondirish, o'rab turgan olamni anglash, o'z xatti-harakatlarini rejalashtirish uchun vositadir. Uni egallash voqelikni anglash usuli sanalgani bois, bolaning nutqiy faoliyati o'zgalalar bilan muloqoti va o'z fikrlarini bildirishi uchun yetarli sharoit yaratishida muhim hisoblanadi.

Bola tomonidan nutqning o'zlashtirilishi o'z tarkibiga bir necha bosqichlarni oluvchi murakkab jarayon bo'lib, dastlabki bosqich o'z ichiga murojaat etilgan nutqni tushunish (nafaol nutq)ni oladi. Ushbu davrning amaliy ko'rinishi bolaning aytilgan so'zga javoban xatti-harakatini bildiradi.

Bola nutqining tarkib topishi va rivojlanish jarayoni, va, eng avvalo, tilni egallashi hamda grammatik tizimining shakllanishi, asosan, turli-tuman ko'rinisdagi gaplarni o'zlashtirish orqali amalga oshadi. Ushbu jarayon o'z tarkibiga uch asosiy davrni oladi:

1) so'z-o'zaklardan tashkil topuvchi gaplarni o'zlashtirish davri. Bu davr ikki bosqichdan iborat bo'lib, o'z ichiga bir so'zli gaplarni hamda bir necha so'zlardan iborat (asosan, ikki so'zdan tashkil topgan) gaplarni o'zlashtirishni mujassamlaydi;

2) so'zlarni turlash va tuslash kabilarni o'zlashtirish bilan ajralib turuvchi tilning morfologik tizimini o'zlashtirish davri;

3) sintaktik kategoriyalar va ular tashqi ifodasining shakllanishi bilan bog'liq bo'lgan gapning grammatik tizimini o'zlashtirish davri.

Birinchi hamda ikkinchi davr o'rtasida keskin chegara mavjud bo'lib, ikkinchi va uchinchisining o'rtasida aniq chegara mavjud emas. Ushbu tashqi ko'rsatkichlar ichki ko'rsatkichlar bilan chambarchas bog'liq: so'zlarni o'zgartirish qonuniyatlaridan foydalanish malakasiga ega bo'lmay turib, gapni to'g'ri tuzish imkoniyatiga ega bo'lish mumkin emas. Chunki gap tuzishning asosini so'zlarni bog'lash emas, balki xususiy va umumiy grammatik ma'nolarning shakllarini o'zaro bog'lash modeli tashkil etadi. Tilning fonetik, leksik, grammatik qonuniyatlarini egallash uchun yuqori darajadagi eshitish o'tkirligi talab qilinadi. Oddiy sharoitlarda o'sib ulg'ayayotgan bolada eshitish yordamida atrofdegilar nutqidan asosiylarini ajratib olish ko'nikmalarining shakllanib borishi shunga o'xshash shaxsiy jumalarni tuza olish malakalarining shakllanishiga asos bo'ladi. Akustikani idrok etish nuqsoniga ega bo'lgan bolaning nutqi tovushlarni farqlash, grammatik shakllarni kuzatib borish, taqqoslash imkoniyatidan mahrum.

Qadimgi yunon faylasufi Arastu inson sezgi a'zolaridan birining mavjud bo'lmasligi yoki uning buzilishi yaxlitlik va butunlikni izdan chiqarib, uning umumiy rivojlanishiga yo'l qo'ymasligini alohida ta'kidlaydi hamda eshitish analizatoriga quyidagicha baho beradi: «Tovush fikrlash vositasi bo'lib, eshitish atrof olamni anglashning



muhim organidir. Shu bilan bog'liq ravishda aytish mumkinki, tug'ilgandan boshlab eshitmagan inson, tabiiyki, soqov bo'ladi».

Zamonaviy maxsus ta'lim tizimining nazariy asoschisi L.S.Vigotskiy eshitishning buzilishi oqibatida yuzaga kelgan soqovlik – insoniy nutqning mavjud bo'lmashligini keltirib chiqarsa, o'z navbatida, nutqni egallay olmaslik esa, umumiy madaniy rivojlanishga katta salbiy ta'sir ko'rsatishini alohida qayd etadi.

Eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni atroflicha o'rgangan R.M.Boskis eshitish analizatori funksiyasining nisbatan oz buzilishi – shivirlashni idrok etish imkoniyatining chegaralanishi ham bola nutqining me'yorda rivojlanishiga, buning oqibatida mantiqiy tafakkurining shakllanishiga to'sqinlik qilishini ko'rsatib o'tadi. Og'zaki ravon nutq kishilarning bir-birlari bilan muloqot qilish vositasi bo'lgan tashqi, ohangdor va talaffuz etiladigan nutq turiga mansubdir. N.D.Shmatkoning fikricha, ravon nutq kishilarning muloqotini va o'zaro bir-birlarini tushunishlarini ta'minlovchi mazmunan keng yoyilgan fikr bo'lib, og'zaki nutq «matnlar» bevosita so'zlash jarayonida yaratiladi, lekin eshitish faolyatining yo'qligi yoki qisman yo'qligi, nutqiy kamchiliklar maktab ta'limiga nutqiy tayyorlash jarayoniga to'siq bo'ladi.

L.S.Rubinshteynning ta'kidlashicha, og'zaki nutq bu vaziyatbop va kontekstli nutqdir. Nutq dastlab vaziyatli tusga ega bo'lib, bola ulg'aya borgani sayin nutqning tarkibi va vazifasi o'zgara boradi hamda ravon kontekstli nutq shaklini egallab boradi. Bolaning nutqi avval o'ziga eng yaqin borliq bilan chambarchas bog'liq bo'ladi: u kundalik turmushda bola mavjud bo'lgan va butunlay bog'liq bo'lgan vaziyatdan tug'iladi va unga to'liq bo'ysunadi. Shuningdek, bu nutq og'zaki shaklga ega bo'lib, suhbatdoshga qaratilgan bo'lishi hamda iltimos, istak, savolni bildirishi, ya'ni vaziyatli shaklga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

Ravon og'zaki nutqning dialogdan monologga qarab rivojlanishini o'rgangan N.I.Jinkin va M.I.Lisinalarning ta'rifiga ko'ra, dialogik nutq birlamchi va osonroq nutq shakli bo'lib, u vaziyatli hamda holat, suhbat mavzusiga bog'liq holda «qo'llab-quvvatlanadigan» ko'rinishga ega. Ya'ni dialog ikki yoki bir necha shaxslar tomonidan amalga oshiriluvchi nutqiy xatti-harakat bo'lib, bu paytda suhbatdoshlar o'rtasidagi o'zaro axborot almashish

jarayonida ular tomonidan imo-ishoralar, yuz ifodalari, nutq ohangidan ham foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi.

Bola tilning murakkab tizimini eshitish yordamida o'zlashtiradi: talaffuz malakalari – ko'pgina so'zlarning tovush tarkibini, ulardan foydalanishni o'zlashtiradi, so'zlar va gaplarning grammatik jihatdan o'zgarib borishi va hosil bo'lishi bilan bog'liq holda yuzaga kelayotgan ma'nolarning mazmunini tushuna boshlaydi. Nutq, dastlab ijtimoiy hodisa, muloqot vositasi sifatida yuzaga kelgan bo'lsa, asta-sekin atrof olamni anglash, faoliyatni rejalashtirish vositasiga aylana boradi.

Surdopedagogika tarixiga nazar tashlasak, turli davrlarda eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni tadqiqot obyekti sifatida o'rgangan pedagog va olimlardan J.Kardano, V.I.Fleri, J.Itar karlar orasida ma'lum miqdorda nutqni tushuna oladigan, kambag'al bo'lsa-da, so'z zaxirasiga ega bo'lgan bolalar mavjud bo'lsa, aynan shu bolalarni o'qitish orqali boshqa shu toifa bolalar ta'lim-tarbiyasining barcha muammolarini hal etish mumkin deb hisoblaydilar.

V.I.Fleri bola shaxsining shakllanishi uchun atrofidagi yaqinlari va, ayniqsa, onasi alohida g'amxo'rlik, e'tibor ko'rsatishlari zarurligi hamda kar bola nutqining rivojlanishi uchun ilk yosh davri alohida o'rin tutishini ta'kidlagan holda: «Kar-soqov bola qancha kichik bo'lsa, uning o'zlashtirish layoqati shuncha yuqori bo'ladi», - deb yozadi. Olim, shuningdek, dastlabki so'zlarni bola ko'rish asosida taqlidan o'zlashtirishi lozimligini alohida qayd etadi.

L.S.Vigotskiyning maxsus ta'lim mazmunini to'ldiruvchi qator asarlari kar bolalar maktablaridagi og'zaki nutqni rivojlantirishga mo'ljallangan mashg'ulotlar tashkil etish uchun asosiy manbalardan hisoblanadi. Jumladan, uning fikricha, bolalarga so'zlashuv nutqini o'rgatish usullari bolaning kundalik hayoti, uning qiziqishlari bilan bog'liq bo'lgan sharoitdan kelib chiqib tanlanishi aksincha bo'lsa, ya'ni nutqni ijtimoiy hayotdan ayro tarzda egallashni esa, olim qirg'oq bo'yida turib suzishni o'rganish holatiga qiyoslaydi.

Ijtimoiy muhit hamda uning tuzilishi har qanday tarbiya tizimining pirovard hamda hal qiluvchi omili ekanligini alohida qayd etadi: «Bola hayotini shunday tashkil etish lozimki, unga nutq zarur va qiziqarli bo'lsin. Ta'limni bola qiziqishlariga qarshi emas, ushbu

qiziqishlar tomon yo'naltirish lozim. Umuminsoniy nutqqa nisbatan ehtiyojni yuzaga keltirish zarur, shundagina nutq paydo bo'ladi. Nutq muloqotga kirishish va fikrlash asosida, murakkab hayotiy sharoitlarga moslashish natijasida yuzaga keladi».

L.S.Vigotskiy ushbu sharoitni yaratishda sog'lom (me'yordagi) bolani maktabga nutqiy tayyorlash bosqichlariga tayangan holda ish ko'rish lozim ekanligi haqida quyidagi fikrlarni bildiradi: «Birinchi o'ringa, eng avvalo, bolaning bola ekanligi va shundan so'nggina karsoqov ekanligi holati qo'yiladi. Bu shuni anglatadiki, bola, eng avvalo, umumiy qiziqish, layoqat, shuningdek, me'yordagi bola yoshi qonuniyatlariga muvofiq holatda o'sishi, rivojlanishi va tarbiyalanishi hamda xuddi shu jarayonda nutqni egallab borishi lozim. Bolalar o'zlarining muayyan sifat va ko'nikmalarini rivojlantirishga ehtiyoj sezishlari lozim. Ular o'zlarini boshqa ko'pchilik bolalar va kishilardan farqli ekanliklarini his qilmasliklari, ularga tenglasha olmasliklariga ishonch hosil qilmasliklari lozim».

V.I. Fleri eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar harakat ko'nikmalari xususiyatlarini ta'riflab, noto'g'ri koordinatsiya, harakatlarning ishonchsizligi kuzatilishini ta'kidlaydi. N.M. Logovskiy, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning eshitish idrokini faollashtirish va rivojlantirish mumkinligini e'tirof etadi. Ushbu olim karlikda ruhiy rivojlanish buzilishi kompensatsiyasida ko'ruv idrokining ahamiyatini alohida ta'kidlaydi.

Agar nuqson qanchalik erta aniqlanib, to'g'ri tashxis qo'yilib, kar bolaga e'tibor maxsus tashkil etilsa, nuqsonni bartaraf etish, bilinmaydigan holatga keltirish imkoniyati keng bo'ladi. Aksincha bo'lsa, ruhiy, jismoniy va ular bilan bog'liq holda aqliy rivojlanishi orqada qoladi, ya'ni bola ijtimoiy muhitdan cheklangan holda rivojlanadi. Bunda ota-ona va yaqinlarining e'tibori qanchalik kuchli bo'lmasin, maxsus yondashuv tashkil etilmas ekan, bolaning umumiy rivojlanishi orqada qolaveradi. Chunki eshitish idrokining vazifalari nihoyatda muhimdir. Kar bola nafaqat oddiy nutqiy tovushlarni, balki nonutqiy tovushlarni ham qabul qila olmaydi, qabul qilsa ham, farqlay olmaydi.

Shu bilan birga, kar bola ovozi, so'zli nutq mavjudligini, ular inson faoliyatini tashkil etishini, boshqarishini ham anglamaydilar. Natijada ular boshqalarning so'zlarini eshitmagach, o'zlari ham

so'zlarni talaffuz etishdek, gapirishdek oliy-ijtimoiy ne'matlardan bahramand bo'la olmaydilar. Demak karlik juda chuqur ijtimoiy sifatlarning shakllanishiga salbiy ta'sirini berganligi bois, kar bola jamiyatdan ajralib qolishi mumkin.

Bola ko'rib, ta'm, hid bilib, teri orqali sezib yashasa-da, bu harakatlar yashash uchun yetarli bo'lmaydi. Chunki ular atrofdagilar bilan muloqotga kirishmaguncha, axborot almashmaguncha eshituvchilar olamiga uyg'unlasha olmaydilar. Kar va zaif eshituvchi bolada nutqning shakllanish mexanizmini aniqlash uchun ichki nutq mohiyatini anglash muhimdir. Ichki nutq rus olimlarining tadqiqotlarida quyidagicha ta'riflanadi: ichki nutq fikrning iqtisodiy ta'minoti, inson ongi va aqliy faoliyati mexanizmi, nazariy va amaliy faoliyatni rejalashtirish demakdir.


*"Aynan eshitish va nutqiy sezish ichki nutqning hosil bo'lishi uchun asosdir. "o'zgalor uchun nutqdan o'zi uchun nutq" hosil bo'ladi" (A.S.Vigotskiy)*

Kar va zaif eshituvchi bolalarga so'zlashuv nutqini o'rgatish tovushni eshitib farqlashga moslashtirish bilan boshlanadi. Tovush bu ovozning ma'lum chastotalar bilan qandaydir predmetlar tebranishi natijasida hosil bo'ladi. Masalan, ko'pgina musiqiy asboblarning ovozi – tortilgan tor (skripka, gitara, pianino) yoki tortilgan teri (baraban, childirma) tebranishining natijasidir. Nutq bizning hiqildog'imizda ovoz boylamlari tebranganida hosil bo'ladi. Bunday tebranuvchi tovushlar havoda tarqalib bizning qulog'imizga kelib tushadi. Tovushlar balandligi (intensivligi) bo'yicha va yuqori chastotalar (tebranishi) bo'yicha farqlanadi. Tovushlar intensivligining o'lchov birligi desibel hisoblanadi. Chastotalarning o'lchov birligi gers hisoblanadi (1 daqiqada tebranishlar soni). Tovushlar chastotasi qanchalik katta bo'lsa (gers soni qanchalik ko'p bo'lsa), u shunchalik baland eshitiladi. Tovushlar quloq orqali qabul qilinib, eshitish markazi yordamida idrok etiladi.

Quloq 3 qismdan iborat: tashqi, o'rta va ichki quloq (1-rasm).

Tashqi quloqning deyarli barcha qismlarini ko'rish mumkin – bular quloq chig'anog'i, tashqi eshituv yo'li va tashqi quloqni ichki quloqdan ajratib turuvchi nog'ora pardadan iborat. Nog'ora parda

ortida o'rta quloq joylashgan – u unchalik katta bo'lmagan nog'ora bo'shliq bo'lib, u yerda bir-biri bilan ketma-ketlikda bog'lanib turuvchi 3 ta kichik suyakchalar bor. Bu suyakchalardan birinchisi (bolg'acha) nog'ora pardaga bog'lanib turadi, ohirgisi (uzangi) o'rta quloqni ichki quloqdan ajratib turuvchi oval oyna yupqa pardasiga bog'lanib turadi.



1-rasm.

Ichki quloq – quloqning eng kichik va eng muhim qismidir. U chig'anoq deb ham nomlanadi. Chunki u ko'rinishidan dengiz chig'anog'iga o'xshaydi. Ichki quloq suyuqlikka to'la, yerda maxsus plastinkada bir necha mingga teng ta'sirchan (tukli) xujayralar

joylashgan. Tukli xujayralar – bu turli chastotali tovushlarga javob qaytaruvchi eshituv reseptorlaridir. Bu xujayralar eshitilgan xabarlarini miya markaziga yetkazib beruvchi eshituv nervi bilan (31 ming to'lqinlardan iborat) bog'lanib turadi. Tashqi, o'rta va ichki quloq tuzilmasi tukli xujayralarga tovush tebranishlarini yetkazib berishni ta'minlaydi. Bunda tashqi eshituv yo'lga keluvchi tovush tebranishlari nog'ora pardaning tebranishiga olib keladi. Undan so'ng nog'ora pardadagi tebranishlar o'rta quloqdagi eshituv suyakchalari zanjiriga yetkazib beriladi. Bu zanjirdagi oxirgi suyakcha tebranishlarni oval oyna membranasi orqali ichki quloqqa uzatadi. Membranadagi tebranishlar chig'anoqdagi suyuqlikni harakatga keltiradi. Bu eshituv reseptorlari chig'anoqning tukli xujayralarining stimulyasiyasini chaqiradi. Natijada ular eshituv nervidan miyaning eshituv markaziga o'tuvchi kuchsiz elektr signallarni hosil qiladi. Bu markazda eshituv-nutqiy ma'lumotlar ishlab chiqarilishi, turli eshituv sezgilarining shakllanishi (musiqalar, nutq va boshqalar) hosil bo'ladi.

Eshituv sezgisining shikastlanganligi kar va zaif eshituvchi bolalarda nutqni eshitish, ma'no jihatini anglashni qiyinlashtiradi. Biroq ular ham jamiyatda yashaydi. Shuning uchun ularda atrofdagilar bilan muloqot qilish ehtiyoji tug'iladi.

Kar bola o'z sog'lom (eshituvchi) tengqurlariga nisbatan maktabgacha davrda juda tor va cheklangan muhitda muloqotda bo'ladi. Bunga sabab kar bola so'zlashuv nutqiga ega bo'lmaydi. Lekin kar va zaif eshituvchi bola atrofdagilar bilan muloqotda o'z «tilini» yaratadi. Bu til oila miqyosida shartli qabul qilingan imo-ishoralardan iborat bo'lib, juda kambag'al bo'ladi va aynan shu bola bilan doimiy muloqotdagi kamchilikni tashkil qilgan shaxslar uchungina tushunarli bo'ladi. Biroq oilada kar va zaif eshituvchi bolani so'zlashuv nutqqa jalb qilishga katta e'tibor berilishi, bu bolaning atrofdagilar nutqini tushunishi uchun ijobiy va unumli ta'sirini berishi mumkin.

Aksariyat kar va zaif eshituvchi bolalar 7-9 yoshlarida na og'zaki, na yozma ravishda bironta so'zni bilmagan va o'z ehtiyojini atrofdagilar bilan imo-ishoralari orqali qondirish imkoniyatiga ega bo'lgan holda maktabga keladilar. Ularning lug'ati 4-6 ta so'z dangina iborat bo'ladi.

Eshitish idroki buzilgan bola maktabga kelgach, o'zi kabi eshitmasligi tufayli gapirmaydigan bolalar jamoasida bo'ladi. Bolada so'zlashuv nutqiga ehtiyoj tug'iladi. Ehtiyoj bola uchun o'z fikrini atrofdagilarga ularning «tili» bilan yetkazishni taqozo etadi. Lekin muloqot tili o'ziga xos (oilada qabul qilingan shartli belgilardan iborat) bo'lganligi sababli bir-birini anglashi, tushunishi qiyin kechadi. Ularni umumiy mamlakat miqyosida maxsus qabul qilingan holat (daktil va imo-ishorali nutq)ga keltirish uchun maxsus yondashuv talab etiladi. Ya'ni kar bolalarga daktil va imo-ishorali nutq maxsus o'rgatiladi.

Karlarning imo-ishorali va daktil nutqiga tayangan holda barcha uchun muloqot vositasi vazifasini o'taydigan til-nutq o'rgatiladi. Bu jarayon maxsus yondashuvsiz amalga oshmaydi. Maxsus yondashuv, ya'ni kar bolalarga til o'rgatish jarayonini tashkil qilish, ularning yuqorida keltirilgan nutqiy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Daktil nutk eshitish imkoniyatining cheklanganligi bois mustaqil ravishda nutqni egallash imkoniga ega bo'lmagan bolalar va kattalar uchun qudratli vositadir. Daktil nutq oilada hech qanday maxsus ta'limiy-rivojlantiruvchi muhit yaratilmagan bolalar bilan o'qitish ishlarini olib borishda muhim choradir.

Chunki ushbu muloqot vositasi bolalarning lug'at boyligini oshirishga turtki bo'lib xizmat qiladi. U orqali bolalar matn yoki o'ziga qaratilgan nutqni o'zlashtirishga erishadilar. Ta'limning dastlabki davrida daktil nutq orqali kar bolalar olamni anglash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ushbu imkoniyat natijasida kar bolalarning umumiy rivojlanish darajasi bir necha barobar oshadi. Ruhij jarayonlar: sezgi, idrok, tafakkur, diqqat va xotira ustida ishlash uchun dastlabki mashqlarni bajarishda daktil nutqning ahamiyati kattadir.

Daktil nutq nima?, nutqmi yoki nutqiy shaklmi, yoki vositami? kabi savollar tarixdan ma'lum. Shunday savollar amaliyotda uchrasa-da, biroq ilmiy matnda, uslubiy lug'atda "daktil" so'zi bilan yondosh "nutq" so'zi birga qo'llaniladi. Chunki daktil nutq belgilar tizimidan tashkil topgan bo'lsa-da, u fikrni yetkazish va tushunishga, muloqotga xizmat qiladi.

Muloqotning asosini so'zlar, ularning ma'nolari hamda ularga nisbatan qayta aloqalar tashkil etadi. "Og'zaki nutqqa o'qitish kar va zaif eshituvchi bolalarni daktil shaklda egallagan va nutqiy muloqotiga kiritilgan so'zlarning talaffuzini egallashga majbur qiladi"-deb ta'kidlaydi T.K Korolevskaya.

Kar bolalar muloqotida qo'llaniluvchi yana bir nutqiy vosita bu imo-ishorali nutqdir. Ushbu nutq ham o'z vazifasiga ko'ra eshitmaydiganlar hayotida muhim o'ringa ega. Daktil nutqni ba'zilar imo-ishorali nutq bilan aralashtirishadi. Kar bolalar ta'limida imo-ishorali nutqning imkoniyati cheklanganligi bois, undan ko'ra daktil nutqning imkoniyatlaridan keng foydalaniladi. Agar ta'limning dastlabki davrida o'quvchilarda og'zaki nutqni rivojlantirish motivatsiyasini yetarlicha uyg'otishga erishilmasa, maydonga imo-ishorali nutq chiqadi. Daktil nutqidan savodi chiqmagan kar bolalarni o'qitishda imo-ishorali nutqning intensiv rivojlanishini oldini olish uchun keng qo'llaniladi.

Daktil alifbo - muayyan til alifbosida mavjud harflarning barmoq harakatlari yordamida ifodalanishi.

1903 yilda Ye.Juromskiy karlar uchun dastlabki nutqiy muloqot sifatida daktilologiyadan foydalanishni tavsiya qilgan.

1905 yilda Berlinda Shtern ko'zi ojiz kar Ye.Kellerning aqliy va nutqiy rivojlanishini tahlil qilgan holda daktil nutqning afzalligini ta'kidlaydi.

Daktil nutq kar va zaif eshituvchilar uchun ikki xil vazifani bajargandek bo'ladi. Chunki nutqning bu turi bir vaqtning o'zida ham og'zaki, ham yozma nutqni ifodalay oladi. Ma'lumki, yozma nutqda so'zlovchi gaplardagi har bir so'zni harflar orqali ifodalaydi. Daktil nutqda so'zlovchi ham so'zdagi har bir tovushni, ya'ni harfning barmoqdagi daktil ifodasini bajaradi, gapdagi hamma so'zlarni harflab barmoqlarida ifodalaydi. Lekin yozma nutqda yozilgan fikr qog'ozda aks etadi va qoladi. Daktilab aytilgan fikrni kar va zaif eshituvchilar barmoqlaridan o'qib tushunadi, lekin undan iz qolmaydi. Demak bu jihatdan daktil nutq og'zaki nutqni ifodalaydi.

Eng muhimi - o'quvchi bu nutqni og'zaki va yozma nutqni qanchalik egallaganiga bog'liq bo'lmagan holda o'zlashtiradi.

Daktil nutq orqali bola o'z xohishi, istagi, iltimosini ifoda etadi va shu o'rinda daktil nutqni qo'llay oladigan atrofdagi insonlar fikrini tushunadi. Tayyorlov sinfiga kelgan bola daktil belgilarni juda tez va hatto darsdan tashqarida ham o'zlashtiradi. Shuning uchun o'qitishning dastlabki davrida daktil nutq so'zlashuv nutqining bir turi sifatida xizmat qiladi. Bu esa, kar va zaif eshituvchi bolalarda so'zlashuv nutqini muloqot vositasi sifatida shakllantirishga, atrofdagilar bilan nutqiy muomalani o'rnatishga imkon beradi.

Agar kar va zaif eshituvchi bolalarga til o'rgatishda birdaniga yozma yoki og'zaki nutqdan foydalanilsa, ularning so'z-mantiq tafakkuri rivojlanishi, nutqni egallash jarayonlari sekinlashadi.

Daktilaganda bir belgidan ikkinchi belgiga o'tish, ya'ni barmoq kinesteziyasi bolalarning nutqni egallashlarida muhim ahamiyatga egadir. Qo'l harakatlari orqali so'zni tafakkur qilish yetarlicha rivojlanmagan nutqiy organlarning nuqsonli harakatini kompensatsiyalovchi vositadir. Eshituvchilarning eshitish sezgisi qanchalik o'z nutqini boshqarish imkonini bersa, kar va zaif eshituvchilar uchun esa, bu vazifani barmoq harakatlari (daktillash) bajaradi.

Daktil nutqqa o'qitish bilan bir qatorda, o'quvchilarni og'zaki va yozma nutqqa o'rgatish sodir bo'ladi.

"Og'zaki nutqqa o'qitish o'quvchilarni daktil shaklda egallagan va nutqiy muloqotiga (lug'atiga) kiritilgan so'zlarning talaffuzini egallashga majbur qiladi", -deb ta'kidlaydi B.D. Korsunskaya.

Artikulyasiyaning rivojlanishi tovush talaffuzi va nutqiy kinesteziyaning mustahkamlanishi og'zaki nutqning daktillashsiz qo'llanilishiga olib keladi. Og'zaki nutqdagi xatoni tuzatish tovush talaffuzining namunasini ko'rsatish va tegishli daktilema bilan ifodalash, ya'ni so'zning tovush-harf tarkibini talaffuz qilish bilan birga daktillash orqali amalga oshiriladi.

Daktil nutqni egallash o'qish va yozishni egallashga yordam beradi. Daktil yordamida gapirganda o'quvchi o'qish va yozish malakalarining asosini tashkil qiluvchi jarayonni -so'zning analiz-sintezini amalga oshiradi. Barmoq harakati orqali so'zni qabul qilganda o'quvchi so'zning grafik ifodasini emas, balki daktil shriftlar (belgilar)ni o'qiydi. Sekin-asta daktil shriftlar harflar bilan almashtiriladi. O'quvchilar bosma harfli so'z, jummalarni daktillash orqali o'qiy boshlaydi. So'zning harfli tarkibini egallash og'zaki nutq ustida ish davomida ham olib boriladi, ya'ni har bir talaffuz qilingan tovushga tegishli harf ko'rsatiladi. Yozuvni egallash ham so'z tarkibini analiz-sintez qilishsiz amalga oshmaydi. So'zlarni yozganda bolalardan daktillagan har bir harfning grafik ifodasini bilish talab qilinadi. Kar va zaif eshituvchi o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirish ham ta'limning dastlabki kunlaridan boshlanadi. Ular muloqotni egallash jarayonida tilning leksik va grammatik tizimini o'rganadi.

Eshitishning yo'qligi yoki nuqsonliligi talaffuz malakalarini shakllantirish va og'zaki nutqni qabul qilish bo'yicha maxsus ishlarni amalga oshirishni talab qiladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida ovoz kuchaytiruvchi apparatlardan foydalanish o'qituvchining nutqini eshitib-ko'rib qabul qilish imkonini beradi. Kar va zaif eshituvchi bolalarda og'zaki so'zlashuv nutqini rivojlantirishning bir jihati axborotni qabul qilish, ya'ni atrofdagilar nutqini anglash bo'lsa, ikkinchi tomoni o'z fikrini talaffuz qilish, ya'ni axborotni og'zaki tarzda yetkazish hisoblanadi.

Surdopedagogika tarixining har bir davri vakillari shuni ta'kidlaydilar, kar va zaif eshituvchilar tomonidan og'zaki nutq faqat ko'rish orqali qabul qilinadi. Bunda nutqiy organlar harakati nazarda tutiladi. Kar va zaif eshituvchi bolalar labdan o'qiganda nutqiy organlarning alohida nutqiy harakatlariga tayanib emas, balki so'zni butun kontekstda qabul qiladi.

Bunda fikrlash qobiliyati muhim rol o'ynaydi. Bu o'rinda shuni ta'kidlash lozimki, labdan o'qishning sifati bola nutqining rivojlanish darajasiga bog'liqdir. So'zlashuv nutqning rivojlanish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, labdan o'qish malakasi shunchalik aniq bo'ladi.

S.A.Zikov tomonidan tilga o'qitishning muloqot (kommunikativ) tizimi yaratilgandan so'ng kar va zaif eshituvchi bolalarda labdan o'qish malakasi daktil nutqqa tayangan holda shakllantirildi.

Daktillash artikulyasion harakatlari ko'rinmaydigan tovushlar mavjud bo'lgan so'zlarni qabul qilishni ham yengillashirdi. Nutqiy materialning tushunarligi uning og'zaki talaffuziga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

L.S.Vigotskiy: "Karlar uchun havoda yozish (daktillash)-madaniy rivojlanish uchun yo'l, ya'ni u orqali qayerda organik rivojlanish uchun imkoniyat bo'lmasa, shu yerda madaniy rivojlanish uchun chegarasiz yo'l ochiladi"-deb hisoblasa, "Kar bolaning og'zaki nutqi tilning grammatika va leksikasini o'zlashtirish uchun asos bo'la olmaydi. Bunday imkoniyatni karlarga so'zlashuv nutqning yozma va daktil shakli yaratadi", - deb ta'kidlaydi F.F.Rau.

S.A.Zikov shunday ta'kidlaydi: «Kar va zaif eshituvchi bola dastavval nutqiy materialni birdaniga 2 shaklda, ya'ni daktil va og'zaki, so'ngra faqat og'zaki shaklda qabul qilishga o'rgatiladi va bunda labdan o'qishga o'rgatishning asosiy yo'nalishi belgilanadi».

1970-yillarda olib borilgan kuzatishlar bu yo'nalishga tuzatishlar kiritadi. L.P.Nazarovanning kuzatishlarida kar va zaif eshituvchi bolaning eshitish qoldig'ini rivojlantirish imkoniyati va hatto chuqur nuqsonli eshitish ham bola nutqining shakllanishida muhim rol o'ynashi isbotlangan, ya'ni xar qanday kar inson ma'lum miqdorda eshitish imkoniyatiga ega. Biroq bu imkoniyat maxsus ta'sir asosidagina «eshitish» mazmunini kasb etadi.

Kar va zaif eshituvchi o'quvchilar eshitish qobiliyatini rivojlantirish ishining asosiy vazifasi - eshitish qoldig'ini maksimal rivojlantirish, og'zaki nutqni ko'rib-eshitish asosida nutqiy eshituvni shakllantirish hisoblanadi. U so'zlashuv nutqiga imo-ishora nutqiga nisbatan yaqindir. U yozma harakatga ko'ra yozma nutqqa o'xshab ketadi. Uning vositalari grafik belgilar-harflar emas, balki qo'l,

barmoq harakatlari hisoblanadi. O'zbek tilining har bir harfi o'zining harakatli ifodasiga egadir.

Muloqotda daktildan foydalanish-og'zaki nutqni o'zlashtirishda ko'makchi vosita xolos. Ma'lum vaqt o'tib, maxsus yondashuvlar orqali bolaga tovushlar talaffuzi o'rgatildandan so'ng, qo'l harakatlari bilan birga barobar ravishda og'zaki nutq iste'mol qilinadi. Natijada eshituvchilar olamiga kar va zaif eshituvchilarning kirib borishi uchun zamin yaratiladi.

Daktillash nutqni ham og'zaki, ham yozma shaklda egallashga ko'maklashadi. Daktil belgini nafaqat idrok etish, balki tovushga qaraganda qayta yaratish ham ancha oson. Xatto ikki yarim yoshli bola ham daktil alifbosini o'zlashtira oladi. Uch yoshli bolalar uni 15-30 kunda o'zlashtiradi. Bu juda muhim, chunki bu tarzda bolaga so'z yordamida murojaat qilish, eshitadigan bolaga istalgan predmetni aytish mumkin. Bu jarayon so'zni ovoz chiqaribgina emas, balki barmoqlar yordamida «talaffuz qilish» hisoblanadi.

Tarixdan imo-ishorali va daktil nutqlariga qarshi fikrlar bildirilgan. Bolalarni daktil nutqqa o'rgatmasdan sof og'zaki nutqqa o'rgatish tajribasi ham amaliyotda o'z samarasini bergan. Agar sof og'zaki metod ustuvorlik qilsa, unda:

-kar va zaif eshituvchilarga ma'lum so'zni o'rgatish uchun uzoq muddat talab etiladi;

-ta'lim mazmuni faqatgina kundalik hayotda zarur tushunchalardangina tashkil topishiga to'g'ri keladi.

Daktillash jarayonida so'zlashuv nutqining barcha qoidalariga amal qilinadi. Ta'limning dastlabki davrida kar bola daktilologiyaga savod o'rganish uchun murojaat qiladi. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, daktilologiya eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar ona tilini ilk egallash davrida yetakchi yordamchi vosita bo'lib xizmat qiladi.

Hazariya va amaliyot to'qashuvi uzoq yillar davom etdi

Amaliyotda ikki xil qarash ustuvorlik qildi: Darsda imo-ishorali nutqdan foydalanish ta'qiqlanadi. Chunki bolalar faqat shu vositaga o'rganib qolib, og'zaki va yozma so'zlashishga intilmay qo'yadilar.

Imo-ishorali nutqdan foydalanish nechog'lik rasman ta'qiqlansa-da, biroq hech bir o'qituvchi, tarbiyachi dars va mashg'ulotda imo-ishoralarsiz o'quvchilarga ma'lumotlarni yetkaza olmasliklari kuzatib kelindi.

Natijada imo-ishorali nutqdan norasman tarzda qo'llanilib kelindi.

Dars va mashg'ulotlarda og'zaki-daktil-labdan o'qish ustuvorlik qiladi. Qachonki, bola so'zning ma'nosini ham, imo-ishoradagi belgisini ham, tovushli-xarfli tarkibini ham to'liq anglagan bo'lsagina uning nutqiy zaxirasi boy bo'ladi.

Kar bolalar o'zi kabi eshitmaydiganlar bilan suxbatlashganda imo-ishoralardan to'g'ri va savodli foydalanishga hamda sog'lom insonlar bilan muloqot qilganda mumkin qadar og'zaki, iloji bo'lmaganda yozma ravishda qisqa va lo'nda so'zlashishga o'rgatish lozim. Shundagina kar bolalar ta'limni egallash hamda ijtimoiy hayotga moslashish ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

Hayotda o'z isbotini topgan hayotiy xulosa

Daktil nutqi imo-ishoradan tubdan farq qiladi. Uning yordamida so'zni aniq yetkazib berish mumkin, gaplar xuddi yozilgani, yoki aytilgani kabi quriladi. Farqi shundaki, mimika o'rgatilmasa ham, xatto undan foydalanishni ta'qiqlashsa ham ulardan kar bolalar foydalanaveradilar. Chunki mimikali nutq asrlar davomidagi avlodlar o'rtasidagi madaniy muloqot vositasiga aylanib bo'lgan quroldir.

Mimika-so'zni bilmaganlar uchun muloqotning yagona usuli. Daktil nutqli muloqot esa nutqiy muloqotga

Mimikali nutq shartli oilada qabul qilingan belgilardan tashkil topsa, u juda kambag'al va uning ta'sir maydoni tor bo'ladi. Umumqabul qilingan butun respublikada yaxlit bir xil va albatta yaqin chegaradosh davlatlarda qabul qilingan imo-ishorali belgilardan foydalanish tajribalarini tiklash lozim.

Eng muhim shart

Daktillashni yaxshi egallagan o'quvchilar so'zning tovush-xarf tarkibini to'liq egallaydi. Ularda so'zning tovush va daktil obrazi o'rtasida shartli aloqalar o'rnatiladi. Lekin so'zning talaffuzi uning belgisi, ya'ni yozuvidan uzoqlashsa, unda so'zning tovush tarkibini o'rganishga daktil yordam beradi. Daktil va yozma nutqning o'zaro munosabati juda murakkabdir. Kar bola og'zaki nutqqa ega bo'lmaganligi uchun savodga o'rgatish davrida daktilologiyaga tayaniladi. So'ng bu jarayon bir vaqtda amalga oshadi, bola ham yozadi va daktillaydi. So'zlashuv nutqini egallash darajasiga ko'ra daktil kinesteziyalari asta-sekin o'z o'rnini artikulyator kinesteziyalarga beradi. Sog'lom bolalar kabi kar bola ham so'zni talaffuz etib, so'ng yozadi. Har bir tilning alifbosida nechta xarf bo'lsa, shuncha daktil belgi bo'ladi. Daktil alifboda xuddi harflar kabi 29 ta belgi mavjud. Har bir daktil belgi alifbo harfiga to'liq mos keladi. Daktil tasvirdagi ko'plab belgilar bosma va qo'lyozma harflarni eslatadi. Masalan, *o, l, m, s, sh*.

**Kar va zaif eshituvchilar muloqotida yana bir muhim nutqiy vosita bu imo-ishorali nutqdir.** Uni amaliyotda «mimika» deb ham atashadi. Bu nutqda so'z va xatto butun bir jumla bita ishora bilan «aytiladi». Bunda predmetlar va harakatlarni ifodalashda ishoralardan, yuz imosidan foydalaniladi. Imo-ishoralar lisoniy nutqqa xos bo'lgan grammatik shakllarga ega emas, ya'ni turlanmaydi, tuslanmaydi.

Kar va zaif eshituvchi shaxslarning muloqot vositalaridan xabarsiz kishilar imo-ishora va daktil nutqining o'xshashligini ularning qo'l, barmoq harakatlaridan tashkil topganida deb talkin etadilar. Biroq bu o'rinda ham e'tiborliroq bo'lgan kuzatuvchi jiddiy tafovutlarni anglaydi va farqlaydi.

Insonda mavjud qaysidir sezgining yetarlicha vazifani bajarmaganligi boshqa sog'lom sezgidan ko'proq foydalanishga olib kelishi fiziolog, psixolog olimlar tomonidan isbotlangan. Ovozli nutqni tushunish imkoniyati bo'lmagan kar bolalarda ko'rib eslab qolish imkoniyati kuchli bo'ladi. Shu imkoniyatni e'tiborga olgan xolda olimlar XYIII-XIX asrlarda karlar ta'limiga barmok alifbosini kiritishgan. Bunda xar bir tilda kabul kilingan yozuvga mos barmok belgilari shakllantirilgan. Barmok belgilarining 50-60 %i xarf belgisini aynan ifodalagan, kolganlari esa, kisman aks ettirgan. Karlar biror so'zni aytmoqchi bo'lsa, uni guyoki barmoqlari bilan

yozadi. Tinglovchi esa, uni o'qiydi. Shu sababli daktil nutk deb yuritiluvchi nutqning bu turi bir jixatdan aynan yozma nutqni ifodalaydi. Chunki so'zlovchi gapdagi, so'zlardagi har bir xarf va belgini barmoqlarida ifodalab beradi, undagi barcha imloviy tartibni aks ettiradi. Tinglovchi esa uning har bir so'zini o'qiydi, xatto xatosini ham topadi va so'zlovchining fikrini tushunadi. Bunda daktil nutq qo'l barmoqlari bilan bajariladi, tinglovchi o'qiydi va shu bilan jarayon tugaydi, iz kolmaydi. Demak, bu jihatdan daktil nutq og'zaki nutqqa yaqinrok deyish ham mumkin.

Daktil nutqdan foydalanuvchi faqat bitta qo'l barmoqlaridan foydalanadi (ayrim mamlakatlar, masalan Angliyada daktil nutq har ikkala qo'l barmoqlari yordamida ifodalanadi). Imo-ishora nutqida ikkala qo'l qatnashadi. Imo-ishora nutqida so'zlovchi harflarni emas, balki turli ishoralarni o'ziga xos kuchli yuz ifodasi bilan ifoda etadi. Biroq og'zaki nutqqa ega bo'lgan va nutqiy tafakkuri rivojlangan karlarning mimikasini savodi chiqmagan kishilar, ayniqsa, nutqni egallamagan kichik yoshdagi kar bola mimikasidan farqlash kerak.

Eshitmaydigan, biroq labdan o'qiydigan va og'zaki gapirishga o'rgangan kishilar uchun imo-ishorali (mimika) nutq o'ziga qaratilgan murojaatni tezroq va osonroq idrok etish va boshqalarga o'z fikrini yetkazishda qulay vositadir. Shuning uchun kar va zaif eshituvchi bola og'zaki nutqni qanchalik egallamasin, o'ziga o'xshagan insonlar bilan imo-ishorali nutq orqali muloqot qilishga moslashadi. Mazkur muloqot ular uchun ona tilida so'zlashish kabi tan olinadi. Nutqni egallagan karlar uchun imo-ishoralar nutqni yaxshirok tushunishga yordam beradi. Imo-ishoralar og'zaki so'z bilan birga qo'llanilganda, ular go'yo kattalashtiruvchi oyna vazifasini o'taydi. Mimikali nutq qurilishi bu xolda og'zaki nutq qurilishiga bo'ysundiriladi, so'zni idrok etishga ko'maklashadi.

Daktil nutqdan foydalanish so'zlarning ma'nosini tushunish, tilning grammatik qurilishini egallash demakdir. Daktillash nutqni ham og'zaki, ham yozma shaklda egallashga ko'maklashadi. Daktil belgini nafaqat idrok etish, balki tovushga qaraganda qayta yaratish ham ancha oson. Xatto ikki yarim yoshli bola ham daktil alifbosini o'zlashtira oladi. Uch yoshli bolalar uni 15-30 kunda o'zlashtiradi. Bu juda muhim, chunki bu tarzda bolaga so'z yordamida murojaat qilish, eshitadigan bolaga istalgan predmetni aytish mumkin. Bu jarayon so'zni ovoz chiqaribgina emas, balki barmoqlar yordamida

«talaffuz qilish» hisoblanadi. Bunda bola har bir soʻzning harf tarkibi va grammatik qurilishini aniq idrok etadi. Shu tariqa uni nutqqa va muloqotga oʻrgatish boshlanadi. Bunda xuddi eshitadigan boladagiga oʻxshash jarayon kechadi. Vaqt oʻtishi bilan, tovushlarni talaffuz qilishga oʻrgangan bola barmoqlari yordamida «ayta oladigan» soʻzlarini va iboralarini ogʻzaki shaklda ham qoʻllaydi.

Daktil nutq imo-ishoradan tubdan farq qiladi. Uning yordamida soʻzni aniq yetkazib berish mumkin, gaplar xuddi yozilgani, yoki aytilgani kabi quriladi. Yana bir farq shundaki, mimikadan bolalar ularni oʻrgatishmasa ham, xatto buni taqiqlashsa ham foydalanaveradilar. Mimika-soʻzni bilmaganlar uchun muloqotning yagona usuli. Daktil nutq orqali muloqot nutqiy muloqotga tenglashtiriladi, uni maxsus oʻrgatish kerak.

Muloqotda daktildan foydalanish – ogʻzaki nutqni oʻzlashtirishda koʻmakchi vosita xolos. Maʼlum vaqt oʻtib, maxsus yondashuvlar orqali bolaga tovushlar talaffuzi oʻrgatilgandan soʻng, qoʻl harakatlari bilan birga barobar ravishda ogʻzaki nutq qoʻllaniladi. Natijada eshituvchilar olamiga kar va zaif eshituvchilarning kirib borishi uchun zamin yaratiladi.

Tarixda imo-ishorali va daktil nutqlarga qarshi fikrlar bildirilgan. Bolalarni daktil nutqqa oʻrgatmasdan sof ogʻzaki nutqqa oʻrgatish tajribasi ham amaliyotda oʻz samarasini bergan. Agar sof ogʻzaki metod ustuvorlik qilsa, unda:

-kar va zaif eshituvchilarga maʼlum soʻzni oʻrgatish uchun uzoq muddat talab etiladi;

-taʼlim mazmuni faqatgina kundalik hayotda zarur tushunchalardangina tashkil topishiga toʻgʻri keladi.

Oʻz-oʻzidan amaliyotda vaqtni yoʻqotmasdan, bolalarning umumiy rivojlanishi jarayonida bilish jarayonlarining barchasini safarbar qilgan holda ularning dunyoqarashini shakllantirish masalasini hal qilish talab etiladi. Tabiiyki, karlar taʼlimi tarixidan maʼlum va ilmiy asoslangan daktil nutqqa ehtiyoj tugʻiladi.

Eng avvalo, daktil nutq maqsad emas, balki bolalarda ogʻzaki va yozma shakldagi umumqabul qilingan nutqni shakllantirish vositasi sifatida foydalaniladi. Karlarni oʻqitish tizimi ularni nutqqa oʻrgatish maqsadini koʻzlaydi. Daktil nutqdan nutqiy tafakkurning rivojlanishini tezlashtirish, mimika rivojini cheklash uchun foydalaniladi. Bunga kar bolalar daktil belgilarni qanchalik erta

oʻzlashtirsa va daktil nutqdan foydalana boshlasa, shunchalik yaxshiroq erishiladi. Qolaversa, mohirlik bilan foydalanilgan daktil nutq ogʻzaki nutqning rivojlanishi, labdan oʻqishning sifatini oshirishga yordamlashadi.

Bolaning lugʻat zaxirasi kanchalik katta va umumiy rivojlanishi yuqori boʻlsa, bolaning labdan oʻqishi shunchalik osonlashadi, u nomaʼlum yoki labdan notoʻgʻri oʻqilgan soʻzning maʼnosini fahmlashi oson kechadi. Taniqli surdopedagog F.A. Rauning kuzatishlariga koʻra daktillash va labdan oʻqish xuddi telefonda gaplashish jarayoniga oʻxshaydi. Maʼlumki, telefon orqali hamma tovushlarni ham farqlab boʻlmaydi, biroq tanish soʻzlarda buni suxbatdoshlar his qilmasliklari mumkin, ular avval eshitib idrok qilingan tanish soʻzni suhbat kontekstidan kelib chiqib, aniq eshitmagan tovushni ham idrok eta oladi. Agar notanish soʻzni talaffuz qilinsa, uni harflab qayta aytishlari soʻraladi. Eshitib idrok qilish qiyin boʻlgan tovushning tanish boʻgʻinlarda aytilishiga erishgunga qadar bu jarayonni qayta-qayta takrorlash mumkin. Shu tarzda sogʻlom insonlar yangi soʻzni yoki yaxshi eshitib farqlanmaganligi uchun maʼnosi tushunilmagan soʻzni anglashiga erishiladi. Kar bolalarda ham shunday. Ular yangi soʻz bilan daktillash orqali tanishadilar, maʼnosini oʻzlashtirib, harf tarkibini egallaydilar. Boshqalarning talaffuzida shu soʻzni labdan oʻqiydi, aniq koʻrinmagan yoki umuman koʻrinmagan tovushlarni xotirasida mavjud maʼlumotlar bilan toʻldiradi. Gap shundaki, labdan oʻqiganda, talaffuz qilingan tovushlarning faqat bir qismini idrok qilish mumkin. **-a,- o,- u,- i,- e** - unlilari oson farqlanadi. **-p, -b, -m** kabi undoshlar **-t, -n,-d** yoki **-sh,- ch, -j** undoshlaridan hosil boʻlish oʻrni va usuliga koʻra farq qiladi. Biroq bu guruhlarning har birida harflar, masalan, **-p, -b, -m** koʻrinishidan bir xildek idrok etiladi. **k, g, x** undoshlari esa umuman koʻrinmaydi. Shu oʻrinda soʻz tarkibini toʻliq oʻzlashtirish imkonini beruvchi daktil nutqning ijobiy imkoniyatlari namoyon boʻladi.

Daktil nutqdan foydalanish tashqaridan qaraganda notabiiyligi bilan ota-onalarning noroziligiga sabab boʻladi. Biroq daktil nutq kar bola uchun noqulay boʻlgan muloqotning umumqabul qilingan shakli oʻrniga emas, balki atrofda gilarining eʼtiborini yanada koʻproq jalb qiladigan mimika oʻrniga taklif qilinadi. Ota-onalar daktil nutq talaffuz qilish jarayonini sekinlashtiradi, maʼlum maʼnoda zarar



yetkazadi deb hisoblaydilar. Buning sababi, aksariyat kar bolalarning daktillash orqali muloqotga o'rganib qolishi va ularning oson yo'ldan borib, og'zaki nutqdan foydalanmaslikka o'rganib qolishidir.

Ko'p yillik kuzatishlar bu xavotirlar asossiz ekanidan dalolat beradi. Bolalar daktil harakatlardan foydalanish bilan parallel tarzda talaffuzga o'rgatiladilar. Ular labdan o'qishni muntazam mashq qiladilar. Natijada ularning og'zaki nutqi mos tarzda rivojlanadi. Bolaning og'zaki nutqi qanchalik tushunarli bo'lsa, shunchalik daktilologiyadan kamroq foydalanadi. Shundagina u og'zaki nutqdan tez foydalana boshlaydi.

Biz tajriba-sinov ishlari jarayonida ota-onalar hamda pedagoglarning daktil nutkdan foydalanishga qarshi e'tirozlarini inkor etishga, ularning asossiz ekanini isbotlashga urinib ko'rdik. Keltirgan amaliy xulosalarimiz kar bolani o'qitishda daktil nutqning samaradorligi va uning zaruriy vosita ekanligini tavsiflaydi. Bu masala kar bola tarbiyasi bilan shug'ullanayotgan ota-onalar uchun juda muhimdir. Biroq og'zaki nutqning ahamiyatini anglab yetishning o'zi yetarli emas.

Kar bola bilan muloqot qiluvchilarning hammasi daktil alifbodan qanchalik to'g'ri foydalana bilishi jiddiy ahamiyatga ega. Kar va zaif eshituvchi bola bilan muloqotga kirishishning muhim pedagogik-psixologik sharti bu daktil belgilarni mohirlik bilan ko'rsata olish-daktillashdir. Buning uchun o'ng qo'l bilan daktillash kerak. Qo'l ko'krak qafasi darajasida tik tutiladi. O'ng tirsak o'ng biqinga yopishgan holda bo'ladi. Qo'l bilan «gaplashganda», asosan, barmoqlar harakatlanishi lozim. Bunda yozish va o'qish jarayonida umumiylik ko'zga tashlanadi. Bolalar so'zlarni daktillaganlarida yozuv jarayoni o'ziga xos tarzda takrorlanadi, uni idrok qilayotgan bola esa, o'qish jarayonini takrorlaydi. Yozuvda bo'lgani kabi so'zlarda xarflar alohida belgilar sifatida emas, balki yaxlit joylashadi (buning uchun harfni ko'rsatayotib, qo'lni xayolan keyingi belgi holatiga tayyorlash kerak bo'ladi). So'zlar orasida sukut kilinadi, u yozuvda bir so'zni boshqasidan ajratib turadigan bo'sh joyga mos keladi. Yozuvda xarflar chiziqda tekis yozilgani kabi, bu o'rinda ham qo'l bir xil darajada (balandlikda) bo'lishi, belgilar aniq va ravshan ko'rsatilishi kerak.

Daktillash texnikasini bolalarga taqlid asosida o'rgatiladi. Kar bolaning taqlid ko'nikmalarini rivojlantirish bilak, qo'l uchun oddiy jismoniy mashklardan boshlanadi. Bunda kaft harakatsiz, fakat barmoqlar harakatlanishi lozim.

**-i, -sh** kabi harflar kaftni yengil burish orqali namoyish etiladi. **/** ni ko'rsatilganda barmoqlar vertikal qo'yilishi shart emas, qo'lni gorizontal holatda saqlash mumkin, shunda bu belgini boshqa belgilar bilan adashtirilmaydi. Bir paytning o'zida ham gapirib, ham daktillash uchun qo'l, barmoqlar harakatlari texnikasi juda yaxshi rivojlangan bo'lishi talab kilinadi. Bir vaqtning o'zida ham talaffuz, ham daktillash amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Biroq xar bir xarfnig belgisi aniq bajarilishiga erishish talaffuzni biroz sekinlashtiradi. Daktillash talaffuzga yetib olishi uchun odatda kar bolalar so'zlarni bo'g'inlab (har bir bo'g'inda sukut saqlab) talaffuz kilishga urinadilar. Bu holat kar bolaning og'zaki nutqiga, labdan o'qishiga va yalpi talaffuziga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Daktilologiya atrofdagilar nutqini labdan o'qishda ham muhim vosita sanaladi. Chunonchi, ayrim tovushlar labdan yomon o'qiladi, shu vaqtda ularni o'qishda daktilologiyadan foydalaniladi. Labdan o'qish jarayonida daktilologiyadan foydalanish ham ijobiy samara beradi.

Hozirgi kungacha, amaliyotda o'quvchilar og'zaki nutqini rivojlantirishda quyidagi yondashuvlar qo'llanib kelinmoqda:

1. Butun ta'lim-tarbiyaviy-korreksion pedagogik jarayonda o'quvchilar o'qituvchilarning nutqini eshitish va eshitib-ko'rish orqali idrok etadi. Ya'ni darslarda o'quvchilarning og'zaki nutqi, talaffuz malakalarini shakllantirish maxsus usul va vositalardan foydalanilmagan holda amalga oshiriladi.

Talaffuzga o'rgatishning bu yo'li-nutq harakat organlarini faollashtirishga xizmat qilsa-da, biroq ayrim yengil yoki qo'pol talaffuz kamchiliklari mavjud holicha qolishiga to'g'ri keladi. Chunki darsning maqsad va vazifalari o'quvchilarga ma'lum mavzu bo'yicha ma'lumotlarni berish, ularni ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishni ko'zda tutadi. Dars jarayonining vaqt taqsimoti, usul va vositalari o'quvchilar talaffuzini to'g'rilash uchun maxsus belgilanmagani sababli bu yo'lni informal yo'l deb atash mumkin. Bu jarayonda o'qituvchi o'z diqqatini bolaning nutq tovushlari

talaffuziga emas, balki ovozig, nafasiga, nutkning bog'lanishiga qaratadi.

O'quvchilarning talaffuzi atrofdegilarga tushunarli darajada shakllanishiga erishish uchun birgina bu yo'ning o'zi kifoya emas.

2. O'quvchilarning eshitish qobiliyatini o'stirish va talaffuz malakalarini shakllantirishning maqsadli va aniq reja asosida olib borilishini ta'minlash. Bu yo'l maxsus korreksion mashg'ulotlarning tashkil etilishi orqali amalga oshiriladi. Ushbu mashg'ulotlar amaliyotda "Yakka mashg'ulot" deb nomlanadi. Bunday nomlanishining sababi mashg'ulot o'qituvchi va bir nafar o'quvchining faoliyatiga tayanilishidadir. Yakka mashg'ulotlar har bir o'quvchining hususiyatidan kelib chiqqan holda olib boriladi. Bunda bolaning individual hususiyati, undagi muammoning darajasi hamda oqibatida kelib chiqqan ikkilamchi muammolar darajalari inobatga olinadi. Har bir mashg'ulot reja asosida tashkil etiladi. Ushbu mashg'ulotlar o'quvchilarda nutqiy ovoz, nafasni hosil qilish vazifasini bajaradi. Fonetik mashqlar davomida bolalar tovushlar, so'z va iboralarni talaffuz qilishga o'rganadilar. Talaffuzni shakllantirish, nutqning aniqligini rivojlantirishda musiqali ritmika mashg'ulotlarining ham ta'siri kattadir.

Rossiya olimi R.Boskis eshitmaydigan bolalarni pedagogik jihatdan o'rganishda quyidagi omillarni inobatga olish kerakligini tavsiya qiladi:

-eshitishning buzilganlik darajasi (karlik, zaif eshituvchilik yoki kech kar bo'lganlik);

-eshitish analizatori nuqsonining yuzaga kelish vaqti (bola necha yoshda eshitishni yo'qotgani);

-eshitish analizatori faoliyati buzilganidan keyin bolaning qanday pedagogik sharoitlarda bo'lgani;

-bolaning individual xususiyatlari (psixologik jarayonlar faoliyati).

Sanab o'tilgan omillarning har biri bolalar nutqini baholashda katta ahamiyatga ega. Eshitishning pasayish darajasi va nutqning rivojlanishi bevosita bog'liqdir. Bolaning eshitishi qanchalik pasaygan bo'lsa, nutq shuncha ko'p zarar ko'radi. Eshitish pasayish darajasi sezilarli bo'lmasa, nutqdagi buzilishlar yorqin ifodalanmaydi. Eshitish pasayishining yuqori darajasida bola maxsus ta'limning boshlanishigacha soqov bo'lib qolaveradi.

Eshitish pasayishining o'rta darajasida nutqning fonetik, leksik, grammatik tomonida buzilishlar kuzatiladi. Eshitish bola hayotining turli bosqichlarida buzilishi mumkin. Nuqsonning ikkilamchi ko'rinishlari mavjud yoki mavjud emasligi vaqt omili bilan bog'liq. Nuqson qancha erta yuzaga kelsa, u nutqiy funksiyaning shakllanishiga shuncha ko'p ta'sir o'tkazadi. Ikki yoshgacha bo'lgan, nutq shakllanmagan davrda kar bo'lib qolish nutqning mavjud bo'lmasligiga olib keladi. 3-3,5 yoshgacha davrda eshitishning yo'qotilishi shakllangan nutqning yo'qotilishiga olib keladi. 4-5 yoshda eshitish to'lig'icha yo'qotilsa, maxsus ta'lim o'z vaqtida boshlanmasa, nutq deyarli to'liq boy beriladi. 6-7 yoshda eshitishni yo'qotish bola nutqning keskin buzilishiga olib keladi, maxsus pedagogik yordamsiz esa, bolaning nutqi asta-sekinlik bilan yomonlashib boraveradi. Bola 7 yoshdan keyin eshitmay qolsa, savod egallash ko'nikmalari bo'lsa, nutq saqlanib qolinishi mumkin, buning uchun tizimli korreksion ish olib borish talab qilinadi.

Eshitish qisman boy berilganda bolalarda vaqt omili muhim sanaladi. Bunday vaziyatda eshitish qoldig'i bolaning yoshi bilan bog'liq holda nutqning kelgusi rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. 3 yoshgacha bo'lgan bolalarda eshitishning sezilarsiz pasayishi nutqning kechikishi yoki yetarlicha rivojlanmasligiga olib keladi. 3 yoshdan keyin eshitishning qisman pasayishi nutqiy rivojlanishda u qadar jiddiy nuqsonlarni keltirib chiqarmaydi. Eshitishning pasayishi oqibatlarini bartaraf qilishga qaratilgan ham tibbiy, ham pedagogik chora-tadbirlar qanchalik erta ko'rilsa, bola shuncha muvaffaqiyatli rivojlanadi. Oilada nutqiy muhitning shakllantirilishi, eshitishni erta protezlash, nutqiy idrok va nutqni rivojlantirish bo'yicha maxsus ishlarni tashkil etish bolaning muvaffaqiyatli rivojlanishi va jamiyatga samarali uyg'unlashuviga ijobiy ta'sir qiladi.

Shaxs rivojlanishining individual xususiyatlari ham nutqning rivojlanishiga ta'sir o'tkazadi. Nutq egallash jarayonida bola shaxsining faolligi, tafakkur jarayonlarining harakatchanligi katta rol o'ynaydi. Me'yordagi ko'rish diqqati va xotira nutqiy nuqsonni kompensatsiyalash va nutqni rivojlantirishga ko'maklashadi.

Kar bolalarda nutqni shakllantirish maxsus o'qitish sharoitida sog'lom va qoldiqli analizatorlardan foydalanishga asoslanadi. Nutqni tushunishda ko'rib (labdan o'qib) va eshitib idrok etish,

kinestetik sezgi, taktil vibratsiyali (suyak orqali havo to'liqlarini sezish) sezgirlik faol jalb qilinadi. Kar va zaif eshituvchi bolaga nutqiy apparatni harakatlantirish, eshitib idrok etish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun mutaxassislarining kompleks yordami talab etiladi. Bu jarayon ovoz kuchaytiruvchi apparatlardan foydalangan holda yoki ularsiz amalga oshiriladi. Hozirgi kunda ovoz kuchaytirib beruvchi apparatlarning har xil turlari qo'llanilmoqda. Eng ko'p tarqalgani va qo'llanilayotgani bu cho'ntak apparatlaridir.

Agar bolaning eshitishi ma'lum darajada pasaysa, uning nutqini rivojlantirish tabiiy sharoitlarda amalga oshiriladi. Bola o'zida mavjud bo'lgan eshitish qoldig'ini ishga solgan holda nutqni qabul qiladi. Eshitishdan foydalanish uchun sharoit yaratilganida nutqning grammatik qurilishini o'rganish va mustaqil o'zlashtirish imkoniyati tezkorlik bilan ortadi.



#### Savol:

1. Eshituv nutqiy faoliyat deganda nima tushuniladi?
2. ENB bolalarning eshituv nutqiy imkoniyatlarini rivojlantiruvchi metodlarni klasterda yoriting
3. ENB bolalarning nutqini rivojlantiruvchi metodlarning yutuq va kamchiliklarini ochib bering
4. ENB bolalarning nutqini rivojlantirishga qaratilgan yana qanday metodlarni bilasiz? (ilmiy maqola yasang)

### 12. KAR VA ZAIF ESHITUVCHI BOLALAR TA'LIMI TARBIYASI IJTIMOYILASHUVIDA "1-4-5" STRATEGIYASI VA "YAGONA NUTQIY TARTIB"

**Tayanch tushunchalar:** *Strategiya, kar va zaif eshituvchi bolalar ruxiy rivojlanishining o'ziga xosligi ikkilamchi nuqsonlarni erta korrektsiyalash, ko'nikma va malakalariga qo'yiluvchi minimal talablarning belgilanishi qator nazariy ta'limotlar va amaliy tajribalar*

*Strategiya – bu uzoq muddatli maqsadga erishish uchun mo'ljallangan keng qamrovli reja yoki yo'l xaritasi.*

Imkoniyati cheklangan bolalarning ijtimoiy hayotga tayyor bo'lishi bir qator omillar, maxsus tashkil etilgan pedagogik shart-sharoitlar zahirida amalga oshiriladi. Ijtimoiy omillar bola yashab, rivojlanayotgan jamiyat va muhitdir. Ijtimoiy muxit shu jamiyatdan olingan me'yorlar, qoidalar, odatlar, ta'lim-tarbiya mazmunidir.



Avlodan-avlodga o'tadigan ijtimoiy tajribani egallash passiv idrok etish bilan emas, balki faol shaklda faoliyatning turli ko'rinishlari-o'yin, muloqot, mehnat, bilim olishda namoyon bo'ladi.

Bolalar bu tajribani kattalar yordamida egallaydilar.

Bugungi kunda jamiyatning shaxs oldiga qo'yayotgan talablari mazmuni, shakl-shamoyillari va ko'lami o'zgargan bo'lsa-da, kar va zaif eshituvchi bolalar mustaqil hayotda o'zgalarning yordamiga muhtoj bo'lmasligi uchun har davrda umumiy bo'lgan maishiy hayot uchun zarur ko'nikma va malakalarni egallashlari lozim. Mazkur ko'nikma va malakalar kar va zaif eshituvchi bolalarning umumiy rivojlanishi hamda individual hususiyatlarini hisobga olib tashkil etilgan maxsus korresion-pedagogik jarayonda egallanadi. Korresion-pedagogik jarayon qachonki, psixologik yondashuvlar bilan uyg'unlashuvi hamda innovasion texnologiyalar bilan boyitilsagina o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ma'lum bir nuqsonlarga ega bolalarning umumiy va ruhiy rivojlanishini o'rganish L.V.Vigotskiyning fikricha, shu nuqson tuzilishi, murakkablik darajasidan kelib chiqadi. Karlik bu birlamchi nuqson bo'lsa, uning oqibatida ikkilamchi, uchlamchi nuqsonlar yuzaga keladi.

Ta'lim jarayonidagi dastlabki to'siq bo'lib, birlamchi nuqson, ya'ni karlik yoki zaif eshituvchilik hisoblanadi. Karlik va zaif eshituvchilik bolalarning diqqati, xotirasi, tafakkuri va boshqa psixik jarayonlar rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Bola eshitmagani uchun gapirmaydi, gapirmagani uchun fikrlash doirasi cheklanadi, fikrlashi tor doirada bo'lganligi esa jamiyatga uyg'unlashishini

sekinlashtiradi. Bola tor doiradagi odamlar orasida o'ziga xos ijtimoiy qiyinchiliklar olamida qoladi. Ikkilamchi nuqsonlar tizimli xarakterga ega bo'ladi, funksional o'zaro munosabatlar tuzilishini o'zgartiradi.

*Strategiya — bu kelajakni shakllantirish va maqsadlarinigizga erishish yo'lida sizga yo'nalish berish uchun muhimdir. Unga rejalashtirish, tahlil va ijodiy fikrlashning kombinatsiyasi kiradi.*

Ikkilamchi nuqson qanchalik birinчисiga yaqin bo'lsa, uni korreksiyalash shunchalik murakkabdir. Masalan, eshitishida muammolari bo'lgan bolalar talaffuz nuqsoni eshitish buzulishi bilan bog'liq bo'lib, uni korreksiyalash mushkul vazifadir. Kar va zaif eshituvchi bolalar ruxiy rivojlanishining o'ziga xosligi ikkilamchi nuqsonlarni erta korreksiyalashga ehtiyoj tug'diradi. Ya'ni qanchalik kar va zaif eshituvchi bolalarda ikkilamchi nuqsonlarni bartaraf etish choralari ko'rilsa, shunchalik bola ertaroq ijtimoiy muhitning faol ishtirokчисiga aylanadi. Ayniqsa, psixik jarayonlar ustida maqsadli ish olib borilishi bolalarni ta'lim-tarbiya jarayoni talablarini to'laqonli egallashga tayyorlaydi. Shuning uchun kar va zaif eshituvchi bolalar maktabgacha va maktab ta'limi davrida ijtimoiy hayot uchun zarur ko'nikma va malakalarni egallash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Chunki maktabgacha va maktab ta'limi o'zining mazmuni va maqsadlariga ega jarayon sifatida defektolog mutaxassislar tomonidan tashkil etiladi. Bundan tashqari kar va zaif eshituvchi bolalar ta'limi mazmuni aynan shu toifa bolalarning o'ziga xos aqliy rivojlanish imkoniyatlari va psixologik hususiyatlariga mos shakllantiriladi. Mazkur toifa bolalar ta'lim muassasalari uchun maxsus o'quv rejalar ishlab chiqiladi. O'quv rejalarda umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan o'quv fanlaridan tashqari korresion fanlar aks etadi. Umumta'lim hamda korresion yo'nalishdagi jarayonlar maxsus ishlab chiqilgan yoki moslashtirilgan o'quv dasturlariga asoslanadi. O'quvchilar bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yiluvchi minimal talablarning belgilanishi qator nazariy ta'limotlar va amaliy tajribalarga tayanadi. Jumladan, L.S.Vigotskiy tomonidan ishlab chiqilgan "Dolzarb

rivojlanish zonasi" (o'quvchi oldin o'zlashtirgan ko'nikmalari va egallagan uquvlari asosida topshiriqni mustaqil bajaradi) va "Yaqin rivojlanish zonasi" (bola topshiriqni kattalar yordamida egallaydi) nomli ta'limot g'oyalari aynan o'quvchilar uchun o'quv topshiriqlarining tayyorlanishida muhimdir.

Fanlarni o'qitish va tarbiyaviy mashg'ulotlar jarayonida qulay psixologik ishchi muhitni yaratish pedagogdan qator kasbiy ko'nikma va malakalarni talab etadi. Ya'ni pedagogik jarayonning har bir bosqichi hamda daqiqasida bola oddiy ishtirokchi yoki hech narsani tushunmayotgan tomoshabin emas, balki o'quv materialini anglab, qayta ishlay oladigan faol ishtirokchi sifatida tan olinishi lozim. Kar va zaif eshituvchi bolaning o'z tengdoshlari davrasida tan olinishi, uning ijtimoiylashuvida muhim omildir. Buning uchun esa, avvalo u o'z-o'zini anglashi lozim. O'z-o'zini anglash bu karlikni tan olish va mumkin qadar "qodirlik"ka ega bo'lishdir. Buning uchun pedagoglar va bolalarning yaqinlari ularni havoyi havaslar olamidan real hayot sharoitiga olib kirishlari talab etiladi. Bu fikr kar va zaif eshituvchilarning kamsitilishini emas, balki ularning borligicha tan olinishiga erishish muhimligini taqozo etadi.

Predmetli amaliy ta'lim fanini o'qitishda

Shu nomdagi darsliklar mazmuniga sindirilgan interfaol o'quv topshiriqlari. O'quvchilarning turli faoliyatlari (o'qish, o'yin, ijodiy, nutqiy) samarali tashkil etildi. Natijada ularda o'z-o'zini nomoyon qilish, o'z-o'zini baholash, atrofda qilarga o'z fikrini tushuntirish ko'nikmalari shakllandi.

"O'quvchi didaktik muhit egasi"

Strategiyasi O'quvchilar buyum tayyorlash usuli va ish bosqichlarini tanlaydi va o'zi tuzgan reja asosida mustaqil ishlaydi. Natijada ularda iqtisodiy, gigiyenik, mehnat malakalari rivojlandi.

Atrofimizdagi olam fanini o'qitishda "1-4-5" strategiyasi

O'quvchilar har bir tushuncha-so'zni 4 ta shakl (og'zaki, yozma, daktil, imo-ishoralar)da, 5 ta holatda o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'lishdi. Natijada ularning nutqiy zaxirasi boyitildi.

Dars va mashg'ulotlar tashkiliy qismida shu nomdagi jadval asosida o'quvchilarning lug'ati ustida ishlanadi. "Yagona nutqiy tartib" g'oyasi ilk bor amaliyotda sinflar kesimida o'quvchilarning nutqiy zaxirasi darajasi (sonda)ni monitoring qilishga erishildi. Natijada o'qituvchilar o'rtasida sog'lom raqobat yuzaga keldi.

O'quv rejaga "Nutqiy muloqot" fani hamda tarbiyaviy mashg'ulotlar nomi alohida kiritildi. O'quvchilarning nutqiy imkoniyatlarini tizimli rivojlantirishga va tarbiyaviy mashg'ulotlarning respublika miqyosida yaxlit tizim asosida olib borilishiga erishildi.

Korresion mashg'ulotlarni tashkil etish jarayonida

O'quvchilarning talaffuzi va eshitishi ustida ishlashning yangi dasturiy ta'minoti yaratildi.

O'quv rejada shu mashg'ulotlar uchun ajratilgan bandidagi moliyalashtirish abzasi o'zgartirildi.

O'qituvchilarning mashg'ulotlarni rasmiylashtirishlarida alohida jurnal yuritish tartibi yo'lga qo'yildi. O'quvchilarning nutqiy rivojlanish dinamikasini yuritish yo'lga qo'yildi.

Respublikada mashg'ulotlar uchun ajratilgan soatlarni taqsimlash jarayoni qulaylashtirildi.

Tarbiyaviy mashg'ulotlarni tashkil etish jarayoniga Tarbiyaviy mashg'ulotlar nomiva ular uchun soatlar taqsimoti respublika miqyosida bir xillashtirildi.

"Ijtimoiy hayotga tayyorlash soati", "Kutubxona soati", "Refleksiya" mashg'ulotlari tatbiq etildi. Tarbiyachilarning faoliyatini monitoring qilish imkoniyati yaratildi. Darsdan keyingi vaqtlarni maqsadli tashkil etish orqali o'quvchilarda ijtimoiy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish imkoniyati kengaydi. Sinflar kesimida va o'quvchilarning yoshlariga mos mashg'ulotlar tashkil etish bo'yicha tarbiyachilar o'rtasida sog'lom raqobat muhiti yaratildi.

Keltirilgan innovasion g'oya va texnologiyalar hamda metodik tavsiyalar orqali o'quvchilarda ijtimoiy hayot uchun zaruriy ko'nikma va malakalarning intensiv shakllanishiga erishildi.

Ijtimoiy hayotga tayyor kar va zaif eshituvchi bola qanday sifatlarga ega bo'lishi lozimligini ko'rib chiqamiz.

### **1. Ilmiy, falsafiy, diniy dunyoqarashga ega bo'lish.**

Insonning dunyoqarashga ega bo'lishi, uning aqliy jihatdan o'sishiga bog'liq. Kar va zaif eshituvchi bolalarning aqliy faoliyati avloddan-avlodga o'tib keluvchi tajribalarni, tabiat qonunlari hamda jamiyatdagi munosabatlar mazmunini o'zlashtirishi uchun qo'yilgan har bir qadami zamirida amalga oshadi. Shu jumladan kar va zaif eshituvchi bola o'zini tabiatning bir bo'lafi, jamiyatning a'zosi

ekanligini o'quv fanlarida keltirilgan, ilmiy isbotlangan, tajribalarda sinalgan o'quv materiallari orqali anglaydi. Sog'lom bolalardan farqli ravishda kar bolalar afsuski, faqatgina maxsus tashkil etilgan dars va mashg'ulotlar jarayonidagina bilim, ko'nikma va uquvlarga ega bo'ladi. Ular ta'lim jarayonidan tashqarida nazariy ma'lumotlarni mustaqil ravishda o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'la olmayptilar. Chunki ularda manbalar bilan ishlash, axborotlarni tushunish, qayta ishlash va ulardan foydalanish uchun tayanch va hayotiy kompetensiyalar yetishmaydi. Shu sababli tadqiqot davomida "Predmetli amaliy ta'lim", "Atrofimizdagi olam" kabi boshqa umuta'lim fanlarini o'zlashtirishga zarur nutqiy zaxira va harakatlar ketma-ketligini egallash imkoniyatini beruvchi o'quv fanlari mazmuni takomillashtirildi. Shu fan bo'yicha darslar jarayonida interfaol usullar tatbiq etildi. Natijada kar va zaif eshituvchi bolalarda quyidagi sifatlarni intensiv shakllantirishga erishildi:

- o'quv fanlariga oid akademik bilimlarni o'zlashtirgan;
- o'zlashtirilgan bilimlarga asoslangan ukuvlarni egallagan;
- muayyan kasb-hunarga doir harakatlarni bajaradigan;
- huquqiy, ekologik madaniyatli;
- iqtisodiy savodxon.

Maxsus tashkil etilgan korresion-pedagogik jarayon hamda sog'lom bolalar ta'limiga yaqinlashtirilgan ta'lim mazmuni kar va zaif eshituvchi bolalarda ilmiy (o'quv fanlari mazmuni asosida), falsafiy (tabiat va jamiyat qonunlarini o'zlashtirish orqali), diniy (tarbiyaviy mashg'ulotlar jarayonida) dunyoqarashni shakllantiradi. Ushbu mezon o'quvchilarning o'quv fanlarini o'zlashtirish ko'rsatkichlari asosida tahlil etiladi. Kar va zaif eshituvchi bolalarning o'quv fanlarini o'zlashtirish ko'rsatkichi, ularda nutqiy zahiraning xajmi va ko'lami bilan baholanadi. Kar va zaif eshituvchi bolalarning atrofidagi yaqin kishilari va o'rtoqlari bilan muloqoti uning nutqiy faoliyatini yuzaga kelishiga turtki bo'ladi. U quyidagi bosqichda amalga oshadi:

1. Predmetning, voqeaning o'zi, rasmi yoki yozma va ekrandagi namoyishi.
2. Ko'rsatilganlarni nomlash (daktil va grafik bosma xarflarda va albatta og'zaki)
3. Nomlaganlarini nutqida qo'llash.
4. Mustaqil og'zaki yoki yozma shakllarda ifodalash.

## 2. Ma'naviy yetuk, ahloqan pok bo'lish.

Imkoniyati cheklangan bolalar shaxsining o'ziga xos xususiyatlari shuki, ularda ahloqiy tasavvurlar, tushunchalar, ijtimoiy motivlar, o'zlariga tanqidiy qarashlar yetarli darajada shakllanmagan bo'ladi. Chunki aksariyat imkoniyati cheklangan bolalar oilalarida ta'limiy va tarbiyaviy yondashuvlar yo'lga qo'yilmagan. Oilalarda imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan avaylash va rahmdillik nuqtai-nazari bilan qarash munosabati kuchli bo'ladi. Bunday munosabat imkoniyati cheklangan bolalarni hayot jabhalaridan chetda qolishiga olib keladi. Natijada imkoniyati cheklangan bolalarda sog'lom bolalardagi kabi muomala, muloqot, mehnat qilish, turli faoliyatlarda ishtirok etish ko'nikmalari rivojlanmay qoladi. Aynan mana shu jihat pedagog uchun qiyinchilik tug'diradi. Ya'ni pedagog-tarbiyachilar tarbiyaviy ishlarni imkoniyati cheklangan bolalarda oilalarda shakllanishi ko'zda tutilgan kundalik hayot uchun zarur oddiy elementar ahloq me'yorlarini shakllantirishdan boshlashi taqozo etiladi. Shuning uchun ham imkoniyati cheklangan bolalar umumiy ta'limi muddati sog'lom bolalar umumiy ta'limi muddatidan ko'p bo'ladi.

Hozirgi zamon bolasi ekologik ong, gigiyenik malakalar, iqtisodiy ko'nikmalar va huquqiy savodxonlikka ega bo'lmasa, mustaqil hayotda emin erkin xavfsiz harakatlanishi qiyin kechadi. Chunki tez rivojlanayotgan murakkab zamon shaxs oldiga qator talablarni qo'ymoqdaki, bularsiz inson o'z kelajagini, bu bilan bog'liq holda oilasi farovonligini ta'minlashi oson kechmaydi. Shuning uchun ham imkoniyati cheklangan bolalarning ta'limi va tarbiyasi masalasi davlat siyosatining alohida muhim yo'nalishi sifatida qaraladi. Maxsus ta'lim muassasalarida o'quvchilarning axloqiy tarbiyasi turmush va faoliyatning turli sohalarida amalga oshiriladi. Imkoniyati cheklangan bolalar oilada, tengdoshlari orasida, maxsus maktablarda, ko'chada ahloqiy ta'sirni sezadilar.

Kar va zaif eshituvchi bolalarda intizomga rioya etishni yuzaga chiqarish uchun muassasalarda tarbiyaviy mashg'ulotlarni samarali tashkil etish lozim. Intizomlilik murakkab xislatdir. Uni shakllantirish bir necha bosqichda tizimli amalga oshiriladi. Kichik yoshdagi o'quvchilarda oddiy bo'ysunishdan tortib, katta o'quvchilarda xulq talablarini ongli ravishda bajarishdan iborat. Aksariyat hollarda imkoniyati cheklangan bolalarning

muassasalarda yashab ta'lim olishini inobatga olganda ularning umumiy yashash qoidalariga rioya etishi muhim talablardandir. Kar va zaif eshituvchi bolalarda ma'naviy-ahloqiy sifatlarni shakllantirish nafaqat pedagoglar, balki psixolog, ota-onalar va bolalarning yaqinlari hamda hamkor tashkilotlar zimmasidagi vazifalardandir. Ya'ni muassasalarda tarbiyaviy ishlar maqsadli va psixologik yo'nalgan holda tashkil etilsa, kar va zaif eshituvchi bolalar jumladan quyidagi sifatlarni shakllantirish imkoniyati keng bo'ladi:

- milliy va umuminsoniy qadriyatlar hamda urf-odatlarini hurmat qiladigan;

-ahloqiy me'yorlarni anglagan va ularga rioya etadigan;

-Ona Vatanga sodiq, fidoiy, fuqarolik burchini xis qiladigan.

**3. Ruhan tetik, barkamol bo'lish.** Kar va zaif eshituvchi bolalarning psixologik rivojlanishida differensial va yakka yondashuvning ta'siri kattadir. Ma'lumki, dars va tarbiyaviy mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilar turli topshiriqlarni bajaradilar. Qachonki, o'quv topshiriqlari bolalarning uquvlari hamda nutqiy rivojlanish imkoniyatlaridan kelib chiqib tayyorlansagina, ta'lim jarayoni mashq maydoniga aylanadi. Agar aksincha bo'lsa, kar va zaif eshituvchi o'quvchi jarayondan zerikadi va xatto o'qishdan soviydi.

Shuning uchun tadqiqot jarayonida amaliyotga o'qitishning qator samarali texnologiyalari tatbiq etildi. Mazkur texnologiyalar orasida ta'lim jarayonini psixologik yo'naltiruvchi usul va vositalarga egalari quyidagilar: "O'quvchi didaktik muhit egasi" (mehnat ta'limi jarayonida qo'llanilgan (o'quvchi buyumni tayyorlash usulini o'zi tanlaydi)), "Nutqiy refleksiya" (har bir dars va mashg'ulotning tashkiliy qismida quyidagi mavzularda qo'llanildi: "Oila", "Mening do'stim", "Mening kelajagim", "Men fuqaro-shaxs", "Mening oilada va jamiyatdagi o'rnim"... ).

Korresion-rivojlatiruvchi vazifa esa, ham ta'limiy, ham tarbiyaviy vazifalar asosida nuqsonni tuzatish, yumshatishga yo'naltirilgan ijtimoiy ko'nikmalarni nazarda tutadi. Darsda egallangan bilim, ko'nikmalarni mustaqil ishlatishga oid malakalarni rivojlantiradi.

Quyida "Ijtimoiy hayotga tayyor o'quvchi" moduli va bunga erishishga yo'naltirilgan korresion-pedagogik ish tizimi keltiriladi.

Maxsus maktab-internatlarining kunduzgi uyquasi bor muassasalarning taxminiy kun tartibi asosida mashg'ulotlarning belgilangan vaqti va rejalashtirilishi

Maxsus maktab-internatlarining yuqori sinflarida kun tartibi asosida tarbiyaviy mashg'ulotlarni taxminiy rejalashtirish

15 00-1530	Bolalarni qabul qilish.
1530-1730	1-mashg'ulot: Mustaqil dars tayyorlash.
1730-1740	Tanaffus
1740-1815	2- asosiy mashg'ulot
1815-1825	Tanaffus
1825-1900	3-asosiy mashg'ulot : I.X.T.S.
1900-1930	Kechki sayr
1930-2000	Erkin sayr
2000-2030	Bolalarni uyquga tayyorlash

Maxsus maktab-internatlarining boshlang'ich sinflarida kun tartibi asosida tarbiyaviy mashg'ulotlarni taxminiy rejalashtirish

12 45-1300	Bolalarni qabul qilish.
1300-1330	Erkin mashg'ulot
1330-1400	Tushlik
1400-1420	Erkin mashg'ulot
1420-1620	1-asosiy mashg'ulot: mustaqil dars tayyorlash
1620-1630	Tanaffus
1630-1700	2-tushlik
1700-1710	Erkin sayr
1710-1745	2-asosiy mashg'ulot

1745-1755	Tanaffus
1755-1830	3-asosiy mashg'ulot
1830 - 1900	Erkin mashg'ulot
1900-1930	Kechki ovqat
1930-1940	Kechki sayr
1940-2010	4-asosiy mashg'ulot: I.X.T.S.
2010 - 2030	Bolalarni uyquga tayyorlash

Tushlik soat 15.00 da rejalashtirilgan maxsus maktab-internatlar kun tartibi asosida tarbiyaviy mashg'ulotlarning taxminiy rejalashtirilishi.

14 00-1410	Bolalarni qabul qilish.
1410-1430	Erkin sayr
1430-1500	Erkin mashg'ulot.
1500-1530	Tushlik.
1530-1730	1-mashg'ulot: mustaqil dars tayyorlash.
1730-1740	Tanaffus
1740-1815	2-mashg'ulot.
1815-1845	Kechki ovqat.
1845-1910	Erkin mashg'ulot.
1910-1945	3-mashg'ulot : I.X.T.S.
1945-2000	Uyquga tayyorlanish

Ushbu rejalashtirishlar har bir muassasaning ustavida tasdiqlangan kun tartibi asosida moslashtiriladi.

Mashg'ulotlarning yillik rejasi tegishli fan o'qituvchisi bilan hamkorlikda tuziladi. Ya'ni tarbiyachilar o'qituvchilar bilan maslahatlashgan holda haftasiga bir marta bo'ladigan mashg'ulotlar uchun haftasiga 2 yoki undan ortiq o'tiladigan darslarning uyga vazifa bandida ko'zda tutilgan vazifalarning qaysi biri ustida ishlash lozimligini aniqlashtirib oladi. Shu tarzda har bir mashg'ulot qaysidir bir fanning mantiqiy davomi bo'ladi. Bu holat shu fan

bo'yicha o'quvchilarning o'zlashtirishlariga fan o'qituvchisi bilan birdek tarbiyachi ham ma'sulligini anglatadi.

Quyida namunaviy mashg'ulotlar jadvalini keltiriladi.

Dushanba	1	Muloqot	Payshanba	1	O'yin
	2	Mustaqil dars tayyorlash		2	Mustaqil dars tayyorlash
	3	IHTS		3	IHTS
Seshanba	1	Amaliy mashg'ulot (texnologiya)	Juma	1	STO'-KUTUBXONA SOATI
	2	Mustaqil dars tayyorlash		2	Mustaqil dars tayyorlash
	3	IHTS		3	IHTS
Chorshanba	1	Yo'l harakati qoidalar / sayr	Shanba	1	Refleksiya
	2	Mustaqil dars tayyorlash		2	Tarbiyaviy soat
	3	IHTS		3	IHTS

#### Savollar:



1. Strategiya tushunchasiga izoh bering.
2. Pedagogik strategiyaning o'ziga xosligi nimada?
3. "1-4-5" strategiyasini izohlang.
4. "Yagona nutqiy tartib" nima?
5. Mavzu doirasida ENB bolalarni o'qitishda olib borilgan tadqiqotlarni klaster usulida yoriting.

### 13. KAR VA ZAIF ESHITUVCHI RIVOJLANISHIDA DAKTIL VA IMO-ISHORA NUTQINING IMKONIYATLARI

**Tayanch tushunchalar:** Yakka tartibda o'qitish, eshitish nuqsoni, ijtimoiy buyurtma, kar bolalar, o'qitish va tarbiyalash, etish va rivojlantirish, kar va zaif eshituvchi.

*Daktil bu- nutq tovushlari, ya'ni fonemalarining qo'ldagi ifodasi bo'lib, kar va zaif eshituvchi insonlarning muloqot vositalaridan biridir.*

Pedro Ponso De Leon o'z metodikasida nutqning turli: og'zaki, yozma, daktil va imo-ishora ko'rinishlarini qo'llaydi. X.P. Bonet (1579-1633) o'zining 1620 yilda yozilgan «Tovushlar tabiati va karsoqovni gapirishga o'rgatish san'ati» asarida karlarni o'qitish va tarbiyalashning o'sha davrdagi maqsad va vazifalarini ko'rib chiqar ekan, ularni so'zlashuv nutqiga daktil va og'zaki nutq orqali o'rgatish lozimligi haqida so'z yuritadi. U kar bolalarni maxsus ravishda tayyorgarlikka ega bo'lgan o'qituvchi o'qitishi, ta'lim jarayonida nutqni va aqliy faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan ishlar savol-javob shaklidan foydalangan holda olib borilishi alohida e'tiborli omil sifatida qaraydi. X.P. Bonnet g'oyalarining keyinchalik taraqqiyotiga Angliyalik J. Vallis (1616-1703) va J. Bulver, Shveysariyalik J.K. Amman (1669-1724), Niderlandiyalik F.M. Van Xelmont (1614-1699), Italiyalik F.L. Tersiy (1631-1687) kabi amaliyotchi olimlar karlarni o'qitishga alohida urinishlar sifatida o'z xissalarini qo'shdilar. E.R. Karrison (1579-1652) o'z zamondoshlari boy tajribasidan unumli foydalangan holda ularning g'oyalarini rivojlantirar ekan, karlar ta'lim-tarbiyasida taktik-vibratsiya sezgilariga hamda eshitish qoldig'iga tayangan holda ish olib boradi.

Yuqorida bayon etilgan karlarni yakka tartibda o'qitishga urinishlar eshitish nuqsoniga ega farzandlari bo'lgan zadogon oilalar ijtimoiy buyurtmasining mahsuli edi. Shu bois ta'limning buturi ijobiy tajribaga ega bo'lsada, ushbu toifa bolalari uchun o'quv muassasalarining tashkil etilishiga uzoq vaqt muvaffaq bo'linmadi. Faqat 14 asrning 70-yillaridagina kar bolalarni o'qitish va



tarbiyalash uchun maxsus muassasalar tashkil etish va rivojlantirish bo'yicha urinishlar yuzaga kela boshladi. 1770 yilda Fransiyada dunyo tarixida birinchi bo'lib Sharl Mishel de Epe (1712-1789) tomonidan Parijda xususiy maktab - kar-soqovlar instituti ochildi. De Epe tarixda Volter, Deni Didro, Jan Jak Russo kabi fransuz ma'rifatparvarlarining g'oyalari bilan yo'g'ritirilgan mimika (imo-ishora) metodining muallifi sifatida nom qoldirdi.

*Imo-ishora bu- kar va zaif eshituvchilarning eng qulay muloqot vositasi bo'lib, bunda qo'llarning turli shartli ishoralari orqali butun bir so'zni yoki so'z birikmasini ifodalash tushuniladi.*

Amaliyotchi olim o'qitish jarayonida asosiy e'tibor kar bolalarning har tomonlama: aqliy va jismoniy rivojlanishiga qaratish hamda ushba tizim kar bolani umumta'lim fanlariga oid bilimlarni o'zlashtirish, jamiyatda yashash va mehnat qilishga tayyorlashi lozimligi masalalariga alohida axamiyat qaratadi. Ammo ushbu vazifalarni hal etish uchun o'qitish davomida faqat nutqning imo-ishora shaklidan foydalaniladi hamda kar

o'quvchilar uning asosida yozishni o'rganadilar. Uning shogirdi R.A.Sikar Sharl Mishel de Epening g'oyalarini rivojlantirib, imo-ishoralar tilini «metodik belgilar» bilan boyitadi. Ya'ni ushbu metod asosida o'qitish jarayonida o'quvchilarga tildagi grammatik kategoriyalarni tasvirlash uchun ma'lum bir belgilar o'rgatib boriladi. Ma'lumki, tilda grammatik kategoriyalar juda ko'pchilikni tashkil etadi.

O'quvchilar hajmi kundan kunga ortib borayotgan belgilarni o'zlashtira olmasliklari natijasida fanlarga oid bilimlarni ham o'zlashtirishga ulgurmay qoladilar hamda imo-ishora metodi asosida o'qitish tizimi takomillashtirilganiga qaramay, undan amaliyotda foydalanish ta'limning oldiga qo'yilgan vazifalarni to'laligicha hal etish imkonini bermasligini ko'rsatadi.

Daktilologiya – kar va zaif eshituvchi bolalarning nutqining o'ziga xos shaklidir. U so'zlashuv nutqiga imo-ishora nutqiga nisbatan yaqindir. U yozma xarakterga ko'ra yozma nutqqa o'xshab ketadi. Uning vositalari grafik belgilar harflar emas, balki qo'l, barmoq harakatlari hisoblanadi. O'zbek tilining har bir harfi o'zining

harakatli ifodasiga egadir. daktil belgilarini uch guruhga tasniflash mumkin:

1. chizuvchi harflar (z, b, d);
2. harf shaklini ifodalovchi harflar (o, l, m, t);
3. shartli belgilar (v, j, n).

Daktil nutqi so'zlashuv nutqining barcha qoidalariga ko'ra shakllanadi va uni kar bola egallashi mumkin. Bog'cha davrda kar bola daktilologiyaga savod o'rganish uchun murojaat qiladi. Tadqiqot ko'rsatishicha, daktilologiya eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar so'zlashuv nutqini shakllantirish uchun yordamchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Daktilologiyani yaxshi egallagan o'quvchilar so'zning tovush sostavini to'liq egallaydi. Ularda so'zning tovush va daktil obrazi o'rtasida shartli aloqalar o'rnatiladi. Lekin so'zning talaffuzi yozilishdan uzoqlashsa tovush tarkibini o'rganishda daktilologiya ta'sir ko'rsatdi. Daktilologiyani va yozma nutqning o'zaro munosabati juda murakkabdir.

Ye.N. Marsinovskaya tadqiqot natijalariga ko'ra, bu nutq formasining quyidagi belgilarini ochib beradi. Eshituvchi bolalarda daktillash 2,5 marta og'zaki nutqni bayon qilishga nisbatan orqada qoladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda og'zaki nutqni bayon etish va daktillash tempi bir xil bo'ladi, ba'zan daktillash og'zaki nutqni bayon etishda oldindan o'tib ketish hollari ham ko'zatiladi.

Daktilologiya og'zaki nutqni o'zida namoyon qiladi, lekin suhbat jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar daktil nutqiga nisbatan imo-ishora nutqidan keng doirada qo'llaniladi. L.A.Novikova va Ye.N. Marsinovskaya tomonidan o'tkazilgan maxsus tadqiqotlarga ko'ra daktilologiya ham og'zaki nutq kabi kinestetik sezgilar asosiga qo'riladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar fikrlash operatsiyalarida faqat artikulyator apparatlarda, balki qo'l, barmoq muskullarida ham impulslar yuzaga kelgani kuzatilgan.

Lekin, artikulyator apparatdagi nutqiy kinestiziyalar, qo'l kinesteziyalariga nisbatan puxta bo'lib, tadqiqot ob'ekti sifatidan o'rganish talab etiladi. Ye.N.Marsinovskiy daktillash tempi og'zaki nutq talaffuzi yaxlitligiga ta'sirini o'rgatgan. Bu tajribalar ko'rsatishicha kar bola daktillash texnikasini yaxshim o'rganganda daktilologiya og'zaki nutq tempi va yaxlitligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Daktillash texnikasini yaxshi darajada egallamaslik, talaffuz to'g'riligi, nutqni tushunarlilikiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

S.A.Zikov tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda, bu muammo tadqiq etilgan. Eshituvchi bola savodga o'rgatishning boshlang'ich etapidagi nutqni akustik va harakat obrazlariga tayanadi. Bolani so'zli yozishidan avval uni ichida yoki ovoz chiqarib o'qishini ko'rish mumkin. Kar bola og'zaki nutqqa ega bo'lganligi uchun savodga o'rgatish davrida daktilologiyaga tayanadi. So'ng bu jarayon bir vaqtda amalga oshadi, bola ham yozadi va daktillaydi. So'zlashuv nutqini egallash darajasiga ko'ra daktil kinesteziyalari asta-sekin siqilib, artikulyator kinesteziyalar bilan almashinadi. U ham bola singari so'zni talaffuz etib, so'ng yozadi. Daktilologiya atrofdegilar nutqini labdan o'qishda ham muhim vosita sanaladi.

Chunonchi, ayrim tovushlar labdan yomon o'qiladi, shu o'qishda daktilologiyadan foydalanadi. Lekin labdan o'qish jarayonida daktilologiyadan foydalanish ham ijobiy samara beradi. Labdan o'qishning koloreya tizimida o'z ifodasini topgan. Quyidagi jadvalda o'zbek tili alifbosiga asoslangan daktilema alifbosi ifodalangan

#### **Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning og'zaki nutqini shakllantirishda daktil nutqining o'rni**

Eshitishda nuksoni bo'lgan bolalarning ogzaki nutkni mulokot kuroli sifatida shakllantirish maxsus tashkil etilgan ta'lim tarbiya tizimining bosh maksadi sanaladi.

Daktil nutqi – kar bolalarni o'qitishning qudratli vositasi, u lug'at boyligi va natqni o'zlashtirish sifatini, shuningdek kar bolalarning umumiy rivojlanish darajasini bir necha barobar oshirishi mumkin. Kar bolalarni tarbiyalayotgan ota-onalar va boshqa kishilar uni bola bilan muloqotda to'g'ri qo'llash uchungina emas, balki fikrlari, aniqrog'i, bilib-bilmay chiqaradigan hukmlari bolaning to'la qonli tarbiyasiga xalal beradigan kishilarga uning ahamiyatini tushuntirib berish uchun ham daktil nutqning ahamiyatini tushunib yetishlari kerak. Daktil nutq nima? Daktil nutqni ba'zilar mimika (mimina yoki imoishora nutqi) bilan qorishtirishadi, mutaxassislar esa daktil nutqni savodi chiqmagan kar bolalarda og'zaki nutq o'rniga mimika nutqining intensiv rivojlanishining oldini olish uchun keng qo'llashni tavsiya qilishadi.

Daktilologiya – kar va zaif eshituvchi bolalarning nutqining o'ziga xos shaklidir. U so'zlashuv nutqiga imo-ishora nutqiga

nisbatan yaqindir. U yozma xarakterga ko'ra yozma nutqqa o'xshab ketadi. Uning vositalari grafik belgilar harflar emas, balki qo'l, barmoq harakatlari hisoblanadi. O'zbek tilining har bir harfi o'zining harakatli ifodasiga egadir. Daktil belgilarini uch guruhga tasniflash mumkin: 1. chizuvchi harflar (z, b, d);

2. harf shaklini ifodalovchi harflar (o, l, m, t); 3. shartli belgilar (v, j, n). Daktil nutqi so'zlashuv nutqining barcha qoidalariga ko'ra shakllanadi va uni kar bola egallashi mumkin. Bog'cha davrda kar bola daktilologiyaga savod o'rganish uchun murojaat qiladi. Tadqiqot ko'rsatishicha, daktilologiya eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar so'zlashuv nutqini shakllantirish uchun yordamchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Y.N. Marsinovskaya tadqiqot natijalariga ko'ra, bu nutq formasining quyidagi belgilarini ochib beradi. Eshituvchi bolalarda daktillash 2,5 marta og'zaki nutqni bayon qilishga nisbatan orqada qoladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda og'zaki nutqni bayon etish va daktillash tempi bir xil bo'ladi, ba'zan daktillash og'zaki nutqni bayon etishda oldindan o'tib ketish hollari ham ko'zatiladi.

Daktilologiya og'zaki nutqni o'zida namoyon qiladi, lekin suhbat jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar daktil nutqiga nisbatan imo-ishora nutqidan keng

doirada qo'llaniladi. L.A.Novikova va YE.N. Marsinovskaya tomonidan o'tkazilgan maxsus tadqiqotlarga ko'ra daktilologiya ham og'zaki nutq kabi kinestetik sezgilar asosiga qo'riladi.

*Kinestetik sezgi bu- inson terisidagi analizatorlar orqali borliqni va undagi narsa - hodisalarni his etish qobiliyatidir. Kinestetika bu teri tuyish.*

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar fikrlash operatsiyalarida faqat artikulyator apparatlarda, balki qo'l, barmoq muskullarida ham impulslar yuzaga kelgani kuzatilgan. Lekin, artikulyator apparatdagi nutqiy kinesteziyalar, qo'l kinesteziyalariga nisbatan puxta bo'lib, tadqiqot obyekti sifatidan o'rganish talab etiladi. YE.N.Marsinovskiy daktillash tempi og'zaki nutq talaffuzi yaxlitligiga ta'sirini o'rgatgan. Bu tajribalar ko'rsatishicha kar bola daktillash

texnikasini yaxshim o'rganganda daktilologiya og'zaki nutq tempi va yaxlitligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Daktillash texnikasini yaxshi darajada egallamaslik, talaffuz to'g'riligi, nutqni tushunarligiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Daktilologiyani yaxshi egallagan o'quvchilar so'zning tovush sostavini to'liq egallaydi. Ularda so'zning tovush va daktil obrazi o'rtasida shartli aloqalar o'rnatiladi. Lekin so'zning talaffuzi yozilishdan uzoqlashsa tovush tarkibini o'rganishda daktilologiya ta'sir ko'rsatdi. Daktilologiyani va yozma nutqning o'zaro munosabati juda murakkabdir.

S.A.Zikov tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda, bu muammo tadqiq etilgan. Eshituvchi bola savodga o'rgatishning boshlang'ich etapida nutqni akustik va harakat obrazlariga tayanadi. Bolani so'zli yozishidan avval uni ichida yoki ovoz chiqarib o'qishini ko'rish mumkin. Kar bola og'zaki nutqqa ega o'lganligi uchun savodga o'rgatish davrida daktilologiyaga tayanadi. So'ng bujarayon bir vaqtda amalga oshadi, bola ham yozadi va daktillaydi.

So'zlashuv nutqini egallash darajasiga ko'ra daktil kinesteziyalari asta-sekin siqilib, artikulyator kinesteziyalar bilan almashinadi. U ham bola singari so'zni talaffuz etib, so'ng yozadi. Chunonchi, og'zaki nutkni mustaqil qo'llashga o'rgatish ikki yo'l bilan amalga oshiriladi. Birinchi yo'l, butun o'kuv tarbiyaviy jarayon davomida o'qituvchi nutqini eshitish va eshituv - ko'rish asosida idrok etish bilan amalga oshadi. Buxolatda talaffuz malakalarini shakllantirish maxsus o'qitishlarsiz informal tarzda amalga oshiriladi.

Talaffuzga o'rgatish informal yo'li - nutq xarakat organlarinifaollashtirishga xizmat qiladi, ba'zi talaffuz malakalarini egallashga zamin yaratadi. O'qituvchi o'z diqqatini nafaqat bolaning nutq tovushlari talaffuziga emas, balki ovozigga, bolalar nafasiga, nutkning bog'liqligiga qaratadi.

Ushbu ishda kata yordamni ovoz kuchaytirgich apparatlari ko'rsatadi, ular o'kuvchilarga o'kituvchi nutkni kabul kilish imkonini beradi. O'kituvchi bilan birga yoki uning ortidan barcha materialni ko'rish, eshitish orkali kabul kilib bolalarni gapirishga doimiy undash nafakat ularning nutqiy apparatini faollashtiradi, balki ularda ogzaki nutkni ko'llashning doimiy malakasini tarbiyalaydi.

Biroq nutqning talaffuz tamoyilini shakllantirish uchun birgina informal yo'lning o'zi kifoya emas. Ikkinchi yo'l ham darkor - talaffuz malakalarini maxsus, rejali shakllantirish. Ushbu ish og'zaki nutq darslarida, yakka mashg'ulotlarda, fonetik mashqlar davomida amalga oshiriladi va o'z ichiga tovushlarni, so'z iboralarni ishlab chiqishni normal ovoz va to'g'ri nutqiy nafasni ishlab chiqishni qamrab oladi.

Talaffuzni shakllantirish nutqni ifodalashning aniqligini rivojlantirishda katta o'rni musiqiy - ritmik mashg'ulotlarga ajratiladi.

Eshitish buzilganda nutqning rivojlanish darajasi bir xil bo'lmaydi va quyidagi omillarga bog'liqdir: eshitishning buzilganlik darajasi; eshitish analizatori nuqsonining yuzaga kelish vaqti; eshitish analizatori faoliyati buzilganidan keyin bolaning qanday pedagogik sharoitlarda bo'lgani; bolaning individual xususiyatlari. Sanab o'tilgan omillarning har biri bolalar nutqini baholashda kata ahamiyatga ega.

Eshitishning pasayish darajasi va nutqning rivojlanishi bevosita bog'liqdir. Bolaning eshitishi qanchalik pasaygan bo'lsa, nutq shuncha ko'p zarar ko'radi. Eshitish pasayish darajasi sezilarli bo'lmasa, nutqdagi buzilishlar yorqin ifodalanmaydi.

Eshitish pasayishining yuqori darajasida bola maxsus ta'limning boshlanishigacha soqov bo'lib qolaveradi. Eshitish pasayishining o'rta darajasida nutqning fonetik, leksik, grammatik tomonida buzilishlar kuzatiladi. Eshitish bola hayotining turli bosqichlarida buzilishi mumkin.

Nuqsonning ikkilamchi ko'rinishlari mavjud yoki mavjud emasligi vaqt omili bilan bog'liq. Nuqson qancha erta yuzaga kelsa, u nutqiy funksiyaning shakllanganligiga shuncha ko'p ta'sir o'tkazadi.

Ikki yoshgacha bo'lgan, nutq shakllanmagan davrda kar bo'lib qolish nutqning mavjud bo'lmasligiga olib keladi. 3-3,5 yoshgacha davrda eshitishning yo'qotilishi shakllangan nutqning yo'qotilishiga olib keladi. 4-5 yoshda eshitish to'lig'icha yo'qotilsa, maxsus ta'lim o'z vaqtida boshlanmasa, nutq deyarli to'liq boy beriladi. 6-7 yoshda eshitishni yo'qotish bola nutqining keskin buzilishiga olib keladi, maxsuspedagogik yordamsiz esa bolaning nutqi asta-sekinlik bilan yomonlashib boraveradi.

Bola 7 yoshdan keyin eshitmay qolsa, savol egallash ko'nikmalari bo'lsa, nutq saqlab qolinishi mumkin, buning uchun tizimli korreksion ish olib borish talab qilinadi. Eshitish qisman boy berilganda bolalarda vaqt omili shuningdek muhim sanaladi – u nutqning rivojlanish darajasini belgilaydi. 3 yoshgacha bo'lgan bolalarda eshitishning sezilarsiz pasayishi nutqning kechikishi yoki yetarlicha rivojlanmasligiga olib keladi. 3 yoshdan keyin eshitishning pasayishi nutqiy rivojlanishda u qadar jiddiy nuqsonlarni keltirib chiqarmaydi. Eshitishning pasayishi oqibatlarini bartaraf qilishga qaratilgan ham tibbiy, ham pedagogik chora-tadbirlar qanchalik erta ko'rilsa, bola shuncha muvaffaqiyatli rivojlanadi.

Oilada nutqiy muhitning shakllantirilishi, eshitishni erta protezlash, nutqiy idrok va nutqni rivojlantirish bo'yicha maxsus ishlarni tashkil etish bolaning muvaffaqiyatli rivojlanishini belgilaydi. Individual xususiyatlar ham nutqning rivojlanishiga ta'sir o'tkazadi.

Nutq egallash jarayonida bola shaxsining faolligi, tafakkur jarayonlarining harakatchanligi katta rol o'ynaydi. Barqaror ko'rish diqqati va xotira nutqiy nuqsonni kompensatsiyalash va nutqni rivojlantirishga ko'maklashadi.

Kar bolalarda nutqni shakllantirish maxsus o'qitish sharoitida qoldiqli analizatorlardan foydalanishga asoslanadi. Ko'rib va eshitib idrok idrok etish, kinestetik sezgi, taktik vibratsiyali sezgirlik faol jalb qilinadi. Surdopedagog kar bolaga nutqiy apparat harakatlarini egallash, eshitib idrok etishni rivojlantirishda (ovoz kuchaytirish apparaturasidan majburiy foydalanish bilan) ko'maklashadi.

Zaif eshituvchi bolalarning nutqini rivojlantirish tabiiy yoritish sharoitida qoldiqli eshitish asosida amalga oshiriladi. Xatto og'zaki nutqni idrok etish to'liqsiz bo'lsa-da, bola og'zaki nutqni mustaqil, biroq turli buzilishlari bilan, egallashga qodir. Intensiv rivojlanish va eshitishdan foydalanish uchun sharoit yaratilganida nutqning grammatik qurilishini mustaqil o'rganish imkoniyati tezkorlik bilan ortadi.

Keyinchalik kar bo'lib qolgan bolalar shakllangan, rivojlangan nutqqa ega. Ularda nutq saqlanganligining turli darajasini kuzatish mumkin. Eshitish yo'qotilguniga qadar keyin kar bo'lib qolgan bolada nutqning rivojlanishi va lisoniy tafakkurning shakllanishi

eshitish asosida tabiiy nutqiy muloqot sharoitida kechadi. Keyinchalik kar bo'lib qolganlarning ko'pchiligi og'ir darajadagi eshitish nuqsoniga ega. Korreksion ta'limda nutqni ko'rish yoki ko'rish-eshitish asosida (ovoz kuchaytirish apparaturasi yordamida) idrok etishni shakllantirish vazifasi birinchi planga qo'yiladi. Keyin kar bo'lib qolgan bolalar og'zaki nutqni ko'rib idrok etish ko'nikmalarini nutqni egallash vaziyatining o'zidan keyin egallashlari lozim. Shu bilan ular eshitishida nuqsoni bo'lgan boshqa bolalardan farq qiladi. Nutqiy rivojlanish bolaning shaxs sifatida rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Eshitishning pasayishi ijtimoiy muloqotning cheklanishini belgilaydi. Bu cheklanish bola psixikasining shakllanishiga ta'sir etadi. Bilish faoliyatining barcha sohalari defitsitga uchraydi (qiyinlashadi). Nutq, idrok, xotira, diqqat, tasavvur, tafakkur zarar ko'radi.

Hayotning dastlabki 2-3 oyida kar va eshitadigan bola o'rtasidagi tafovut deyarli ko'zga tashlanmaydi (YE.F.Rau, F.F.Rau). Kar bolaning baqirig'i va g'o'ldirashi eshitadigan bolanikidan u qadar farq qilmaydi. Kar bolalarda g'o'ldirash paydo bo'ladi, ammo o'z talaffuzini nazorat qilish imkoni yo'qligi sababli u astasekin yo'qolib boradi.

Maktabgacha yoshda kar bolalarda ta'lim olib borilmasa, nutq shakllanmaydi. Turli ovoz reaksiyalari, tovush birikmalari, g'o'ldirash kuzatiladi. Ta'limsiz ovoz reaksiyalari soni kamayib boradi, ular tobora bir xillashib boradi, 5-6 yoshga kelib butkul yo'qoladi. Ba'zan katta maktabgacha yoshdagi, nutqqa o'rgatilmagan, bolalar o'zining nutqiy muammolarini anglab yetadi, kishilar bilan muloqotga kirishni unchalik istamaydi, kattalar va eshitadigan bolalar bilan aloqadar o'zini olib qochadi. Muloqotning nolisoniy vositalari miqdori bola kattalashgani sari kengayib boradi. Tabiiy imo-ishoralar ko'payadi, bolalar bularni kattalardan nusxa oladi yoki o'zi o'ylab topadi. Ularning emotsional holatini tavsiflovchi bir xildagi qarashlar rivojlanadi. To'rt yoshdan keyin kar va og'ir darajali zaif eshituvchi bolalar nutqida tafovutlar yanada sezilarli bo'ladi. Zaif eshituvchi bolalarda xatto maxsus o'qitishsiz ham talaffuz qilinadigan so'zlar miqdori ortib boradi. Ayrim bolalar «Oyi, te (Oyi, keling), oyi be (Oyi, bering)» tipidagi qisqa, agrammatik jumalarni o'zlashtiradi. Nutqni rivojlantirish bo'yicha ishlarni olib borishning asosiy shartlaridan biri eshitish-nutqiy muhitni yaratish

sanaladi. U bola bilan eshitish apparatlaridan foydalanib, doimiy nutqiy muloqot qilishni ko'zda tutadi. Go'dak yoshidagi bolalarning nutqini rivojlantirish ishlari kattalarning yuzi, nutqi, predmetlarga ko'rish va eshitishni jamlashga qaratiladi. Bu ish bola bilan kun davomidagi muloqot jarayonida, shuningdek, tizimli maxsus mashg'ulotlarda uzoq muddat olib boriladi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar hayotining 2-3-yilida nutqiy rivojlanish nisbatan yuqori sur'atga ega bo'ladi. Turli predmet, hodisalarni bilgani tufayli bolada ularning nomlari lug'ati, predmetlar bilan harakatlar shakllanadi. Tuzilishiga ko'ra sodda jumladan doimiy foydalanish ularning ayrimlari, tobora ko'p takrorlanadigani tushunarli bo'lishiga olib keladi. Bolani fe'llarning ma'nosini ushinishga o'rgatish muhim, zero bu jummalarni tushunish va qo'llash uchun zarur.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ilk yosh davrida boshlangan ishlar davom ettiriladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalar bilan oilada olib boriladigan ishlarni tashkil qilish va ularning mazmuniga talablar ilk yoshdagi bolalar bilan ishlarga qo'yiladigan talablardan farq qilmaydi. Biroq turli yo'nalishlardagi ishlar mazmuni kengaytiriladi va chuqurlashtiriladi. Turli xil ishlarni o'z ichiga oladigan mashg'ulotlar har kuni olib boriladi. Bola bilan ishlar davomida eshitish apparatidan foydalaniladi. Bolaning har tomonlama barkamol rivojlanishi jismoniy, mehnat tarbiyasi, atrof olam bilan tanishtirish, o'yin faoliyati, tasviriy faoliyatni rivojlantirish, nutqni rivojlantirish ishlari, boshlang'ich matematik tasavvurlarni shakllantirish, shuningdek o'qishni o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bola maktabga qabul qilinganda nutqni, idrokni, xotirani va umuman, tafakkurni rivojlantirish ishlari davom ettiriladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning potensial imkoniyatlari favqulodda keng. Tibbiyot bu kabi bolalarning eshitish qobiliyatini qaytarishga qodir emas. Biroq eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar umumiy va nutqiy rivojlanish darajasi bo'yicha eshitadigan tengdoshlariga yaqin kela oladi.

Agar bolalar rivojlanishda qo'shimcha nuqsonlarga ega bo'lmasa, adekvat va maqsadli korreksion ishlar esa bola hayotining dastlabki oylaridan boshlansa, 3-6 yoshiga kelib, umumiy va nutqiy rivojlanish darajasini yosh normalariga yaqinlashtirish mumkin

(xatto og'ir darajadagi zaif eshitish holatida ham). Bunday bolalar keng jumlati (frazali) nutqqa ega, bolalar kabi kattalar bilan ham erkinmuloqot qiladi, ko'rganlari va hayotidagi ayrim voqayealar haqida hikoya qila oladi, ularga qaratilgan nutqni yaxshi tushunadi (ko'rib-eshitib idrok etadi), she'rni yoddan aytib va xatto qo'shiq xirgoyi qilib bera oladi. Ularning o'z nutqi jarangi odatda eshitadigan bolalar nutqidan u qadar farq qilmaydi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar eshitish apparatlaridan foydalanadi.

Keyinchalik ya'ni hayot davomida kar bo'lib qolgan bolalar (4-5 yoshida eshitmay qolgan va bungacha nutqi saqlangan bolalar) ishlar o'z vaqtida boshlangan va maqsadli olib borilgan sharoitda shunday yuqori natijalarga erishishi mumkin. Mavjud nutqiy ko'nikmalarni saqlab qolish va ulrani takomillashtirishga, shuningdek. Qisqa muddatlarda og'zaki kommunikatsiyani boshqa sensor (ko'rish-eshitish, ko'rish, ko'rish-vibrotaktil) asosda tiklashga erishilsa, keyin kar bo'lib qolgan maktabgacha yoshdagi bola xatto eshitish qobiliyatini yo'qotguniga qadar tarbiyalangan muassasasida qoldirilishi va ommaviy maktab sharoitida og'zaki o'qitishga tayyorlanishi; keyin kar bo'lib qolgan maktab o'quvchisi esa kasallikkacha o'zi o'qigan sinfda ta'dimni davom ettirishi mumkin.

O'qitish kech boshlangan kech kar bo'lib qolgan bolalar 2-3 yoshga kelib qator ijobiy omillar o'rin tutgani holda umumiy va nutqiy rivojlanishda yuqori darajaga erisha oladi. Bunday omillarga bolaning o'zining yuksak potensial imkoniyatlari, uning shaxsiy xususiyatlari (kommunikabelligi, faolligi, jismoniy chidamliligi, ishchanlik qobiliyati), shuningdek sistemali, intensiv, adekvat o'qitishni kiritish mumkin. Mashg'ulotlar yakka tartibda, kichik guruhlarda (6-8 bola), qo'shimcha yordam ko'rsatilgan holda (nutqiy ritmika va sh.k.), oilaning bola ta'limi va tarbiyasida faol ishtiroki sharoitida olib boriladi.

Vatanimiz surdopedagogikasiga eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni har tomonlama rivojlantirishning mumkinligi masalasida optimistik qarashlar xos. Vatanimiz psixologiyasida mavjud, individ psixikasi rivojlanishini uning tabiiy va ijtimoiy muhit bilan o'zaro hamkorligi sifatida tushunish bilan bog'liq qoidalarga muvofiq, surdopedagogika bola nuqsonining oqibatlarini muvaffaqiyatli bartaraf qilish va uni har tomonlama rivojlantirish uchun maqbul

ijtimoiy, jumladan maxsus amaliy shart-sharoitlarning hal qiluvchi roli haqidagi qoidani ilgari suradi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda qabul qilingan majburiy umumiy ta'lim sharoitida karlar uchun maktab unda ta'lim olayotgan bolalarning turli toifalari uchun mumkin bo'lgan ta'lim darajalarini differentsiyalashni ta'minlashi, ishning ustivor yo'nalishlarini, eshitmaydiganlar uchun ta'limning yangi vazifalarini belgilab berishi zarur.

Maxsus (korreksion) maktab bolalarni bilimlarning tayanch darajasi bilan quollantirish bilan birga bitiruvchilarning ijtimoiy adaptatsiyasi, ularning mehnat

faoliyatiga kirishishi va munosib hayot darajasini ta'minlash; ularda turli sharoitlarda, stress vaziyatlarda mustaqil qarorlar qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish, kerakli axborotni olish va o'z bilim hamda ko'nikmalaridan foydalanish qobiliyatini rivojlantirishga chaqirilgan. Bu vazifalarni maktabda o'qiyotgan bolalarning turli guruhlarini xususiyatlarini hisobga olgan holda hal qilish nazariya, amaliyot va eyesperimental ta'limning o'zaro birligini talab qiladi.

Fan, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim jarayonini qayta qurishni, e'tiborni bolalarning rivojlanishi, ularning o'qishga, bilimlarni to'ldirib borishga bo'lgan istagida jamlash zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Kar va zaif eshituvchi bolalar muammolarini tadqiq qilgan ko'p sonli mutaxassislar ta'kidlaydiki, bolalarning ko'pchiligi ham jismoniy, maxsus mashg'ulotlar olib borilmagan holda esa ham intellektual rivojlanishda orqada qoladi. Bu holat korreksion mashg'ulotlarni maktabgacha yosh davridayoq boshlash zaruratini belgilaydi. Jismoniy orqada qolish borasida, N.A.Rau fikricha, kar va zaif eshituvchi bolalarda yurishning mustahkam emasligi, oyoqlarini sudrab bosishi, harakatlarning qo'polligi kuzatiladi. Vestibulyar apparatning buzilganligi ko'pincha muvozanatning beqarorligi va yo'qolishiga olib keladi. Karlik va zaif eshituvchilik nutqning shakllanmaganligiga sabab bo'ladi, bu o'z navbatida bilish faoliyati valisoniy-mantiqiy tafakkurning tormozlanishiga olib keladi. Aynan shuning uchun pedagoglar maktabgacha yoshdagi kar va zaif eshituvchi bolalar tarbiyasiga kata e'tibor qaratadi. Korreksion ishlar qanchalik erta boshlansa, ularning samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda barcha psixik jarayonlar, jumladan, tafakkur, xotira, idrok va sh.k. larning kuchli rivojlanishi kuzatiladi. Nuqsoni tufayli eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar o'z tengdoshlaridan ortda qoladi, shuning uchun ham bu hollarda maqsadli tizimli tarbiya-ta'lim talab etiladi.

Kundalik hayotda jonli ishtirok etadigan, kattalar va tengdoshlari bilan muloqot qilgan bola faol rivojlanadi. Uning nutqi shakllanadi, atrof olam haqidagi tasavvurlari yuzaga keladi. Maktabgacha ta'lim muassasasida kar va zaif eshituvchi bolalar bilan olib boriladigan mashg'ulotlar ularning yoshiga mos bilim va ko'nikmalarni egallashi, maktabga tayyorlanishida ko'maklashadi, intellectual faoliyatini rivojlantiradi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar muammolari bilan ko'plab tadqiqotchi-pedagoglar shug'ullanishgan. N.A.Rau, B.D.Korsunskaya, A.A.Katayeva, N.G.Morozova, T.I.Obuxova ishlariga asoslanib aytish ma'lum xulosalar qilish mumkin bo'ladi. Bunday bolalarga Maxsus maktabgacha ta'lim muassasalarida maxsus ta'lim va tarbiya talab etiladi, garchi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar rivojlanishining umumiy yo'nalishlari sog'lom bolalarniki bilan umuman mos keladi. Kar va zaif eshituvchi bolalar qator xususiyatlarga ega. Ularda:

- ko'rib idrok etish borasida yetarlicha rivojlanmaganlik, jumladan,
  - predmetlarni idrok etish tanib olish tezligi past ekani;
  - taqlidning sekin shakllanishi, shuningdek namunaga qarab tanlashda qiyinchiliklar;
  - nutqning yo'qligi va nutqqacha muloqotning kamligi kuzatiladi.

Bu bilish faoliyati va lisoniy-mantiqiy tafakkurning rivojlanishidagi kechikishga olib keladi. Aynan shuning uchun zaif eshituvchi bolalarning aqliy rivojlanishiga katta e'tibor qaratish talab etiladi. Maxsus mashg'ulotlarda bolalar atrof olamdagi predmet va hodisalar, predmetlarning tuzilishi va ularning vazifalari qida tasavvurlarga ega bo'ladi. Bundan tashqari, inson va hayvonlarning hayotiy faoliyati haqida dastlabki ma'lumotlar beriladi. Mashg'ulotlar ko'rgazmalilik, tabiiy narsalardan keng foydalangan holda olib boriladi. Ekskursiyalar, kino va videofilmlar namoyishi uyushtiriladi. Parallel ravishda nutq o'stirish bo'yicha

mashg'ulotlar olib boriladi, ularda maktabgacha yoshdagi bolalar turli predmetlar bilan manipulyatsiya jarayonida egallagan lug'atini mustahkamlaydi.

Ma'lumki, atrof olamni bilish asosida hissiyot va idrok yotadi. Ko'rish, his qilish, eshitish, kinesteziya, hid bilish, ta'm bilish bolalarga atrofda voqelikning ma'lum manzarasini tuzish imkonini beradi. Boshqa tomondan, idrok va hislar kabi psixik jarayonlarning rivojlanishi bolaning intellektual rivojlanishiga ham olib keladi.

Birinchi mashg'ulotlardayoq eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar sensorikani rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashqlarni bajaradi. Buning uchun turli ko'rgazmali qurollar: yorqin o'yinchoqlar, tabiiy buyumlardan foydalaniladi. Bolalar predmetlarni qarab chiqish, predmetlarning u yoki bu xossalarini aniqlash, predmetlarni o'zaro qiyoslashga o'rganadi. Samaradorlikni oshirish uchun bola o'rganilayotgan narsani o'z qo'lida tutib ko'rish, aylanma harakatlar bilan uni ko'rsatishi kerak. Ayni paytda yangi so'z jadval bo'yicha qayta yaratiladi. Mayda motorikani rivojlantirish bolalarning o'qituvchining qo'l harakatlariga taqlidi jarayonida amalga oshiriladi. Masalan, predmetlar bilan manipulyatsiyalash oldidan bola: yuvinish, kir yuvish, mix qoqish va sh.k. harakatlarni imitatsiyalaydi. Natijada harakatlar murakkablashadi. Bola bilan daktil alifbo belgilari o'rganiladi.

Taqlid qilish malakasi bolalarda ma'lum ma'lum o'yinlar: ko'zgu, mozaika, namuna asosida tayoqchalardan naqsh tuzish yordamida shakllantiriladi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning sensor tarbiyasiga, ayniqsa eshitish idrokini rivojlantirishga katta e'tibor beriladi. Nutq va nolisoniy tovushlarni farqlashga mashqlar bajariladi. Mashg'ulotlar jarayonida bolada tovushlar olami haqida ma'lum tasavvurlar shakllanadi, bu og'zaki nutq sifatiga ijobiy ta'sir qiladi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ayniqsa lug'aviy nutqni erta o'rganish juda muhim. Normal eshitadigan bolada nutqni egallash uchun sensitive davr uch yoshgacha bo'lsa, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolada shu nuqson tufayli orqad qolish kuzatiladi. Nutqning shakllanmaganligi intellektual rivojlanishning kechikishiga olib keladi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni maktabgacha o'qitish normal eshitadigan bolalar bilan ortib boradigan tafovutlarni bartaraf qilish imkonini beradi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bola nutqni egallashi uchun zaruriy shart bolalar muassasasida nutqiy muhitning yaratilganligidir. Bola o'zlashtirishi zarur bo'lgan nutqiy material o'xshash vaziyatlarda kattalar nutqida doimiy qo'llanishi, natijada, bolalar tomonidan takrorlanishi lozim.

Nutqning rivojlanishi nafaqat mashg'ulotlarda, balki maishiy turmush sharoitida, kattalar va tengdoshlari bilan muloqot jarayonida, shuningdek amaliy faoliyat davomida amalga oshadi. Kichkintoylar nutqiy muhitga har bevosita bir bolaga yakka tartibda murojaat qilish bilan kiritiladi. So'zlarning minimal to'plami nashr qilingan jadvallar va kartochkalar ko'rinishida beriladi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar nutqiy materialni eshitib-ko'rib idrok etadi. Ta'limning ikkinchi yilida bola jadvalda keltirilgan so'z va jummalarni pedagog yordamida og'zaki-daktil gapirishi amalga oshiriladi. Muloqot jarayonida bolalar nutqning daktik shaklidan faol foydalana boshlaydi.

Bola yo'l qo'yadigan og'zaki nutqdagi xatoliklar kattalar tomonidan, albatta daktil nutq yordamida to'g'rilab boriladi. Bu eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarga o'z nutqini tahlil qilishda yordam beradi.

Bolaning og'zaki nutqni egallashi asosida taqlid yotadi.

Kattalar ortidan Ayni bir materialni turli vaziyatlarda ko'p marta takrorlab, bolalar uni eslab qoladi. Astasekinlik bilan ko'p qo'llanadigan so'zlar bolaning faol lug'ati tarkibiga qo'shilib boradi. Bundan tashqari, bolalarda zaruriy nutqiy materialni ovoz chiqarib gapirish ko'nikmasi yuzaga keladi, nutqiy tafakkur rivojlanadi. Tadqiqotlar ko'rsatdiki, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda og'zaki nutq syujetli-rolli o'yinlar davomida tobora samarali shakllanadi. Shu maqsadda nutq o'stirish mashg'ulotlarida bolalarga tanish ertaklar sahnalashtiriladi, syujetli-rolli o'yinlar o'ynaladi, bunda bolalar o'z roliga muvofiq tarzda bir-biri bilan hamkorlik qiladi va muloqotga kirishadi. Bunda so'zning tabiiy sur'ati, ritmik strukturasi, intonatsiyaga alohida e'tibor qaratiladi. Aynan shuning uchun pedagog va tarbiyachilar nutqi ham tabiiy, odatiy sur'at va intonatsiyaga ega bo'lishi lozim. Katta yoshdagi ayrim kishilar eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan har bir bo'g'inni sekin aytib gaplashashga urinadi. Natijada, bola muloqotning shu kabi uslubini

o'zlashtiradi. Ularning nutqi g'ayritabiiy va atrofdegilar uchun tushunarsiz bo'lib qoladi.

Mashg'ulotlarda nutq o'stirish ishlari uchta yo'nalishda olib boriladi:

- mavzular bo'yicha taqsimlangan nutqiy materialni o'zlashtirish va

mustahkamlash;

- nutqiy faoliyat turlarini (og'zaki nutq, o'qish, yozish, eshitib-ko'rib idrok

qilish, daktillash, tingalsh) shakllantiriladi;

- so'z ma'nolarini bilish uchun tilga oid maxsus kuzatuvlar, so'zning tovushharf tahlili, so'zning butun gap strukturasi grammatik shakllari ustida ishlash. Og'zaki nutq darslarining mazmuni nafaqat talaffuz ustidagi ishlarni, balki ushbu nutq shaklidan muloqotda foydalanishga o'rgatishni nazarda tutadi. O'qitish materialini og'zaki nutq dasturiga ko'ra ajratilgan va Rau, Slezinlar tomonidan ishlab chiqilgan talaffuzni o'rgatishni ishlab chiqishning ma'lum izchilligini hisobga oladi. Og'zaki nutq darslarida so'zning tovush tarkibi ustida ish olib boriladi. Shuning o'zida (yerda) so'zning ma'nosi yoritiladi, bolalar uni talaffuz qilishni, muloqotda qo'llashni o'rganishadi. Talaffuz ustidagi ish uning ma'nosini yoritib berilgandan so'nggina boshlanadi. Shu maqsadda og'zaki nutq darslarida daktil nutqiga o'rgatish metodik usullarida qo'llaniladi. Bu sharoitlarda kerakli so'z qo'llanilishi shart.

Aniq (konkret) ahamiyatga ega so'zlar ma'nosini (F.F.Rau va boshqalar) darsligida keng yoritilgan turli ish turlarini qo'llash yo'li bilan ochiladi. Predmetning rasmini ko'rsatish, rasmni nomlash, so'zning grafik elementlariga ko'ra so'zni og'zaki shaklda ifoda etish (xarf, bo'g'in, so'zlarni o'qish, harakatga ko'ra so'zni ifodalash). So'zni berish uslubiyati (metodikasi) quyidagicha:

O'qituvchi predmetni (rasmni) ko'rsatadi, uni og'zaki daktilda nomlaydi, bolalarni birgalikda talaffuz etishga undaydi. Bolalar uni eshituv - ko'ruv orqali idrok etadilar, og'zaki - daktilda ifodalaydilar. So'ng har bir o'quvchiga so'zni mikrofon orqali talaffuz etish imkoni beriladi va o'qituvchi ishlab chiqilayotgan tovushning

talaffuzini baholaydi. Bolalar tovush tarkibini o'zlashtirib olganlaridan so'ng ular so'zni daktillashsiz talaffuz etadilar. Talaffuz malakalari yakka mashg'ulotlarda mustahkamlanadi. Shunday qilib, tovush talaffuzi ustidagi ishning boshlang'ich materialini uchun butun so'z xizmat qiladi. U avval butunligicha, so'ng qismlargan bo'lib talaffuz qilinadi. O'qituvchi bolalar diqqatini fonemalarni bo'g'inlarda va yakka talaffuz etishga qaratadi. Bunday analizdan so'ng so'zni sintez qismi ustida ish boshlanadi, ya'ni fonemalarni bo'g'inlarga, bo'g'inlarni so'zlarga bog'lash. Talaffuz

ustida ishlashning bunday yo'li talaffuzga o'rgatish analitikosintetik metodiga mos tushadi.

Og'zaki ekspressiv nutqqa o'rgatish qisqartirilgan fonemalar tizimida qabul qilingan tovushlarni qo'yish tartibiga ko'ra tanlangan materialda olib boriladi. Talaffuzga o'rgatishning konsentrik metodi qisqartirilgan fonemalar tizimini qo'llashga asoslanadi. Talaffuzning barcha bilimlari bo'yicha talabalarning ortib borish izchilligini nazarda tutadi. Boshlang'ich (ilk) o'qitish ikki konsentrdan iborat, ularning birinchisi tayyorlov sinfi bilan mos tushadi, ikkinchisi birinchi va ikkinchi sinflarni qamrab oladi. Tayyorlov sinfida o'quvchilar asosiy 17 fonemaning aniq talaffuzini egallaydilar: "a", "o", "u", "e", "u", "p", "t", "k", "f", "m", "s", "sh", "x", "v", "m", "n", "l", "r" - va ikki jarangli tovushlarni: "b", "z". Ushbu tovushlardan tuzilgan so'zlarni artikulyatsiya bo'yicha yaqinlarning o'rindoshi hisoblanadi, maslan, "s", - "z", - "z". Tovush ustidagi ish izchilligi dasturda keltirilgan, darslik betlarida o'z ifodasini topgan. Tayyorlov sinfini 4 - choragiga kelib kar o'quvchilar asosiy tovushlar talaffuzini egallashadi. Og'zaki nutq darslarini bu davrdagi materialini bo'lib daktil nutqida egallangan ibora, so'zlar hisoblanadi. Bu esa 4 - chorakka kelib darslarning nutqiy mazmuni ancha kengayishini anglatadi va bu bolalarga og'zaki nutqni muloqot quroli sifatida o'qitish ishlarini ancha jadal kechishi imkonini beradi.

Bu davrda o'qituvchi talaffuzni ikki turlanishlari ifodalovchi bolalar nutqini sinchkovlik bilan kuzatib borishi kerak. Birinchisi - 17 asosiy tovushlarni so'zlardaniq talaffuz etish (og'zaki va daktil nutqi dasturidagi so'zlar), ikkinchisi - qisqartirilgan fonemalar tizimiga ko'ra asosylari bilan almashtiriladigan tovushlarni o'z ichiga oluvchi so'zlarni talaffuz etish. 4- chorakka qadar bolalar



nutqida talaffuzning uchinchi turi ham mavjud bo'ladi. Hali egallanmagan asosiy fonemalar

va tovushlar imkon darajasida talaffuz etiladi. Bu holatda kerakli tovush o'rnida o'quvchilar faqat artikulyatsiya elementini berishadi. yoki tovushni butkul tushurib qoldirishadi, qisqartirilgan fonemalar tizimida keltirilmagan tovush bilan almashtiriladi.

Shunday qilib, og'zaki nutqning talaffuz malakalarini shakllantirish o'zaro bog'langan ikki yo'l orqali amalga oshiriladi. Birinchisi – informal (maxsus o'qitishsiz) – butun o'quv tarbiyaviy jarayon mobaynida o'z o'rniga ega va barcha darslarning nutqiy materialida amalga oshiriladi. Ikkinchi yo'l fonetik tamoyilga ko'ra tanlangan materialda talaffuz malakalarini ravon ishlab chiqishni nazarda tutadi va yakka mashg'ulotlarga o'tkazish bilan ogzaki nutk darslarida amalga oshiriladi. Tovushlarni ro'yishda bolalarning barcha saqlangan analizatorlari mavjud eshituv qoldig'idan foydalaniladi.

Demak, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning og'zaki nutqini muloqot quroli sifatida shakllantirishda maqsadga yo'naltirilgan, tizimli ish olib borish maqsadga muvofiq Bolada og'zaki nutq atrofdagilar bilan muloqotda rivojlanadi. Eshituv idroki yordamida bola atrofdagilar og'zaki nutqini idrok etadi, 5-6 yoshlarga eshituvchilar tovushlarni to'g'ri talaffuzini egallaydilar. Lug'at boyligi va gap Grammatik qoidalarini amaliy egallaydi. Maktabgacha yoshdagi kar bola bu yo'l bilan nutqni egallay olmaydi, chunki u atrofdagilar nutqini eshitmaydi. Agar eshituchi bola bog'chaga maktabga shakllangan nutq bilan borsa maktabgacha yoshdagi kar bola og'zaki nutqi mavjud bo'lmagan holda boradi. Unda nutqni boshidan boshlab shakllantirish kerak. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, maktabgacha yoshdagi kar bolada eshituvchi bolaga nisbatan nutqiy nafas olish bir qator xususiyatlari egadir. U bo'lingan havo oqimidan foydalana olmaydi va frazalarni qismlarga bo'la olmaydi.

Maxsus mashqlar davomida maktabgacha yoshdagi kar bolalarda nutqiy nafas olish shakllanadi. Ularning ovozi ustida ham ish olib boriladi. Ko'p miqdordagi maktabgacha yoshdagi karlarda ovoz bo'g'iq, modullashmagan bo'ladi. Maxsus mashqlar jarayonida tarbiyalovchi kar bolani ovozini eshituvchi bola ovozigaga

yaqinlashtirishga harakat qiladi, lekin bu har doim ham kerakli natijalarga olib kelmaydi. Maktabgacha yoshdagi kar bola nutqi ovozigaga butun xayoti davomida o'ziga xos otsenkaga ega bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi kar bolalarni og'zaki nutqqa o'rgatishning muhim qismi ularda turli talaffuzni shakllantirishdir. O'zbek tilidagi har

bir fonema maktabgacha yoshdagi kar bolada maxsus usullar bilan qo'shiladi.

Saqlangan analizatorlar ko'ruv, sezgi, harakat analizator faoliyatini qo'llab, tarbiyachi oldi tovush talafuzini ko'rsatadi va taqlid asosida talaffuz etiluvchi tovushlar "p", "b", "m" qo'shiladi, so'ng bo'g'in, so'z birikmalariga o'tiladi. Shu tartibda boshqa nutqiy tovushlar talaffuziga o'tiladi. Bu jarayonni amalga oshirishda eshituv qoldig'iga tayaniladi. Maktabgacha yoshdagi kar bolada og'zaki nutqni shakllantirishda ko'ruv, harakat va sezgi analizatorlari yordami bilan maydonga chiqadi. Eshituvchi bola o'z talaffuzini eshitish orqali nazorat qiladi, xato qilsa bu xatoni eshitib so'ng to'g'irlaydi. Maktabgacha yoshdagi kar bola talaffuzini dastlab oyna oldida, so'ng ko'ruv va harakat sezgilari orqali nazorat qiladi. Tovush artikulyatsiyasi qanchalik aniq va yaxshi bo'lish kinestik sezgilar shunchalik differensiyalashgan bo'ladi. Bu sezgi turi maktabgacha yoshdagi kar bola talaffuzini shakllantirishda muhim o'rin hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi kar bolaning og'zaki nutqini shakllantirishda eshitish qoldig'i ham katta ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, maktabgacha yoshdagi kar bolalar pedagogik ta'limi ularda so'zlashuv nutqini shakllantirish asosida tashkil etiladi. Agar oldin nutqiy ta'limotdan amaliyotga o'tsa, so'zlashuv nutqini shakllantirish muloqotni shakllantirishga o'qitiladi, lekin bu amaliyot grammatik jihatdan tashkil etilgan. Qisqartirilgan fonemalar tizimi asosida og'zaki nutqqa o'rgatishda tezroq maqsadga erishish uchun talaffuzni yengil bo'lgan, hosil bo'lish o'rniga ko'ra o'xshash fonemalar o'zaro almashtirib o'rgatiladi. Bu lug'at boyligi oshirish so'zlarni muloqtga kiritish, maktabgacha yoshdagi kar bola nutqiy amaliyoti imkonini oshiradi. Bunday psixologik yondashuv maktabgacha yoshdagi kar bolalarni tilga o'qitishning boshlang'ich etapida saqlangan bo'lishi mumkin. Shunga o'xshash holat eshituchi bolani nutqiy rivojlanishida ham

kuzatiladi. Eshituvchi bola 2-5 yoshlar o'rtasida ma'lum tovushlarni to'g'ri talaffuz eta olmaydi. Bu bosqich bolaning nutqiy apparati to'liq shakllanmaganligi va hosil bo'lishiga ko'ra murakkab bo'lgan tovushlar talaffuziga tayyor emasligi bilan almashtiradi, tushirib qoldiradi. Bunda so'zning tovush tarkibi o'zgarsa ham u o'zining mazmunini o'zgartirmaydi. Vaqt o'tishi bilan bu xatolik o'z - o'zidan yo'qolib ketadi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar imo-ishora yordamida muloqotga kirishadilar. Imo-ishora nutqi atrof-olamini tushunishga yordam beruvchi vosita sanaladi. Masalan, kar bola oilada kar bola imo-ishora nutqidan foydalangan holda tarbiyalanadi, lekin uning rivojlanish darajasi yuqori bo'ladi. Shunday qilib, imoishora eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun muloqot funksiyasi bajarishni ta'kidlash joiz. Bu jihatdan u og'zaki nutq shakliga o'xshashdir. Lekin u chegaralangan davrada, faqat kar shaxslar o'rtasida muloqot quroli sifatida namoyon bo'ladi. Nutq tafakkur quroli sifatida namoyon bo'ladi. U o'zini birinchi vazifasini bajara olmashi, tafakkur quroli sifatida faoliyat ko'rsata olmaydi. Imo-ishora nutqining qurish materiali mimik belgilar foizidir. So'zdan farqli, imo-ishora belgilari bir qator o'ziga xosliklarga egadir. Ayrim mimik belgilar so'z kabi muloqot elementiga egadir. So'z qat'iy va universal ahamiyatga ega. Mimik belgilar esa qat'iy bo'lmaydi.

Ko'p tushunchalar kar shaxslar o'rtasida bir xil ishora bilan ifodalanadi. Ularning xarakteri ta'lim jarayonida so'zlashuv nutqi vositasida o'zgarishi mumkin. So'z tarkibida tovush kompleksi va ma'nosi bo'yicha mustahkamlash aloqasi mavjud bo'lib, uni ixtiyoriy buzib bo'lmaydi. So'zning tovush tarkibi bo'zilsa, u o'zining funksiyasini bajarmay qoladi. Tovush kompleksi uning ma'nosi bilan umumiy bog'liqqa ega emas. Ayrim mimik belgilarda bu aloqa yaqqol nomayon bo'ladi. Ko'p olimlar mimik belgilarini tasniflashga harakat qilganlar (N.G. Morozova, R.M.Boskil, L.V.Zankov, G.L. Zayseva, N.F.Slezina). Ularning ilmiy ishi natijalariga tayanib mimik belgilarni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Ko'ruv sezgisiga asoslangan belgilari: a. ko'rsatuvchi ishning belgilari (burun, ko'z, stol, shkaf, u); b. predmet konturi yoki uning xarakterli xususiyatlari ko'rsatuvchi mimik belgilar (yulduz, g'oz, ona); v. to'liq yoki qisman imitatsiya qiluvchi xarakterlar.

2. Sezgilarga asoslangan belgilar.

3. Xid sezgilariga asoslangan belgilar.
4. Teri sezgilariga asoslangan belgilar.
5. Xid sezgilariga asoslangan belgilar.
6. Moza ta'lim sezgilariga asoslangan belgilar.
7. Organik sezgilarga asoslangan belgilar.
8. Ematsional sezgilarga asoslangan belgilar.
9. Mimiko-daktil sezgilar
10. Tabiiy sezgilar
11. Shartli sezgilar
12. Sonni ifodalovchi sezgilar
13. O'tkazuvchan mimik sezgilar

Mimik belgilar tarkibi qat'iy va bir turga ega bo'lmaydi. Karlar Yangi tushunchalarni egallashi va nutqda yangi so'z paydo bo'lishi bilan mimik belgilar yuzaga kela boshlaydi (televizor, bomba). Ayrim mimik belgilar bir tomondan konkret va ko'rgazmaliligi, ikki tomondan diffuzligi va differensiallashmaganligi bilan xarakterlanadi. Shuning uchun, uy belgisi ko'p qavatli uy, hovli joy ma'nosidagi ishlatilishi mumkin. Shu sababli, mimik belgilarda umumlashtirishlar ko'p uchraydi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ta'lim tizimida so'zlashuv nutqi o'zgarib boradi va mimik belgilar yanada differensiyalanib boradi.

Avval kar bola turli turdosh qurilishlarni uy belgisi bilan markali mashinalarni belgisi bilan ifodalanmasa, so'zlashuv nutqi yordamida yangi differensiallashgan belgilarni qo'llay boshlandi. Har qaysi mimik belgi qoidadir, obyektiv realligi ifodalasa ham, har shakllarni turli jamoalarida turlicha ma'noda kelish mumkin. Bu avvalo ko'rsatish, plastik va imitatsiyalovchi belgilarga xosdir. Mimik belgida ematsional belgi so'zga nisbatan yorqli ifodalanadi. Mimikada predmet xodisani belgilanish va unga munosabat bir vaqtda ifodalanadi. Nutqning ikki tomonni uning Grammatik tomonida yordamida tilning ovoz qismi ma'noli xarakter kasb etadi. Mimik imoishora nutqi o'zining grammatik tuzilishiga egami? Imo-ishora nutqi Grammatik tuzilishga ega bo'lmagan, agrammatik nutqdir. Lekin bu ushbu nutq turixatolik degan ma'noni bildirmaydi. Imo-ishora nutqida ham gap tuzilishning o'ziga xos qonunqoidalari mavjud. Nutqda har bir so'z ma'lum grammatik shaklga egadir, u gapda boshqa so'zlar bilan muloqotga kirishishi bilan grammatik shakli o'zgaradi. Mimik belgisini shakli esa o'zgaruvchan bo'lmaydi,

u gapda boshqa ishoralar bilan kelganda ham grammatik jihatdan o'zgartirmaydi. Mimik belgi so'zga nisbatan Grammatik jihatdan sodda bo'ladi, lekin mimik gap qo'rilishda nutq qismlarni qo'llashda o'ziga xos tendensiyani ko'rish mumkin. So'zlashuv nutqida va imo-ishora nutqida ham gaplarda so'zlarni joylashish tartibi bir xil bo'ladi. Xususan, kesim, vositali to'ldiruvchidan iborat. Yoyiq gapni so'zlashuv va imo-ishora nutqida joylashish tartibi bir xildir.

Imo-ishora nutqida qo'shimcha gaplarga nisbatan sodda gaplar ko'p qo'llaniladi. Gap tarkibidagi yuklama qo'shimchalar imo-ishora nutqida kam qo'llaniladi. Imo-ishora nutqi egallash jarayoniga kar bolani so'zlashuv nutqini egallash darajasi ta'sir ko'rsatadi. Imo-ishora nutqi ham so'zlashuv nutqi shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi, lekin bu ta'sir salbiy ko'rinishga ega bo'ladi. Ba'zan yozma yoki og'zaki nutqda gap tuzish imo-ishora nutqidagi barcha nuqsonlarni o'zida ifodalaydi: gap bo'laklarini o'rnini almashib qolishi, so'zlarni grammatik

aloqasini buzilishiga olib keladi. Shunday qilib, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni imo-ishora nutqi so'zlashuv nutqidan juda katta farq qiladi. Bu farq uning vazifasi, tarkibiy qismlari va mimikasiga ham xosdir. U asosan so'z va mimik belgini solishtirganda, gapdagi so'z

bo'laklarini bu ikki turda nutq shaklida namoyon bo'lishida yaqqol ko'zga tashlanadi. Og'zaki nutqga nisbatan chegaralanganligi, takomillashmaganligiga qaramay imoishora nutqi kar shaxslari uchun asosiy muloqot qurolidir. Pedagogik jarayonida imoishora nutqidan foydalanish ilk bosqichlarda yaxshi samara beradi. Eshitadigan bolaning og'zaki nutqi kabi (mimika) imo - ishora nutqi muloqot htijojidan kelib chiqadi. Bola dastlab foydalanadigan imo - ishoralar juda sodda, tabiiy (masalan, u nimanidir hohlasa, predmetga ishoa qiladi). Asta - sekin ular murakkablashadi, muloqot vazifasini bajara boylaydi, shartli xarakter kasb etadi.

Biroq eshitish sezgilari asosida shakllanadigan og'zaki nutqdan farqli o'laroq, mimika - ishora nutqi boshqa natomik - fiziologik asosda - ko'rish va harakat sezgilari asosida yuzaga keladi. So'zning realizatsiya vositasi uning tarixan shakllangan va barqaror tovush yoki grafik qobig'i bo'lsa, mimik belgini realizatsiyalash vositasi qo'l harakati va yuzning tegishli mimik ifodasi sanaladi. Bosh miya qobig'i harakat uchastkalarining mimika - ishora nutqi shakllanishi

uchun ahamiyati afaziyalarda nafaqat nutqiy, balki harakat funksiyalari ham buzilishi, jumladan ba'zan mimika - ishora va daktil nutq buzilishi ro'y berishi mumkinligi bilan o'z tasdig'ini topadi.

Ma'lumki, til ikkita asosiy vazifa bajaradi. U fikrlash quroli va muloqot vositasi sanaladi. Mimika - ishora nutqi shu vazifalarga egami? Ma'lumki, karlar mimika yordamida murojaat qilish va o'zaro tushunishga erisha olishadi. Mimika - ishora nutqi ular uchun atrof olamni bilishga ko'maklashuvchi vosita hamdir. Masalan, kar - soqov ota - ona oilasida kar bola asosan mimika vositasida muloqot qilib rivojlanadi, biroo'q shunga qaramay, uning intellektual rivojlanish darajasi anchagina yuqori bo'lishi mumkin. Shunday qilib, mimika karlar uchun muloqot funksiyasini bajarishini inkor etish noto'g'ri bo'ladi. Bu jihatdan u odatiy nutq bilan ma'lum o'xshashlikka ega. Biroq mimika va tilning bu funksiyani realizatsiyalashida jiddiy farqlarni kuzatish mumkin. Mimika - ishora nutqi faqat insonlarning juda cheklangan doirasi - karsoqovlar uchun muloqot vazifasini bajarishi mumkin. Og'zaki nutqni egallamagan, mimikani bilmaydigan boshqa kishilar bilan erkin muloqot qila olmaydi. Til esa umumxalq muloqot vositasi sanaladi. Til muloqot funksiyasini bajargani uchungina fikrlash quroli bo'lib xizmat qila oladi. U muloqot vositasi bo'lmas ekan, o'zining ikkinchi funksiyasini ham yo'qotadi.

Bir qarashda, qarama - qarshilikka duch kelgandaymiz. Agarkı fikrlash quroli til va fikrlar faqat til asosida yuzaka kelar ekan, demak uni, ya'ni tilni egallamagan kar - soqovlarlarda fikrlash asosi yo'q. Biroq aslida bunday emas: ularning xulqi aqlli, anglashilgan, biroq fikrlar boshqa asosda - saqlangan sezgi a'zolari (ko'rish, hid bilish, taktil - vibratsiya analizatorlari) tufayli yuzaga keladigan obrazlar, tasavvurlar, idrok asosida shakllanadi. Tadqiqotlar ko'rsatadiki, kar odamlar fikrlashida mimika ham qatnashadi, biroq bu masala hali yaxshi o'rganilmagan vashu sababli karlarda fikrlash qo'roli mimika, deb to'liq ishonch bilan aytishga hali erta.

Tilning eng muhim tarkibiy qismlari uning lug'at tarkibi va grammatik qo'rilishi sanaladi. Mimikani til bilan qiyoslaaganda, uning ham ayrim tarkibiy qismlarini shartli ravishda ajratish mumkin. Mimika - ishora nutqi uchun o'ziga xos qurilish materiali ma'lum, nisbatanshakllanib ulgurgan mimik belgilar frndi sanaladi.

Ularni so'z bilan qiyoslaganda farqli jihatlar o'xshashlariga nisbatan ko'proq bo'ladi. ayrim mimik ishori so'zlar kabi umumlashtirish elementiga ega. Bu ularning ma'lum diffuzligida, bo'linmasligida ifodalanadi (masalan, ishlamoq, ishchi, qilmoq, bolg'a bilan qoqmoq

tushunchalari karlarning ayrim jamoalarida aynan bir belgi bilan ifodalanadi. Har bir tilning so'zlari barqaror va universal ma'noga ega. Aynan bir predmetning nomi shut il tarqalgan butun hudud doirasida saqlanadi.

Mimik belgilar bunchalik barqaror emas. Karlarning turli jamoalarida aynan bir tushunchalar turlicha belgilar bilan ifodalanishini ko'rish mumkin. Ularning xarakteri aynan bir jamoada lisoniy nutqni o'rganish jarayonida uning ta'sirida ham o'zgarishi mumkin. bularning bari so'zlarga xos emas. So'zda tovush kompleksi bilan ma'no - mazmun o'rtasida mustahkam tarixan shakllangan aloqa mavjud bo'lib, u ixtiyoriy tarzda buzilishi mumkin emas. So'zning tovush tarikbini o'zgartirar ekanmiz, u o'zining signal funksiyasini shu zahoti yo'qotishi mumkin.

Tovush kompleksi, odatda, u ifodalagan mazmun bilan hech bir umumiylikka ega emas. ayrim mimik (masalan, ko'rsatish, plastik) belgilarda esa bu aloqa anchagina yaqqol ko'zga tashlanadi. Mimik belgilar xarakteri kar bolalarni lisoniy nutqqa o'rgatish jarayonida jiddiy o'zgarishlarga uchraydi - ularning ma'nosi aniqlashtiriladi, yanada differensiatssiyalanadi. Dastlab bola hamma qurilmalarni uy, avtomobillarning hammasini mashina belgisi bilan ifodalasa, keyinchalik lisoniy nutq ta'sirida yangi alohida differensiatssiyalangan belgilar (katta uy, kichi kuy, bir qavatli uy), shuningdek yengil va yuk avtomobilini ifodalash uchun alohida belgilar paydo bo'ladi. Mimik belgilar konkretligi va yetarlicha umumlashtirilmagani sababli mavhum tushunchalarni ifodalaydiganlari soni u qadar ko'p emas. Bu holda ba'zida mimik belgilar kompleksidan foydalanishga to'g'ri keladi. Har bir mimik belgi qandaydir obyektiv reallik, qandaydir predmet, yorqin ifodalangan belgili harakatni ifodalagani sababli ko'plab belgilar barqaror ma'nolarini saqlab qoladi va karlarning turli bir - biridan uzoq bo'lgan guruhlari uchun bir xil sanaladi. Bu avvalo ko'rsatish, plastik, imitatsiyalaydigan belgilarga taalluqli (uy, qush, kitob, ishlamoq, yemoq). Shu bilan birga ayrim mimik belgilar avtonom bo'lib, turli jamoalarda turlicha tushunchalarni ifoda etadi. Masalan,

predmet yoki harakat qator raqobatdosh belgilarga ega bo'lsa, ayrim hollarda bitta belgi, boshqa hollarda boshqasi mimik belgi uchu nasos bo'la oladi. Emotsional ottenka mimik belgida so'zga qaraganda yorqinroq ifodalanadi. Mimikada predmet, belgi va unga munosabatni ifodalash go'yo uyg'unlashib ketadi va bir paytning o'zida ifodalanadi.

Tilning yana bir muhim belgisi uning grammatik qurilishi sanaladi. Mimika - ishora nutqida ergashgan qo'shma gaplar kam qo'llanadi. Yordamchi so'zlar deyarli qo'llanmaydi. Lisoniy nutqni o'zlashtirish mimik ishora gap qurilishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Mimika ham lisoniy nutq shakllanishiga - umuman salbiy - ta'sir o'tkazadi. ba'zida og'zaki yoki yozma nutqda gap mimik - ishora nutqidagi kamchiliklarni saqlab qoladi. Shunday qilib karlarning imo - ishora nutqi lisoniy nutqdan tubdan farq qiladi. Bu farqlar funksiyalar, kabi til va mimikaning tarkibiy qismlariga ham oid. Pedagogic jarayonda mimikadan foydalanishga yo'l qo'yiladi. Biroq maktabning vazifasi bolalarda lisoniy nutqni shakllantirishni yoddan chiqarimaslik lozim bo'ladi.



#### Savol:

1. ENB bolalarning muloqot vositasi nima?
2. Imo-ishora nutqini tushuntiring
3. Daktil nutqining imkoniyatlarini klasterlang
4. Mashg'ulotda daktil nutqi qanday tartibda ishlaydi?
5. Imo-ishora nutqidagi o'ziga xosliklar borasidagi tahlillaringizni *Jamboard* da keltiring.

#### 14. KAR VA ZAIF ESHITUVCHI BOLALARNI TARBİYALASH YONALISHLARI METOD VA VOSITALARI

**Tayanch tushunchalar:** *kar va zaif eshituvchi, bolalarni tarbiyalash, bolaning ongi, his-tuyg'ulari, irodasi, xulq-atvor, metod va vositalar.*

Tarbiya metodlari deganda, har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish maqsadida bolaning ongi, his-tuyg'ulari, irodasi, xulq-atvori va munosabatlari tizimiga ta'sir ko'rsatish metodlari tushuniladi.

Tarbiya metodlari deganda, har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish maqsadida bolaning ongi, his-tuyg'ulari, irodasi, xulq-atvori va munosabatlari tizimiga ta'sir ko'rsatish metodlari tushuniladi. Tarbiyalash masalalari, turli metodlarni qo'llash yordamida amalga oshiriladi. Umumiy va maxsus pedagogika orqali turli metodlarni tasniflashga harakat qilib ko'rilgan. Umumiy pedagogikada, masalan, ishontirish, o'qitish, mashq bajartirish, jamoa bo'lib ishlash jarayonida tarbiyalash, ya'ni tarbiyalash vaziyatini yaratish kabi metodlar bilan bir qatorda, qo'llab-quvvatlash, qoralash, rag'batlantirish, jazolash va x.k. metodlar o'rin olgan. Surdopedagogikada tarbiyalash metodlari quyidagicha guruhlangan: o'quvchilarning xulqini tarbiyalash metodlari, o'quvchilarning ongini tarbiyalash metodlari, rag'batlantirish va jazolash metodlari. O'quvchilarning xulqini tarbiyalash metodlariga o'qitish, mashq bajartirish, jamiyatga nafi tegadigan ishlar va o'yinlarni tashkil etish, taqlid qilish asosida ijobiy odatlarni tarbiyalash, pedagogik talablarni qo'ya bilish kabilar kiradi.

Ko'p yillik tajriba shuni ko'rsatyaptiki, o'quvchilarning xulqini tarbiyalashda keng qo'llanayotgan metod bu ularning jamoa faoliyatlarini maqsadli tashkil etishdir. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ongiga xulq va ijobiy odatlarni singdirish, ko'p marotabalab misollarda xulqni ko'rsatish yo'li bilan hamda pedagogning birgalikda amalga oshiriladigan ishlar jarayoni misolida ko'rish mumkin.

Bolalarning ish faoliyatlari ularning yoshlariga muvofiq holda bo'lishiga, ayniqsa, ko'proq ahamiyat berish lozim. Shuning uchun turli o'yinlarning tarbiyaviy ahamiyatini inobatga olgan holda bu

o'yinlarni kundalik va jamiyatga nafi tegadigan ishlar bilan almashtirib turish kerak.

Jamoat ishlari shunday tashkillashtirilishi kerakki, unda bolalar bajarayotgan ishlarini ongli ravishda qilayotganliklarini, mehnat natijalarini ko'rib undan shod bo'lib, zavqlanayotganliklarini bilishi darkor.

Ko'pgina mutaxassislar pedagogik talablarni qo'ya bilish metodining effektivligiga ko'proq ahamiyat beradilar. Talablar shakliga ko'ra: yo'naltirilgan (buyruq) va ikkilamchi (iltimos, ma'qullash, ishonch bildirish, maslahat, aybdor qilish, ishonchsizlik bildirish, xavf solish) holda bo'ladi. Mutaxassislarning fikricha, eng tarbiyaviy samara, talablarni moxirona ketma-ket ishlata bilishdan hosil bo'ladi. Tajribalardan ma'lum bo'lishicha, o'quvchilar talablarga hissiy javob berib, xulq me'yorlarini tezda o'zlashtirib oladilar.

Yuqorida qayd etilganidek, tarbiya metodlari – bu shaxsning ijobiy tomonlari shakllanishiga, pedagoglarning tarbiyalanuvchilarga ta'sir qiluvchi yo'l-yo'riqlaridir. Tarbiya metodlarini tasniflashda turli xil yondashuvlar mavjud. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda tarbiya metodlarining quyidagi tasnifi qabul qilingan. Axborotlar metodi: (o'quvchilarga axloq metodlari, normalari haqida.

Bunga suhbat, hikoya, tushuntirish, filmlar ko'rish, misol keltirish, pedagogik talablar kiradi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun informasion metod murakkab hisoblanadi, chunki bu metod so'zlashuv nutqida asoslangandir. a) suhbat – tarbiya metodi sifatida hayot muammolarini hal qilishni nazarda tutadi. O'rganilayotgan materialga qarab suhbat-epik, estetik va ijtimoiy-siyosiy suhbatlarga bo'lindi.

Estetik suhbat – o'quvchilarni estetikaga o'rgatish, tasviriy san'atga nisbatan qiziqishni uyg'otish. Bunday suhbat vositalari o'tilgan hikoyalar, yozuvchi yoki rassomlar hayoti haqidagi diafilmlarni ko'rish, rasmlarni ko'rish tabiat, inson go'zalligini kuzatish. Epik suhbat- axloq tupgunchalarining ma'nosi tarbiya normalari orqali ochib beriladi.

Eshitish nuqsoniga ega bo'lgan bolalar bu tushunchalarni qiyinchiliklar bilan tushunib oladilar. Epik tarbiya vositalariga

ekskursiyalar, rasmlar kiradi. Ijtimoiy-siyosiy suhbat. O'quvchilarning jamiyatda va siyosatda ro'y berayotgan hodisalarni bilish faoliyatini rivojlantirishga qaratilgandir. Bu suhbat vositalariga bayramlar, xalqaro hayot hodisalari kiradi. b) tushuntirish – eshitish nuqsoniga ega bo'lgan bolalar har doim ham axloq normalarining talablariga jiddiy ahamiyat bermaydilar. Pedagog tushuntirishi (frontal, individual) o'quvchiga sodir bo'lgan vaziyatdan chiqib ketish uchun axloq normalarini bilish kerakligi tushuntiriladi. v) pedagogik talablar – tarbiya metodi sifatida juda katta tarbiya kuchiga egadir.

Bu metodning o'ziga xosligini hisobga olgan holda kichik yoshli bolalar tarbiyasiga qo'llash tavsiya etiladi. Eshitish nuqsoniga va nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar pedagogning uzun tushuntirishi yoki hikoyasiga ko'ra, qisqa so'zlashuv talab-buyruqlarni (turing, to'g'ri o'tiring, kitobni olib qo'ying va boshqalar) tushinishi oson. g) ma'ruza, bahslashuvlar.

Tarbiya metodi sifatida kar va zaif eshituvchilar maktabining yuqori sinflarida qo'llaniladi. Leksiya va dokladlarni o'tkazish jarayonida so'zlashuv nutq va daktil nutq qo'llaniladi. Leksiya va dokladlarni o'tkazishga o'quvchilar oddindan tayyorlanadilar. d) misol keltirish metodi. Tarbiya metodi sifatida bolalarga katta ta'sir ko'rsatadi. Bu metodlarning kuchi shundaki, har bir bola taklif qilish xususiyatiga ega. Bu metodning moyilligi shundaki, kar va zaif eshituvchi bolalar, ko'rgazmalar orqali xulq va qilingan faoliyatni yaxshiroq tushunadilar. Eshitish nuqsoniga ega bo'lgan bolalar uchun ko'rgazmali misol ularga "yaqin" va tushunarli bo'lgan narsalardan iborat bo'lishi kerak. Buning uchun katta kishilar misol qilib olinadi: o'qituvchi, tarbiyachi, sinfdoshlari.

Amaliy faoliyat metodi: o'quvchilarning xulqi va ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgandir. Bu guruhga o'rgatish, mashq qilish, o'yin va vaziyatli tarbiyalovchi metodlar kiradi. Bu metod eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarga juda qo'l keladi, chunki ularning ko'rgazmali tafakkuri to'liq shakllangan bo'ladi.

a) o'rgatish va mashq qilish metodi xulqning ijobiy shakllanishiga qaratiladi. Bu metod yordamida bolalarda gigienik odatlar, axloqiy madaniyat malakasi, rejalilik shakllanadi. O'rgatish – harakatni ko'rsatish bilan boshlanadi. O'qituvchi ko'rsatadi, keyin talab qilinayotgan harakatni o'quvchilar takrorlaydi. Ko'rsatish juda

aniq, tushunarli bo'lishi shart. O'qituvchi juda murakkab har bir harakatni alohida ko'rsatishi mumkin. Faoliyat ko'rsatilgandan keyin bolalar mashq qilishni boshlaydilar.

b) o'yin tarbiya metodi sifatida kichik yoshdagi kar va zaif eshituvchi o'quvchilar tarbiyasida qo'llaniladi. O'yin ko'nikmasi kar bolalarda normal bolalarga ko'ra ancha kech shakllanadi. Turli o'yinlar tarbiya vositasi bo'lishi mumkin. Harakatli o'yinlar harakatlarni shakllantirish bilan birga, jamoada ishlash, ma'lum qoidalarga rioya qilishni o'rgatadi. Bola hayotida rolli o'yinlar katta ahamiyatga ega. Chunki bu o'yinda bola biron bir rolni bajaradi, axloq normalarga rioya qiladi.

v) ijtimoiy-foydali faoliyat metodi kar va zaif eshituvchi bolalar uchun juda muhimdir. Ijtimoiy foydali faoliyat bolalar jamoasi bilan amalga oshiriladi. Jamoalashtirilgan ish o'quvchilarni rejalashtirishga, taqsimlashga, nazorat qilish va baholashga o'rgatadi.

g) tarbiyalovchi vaziyatlar. Tarbiya metodi sifatida bolalar xulqini shakllantirishga qaratiladi. Bu metod nafaqat bitta o'quvchiga balki, butun sinfga ta'sir qiladi. Tarbiyalovchi vaziyatlarda buyruq berish, o'yin, o'quv vaziyatlari ajralib chiqadi. Buyruq beruvchi vaziyatlar metodi vositasida bolalarda jamoada ishlash ko'nikmalari shakllanadi. Eshitish nuqsoniga ega bo'lgan bolalarga berilayotgan buyruqlar ularga tushunarli bo'lishi kerak. O'quv vaziyatlar biron-bir xato ishni qilib qo'ygan bolaga ta'sir qilib, ishni sinf jamoasi bilan hal qilishga o'rgatadi. Tarbiyaning qiziqtirish metodi.

Bu metod o'quvchilarning axloqiy his-tuyg'ulariga qaratilgandir. a) rag'batlantirish. Bu metod asosida insonga ijobiy baho berish yotadi. Rag'batlantirish bolada ijobiy xislatlarni va o'z kuchiga ishonch hosil qildiradi. Rag'batlantirish turlari xilma-xildir. Masalan: "qo'shib-qo'yish"; fishkalar bilan rag'batlantirish. So'zlashuv nutqini shakllantirish jarayonida o'qituvchi rag'batlantiruvchi so'zlarni keltiradi: "yaxshi", "to'g'ri".

Rag'batlantirish turli vaziyatlarda qo'llaniladi. Sinf oldida, maktab jamoasi oldida, ota-onalar oldida. b) jazolash. Bunda salbiy baholar beriladi. Kar va zaif eshituvchi bolalar bilan bu metodni juda ehtiyotkorlik bilan qo'llash kerak. Maxsus maktablarda jazolashning turli ko'rinishlari ishlatiladi, xo'mrayish, bosh bilan silkitish, qo'l

harakatlari va boshqalar. Keyin soʻzli jazolashlar qoʻllaniladi: “yomon”, “uyat”, “xunuk” va boshqalar. Jazolashning soʻzli koʻrinishidan tashqari, maxsus maktablarda oʻquvchilarning salbiy harakatini tartibga soluvchi usullar qoʻllaniladi. Karidorda yugurding – toʻxta, tinchlan – tuzat; oʻrtogʻing bilan urishding – kechirim soʻra kabi harakatlardan foydalaniladi.



#### Savol:

1. Eshitishida muammosi boʻlgan bolalar tarbiyasining xususiyatlarini izohlang.
2. Tarbiya jarayonida kompensator va korreksion-rivojlantiruvchi yoʻnalishlarga misollar keltiring.
3. Qanday metodlar tarbiya metodlari hisoblanadi?
4. Aqliy tarbiya vazifalarini izohlang.
5. Kar va zaif eshituvchi bolalarda muvozanatni shakllantirish yollariga misol keltiring.

### 15. KAR VA ZAIF ESHITUVCHI BOLALARNING IJTIMOYLAHVU OMILLARI VA STARAGEYALARI

**Tayanch tushunchalar:** *kar va zaif eshituvchi, Yakka tartibda oʻqitish, eshitish nuqsoni, ijtimoiy buyurtma, kar bolalar, oʻqitish va tarbiyalash, etish va rivojlantirish, kar va zaif eshituvchi, bolalarni tarbiyalash, bolaning ongi, his-tuygʻulari, irodasi, xulq-atvor, metod va vositalar.*

**Ijtimoiylashuv** deganda insonning oʻzi yashab turgan jamiyat ichida yashashi, faoliyat yuritishi va toʻlaqonli munosabarlarga kira olib, oshu davrada oʻz oʻrmini topishiga aytiladi.

Ijtimoiylashuv individning shaxsga aylanish jarayoni ostida kechuvchi qayta aloqaning sifati bilan bogʻliq tushuncha hisoblanadi. Shaxs hayoti davomida ehtiyojlarini qondirishi, oʻzi va oʻzgalar manfaatlarini koʻzlagan holda maʼlum harakatlarni amalga oshirishi uning boshqa insonlar bilan oʻzaro muloqoti orqali amalga oshiriladi. Shaxsning muhitga moslashuvi ijtimoiy va shaxsiy

omillarning oʻzaro aloqadorligida amalga oshadi. Maʼlum muhitda rivojlanayotgan bola oʻz faolliklarini anglay boshlaydi, yaʼni oʻz-oʻzini bilishi, anglashi sodir boʻladi. Bu jarayon ijtimoiy anglashdir. Asta-sekin muhit taʼsirida oʻz hatti-harakatlari orqali faoliyatini qayta oʻzgarishga yoʻnaltiradi, bu davr unda dunyoqarashning kengayishi, tajribalarning ortishi, maʼlumotlar, voqeliklar haqida mustaqil fikrlaydigan hamda oʻz fikrini qarshi qoʻya oladigan darajada shakllanganligi bilan bogʻliqdir.

A.V.Petrovskiy ijtimoiylashish jarayonida subyekt-obyekt munosabatlarining rivojlanishini uch darajaga ajratib koʻrsatgan : moslashish, individuallashish va integratsiyalashuv.

Moslashish darajasi bolalik davri bilan bogʻliqdir. Bu darajada bola odamlar dunyosiga kirib boradi, belgilar tizimini oʻzlashtiradi, odamlar tomonidan yaratilgan oddiy meʼyorlar va xulq-atvor qoidalari, inson faoliyatining oddiy koʻrinishlarini egallaydi. Bola oʻzi shaxs sifatida rivojlanishni oʻrganadi. Bu davr ijtimoiylashish jarayonida juda ham muhimdir.

Individuallashish darajasida insonning ehtiyojlariga bogʻliq oʻzgarishlar kuzatiladi. Bunda shaxs-ommaviy munosabatlar subyekt hisoblanadi. subyekt faoliyati birinchi darajada oʻzlashtirishga yoʻnalgan boʻlsa, ikkinchi darajada esa, uni qayta uqgartirishga ham kirisha oladi. Bu davrda bolada “men”, yaʼni individuallik yuzaga keladi, oʻz-oʻzini koʻrsatish ustuvorlik qiladi.

Integratsiyaning uchinchi darajasi ijtimoiylashish boʻlib, bu jarayonda inson rivojlanadi. Bu bosqichda insonlarda ijtimoiy qadriyatlar paydo boʻladi. Aynan shu davrga yetgach, inson maʼlum bir ijtimoiy guruhga tegishlilikini anglaydi.

Bola ilk rivojlanish davrida ijtimoiy munosabatlar dunyosiga kirib boradi. Yaqin odamlar bilan muloqotda boʻlishi orqali asta-sekin xulq-atvor meʼyorlarini oʻrganadi. Lekin bu davrda uning harakatlari anglanmagan boʻladi. Asta-sekin bolaning ichki dunyosi shakllanadi. Bolaning kattalar bilan munosabat shakli oʻzgaradi, atrof-muhitdagi narsalar dunyosiga kirib boradi va shu asosda predmetli faoliyatni oʻzlashtiradi. Ana shu predmetli faoliyat asosida bola kattalar bilan muloqotga kirishadi, predmetlarning obrazi bilan bogʻliq ravishda atrof-muhitni oʻrganadi.

Oila ijtimoiylashishning muhim instituti hisoblanadi, chunki oilaning oʻrnini hech qanday boshqa jamoa egallay olmaydi. Oilada

insonning dastlabki ijtimoiy moslashish davri kechadi. 6 yoshgacha bola uchun bu asosiy ijtimoiy muhitdir. Asosiy ijtimoiy munosabat va odatlarni bola oilada egallaydi. Oila bolani jamoada o'zini tutishga o'rgatadi va unga diniy qadriyatlar, etnik qarashlar va ma'naviy qadr-qimmatlarning mohiyatini tushuntiradi.

"Ijtimoiylashtirish" tushunchasi "jamo" va "indiv" tushunchalari bilan bog'liqdir. Ushbu tushunchalarning mazmuni, mohiyati va o'ziga xos xususiyatlarini ochish masalalari bilan falsafa, sosiologiya, psixologiya va pedagogika shug'ullanadi.

Ijtimoiy moslashuv turli munosabatlar sharoitida amalga oshadi. Shaxsning moslashganlik darajasi ijtimoiy muhit xususiyatlari va insonning shaxsiy sifatlari bilan ifodalanadi. Ma'lumki, ijtimoiylashuv jarayonining asosi insonning muhitga moslashuvidan iborat bo'lib, uning ta'sirida shaxs jamiyatning teng huquqli a'zosiga, turli munosabatlarning faol ishtirokchisiga aylanadi. Insonning ijtimoiy moslashuvi jamiyatga munosabatlari bilan bog'liq ravishda o'zgarib boradi va unda jamiyat talablariga javob berish darajasi ortib boradi.

G.M.Mastyukova va O.M.Usanova o'z ilmiy tadqiqotlarida "Ijtimoiylashish orqali inson egallagan ijtimoiy tajribasi, ahloq me'yorlari asosida jamiyatga moslashadi va qo'shiladi. Shaxs o'z tabiatiga ko'ra mustaqillikka erishishga, shaxsiy fikrini shakllantirishga intiladi" -deb e'tirof etadi.

Ijtimoiylashuv va ijtimoiy moslashuv o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, shaxs va jamiyatning o'zaro munosabati birligini o'zida aks ettiradi.

Ijtimoiylashuv, odatda, umumiy rivojlanish bilan, moslashuv esa, yangi sharoit, muloqot va faoliyat bilan belgilanadi. E.Erikson atrof-muhitga moslashishning ikki turini ajratadi:

-allaplastik, ya'ni tashqi olam o'zgarishi bilan bog'liq moslashuv (tibbiy lug'aviy ma'nosi - plastik jarroxlik operatsiyasi, ya'ni nuqsonli yoki kasallangan organ yoki to'qimaning o'rniga boshqa yot organ yoki to'qimani qo'yish);

-autoplastik (auto grekcha plastika, yasash, xaykaltaroshlik) individning o'z-o'zini o'zgartirish orqali moslashishi. Allaplastik adaptatsiya rivojlanish, shaxsiy o'sishga, yangi faollikka intilish

uchun asos yaratadi. Autoplastik adaptatsiya shaxsning muxitga moslashishiga imkon beruvchi o'zgarishlarni ta'minlaydi.

Har doim ham bolalarning ma'lum bir jamoaga qo'shilib ketishi oson bo'lmaydi. Aksincha, u yoki bu ta'sirlar doirasida bola hayotida yuz beradigan to'siqlar dezadaptatsiya jarayoni yuzaga keladi. Hozirgi kunda amaliyotda bu kabi ijtimoiylashuv muammolarini bartaraf etishning yaxlit uslublari mavjud emas. Chunki bu muammo bola hayotining turli jihatlarini o'z ichiga oladi. Bu vaziyatda tibbiy, pedagogik, psixologik va ijtimoiy omillarni inobatga olish zarur.

Amaliy psixologiyada dezadaptatsiyani bartaraf etishda quyidagi tartibda ish olib borish yo'lga qo'yilgan:

-bola yashayotgan ijtimoiy muhit o'rganiladi, anamnez yig'iladi;

-bolada mavjud ichki qarshilik xarakteri o'rganiladi;

-bolaning moslashuviga qarshi omillar aniqlanadi, jamlanadi;

-bolaning yosh xususiyatlariga ko'ra psixofizik rivojlanish darajasi maxsus testlar orqali o'rganiladi;

-bolaning individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda pedagogik-psixologik korreksiya ishlari rejalashtiriladi.

Agar ushbu ish reja maqsadli tuzilib, u bo'yicha mashg'ulotlar tashkil etilsa, bolada hayotni sevish va unga ijobiy munosabatda bo'lish xissi kuchayadi.

Hozirgi zamonda Z.Freyd g'oyalariga tayangan holda moslashuv jarayonining ikki darajasini farqlash mumkin: adaptatsiya va dezadaptatsiya (insonning tashqi sharoitga qisman yoki to'liq moslashmasligi).

Moslashuv shaxs va muhitning o'zaro munosabati - ta'sir maydoni yuzaga kelganda amalga oshadi. Shaxs va muhit o'rtasidagi munosabat yuzaga kelmasa, dezadaptatsiya amalga oshadi. Ijtimoiy ta'sirlarga xar bir shaxs o'z jinsi, yoshiga muvofiq javob beradi. Har bir inson hayotda uchraydigan to'siqlar va qiyinchiliklarni yengish uchun mos va xos usullarni qo'llaganligi sababli, moslashuvchanlikni usullar tizimi deya talqin etish mumkin.

A.A.Rean ijtimoiy moslashuv modelini ichki va tashqi ko'rsatkichlar bilan bog'laydi. Ichki ko'rsatkichlarni psixoemosional mo'tadillik, qoniqish, qulaylik mavjudligi hamda, stress, havf-xatar mavjud emasligi holatlari tashkil etadi. Tashqi ko'rsatkichlarni muhit qonun-qoidalari, talablari, jamiyat me'yorlari qamrab oladi. Sog'lom bolalar va kattalar kabi kar hamda zaif eshituvchi



bolalarning ijtimoiylashuvi psixologik ildizga ega bo'lib, pedagogik ta'sirdan oziqlanadi, rivojlanadi. Shuning uchun bu yo'nalishlardagi ilmiy tadqiqotlar mazmunida psixologik jarayonlarning hususiyatlarini o'rganish va ularning ta'siriga tayanish muhimdir. Quyida kar va zaif eshituvchi bolalarning shaxs sifatida shakllanishida psixologik jarayonlarning o'ziga xos o'rni va ta'siriga doir nazariy ma'lumotlar va amaliy xulosalar bayon etiladi.

Eshitishda muammolari bo'lgan bolalar va kattalarda psixologik jarayonlarning o'ziga xos shakllanishi va rivojlanishi masalalari bilan umumiy psixologiyaning mustaqil bo'limi - surdopsixologiya shug'ullanadi. Ushbu fanning rivojlanishiga qator olimlar, jumladan V.I.Fleri, F.A.Ostogradskiy, I.M.Logovskiy, F.A.Rau kabilar katta hissa qo'shishgan. Ularning ilmiy ishlarida eshitishda muammolari bo'lgan bolalarning ruhiy xususiyatlarini kuzatish va aniqlashga doir tavsiyalar va ilmiy qarashlar bayon etilgan.

V.I.Fleri eshitishda muammolari bo'lgan bolalarning harakat tizimi xususiyatlarini o'rgangan va noto'g'ri koordinatsiya, ishonchsiz harakatlanish mazkur toifa bolalar uchun xosligini ta'kidlagan.

Eshitishda muammolari bo'lgan bolalarda psixik jarayonlarning o'ziga xosligi eshitish nuqsonining paydo bo'lish vaqti hamda darajasiga bevosita bog'liqdir.

Ma'lumki, eshitish buzilishlari bolalarda turli infeksiya kasalliklar va boshqa ta'sirlar tufayli ichki, o'rta, tashqi quloqlarning shikastlanishi natijasida yuzaga keladi. Ichki quloq va quloq nervi shikastlangan bo'lsa, ko'p holatlarda karlik, agar o'rta quloq shikastlangan bo'lsa, eshitish pasayishi kuzatiladi. Bolada eshitish nuqsoni yuzaga kelishiga xomiladorlikning noqulay davom etishi, onaning virusli kasalliklar bilan kasallanishi ham sabab bo'ladi. Eshitish buzilishi sabablariga eshitish sezgilarining tug'ma deformatsiyasi, eshitish nervi atrofining lat yeyishi, ximik zaxarlanish, tug'ish davridagi shikastlanishlar, mexanik shikastlanishlarni ham kiritish mumkin.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ruxiy rivojlanishi tashqi olam bilan aloqa sharoitida amalga oshuvchi rivojlanishning o'ziga xos yo'lidir.

Eshitishda muammolari mavjud bolalarning ruxiy rivojlanishi eshituvchi bolalarning ruxiy rivojlanishi qonun-qoidalariga

bo'ysunadi. Sog'lom bolalar kabi eshitishda muammolari bo'lgan bolalar ruxiy rivojlanishi biologik va ijtimoiy omillarning o'zaro aloqadorligi ostida kechadi. Biologik omillarga nerv tizimining xususiyati, temperament tiplari, qobiliyat hamda bolaning fiziologik holatini kiritish mumkin. Onaning homiladorlik davrining qanday davom etishi, qaysi kasalliklar bilan kasallangani hamda qabul qilingan dorilarning ta'sirida yuzaga kelgan asoratlar, tug'ish travmalari xam biologik omil turkumiga kiradi.

Ijtimoiy omillar bola yashab, rivojlanayotgan jamiyat va muhitdir. Ijtimoiy muxit shu jamiyat hayotidagi mavjud me'yorlar, qoidalar, odatlar, ta'lim-tarbiya mazmunidir.

Avlodan-avlodga o'tadigan ijtimoiy tajribani egallash passiv idrok etish bilan emas, balki faol shaklda faoliyatning turli ko'rinishlari - o'yin, muloqot, mexnat, bilim olish jarayonlarida namoyon bo'ladi. Bolalar bu tajribani kattalar yordamida egallaydilar.

Eshitishda muammolari mavjud bolalarning ruxiy rivojlanishi xususiyatlari ruxiy rivojlanishdan orqada qolgan bolalar psixik rivojlanishi qonuniyatlariga o'xshab ketadi. Rivojlanishda nuqsoni mavjud bolalar atrofdagilar bilan muloqotda qiyinchiliklarga duch keladilar. Ma'lum bir nuqsonlarga ega bolalarning ruxiy rivojlanishini o'rganish L.V.Vigotskiyning fikricha, shu nuqson tuzilishi, murakkablik darajasidan kelib chiqadi. Karlik bu birlamchi nuqson bo'lsa, uning oqibatida ikkilamchi, uchlamchi nuqsonlar yuzaga keladi. Uchlamchi nuqsonlar odatda bolaning psixologik og'ishmalarida namoyon bo'ladi. Ta'lim jarayonidagi dastlabki to'siq bo'lib, birlamchi nuqson, ya'ni karlik yoki zaif eshituvchilik hisoblanadi. Karlik va zaif eshituvchilik bolalarning diqqati, xotirasi, tafakkuri va boshqa psixik jarayonlar rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Bola eshitmagani uchun gapirmaydi, gapirmagani uchun fikrlash doirasi cheklanadi, fikrlashi tor doirada bo'lganligi esa jamiyatga uyg'unlashishini sekinlashtiradi. Bola tor doiradagi odamlar orasida o'ziga xos ijtimoiy qiyinchiliklar olamida qoladi.

Ikkilamchi nuqsonlar tizimli xarakterga ega bo'ladi, funksional o'zaro munosabatlar tuzilishini o'zgartiradi. Ikkilamchi nuqson qanchalik birinchisiga yaqin bo'lsa, uni korreksiyalash shunchalik murakkabdir. Masalan, eshitishda muammolari bo'lgan bolalarning talaffuz nuqsoni eshitish buzilishi bilan bog'liq bo'lib, uni

korreksiyalash mushkul vazifadir. Kar va zaif eshituvchi bolalar ruxiy rivojlanishining o'ziga xosligi ikkilamchi nuqsonlarni erta korreksiyalashga ehtiyoj tug'diradi. Ya'ni kar va zaif eshituvchi bolalardagi ikkilamchi nuqsonlarni bartaraf etish choralari qanchalik erta ko'rilsa, bola shunchalik ertaroq ijtimoiy muhitning faol ishtirokchisiga aylanadi. Ayniqsa, psixik jarayonlar ustida maqsadli ish olib borilishi bolalarni ta'lim-tarbiya jarayoni talablarini to'laqonli egallashga tayyorlaydi. Shuning uchun kar va zaif eshituvchi bolalar maktabgacha va maktab ta'limi davrida ijtimoiy hayot uchun zarur ko'nikma va malakalarni egallash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Chunki maktabgacha va maktab ta'limi o'zining mazmuni va maqsadlariga ega jarayon sifatida defektolog mutaxassislar tomonidan tashkil etiladi. Eshitishning buzilishi yoki boshqa bir rivojlanish muammolari bola ruxiy rivojlanishining o'ziga xos qonuniyatlarini keltirib chiqarishi haqida B.I.Lubovskiy o'z ilmiy tadqiqotlarida aytib o'tgan. Ya'ni olimning fikricha, buzilishning barcha toifalarida ma'lumotni qabul qilish, qayta ishlash, saqlash va qo'llash imkoniyatini pasayishi kuzatiladi.

Imkoniyati cheklangan bolalarning shaxs sifatida shakllanishini nazariy asoslash uzoq tarixga borib taqaladi. Antik psixologiyada shaxs shakllanishi uning turmush tarziga bog'liq (Aristotel) degan g'oya ustuvorlik qilib, "rivojlanish" ning ma'nosi "yetilish" tushunchasi bilan ifodalangan. XX asrga kelib, L.S.Vigotskiy shaxs yetilmaydi, shaxs biologik va ijtimoiy omillar ta'sirida shakllanadi, degan g'oyani ilgari suradi.

Faoliyat nazariyasi muallifi A.N.Leontyev ham shaxsning hayot davomida turli ehtiyojlar doirasida zarur harakatlarni amalga oshirishi orqali rivojlanishini ta'kidlagan. Agar insonda tug'ma nuqsonlar mavjud bo'lsa, biologik faktorlar o'zining ta'sirini ko'rsatadi, ya'ni nuqson qanchalik murakkab bo'lsa, uning ta'siri shunchalik kuchli bo'ladi. Bu vaziyatda insonga kerakli yordam - ta'sirlar ko'rsatilmasa, unda rivojlanish yetilish bilangina cheklanadi. Inson tug'ma nuqsonlarsiz dunyoga kelsa, u nafaqat fiziologik yetiladi, balki ma'lum davrda u ijtimoiy muhit ta'sirida shakllana boshlaydi. Yuqori psixik jarayonlar ta'sirida o'z-o'zini angalaydi va o'zini o'zi namoyon qila boshlaydi.

Yuqorida keltirilgan nazariy ma'lumotlar karlik yoki zaif eshituvchilik bilan tug'ilgan bolalarning shaxs sifatida shakllanishiga

ta'sir etuvchi omillarni anglashga imkon beradi. Kar yoki zaif eshituvchi bolalarning ijtimoiylashuvida eng muhim va hal qiluvchi omil bu ular bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlardir.

Kar va zaif eshituvchi bolalarning shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart- sharoitlarni sanab o'tamiz.

1. Kar va zaif eshituvchi bolalarning emosional - hissiy sohasiga ta'sir etish. Buning uchun ularning ichki olamiga kira olish yo'llarini topishga ehtiyoj tug'iladi. Eng samarali yo'l bu oila qurshovida bo'lish, yaqinlarning ochiq muloqotidir. Oilalarda kar va zaif eshituvchi bolalarning qiziqishlarini anglash va ularning rivojlanishi uchun sharoitlar yaratish lozim.

2. O'quvchilarning mustaqilligi va faolligini yuzaga keltirish. Kar va zaif eshituvchi bolalarda o'z-o'ziga xizmat qilish, atrofdagilarga o'z fikrini tushuntira olish, o'zini namoyon qilish ko'nikmalarini rivojlantirish lozim.

3. Bolalarda faoliyatning turli yo'nalishlari, ya'ni o'yin, o'qish, dam olish, ijodkorlik kabilarni rivojlantiruvchi maqsadli yondashuvlar tashkil etish: ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, nutqiy tartib, tarbiyaviy mashg'ulotlar dasturi, oilalar bilan birgalikda seminarlar, tadbirlar, mashg'ulotlar, ochiq dars va mashg'ulotlar tashkil etish.

4. Bolalarni rag'batlantirish va jazolash vositalarini tanlash va joriy etish. Ushbu vazifa bola tarbiyasida, xususan, uning shaxs sifatida shakllanishida muhim omillardan biri sanaladi. Chunki bolalar har bir bajargan ishining o'z vaqtida baholanishini, maqtalishini xush ko'rishadi. Shu o'rinda ularni ayb ish yoki xato qilganda albatta javobgar bo'lishga o'rgatish ham muhimdir. Buning uchun bolalarning shaxsiy hususiyatlari, psixologik sezuvchanligini hisobga olgan holda yondashish lozim.

5. Bolalarning o'zigagina xos bo'lgan muhim psixologik hususiyatlarni inobatga olish.

6. Ta'lim jarayonida bolalarda yuzaga keluvchi vaqtinchalik psixik o'zgarishlarni inobatga olish va kutilishi mumkin bo'lgan muammolarning oldini olish.

Kar va zaif eshituvchi bolaning ijtimoiylashishida ijtimoiy tajribaning ta'siri beqiyosdir. Bolalar kattalarga taqlid asosida turli faoliyatlarni mustaqil, boshqalarini esa, o'zgalor yordamida o'zlashtirishga erishadilar.

Ijtimoiylashish natijasida kar bolalar sog'lom shaxslar kabi madaniyat va sivilizatsiyaga uyg'unlashadi.

Imkoniyati cheklangan bolalarda psixik jarayonlarning kech va sust rivojlanishi bilan bog'liq ravishda ularning ta'lim muddatlari belgilanib, mos usul va vositalar tanlanadi. Mazkur yo'nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqot ishi quyidagi xulosani asoslashga xizmat qildi. Ya'ni ta'lim-tarbiya ishlari oilalarda yo'lga qo'yilgan bo'lsa va albatta maktabgacha ta'lim muassasasida to'ldirilib, davom ettirilsa, kar bola maktab ta'limiga tayyor bo'ladi va u yangi muhitga qiyinchiliksiz moslashadi. Qachonki kar va zaif eshituvchi bola maktab ta'limi uchun zarur ko'nikma va malakalar bilan qurollangan bo'lsa, shundagina ta'lim mazmuniga qo'yiluvchi davlat talablarining bajarilishiga erishish imkoniyati yaratiladi. U yoki bu toifadagi nogironlikka ega bolaning yosh xususiyatlari va individual imkoniyatlari o'z vaqtida aniqlanib, yoshga oid yangi o'zgarishlar va individual hislatlar shakllanishi uchun shart-sharoitlar yaratilmasa, keyingi yosh bosqichida korreksiya yoki qo'shimcha rivojlantiruvchi ishlarni olib borishga zaruriyat kuchayadi.

Kar va zaif eshituvchi bolalarning to'laqonli ruhiy va shaxs sifatida rivojlanishini ta'minlash kompleks yondashuvlarni talab etuvchi jarayondir. Agar bu vazifa o'z vaqtida amalga oshirilmasa, ya'ni kattalar bolaning individual xususiyatlarini tushunmasalar yoki uning xayoti va faoliyati uchun mos shart-sharoitlar yaratib bermasalar, ma'lum vaqt o'tgach, korreksion ishlarga, alohida yondashuvlarga ehtiyoj tug'iladi. Biz olib borgan tadqiqot ishimizning pedagogik jarayonni o'rganishga yo'naltirilgan tajribas-inov ishlari natijalariga tayangan holda kar va zaif eshituvchi bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning quyidagi tamoyillarini ajratdik.

Kar va zaif eshituvchi bolalar qayerda yashamasin, qaysi ta'lim turi bilan qamrab olingan bo'lmasin, uning ijtimoiylashuvi quyidagi tamoyillar asosida amalga oshiriladi:

Ta'lim-tarbiya jarayonida korreksiya va rivojlantirish ishlarining birligi. Ushbu tamoyil kar va zaif eshituvchi bolalarda mavjud nuqsonlarni bartaraf etish, tuzatish va yumshatish ishlari faqat bir tomonlama bo'lmasligini ta'minlaydi. Masalan, tovush talaffuzini to'g'rilash ishi ma'lum rivojlantiruvchi kontekst asosida olib boriladi. Bola tovushning hosil bo'lish o'rni, usuli, ovoz va

shovqinning ishtirokini his qilishga o'rgatilgan holda so'zlar va ulardagi tovushlarni talaffuz qiladi. Bu so'zlar aynan bola hayotida uchragan, uchraydigan so'zlar bo'lishi talab etiladi. Bola so'zning nafaqat tovushli, balki ma'no jihatini ham o'zlashtirgan holda o'z nutqini, talaffuzini nazorat qiladi. Shundagina bola shu tovush ishtirok etgan so'zlarni boshqalarda ko'rib-eshtitishi natijasida (labdan o'qib yoki qisman bo'lsa-da eshitib) xotirasida saqlangan va egallangan ko'nikmalaridan foydalana oladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida bolalarni har tomonlama rivojlantirishda yosh davri hususiyatlari va bolaning individual hususiyatlari birligi. Bu tamoyil ta'lim-tarbiya jarayonining sog'lom bolalar ta'lim-tarbiyasi jarayoni qonuniyatlaridan kelib chiqishi bilan bir qatorda kar va zaif eshituvchi bolalarning o'ziga xos hususiyatlarini inobatga olishni taqozo etadi. Kar va zaif eshituvchi bola ham sog'lom bolalar kabi shaxs rivojlanish davrlarining har birini bosib o'tadi. Me'yorda rivojlanishning yoshga ko'ra chegaralari va ma'lum mezonli o'lchamlari mavjud. Bunda bolaning yoshiga mos ravishda ham jismoniy, ham ruxiy rivojlanishi tushuniladi. Biroq har bir bolaning o'ziga xos takrorlanmas hususiyatlari ham mavjuddir. Bu hususiyatlar bolalarning fiziologik, psixologik rivojlanishi bilan bog'liqdir. Ya'ni rivojlanishning bosqichma-bosqichligi, bir tekis emasligi, «latent» (inkubasion davr, masalan, organizmda kasallik paydo bo'lgan, lekin bilinmaydigan davridan uning belgilari yuzaga chiqqunga qadar o'tadigan vaqt) davrlarning mavjudligi, ayrim o'zgarishlar yashirin tarzda o'tishi va faqat ma'lum vaqtdan keyin namoyon bo'lishi bolalarning o'ziga xos rivojlanishini yuzaga keltirib chiqaradi.

Kar va zaif eshituvchi bolalarni rivojlantirishda tashxis va korreksiya ishlarining birligi. Ushbu tamoyil eshitishning buzilish darajasi, bolaning psixofiziologik rivojlanishini o'rganib, unga tegishli tashxis qo'yish va shu asosda keyingi davrda korreksiya ishlarini to'g'ri rejalashtirish hamda amalga oshirish uchun muhim hisoblanadi.

Korreksion ishlarning vazifalari faqat to'g'ri va to'liq tashxislash orqali hamda bolalarni rivojlantirishning eng maqbul natijalarini bashoratlash asosida belgilab olinishi lozim. Bu vazifalarni defektolog mutaxassislar maxsus metodlar va vositalar yordamida amalga oshiradilar. Rivojlantirish ishlari bolaning eng yaqin

rivojlanish zonasidan kelib chikib belgilanadi. Bu zona L.S.Vigotskiy tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, korreksiya va rivojlantirish ishlarining o'zaro bir-biri bilan aloqadorligiga asoslanadi. Ta'lim-tarbiya mazmuni, usullari va vositalari bola imkoniyatidan murakkabroq bo'lishi va bolaning hatti-harakatlari to'siqlarni yengib o'tishga yo'naltirilgan bo'lishi rivojlantirish ishlarining asosini tashkil etadi.

4. Kar va zaif eshituvchi bolalar bilan korreksiya ishlarini amalga oshirishda turli faoliyatlarga tayanish. Bu tamoyil uslubiy vazifalar bilan bog'liq ravishda pedagogik jarayondan ko'zlangan maqsadga erishishning vositalari, yo'llari, usullarini belgilab beradi. Faoliyat tamoyili bola qaysi yosh davrni bosib o'tayotgan bo'lsa, shu davrda u uchun qaysi faoliyat ustuvorlik qilishini anglagan holda rivojlantirish ishlarini rejalashtirish va olib borishni ko'zda tutadi.

L.S.Vigotskiy, A.N.Leontyev, P.Ya.Galperin, S.L.Rubinshteyn va boshqalar bolalar rivojlanishida o'yin va o'qish faoliyatlarini maxsus tashkil etishning muhimligini ochib berishgan. V.V.Davidov o'zining "Rivojlantiruvchi o'qitish muammolari" va "Rivojlantiruvchi o'qitish nazariyasi" nomli ilmiy ishlarida o'qish faoliyatini tashkil etishning modellarini ko'rsatib bergan. Masalan, o'quv faoliyatida bolaning qiziquvchanligi, intiluvchanligi, bilim va kashfiyotlarni bilishga, qidirishga chanqoqligi uni muvoffaqiyatga olib keladi. Kar va zaif eshituvchi bolalarda sanab o'tilgan motivatsiyalarni uyg'otish oson emasdir.

Korreksion ishlarni olib borishda har bir bolaga alohida bir olam, shaxs yoki iqtidorli bola sifatida yondashish. Bu tamoyil korreksion ish olib borilayotganda bolalarni ajratmaslik, ularga nisbatan mensimaslik munosabatida bo'lmaslikni taqozo etadi.

L.S.Vigotskiy korreksion ishning asosiy mazmuni sifatida bolaning faoliyati va shaxs rivojlanishining yaqin zonasini yaratish kerakligini ta'kidlagan.

Kar va zaif eshituvchi bolalar ham sog'lom tengdoshlari kabi jamiyat rivojiga xissa qo'shish imkoniyatlariga egadirlar. Biroq bunday bolalar ushbu imkoniyatlarga ega bo'lishlari uchun zaruriy ta'lim-tarbiya sharoitida o'qishi, tarbiyalanishi va rivojlanishi lozim.

Ma'lumki, kar va zaif eshituvchi bolalar ta'limga jalb etilgunga qadar atrofdagilar bilan muloqotda o'ziga xos nutqiy shakl va vositalardan foydalanadilar. Chunki ularda eshitmaganliklari uchun

nutq rivojlanmaydi. Kar va zaif eshituvchi bolalar nutqni, atrofdagilar bilan muloqot ko'nikmalarini maxsus tashkil etilgan korreksion-pedagogik yondashuvlarsiz egallamaydilar. Shu sababli ta'lim muassasasi ular uchun nutqni egallash, fanlarni o'zlashtirish orqali olamni anglash, sog'lom kishilar bilan muloqot qilishni o'rgatadigan, provardida ijtimoiy hayotga tayyorlaydigan asosiy va muhim maskan hisoblanadi.

Ta'lim-tarbiya nafaqat ta'lim maskanlarida, balki oilalarda ham maqsadli tashkil etilishi bolalarni ma'naviy jaiatdan yetuk, jismoniy jihatdan mustahkam, aqliy jihatdan raqobatbardosh mutaxassis etib tarbiyalashning muhim shartlaridandir. Biroq, aksariyat oilalarda kar va zaif eshituvchi bolalarni mustaqil hayotga tayyorlash borasida kerakli pedagogik-psixologik ishlar yo'lga qo'yilmagan. Oilalarda kar bolalarga nisbatan avaylash va rahmdillik nuqtai-nazari bilan qarash munosabati o'rnatilgan bo'ladi. Mazkur holat kar va zaif eshituvchi bolalarda sog'lom bolalardagi kabi muomala, muloqot, o'z-o'ziga xizmat va boshqa faoliyatlarda ishtirok etish ko'nikmalarining yetarlicha shakllanmasligiga olib keladi. Natijada kar va zaif eshituvchi bolalar maxsus ta'lim muassasasiga kelgan kunidanoq, oddiy kundalik maishiy hayot uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni egallashga jalb etiladilar. Bu ko'nikmalar oddiy va sodda tuyulsa-da, biroq kar bolalarning ijtimoiylashuvi uchun asos bo'luvchi omillardandir. Jumladan, o'quvchilarning:

-kiyinishi (mavsumbop, boradigan joy xususiyatiga bog'liq, toza va ozoda, jinsiga to'g'ri keladigan, zamonaviy...);

-muomalasi (ona tilida to'g'ri va ravon so'zlash, shirinsuhan bo'lish, so'zlashganda suhbatdoshini tinglay olish, birovlarining so'zini bo'lmaslik, aniq va mavzu doirasida gapirish, nutqida noo'rin so'zlarni ishlatmaslik va x. k.);

-jamoat joylarida o'zini tutishi (qoidalarga rioya qilish, qattiq gaplashmaslik, atrofdagilarga halaqit qilmaslik, kattalarga salom berish, atrof-muhitni iflos qilmaslik va x. k.);

-gigiyenik qoidalarga rioya qilish: to'g'ri ovqatlanish, vaqtida dam olish, mehnatda me'yorlarni bilish, zararli odatlar (chekish, spirtli ichimliklar, yoshiga mos bo'lmagan munosabatlar)dan yiroq bo'lish, bo'sh vaqtini to'g'ri rejalashtirish va mazmunli o'tkazish, sog'lom turmush tarzi va tibbiy madaniyat talablariga qat'iy rioya qilish va x. k. larga o'rganishi uchun tizimli ish, maqsadli

yondashuvlar, zamonaviy usul va vositalar, o'qitishning samarali innovasion texnologiyalari taqozo etilmoqda.

Har bir inson shaxs-fuqaro sifatida shaxsiy extiyohlari, xuquq va manfaatlariga egadir va u o'zi yashayotgan davlatda qabul qilingan me'yorlar doirasida harakatlanadi. Natijada shaxs o'z harakatlarini nazorat qilgan holda extiyohlari ko'lamini belgilaydi. Xuddi shunday extiyohlar imkoniyati cheklangan, xususan eshitishida muammolari bo'lgan o'quvchi yoshlarda ham mavjuddir. Eshitishida muammolari bo'lgan bolalar maxsus ta'lim muassasalarida ta'lim va tarbiya oladi, shu muassasada yashaydi. Demak maxsus ta'lim muassasalar-maktab-internatlar mazkur o'quvchilar uchun ham ta'lim-tarbiya, ham mehr-oqibat o'chog'idir. U yerda o'quvchilar akademik bilim olishdan tashqari muomala madaniyatiga, atrofdagilar bilan muloqot qilishga, mehnatga, o'z-o'ziga xizmatga, o'zgalar mehnatini qadrlashga, o'z qarorini asosli himoya qilishga, salomatligini nazorat qilishga o'rganadi.

Hozirgi kunda kar va zaif eshituvchi bolalar uchun ixtisoslashtirigan ta'lim muassasalari bitiruvchilarining 73 % keyingi bosqich ta'limga jalb etilmayapti. Keyingi ta'limga jalb etilmagan bolalar o'z oilalari qaramog'ida qolib ketmoqdalar. Ushbu muammoning sabablari o'rganilib, tahlil qilinganda quyidagilar aniqlandi:

-aksariyat ota-onalar bolalari atrofdagilar bilan muloqot qilishda qiynalغانliklari uchun ularni mustaqil hayotga tayyor emas, deb hisoblaydilar;

Kar va zaif eshituvchi bolalarning oilalari o'z farzandlarini uzoq masofadagi ta'lim muassasalarida o'qishga yubormasliklarining sabablarini ular bilan olib borilgan suxbatlar asosida umumlashtirdik:

Kar va zaif eshituvchi bola atrofdagilar bilan tez va samarali muloqotga kirisha olmaydi.

Oilalarning bolani uzoqda o'qishi, yashashini nazoratga olish va tashkil etish uchun imkoniyati yetarli emas.

Bola o'zini himoya qilish ko'nikmasiga yetarlicha ega emasligi uchun turli salbiy vaziyatlar (jinoyatga sherik bo'lish, birovning g'araz niyati uchun vositachi bo'lish....) qurboniga aylanib qolishi ehtimolining oldini olish.

O'zbek millatiga xos bo'lmagan urf-odatlar, qarashlarga berilib ketishidan saqlash.

Sog'lom o'quvchilarga kundalik hayot extiyohlarini qondirish jarayonida oila a'zolari hamrox bo'ladi. Shuning uchun ham ular ijtimoiy daldani bolaligidan sezib yashaydi. Maktab-internatda yashab o'qiydigan bolalar esa, o'qituvchi, tarbiyachi, enaga hamda muassasaning boshqa xodimlari tomonidan qo'yilgan talablar doirasida o'z hayotini tashkil etadi. Bu qo'yilayotgan talablarni aksariyat oilalar "davlat buni qilishi kerak", -deb tushunadi va natijada ularning farzandlari bir umr "boqimanda" likka o'rganadilar. Faqat o'zgalarning ko'magi ostida yashab, o'z extiyohlarini birovlarining sa'y-harakatlari evaziga qondirishga o'rgangan o'quvchi ta'limdan so'ng mustaqil hayotda sarosimaga tushadi. U endi ijtimoiy hayot qo'yayotgan talablarni, jumladan, mehnat qilish, mehnatga yarasha haq olish, tegishli haq-xuquqlaridan samarali foydalanish, ish qog'ozlarini yuritish, turli kasb egalari va atrofdagilar bilan muloqotga kirishish, oila qurish va uning ma'naviy-moddiy ehtiyojini ta'minlash, oila byudjeti masalasini real tasavvur qilish, yaqin va uzoq kelajakka maqsad belgilash kabi oddiy farovon hayot uchun zaruriy talablar oldida yakkalik qilib qoladi. Chunki maktab ta'limidan so'ng ularning yonida daktil va imo-ishorali nutqda muloqot qiladigan, yo'l-yo'riq ko'rsatib beruvchi o'qituvchisi, tarbiyachisi, enagasi bo'lmaydi.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida o'quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlash bo'yicha psixologik-pedagogik-korreksion ishlarning tashkil etilishi va natijaviyligi.

Maxsus adabiyotlar tahlili hamda tadqiqotimiz natijalari kar va zaif eshituvchi o'quvchilarning ijtimoiy ko'nikma va malakalarini rivojlantirish uchun ularni so'zlashuv (og'zaki, yozma, zarur hollarda daktil hamda imo-ishoralar orqali) nutqiga o'rgatish lozimligini ko'rsatdi. Ya'ni kar va zaif eshituvchi bolalarning o'z tengqurlari hamda atrofdagilar bilan samarali muloqot qilish orqali jamiyatga uyg'unlashishi nutqsiz, muloqot ko'nikmalarisiz amalga oshmaydi. Mazkur toifa bolalarda nechog'lik so'zlashuv nutqi rivojlansa, shunchalik ular tashqi olamni anglaydi, kerakli javob reaksiyalarini bildiradi, pirovardida turli munosabatlarda faol ishtirok etadilar.

Kar va zaif eshituvchi o'quvchilarning atrofdegilar bilan muloqot ko'nikmalari quyidagi omillar ta'sirida shakllanishini kuzatdik va asosladi. Bular quyidagilar:

- eshitish imkoniyati va nuqson darajasi (bola karlikning qaysi guruhiga, zaif eshituvchilikning qaysi darajasiga taalluqliligi);

- bola nutqining holati (talaffuz ko'nikmalari, lug'at zaxirasi va grammatik tuzumi);

- muassasalarda korreksiya ishlarining to'g'ri va vaqtida olib borilishi, o'qituvchi va tarbiyachilarning kasbiy kompetentligi;

- ota-onalarning farzandi bilan oilada maxsus shug'ullanishining ahvoli hamda maktab va oila hamkorligi;

- maktablarda o'quvchilarni axborot olish va uzatishga o'rgatish bo'yicha o'quv-korreksion fanlarni o'qitishda o'zaro uzviy, ona tili qonuniyatlariga asoslangan, bir-birini to'ldiruvchi munosabatdagi dastur, darslik, rejalarning mavjudligi va ular bilan ishlash metodikasiga rioya qilinishi, ya'ni yaxlit korreksion-pedagogik tizimning to'laqonli amalga oshirilishi hamda fanlararo integratsiya.

Sanab o'tilgan omillarning barchasi o'quvchilarda nafaqat muloqot ko'nikmalarini, balki ijtimoiy ko'nikma va malakalar: o'z-o'zini baholash, o'z-o'zini namoyon qilish, yaqin va uzoq muddatga maqsad belgilash, qadriyatlarini aniqlash, vaziyatni tushunish va baholash, imijga ega bo'lish, axborot vositalari bilan ishlash, o'zgalarga ta'sir etish va jamiyatning turli boshqa munosabatlarida faol bo'lish ko'nikmalarini shakllantirishda hamda ularning valeologik, huquqiy va iqtisodiy savodxonligini rivojlantirishda ham bevosita ta'sir va hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

Aynan mana shu omillarning nechog'lik hayotiyiligi va amaliyot uchun dolzarbligini inobatga olgan holda biz o'rganuvchi tadqiqotimizni qator bosqichlarga bo'ldik va bu bosqichlarning mazmunini ishlab chiqdik.

Birinchi bosqichda o'quvchilarning topshiriqlarni (o'ziga qaratilgan nutqni) eshitib-farqlashi va idrok qilish imkoniyati o'rganildi.

Ikkinchi bosqichda o'quvchilarning nutqiy material (lug'at)ni tushungan holda o'z fikrini og'zaki va yozma ifodalash imkoniyati o'rganildi.

Uchinchi bosqichda maktab-internatlarda faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchi-surdopedagoglarning kasbiy mahoratlari, kompetentligi o'rganildi.

To'rtinchi bosqichda oilada kar va zaif eshituvchi bolaga bo'lgan ta'limiy e'tibor o'rganildi.

Beshinchi bosqichda maxsus ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlar va psixologik xizmatning samaradorligi tahlil etildi.

Birinchi bosqich. O'quvchilarning eshitish imkoniyatlari va o'ziga qaratilgan murojaatni eshitib (so'zlovchini ko'rmagan holda ekran ortidan yoki ma'lum masofadan turib quloq orqasidan gapirganda), labdan o'qib-eshitib farqlashi hamda idrok qilish imkoniyatlari o'rganildi.

Dastlab o'quvchilarning eshitish darajasi va nutqiy apparati holati quyidagi mezonlar asosida o'rganildi:

a) eshitishni yo'qotish vaqti (necha yoshda, nutqi shakllanmasdan oldinmi yoki shakllangandan keyinmi?);

b) eshitishni yo'qotish sabablari (tug'ma, orttirilgan);

v) tekshirish paytidagi eshitishning holati (zaif eshituvchilikda db, karlikda gs hisobida) (o'ng quloqda, chap quloqda);

g) o'quvchining tekshiruv paytidagi nutqining umumiy holati;

d) psixik rivojlanishi haqidagi xulosa (tibbiy-pedagogik tekshiruv xulosasidan olinadi);

ye) o'qituvchining yuz ifodasi, nutq apparatining harakatidan ko'rib, eshitib (baland ovoz bilan yoki eshituv apparati orqali) unga ergashib yoki u bilan birgalikda taqlid asosida berilgan so'zlarni takrorlab aytish imkoniyati;

yo) ma'lum muddat davomida mashq qildirilgandan so'ng berilgan tanish so'zlarni eshitib farqlay olishi;

j) quloqning o'zi bilan (ya'ni apparatsiz) so'zlar (me'yoriy ovozda, baland ovozda, shivirlab aytilgan so'zlar)ni eshitib farqlay olish imkoniyati: bu tekshirish quloq suprasidan so'zlovchining nutq apparati oralig'idagi masofa bilan o'lchanadi.

O'rganuvchi tadqiqotning ushbu bosqichida o'quvchilarning eshitish idroki holatini aniqlash uchun mezonlar ishlab chiqildi. Kar va zaif eshituvchi o'quvchilarning nutqiy topshiriqlarni eshitib idrok etish holati quyidagi 4 ta mezon asosida tahlil etildi:

- eshitib farqlash (yalang'och quloqda va eshitish apparati yordamida, so'zlovchining yuziga ekran qo'yilgan holda);

-eshitib-ko'rib-labdan o'qib farqlash;

-ko'rib (rasmlar, harakatlar, plakatlar, kartochkalar asosida topshiriqlar beriladi) idrok qilish;

-imo-ishoralar orqali tushunish va javob berish.

Tajriba-sinov ishlarining ushbu bosqichida tanlab olingan nutqiy material "Eshitish idrokini rivojlantirish va talaffuzni shakllantirish" bo'yicha yakka mashg'ulotlar uchun ishlab chiqilgan dasturdan olindi. Ushbu dastur ikki o'quv yili davomida sinovdan o'tkazildi va takomillashtirildi. Dasturda so'zlar va so'z birikmalari quyidagicha 4 ta yo'nalishdagi turkum so'z va so'z birikmalari ajratib berildi:

- "Kundalik hayotda muloqot uchun tez-tez kerak bo'ladigan va uchraydigan so'zlar, so'z birikmalari";

- "O'quv fanlariga oid so'zlar, so'z birikmalari";

- "Tabiatda va atrof-muhitda sodir bo'ladigan voqea-hodisalarga oid so'z va so'z birikmalari";

- "Kishilar o'rtasidagi munosabatlarni va mavhum tushunchalarni ifodalaydigan so'zlar".

Mazkur dastur tegishli nazariy xulosalarni va mavjud amaliy ish tajribalarni o'rganish davomidagi tahliliy ma'lumotlar hamda o'quvchilarning nutqiy imkoniyatlarini samarali rivojlantirish omillarini aniqlashga yo'naltirilgan kuzatishlarning natijalariga asoslangan holda ishlab chiqilgan.

Ushbu dasturning qator imkoniyatlari, jumladan, o'quvchilarda muloqot ko'nikmalari va malakalarini shakllantirishi, tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishi, ijtimoiylashish motivatsiyasini kuchaytirishi hamda boshqa didaktik, psixologik vazifalari tadqiqotning uchinchi bobi mazmunida yoritib beriladi.

O'quvchilarning sinflar kesimida egallashi lozim bo'lgan turkum so'z va so'z birikmalaridan tashkil topgan nutqiy materiallar 4 usulda berildi:

1. Ekran ortidan-faqat eshitish uchun (so'zlovchining yuzi ko'rinmagan holatda, ma'lum masofalardan turib);

2. Ko'rib-eshitish (labdan o'qish va eshitish) uchun;

3. Yuqoridagi usullar asosida topshiriqlarni bajara olmagan holda, so'zlar va topshiriqlar kartochkalarda va zarur hollarda rasmlarda (talab qilingan paytlarda so'z mazmunini izohlovchi harakatlar orqali) berildi;

4. Umumqabul qilingan imo-ishorali lug'at orqali berildi.

Kar va zaif eshituvchi bolaning eshitish qoldig'i (chuqur kar bolada ham ma'lum miqdorda eshitish qoldig'i mavjud bo'ladi) qanchalik rivojlantirilib, undan nutqni eshitib farqlash uchun optimal foydalanilsa, bola nutqining rivojlanishiga shunchalik sharoit yaratiladi. Nimani eshitib farqlasa, shu so'z anglatgan tushuncha tajribada qo'llanilib, bolaning xotirasida saqlanadi. Ya'ni: eshitish + farqlash = anglash demakdir.

Eshitib, ko'rib-eshitib, ko'rib farqlash imkoniyatini o'rganish bola nutqining shakllanganlik darajasiga alohida tavsif beradi.

Ikkinchi bosqich. O'quvchilarning nutqiy material (lug'at)ni tushungan holda o'z fikrini og'zaki va yozma ifodalash imkoniyati o'rganildi.

Kar bola og'zaki nutqining shakllanganlik darajasi uning atrofdagilar bilan hususan, sog'lom kishilar bilan muloqot qilishi uchun asosiy zamin hisoblanadi. Bola o'zi aytayotgan so'zni eshitmasa-da, so'zni tashkil qilgan tovushlarning artikulyasion holatlarini to'g'ri keltirsa, uning nutqini tushunsa bo'ladi. Bunda bola nutqining nafaqat taqdiridoshlari, balki sog'lom tengqurlari orasidagi tushunarlik maydoni kengayadi.

O'quvchilarning atrofdagilar bilan tushunarli shakllarda muloqot qilishini o'rganish uchun tanlangan nutqiy materiallar mazkur tadqiqot ishi natijasida kar va zaif eshituvchi bolalar maktablari o'quv rejasiga kiritilgan hamda amaliyotga tatbiq etilgan yangi "Nutqiy muloqot" korreksion fani uchun ishlab chiqilgan dastur mazmunidan olindi. Ushbu fanni o'qitishning metodik va tashkiliy tomonlari amaliyotda 2014-2017 o'quv yillari davomida sinovdan o'tkazildi. Bu davrda ushbu fanning nomlanishi "Nutqning grammatik qurilishini shakllantirish" deb nomlandi. Amaliyotda 3 yillik tajriba-sinov ishlari natijalariga ko'ra hamda uning o'quvchilarni samarali muloqotga o'rgatuvchi vazifalarini inobatga olgan holda "Nutqiy muloqot" deb nomlandi. 2018 o'quv yilidan boshlab, shu nom ostida o'quv rejaga boshlang'ich sinflarda 2 soatdan, yuqori sinflarda 3 soatdan darslar kiritildi.

Hozirda U.Fayziyeva, F.U.Qodirova va Z.Jo'rayevalar tomonidan yaratilgan ushbu dastur sinovdan o'tib, amaliyotchilar fikr-mulohazalarini o'rgangan holda takomillashtirildi. Ushbu dasturning o'qituvchi va o'quvchilar uchun qulay uslubiy tomonlari

tadqiqotning ikkinchi bobida yoritiladi. Bundan tashqari dasturda o'quvchilar faoliyatini tashkil etish shakllari, og'zaki va yozma nutqni rivojlantirishga yo'naltirilgan usullarning berilishi uning kar va zaif eshituvchi bolalarda muloqot ko'nikmalari hamda ijtimoiy sifatlari (o'z-o'zini baholash, o'z-o'zini namoyon qilish, qarorini asoslash, hayotiy pozitsiyasini himoya qilish...) ning shakllanishiga ta'siri asoslab beriladi. Nutqiy topshiriqlar sinflar kesimida tuzildi hamda o'quvchilarga tegishli topshiriqlar berildi.

Kar va zaif eshituvchi o'quvchilar nutqiy imkoniyatini tekshirishda p.f.d., professorlar L.R.Mo'minova va N.Raxmonqulovalarning hamda p.f.n. dotsentlar: U.Fayziyeva, D.Nazarova, F.Qodirovalar, p.f.n. R.Raximovalarning ilmiy ishlarida asoslab berilgan tamoyillar: oddiydan murakkabga munosabat, vaziyatboplilik, hayot bilan bog'liqlik, tabaqalashgan yondashuv kabilarga tayanildi.

Kar va zaif eshituvchi bolalarning so'z, so'z birikmalari va gaplarni eshituvchi insonlarga tushunarli tarzda og'zaki, yozma shakllarda yetkazish malakalarini tekshirish uchun quyidagi bosqichlarda ish olib borildi:

Sinflar kesimida oddiydan-murakkabga munosabatda hamda ma'nosini vaziyatlar orqali namoyish qilib tushuntirish lozim bo'lgan so'zlardan tashkil topgan nutqiy materiallar tayyorlandi. Ushbu nutqiy materiallar kar va zaif eshituvchi bolalar maktablari uchun chiqarilgan va amaliyotda foydalanilayotgan: "Atrofimizdagi olam" (tayyorlov, 1-sinflar), "Tevarak-atrof bilan tanishtirish"(2-sinf), "Tabiatshunoslik" (3,4,5-sinflar), "Texnologiya (Predmetli amaliy ta'lim)" (tayyorlov,1,2,3,4-sinflar), "Nutq o'stirish" (1,2,3,4,5-sinflar), "Matematika" (1,2,3,4,5-sinflar) darsliklaridan olindi.

Ushbu nutqiy material tarkibi quyidagi turkum so'zlar, so'z birikmalari va gaplardan tashkil topdi:

-ularni insonlar kundalik hayotida ko'p iste'mol qilishadi;

-shu so'z anglatgan buyumga ko'p duch kelishadi, ya'ni undan ko'p foydalanishadi;

-atrofda yuz berayotgan voqea-hodisalarga ko'p guvoh bo'lishadi va ayrim jarayonlarda insonlarning o'zlari bevosita ishtirok etishadi hamda shu voqea-hodisa nomi va ma'nosini o'zgalarga qaysidir shakllarda bo'lsa ham tushuntirib berish talab etiladi;

-ayrim mavhum tushunchalar insonlar o'rtasidagi munosabatlarni ifodalaydi va bu tushunchalarni ifodalab berishga, ya'ni ularni ifodalovchi so'zlarni iste'mol qilishga hayotda ko'p zarurat tug'iladi;

-o'quv fanlarini o'zlashtirishda lug'at zaxirasining asosini tashkil etuvchi tushunchalarni masala ishlashda, mashq bajarishda, buyumni tayyorlashda, turli topshiriqlarni bajarishda og'zaki yoki yozma shakllarda qo'llashga ehtiyoj tug'iladi.

Sanab o'tilgan nutqqa ehtiyoj tug'iluvchi vaziyatlar kar va zaif eshituvchi bolalarning ijtimoiylashuvdagi muhim omillardandir. Chunki mazkur o'quvchilar dastlab hayotda eng kerakli so'z, so'z birikmalari va gaplarni atrofda qilargalarga tushunarli tarzda og'zaki va yozma shakllarda ifodalashga o'rgansalargina, ularni kishilar o'rtasidagi turli munosabatlarga samarali tayyorlash mumkin bo'ladi. Aksincha bo'lsa, ular jamiyatga uyg'unlashmagan, uyushmagan inson sifatida yakkalanib, o'zgalar yordamiga muhtoj odamlar bo'lib qolaveradilar. Chunki ular o'z fikrini tushuntirishlari uchun doim ular tilini tushunadigan insonlar yordamiga ehtiyoj sezib yashashga to'g'ri keladi. Biroq biz korreksion ta'limni uslubiy, psixologik jihatdan to'g'ri tashkil etish orqali bu holatning oldini olish mumkin deb hisoblaymiz. Shuning uchun biz ushbu tadqiqot ishimizning mazkur bosqichida amaliyotchilar bilan maslahatlashib hamda turli o'quv fanlari mazmunida hamda kundalik hayotda uchrashiga qarab, so'zlar, so'z birikmalari hamda gaplarni sinflar kesimida takrorlanmagan holda bir-birini to'ldiruvchi munosabatlarda tanladik.

Kar va zaif eshituvchi o'quvchilarning talaffuz malakalarini tekshirishda o'zbek alifbosida mavjud tovushlarning hammasini qamrab olgan holda hamda sinflar kesimida quyidagicha xajmdagi nutqiy materialdan foydalandik. 1-2-sinflar o'quvchilariga 100 ta so'z, 20 so'z birikmalari 10 ta gap; 3,4,5,6,7,8,9,10-sinflar o'quvchilariga 100 ta so'z, 50 ta so'z birikmalari, 50 ta gapdan tashkil topgan nutqiy materialni og'zaki, yozma shakllarda ifodalash topshiriqlari berildi.

Tekshirish jarayonida topshiriqlarning kar va zaif eshituvchi o'quvchilarda og'zaki va yozma fikr bildirish motivatsiyasini hosil qiluvchi sharoitda berilishiga e'tibor qaratildi. Ya'ni so'zlarning rasmi, syujetli plakatlar orqali taqdim etilishi o'quvchilarning



tekshirish jarayonida psixologik bosimsiz ishtirok etishlarini ta'minlashga yordam berdi. Bundan tashqari ushbu jarayonda har bir sinfning o'z sinf o'qituvchilari yoki tarbiyachilari hamkorligiga ham tayanildi.

Uchinchi bosqichda maktab-internatlarda faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchi-surdopedagoglarning kasbiy mahoratlari, kompetentligi o'rganildi. Pedagoglar uchun tayyorlangan so'rovnomalarda savollar quyidagi dolzarb masalalarga:

-kar va zaif eshituvchi bolalarni sinflarga komplektlashtirishda karlik va zaif eshituvchilikning nechog'lik inobatga olinayotganini tahlil qilishga;

-kar va zaif eshituvchilarning sog'lom kishilar bilan muloqot uchun og'zaki, og'zaki ravishda fikr bildirish qiyin bo'lsa, yozma shakllarda axborot almashish imkoniyatini o'rganishga;

-kar va zaif eshituvchi o'quvchilarda ijtimoiy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish, ularni mustaqil hayotga samarali tayyorlash omili ekanligini inobatga olgan holda pedagoglarning bu borada bilganlarini aniqlashga;

-kar va zaif eshituvchilarning aynan maktab ta'limi davrida ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni, tayanch va hayotiy kompetensiyalarni egallash imkoniyatiga kengroq egaligini inobatga olib, pedagoglarning bu borada qaysi davr muhim ekanligini bilishini aniqlashga;

-kar va zaif eshituvchi o'quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning qator muhim vazifalari fanlarga o'qitish jarayonida amalga oshirilishini inobatga olgan holda pedagoglarning metodik bilimlari va didaktik ko'nikma va malakalarini tahlil qilishga;

-interfaol usullarga asoslangan dars va mashg'ulotlar kar va zaif eshituvchi o'quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda muhim pedagogik shart-sharoitlar maydoni va qulay psixologik muhit ekanligini inobatga olgan holda pedagoglarning innovasion faoliyati holatini baholashga;

-kar va zaif eshituvchi o'quvchilarning kasbiy yo'nalganligi va mehnat malakalariga ega bo'lishini ta'minlash, ularning ijtimoiy hayotga samarali tayyor bo'lish mezonlaridan biri ekanligini inobatga olib, pedagoglarning bu yo'nalishdagi kasbiy kompetensiyalarini aniqlashga yo'naltirilgan savol va topshiriqlardan tashkil topdi.

Maxsus maktablarda korreksion mashg'ulotlarning tashkil etilishi o'rganildi. Buning uchun:

1. Dastlab bu mashg'ulotlarning maqsad va vazifalari aniqlashtirildi.

Korreksion mashg'ulotlarning maqsad va vazifalari:

-o'quvchilar rivojlanishidagi muammolar natijasida kelib chiqqan ikkilamchi nuqsonlarni bartaraf etish, yumshatish, bilinmaydigan holatga keltirish;

-muammolarning ta'limni egallashga bo'lgan salbiy ta'sirini kamaytirish;

-fanlarni o'zlashtirishda uchraydigan qiyinchiliklarning oldini olish va bartaraf etishning tegishli choralarini ko'rish;

-o'quvchilarni samarali muloqotga o'rgatish, mustaqil faoliyatning turli shakllariga tayyorlash;

-salomatligini nazorat qilish va tiklashga o'rgatish;

-o'z-o'zini baholash va namoyon qilish uchun qulay sharoitlarni yaratish.

2. Korreksion mashg'ulotlar sifat va samaradorligini tahlil etish uchun qator savollarga javoblar olindi. Jumladan:

1-savol: Korreksion mashg'ulotlarda o'quvchilarning faoliyatlari qanday nazoratga olingan?

Kar va zaif eshituvchi bolalarning og'zaki nutqini rivojlantirishga mo'ljallangan korreksion mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarda kuzatiladigan o'zgarishlar ko'rsatkichi tahlil etilmagan, ya'ni o'quvchilardagi muammolarning bartaraf etilish dinamikasi kuzatilmagan, xatto o'qituvchilar bunday jarayonni ko'z oldiga keltira olmayaptilar ham. Ular o'quvchilardagi nutqiy rivojlanish ko'rsatkichini qanday baholab bera olasiz?—degan savol qo'yilsa, faoliyatiga dahldor tushunchalardan foydalangan holda bo'lsa ham yaqin bir aniq javob bera olmadilar.

Bundan tashqari amaliyotda korreksion fanlar bo'yicha mashg'ulotlarda o'quvchilar qanday ko'rsatkichlarga ega bo'lishi lozimligini belgilab beruvchi mezonlar ishlab chiqilmagan.

Korreksion fan-darslar quyidagilar:

1. Yakka mashg'ulotlar (eshitish idrokini rivojlantirish va talaffuzni shakllantirish);

2. Nutqiy muloqot.

3. Musiqiy -ritmika;

#### 4. Ijtimoiy maishiy hayotga yo'naltirish.

Korreksion mashg'ulotlar sifatini oshirishning dolzarb muammolari:

1.O'qituvchilar uchun respublika miqyosida yaxlit xujjatlashtirish me'yorlari ishlab chiqilmaganligi sababli turli maxsus maktab-internatlarda ushbu mashg'ulotlarning natijaviylikini obyektiv baholashning imkoniyati mavjud emas.

2.Dars va mashg'ulotlarda o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiluvchi talablar ishlab chiqilmaganligi sababli o'qituvchilarning faoliyati monitoringi tashqi omillarga asosan yuritilmoqda, ya'ni aynan o'quvchilar erishgan ko'rsatkichlarga ko'ra emas, balki o'qituvchilarning o'quv va jamoat ishlari natijalariga asosan tahlil etilmoqda.

3.Aksariyat o'qituvchilar, ayniqsa, tegishli yo'nalishlarda qayta tayyorlov kurslaridan o'tgan pedagoglarning o'quvchilarda mavjud muammolarning darajalari (yengil, o'rta, og'ir, chuqur)ni inobatga olgan holda o'quv topshiriqlarini tayyorlash bo'yicha kasbiy kompetensiyasi yetarli emas. Chunki ular o'quvchilarning rivojlanishidagi o'zgarishlarni aniqlash imkoniyatini beruvchi ma'lumotlarni taqdim etish bo'yicha tajribalarga ega emaslar. Bu esa, korreksion mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha o'qituvchilar o'rtasida sog'lom raqobatning yuzaga kelishiga to'sqinlik qilmoqda. Aksariyat o'qituvchilardan ayrim o'quvchilarning nutqiy, jismoniy imkoniyatlaridagi o'zgarishlarning sezilmayotganligi so'ralganda ularning javobi - "bahonasi" bitta - "bu o'quvchi og'ir, shuning uchun bajara olmaydi".

4.Korreksion mashg'ulotlarni tashkil etishga qo'yiladigan talablarning yaxlit tarzda ishlab chiqilmaganligi. Amaliyotda ushbu mashg'ulotlar to'plangan milliy tajribalar va xorij adabiyotlarida keltirilgan uslubiy tavsiyalar asosida olib borilmoqda. Biroq xorij ta'lim tizimida qo'llanilayotgan uslubiy yondashuvlarning to'g'ridan-to'g'ri qo'llanilishi ko'zlangan maqsadga erishish imkoniyatini bermayapti.

5. Yosh pedagoglarning kar va zaif eshituvchi bolalalar muloqotda qo'llaydigan nutq shakllari va vositalaridan foydalanish ko'nikmalariga ega emasligi. Bu holat o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi samarali muloqotni yuzaga kelishiga to'sqinlik qilmoqda. Natijada o'quvchilar mashg'ulot mazmunini to'liq tushunib

yetmayptilar. Mashg'ulot jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro muloqotning yetarli emasligi pedagogik jarayonning texnologik jihatdan va mazmunan to'liq tuzilmaganligidan dalolat beradi.

6. Mashg'ulotni rejalashtirish bo'yicha uslubiy vositalar mavjud emasligi. Metodik vositalar qanchalik yetarli bo'lib, ularning mazmuni zamon talablari darajasida o'z vaqtida takomillashtirib borilsa, shunchalik korreksion mashg'ulotlarning sifat va samaradorligini oshirishga sharoit yaratilgan bo'ladi.

Ma'lumki, korreksion va tarbiyaviy mashg'ulotlarda har bir o'quvchi birdek bo'lmasa-da, biroq ishtirok etadi, o'qituvchining topshirig'ini bajaradi. Shu o'rinda har bir pedagog bolalarning faoliyatini qiyosiy tahlil qilish orqali ularni o'z vaqtida rag'batlantirish usullari va vositalariga ega bo'lishi talab etiladi. Buning uchun o'qituvchilar o'quvchilarning mashg'ulotlar davomida o'zini tutishi, topshiriqlarni bajarishiga qarab, o'zi uchun o'quvchilarni toifalarga ajratib olishi kerak. Biroq amaliyotda o'qituvchilar o'quvchilarning mashg'ulotlardagi faoliyatini turlicha rag'batlantirayotgani sababli turli muammolar yuzaga kelayotgani aniqlandi. Masalan, ayrim o'quvchilar ishtirok etishni hohlaydi, biroq imkoniyati cheklangani uchun natija kutilgandek bo'lmaydi. Bunday holatlarda o'quvchini rag'batlantirishga o'rin yo'q, degan xulosa xukm surmoqda. Bunday vaziyatlarda ham o'quvchini albatta tegishli vositalar (yulduzchalar, o'yinchoqli belgilar va b.) yordamida rag'batlantirish lozim. Shu tartib qo'llanilayotgan muassasalarda ota-onalarning o'qituvchi faoliyatiga nisbatan salbiy munosabati kelib chiqmoqda.

Maxsus ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarning yo'lga qo'yilganligini o'rganish natijasida quyidagilar aniqlandi:

1.Maxsus ta'lim muassasalarida tarbiya yo'nalishlari bir-biridan ayro tarzda tashkil etiladi, ya'ni tarbiyachining haftalik rejasida bir kun bir tarbiya yo'nalishiga bag'ishlanadi. Masalan, tarbiyachi dushanba kuni "Nafosat" tarbiyasini, seshanba kuni "Ekologik" tarbiyani va boshqa kuni yana bir yo'nalishdagi tarbiyani rejalashtirgan holda ishlab kelmoqdalar. Eng muhimi, tarbiyaga bag'ishlangan soat faqat suxbat orqali tashkil etilishi aniqlandi. Respublika bo'yicha aksariyat viloyatlarning maxsus ta'lim muassasalarida tarbiyaviy mashg'ulotlar haftalik rejalashtirish

asosida olib borilishi kuzatildi. Xaftalik rejalashtirish bu maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachilari ish rejasiga xosdir.

2. Tarbiyachilarning xaftalik ish jadvali rahbariyat tomonidan tasdiqlangan holda dars jadvallari yonida ilingan holda bo'lish tartibi qo'llanilmayapti. Tajriba-sinov ishlari olib borilgan muassasalarda ishlayotgan ko'p yillik pedagoglar hamda malaka oshirish kurslari tinglovchilari bilan suxbatlashilganda shu holat aniqlandiki, tarbiyaviy mashg'ulotlar 1995-2000 yillarga qadar dars darajasida tashkil etilgan, tarbiyachilar har bir mashg'ulot uchun yillik rejalarni o'quv yilining boshida xuddi o'qituvchilar kabi tuzishgan. Ular mashg'ulot uchun oldinroq tayyorgarlik ko'rganlar. Amaliyot oldingi bo'lsa-da, biroq juda samarali tajribalarning yo'qolib ketganligini tasdiqladi. 1990 yillarga qadar maxsus ta'lim muassasalarida "Tarbiyaviy mashg'ulotlar jadvali" mavjud bo'lib, rahbar tomonidan tasdiqlangan holda maktab devorida ilingan holda turishi tartibi qo'llanilishi va bu jadvalda tarbiyaviy mashg'ulotlarning nomlari va tarbiyaviy soat xafta kunlari bo'yicha taqsimlanganligi ko'p yillik tajribaga ega pedagoglar tomonidan ta'kidlandi. Eng muhimi, mazkur pedagoglar shu tartib o'quvchilarning umumiy hamda nutqiy rivojlanishiga samarali ta'sir etishini e'tirof etgan holda qayta takomillashgan holda tizimga solinishi kerak, degan taklifni berdilar.

3. Tarbiyaviy mashg'ulotlar: "Yo'l harakati qoidalari", "Odobnoma", "Tarbiyaviy soat" (shu soatda xaftaning bir kuni tarbiyaning bir yo'nalishigagina bag'ishlanmoqda), "Sinf dan tashqari o'qish", "Sayr", "O'yin" bo'lib, ularni tarbiyachilar o'zlari hojlagan kunga, xohlagan paytga rejalashtirmoqdalar.

4. Mashg'ulotlar uchun mavzularni tarbiyachilar o'zlari mustaqil topib, tanlab, rejalashtirayotgani kuzatildi. Mashg'ulot ishlanmalarida sinflar kesimida mavzularni o'rgatishda o'quvchilar yoshi va individual hususiyatlarini inobatga olish kabi muhim didaktik, metodik shartlarga rioya etilmayapti.

Sanab o'tilgan salbiy holatlarning sabablari quyidagilar ekanligi aniqlandi:

1. Respublika bo'yicha tarbiyachilar uchun muayyan ish reja va dasturning mavjud emasligi.

2. Mashg'ulotlar uchun mavzular sinflar kesimida oddiydan-murakkabga tomon murakkablashib borishi umuman inobatga olinmayapti.

Yuqori sinflarda tarbiyaviy mashg'ulotlar mavzulari boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan mavzularga mos keladi. Bu esa, o'quvchilarni zeriktirib qo'yimoqda. Mavzular asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari rivojlanishiga turtki bo'la olmayapti.

4. Tarbiyachilar ish faoliyatining monitoringi olib borilmayapti.

Sinflarning o'zlashtirish darajalarini o'rganish bo'yicha tahlillarda tarbiyaviy mashg'ulotlarning sifati va tarbiyachilarning mahoratlari yuzasidan mezonlar mavjud emas. Tarbiyachilarning ishga qabul qilinishida ma'lum vaqt sinov muddatlari berilishi tartibi ishlaymayapti.

Maxsus ta'lim muassasasiga ishga qabul qilinayotgan tarbiyachi uchun sinov muddati berilishi maqsadga muvofiqdir. Yangi ishga qabul qilingan pedagoglar kar va zaif eshituvchi bolalar muloqotda qo'llaydigan daktil va imo-ishorali nutqdan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lmasdan turib, pedagogik jarayonga jalb etilishi ta'lim sifatiga salbiy ta'sir etmoqda. Bundan tashqari kar va zaif eshituvchi bolalarning sog'lom bolalarga nisbatan har tomonlama o'ziga xos xususiyatlarga egaligi bois, tarbiyaviy mashg'ulotlarni olib borish ham o'zining murakkabliklariga egadir.

5. Tarbiyachilarning tez-tez almashib turishi (kadrlar qo'nimsizligi)

Muassasalarda tarbiyachilarning bir sinfga biriktirilishi, ya'ni 1 sinfdan to 5-sinfgacha, 5-sinfdan to maktabni bitirgunga qadar o'quvchilar bilan bir tarbiyachining ishlash tartibiga e'tibor qaratilmayapti. Ma'lum sinfdan har yili tarbiyachilarning almashishi ta'limning sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Muassasalarda tarbiyachilarning tez-tez o'zgarib turishi kuzatilmoqda (tarbiyachilar ishdan ketmaydi, biroq boshqa sinflarga o'tkaziladi).

6. Bir sinfdan 3 yoki undan ortiq tarbiyachilarning ishlashi.

Aynan mana shu holat ta'limning sifatini tubdan pasaytirmoqda. Sinf uchun javobgarlik kimning zimmasida ekanligi mujmal, mashg'ulotlar uchun ishlanmalarni kim tayyorlaydi? -degan savolga javob topish qiyin, xatto tarbiyachilarning o'z o'quvchilari ismini to'liq bilmasliklari esa ayanchlidir.

Sanab o'tilgan amaliyotda uchrayotgan muammolar kar va zaif eshituvchi bolalarda ijtimoiy hayot uchun zarur ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga to'sqinlik qilmoqda. Agarda ta'lim mazmuni va uni tashkil etish jarayoni kar va zaif eshituvchi bolalarning nutqiy va psixologik imkoniyatlariga tayangan holda amalga oshirilmas ekan, mazkur o'quvchilar sog'lom tengdoshlaridan umumiy rivojlanishda ham, aqliy taraqqiyotda ham pirovardida mustaqil hayot davmida ham o'ta murakkab qiynchiliklar, ijtimoiy to'siqlarga duch keladilar.



**Savol:**

1. Ijtimoiylashuv deganda nima tushuniladi?
2. Ijtimoiylashuv tushunchasiga olimlarning fikrlarini keltiring
3. ENB bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda ta'limning o'rnini klasterda ochib bering
4. ENB bolalarning ijtimoiylashuvidagi muammolar borasida Keys lar tuzing.
5. Ijtimoiy to'siq tushunchasiga izoh beribg.

**GLOSSARIY**

**Ta'lim** - bolalami bilim va ko'nikmalar bilan qurollantirish, ongiga va xulqiga ta'sir etish, bilish faoliyatini rivojlantirish.

**Tarbiya** - bolalarga ilmiy bilimlar tizimini singdirish va buning natijasida har tomonlama shakli an gan kishini tarbiyalash.

**Korreksiya** - tuzatish, yaxshilash degan ma'noni anglatadi. Nuqsonli bolalaming psixik va jismoniy taraqqiyotidagi kamchiliklami pedagogik metod va chora-tadbirlar yordamida qisman yoki butunlay yo'qotish.

**Ko'rinarli nutq** - imo-ishora nutqi.

**Kommunikatsiya** - o'zaro nutqiy muloqot.

**His etuvchilarning hissiyotlari** - karlik va soqovlikni bolaning aqliy layoqatlariga salbiy ta'siri.

**Hissiy idrok va uning obyektleri** - sezgi organlaming o'zaro tobeligi

**Pedagogik tasnif** - eshitish qobiliyatining pasayishiga ko'ra bolalami guruhlarga jamlash.

**Audiometriya** - audiometr yordamida turli chastotali tovushlarni idrok etish chegarasini aniqlash orqali eshitish o'tkirligi va holatini tekshirish yordamida eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning eshitish darajasi aniqlanadi.

**Kompensatsiya** - ta'lim-tarbiya jarayonida sog'lom sezgi a'zolariga tayanish yoki qisman buzilgan funksiyalami qayta qurish orqali me'yordan chiqqan analizator o'mini to'ldirish (qoplash).

**Korreksiyalash** - aqliy yoki jismoniy, nutqiy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalaming psixik va jismoniy taraqqiyotidagi me'yordan chetga chiqishlami pedagogik usul va chora-tadbirlar yordamida qisman yoki butunlay bartaraf etish.

**Audiometriya** - audiometr yordamida turli chastotali tovushlarni idrok etish chegarasini aniqlash orqali eshitish o'tkirligi va holatini tekshirish yordamida eshitishida muammosi bo'lgan bolalarning eshitish darajasi aniqlanadi.

**Gers (Gs)** - tebranishlar chastotasini olchash uchun qabul qilingan xalqaro atama bo'lib Nemis olimi Genrix Gers nomiga atalgan. Tovush to'lqinlari, dioto'lqinlar, elektr toki tebranishlarining chastotalarini o'lchash uchun qo'llanadi. Sekundiga bir marotabalik tebranishga teng.

**Desibel (Db)** - tovush kuchi (jadalligi)ning o'lchov birligi bo'lib,

karlik va zaif eshituvchilik o'rtasidagi eshitish chegaralarini aniqlashda foydalaniladi.

**Ruhiy rivojlanish** - bu ruhiy jarayonlarning ma'lum qonuniyatlarga mos ravishda rivojlanishi bo'lib, u davriy munosabatlar bilan chambarchas bog'liqdir.

**Kompensatsiya** - ta'lim-tarbiya jarayonida sog'lom sezgi a'zolariga tayanish yoki qisman buzilgan funksiyalarni qayta qurish orqali me'yordan chiqqan analizator o'imini to'ldirish (qoplash).

**Akustoelektronika** — akustikaning qattiq jism akustikasi, yarim-o'tkazgichlar fizikasi va radio-elektronika chegarasidagi qismi. A. radiosignallarni o'zgartirish va ularga ishlov berish uchun UT (ultratovush) qurilmalarini yaratish prinsiplarini tadqiq qilish bilan shug'ullanadi. O'YUT (o'ta yuqori takroriylik)li signalni to'liq uzunligi 105-marta kichik bo'lgan tovush signaliga aylantirish unga ishlov berishni ancha yengillashtiradi. Signallar ustida amallarni bajarish uchun UTning o'tkazuvchanlik elektronlari, elektromagnitlik maydonlar, optik nurlanishlar, shuningdek, akustik to'liqlarning noxiziqli o'zaro ta'sirlaridan foydalaniladi.

**Konsilium** (lot. consilium — kengash) — bemorga tashhis qo'yish va davolash masalalarini hal etish uchun o'tkaziladigan vrachlar (bemorga bevosita aloqador bo'lgandan tashqari tor soha mutaxassislari) kengashi. Bemorni davolovchi vrach (bemorning ahvoli og'ir yoki kasallikni aniqlash qiyin bo'lgan hollarda) yoki uning yaqin kishilari iltimosiga binoan o'tkaziladi

**Pedagogik texnologiya** - o'quv jarayonini realizatsiyalashning mazmuniy texnikasi (V.P.Bespalko).

**Pedagogik texnologiya** - ta'limning rejalashtirilayotgan natijalariga erishish jarayoni tavsifi (V.P.Volkov).

**Pedagogik texnologiya** - shubhasiz o'quvchi va o'qituvchi uchun qulay sharoit ta'minlangan, o'quv jarayonini loyihalash, tashkil qilish va o'tkazish bo'yicha birgalikdagi pedagogik faoliyatning barcha detallari hisobga olingan modeli (V.M.Moxanov).

**Pedagogik texnologiya** - texnika va inson resurslarini hisobga olgan, o'z oldiga ta'lim shakllarini optimallashtirish vazifasini

qo'yadigin o'qitish va bilim o'zlashtirishning butun jarayonini qo'llash va belgilash, yaratishning sistemali metodi (YUNESKO)

**Ta'lim mazmuni** - ta'lim jarayonida o'quvchilar egallab olishlari lozim boigan bilim, ko'nikma va malakalarning miqdori va hajmi va tizimi tushuniladi.

**Bilim** - ta'lim mazmunining asosiy elementi bo'lib, o'quvchilar tomonidan atrof borliqdagi fan va hodisalarni, tabiat va jamiyatning rivojlanish qonuniyatlarini bilib olish natijasidir.

**O'quv reja** - davlat tomonidan tasdiqlangan hujjat bo'lib, shu asosda o'quv fanlari belgilanadi.

**O'quv dasturlari** - o'quv rejasi asosida har bir fan uchun tuziladi. Dasturlarda har bir fanni o'qitishdan maqsad uning mazmuni, o'quvchilar egallashi lozim boigan bilim, ko'nikma, malakalar yoritib beriladi, o'quv yillari bo'yicha fanni o'rganish tartibi ko'rsatiladi.

**Ta'lim** - o'quvchilarni bilim va ko'nikmalar bilan qurollantirish, ongiga va xulqiga ta'sir etish, bilish faoliyatini rivojlantirish.

**Tarbiya** - bolalarga ilmiy bilimlar tizimini singdirish bilan bir qatorda har tomonlama shakllangan kishini tarbiyalash.

**Faoliyat** - insonning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan harakatlari.

**Ko'nikma** - muayyan faoliyatni bajarish qobiliyatini ta'minlovchi metodlar yig'indisini egallash.

**Ta'lim-tarbiya jarayoni** - o'qituvchining o'rgatuvchilik faoliyati bilan o'quvchilarning o'quv faoliyatining uyg'unlashishidir.

**O'qitish metodi** - bu, o'qituvchining bilimlar berish va ularni o'quvchilarning o'zlashtirib olish metodidir.

**Og'zaki metodlar** - o'qituvchining materialini og'zaki bayon qilishi, suhbat, kitob bilan ishlash.

**Ko'rgazmali metodlar** - namoyish qilish, mustaqil kuzatishlar, ekskursiyalar.

**Amaliy metodlar** - og'zaki va yozma mashqlar, grafik va laboratoriya ishlari.

**Metodik uslub** - metodning tarkibiy qismi.

**Mehnat ta'limi** - karlar maktabida ta'lim-tarbiya jarayonining tarkibiy qismi hisoblanadi. Mehnat ta'limi shaxs sifatida rivojlantiradi va mustaqil mehnat faoliyatiga tayyorlab boradi. Kasbiy yo'nalishning bir qancha komponentlari mavjud: kasbiy

axborot, kasbiy maslahat, kasbiy tashxis, kasbiy tanlash va kasbiy adaptatsiya.

**Predmet amaliy ta'limi (PAT)** - mehnat ta'limning boshlang'ich bosqichi.

**Axborot asri** - axborot va bilimlar asosiy ishlab chiqarish mahsulotlari hisoblanadigan ijtimoiy rivojlanish davri. Axborot sohasi ustuvor rivojlanishga ega bo'adi va sanoat ishlab chiqarishi hamda qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishi hajmidan ustun bo'ladi.

**Ta'limning yakkaligi va defferensialligi** - bolalarning yakka xususiyatlarini hisobga olgan holda yakka yoki defferensial yondashiladi.

**Epik** - turning o'ziga xos xususiyatlari haqida gap borganda, avvalo, uning voqeabandlik xususiyati tilga olinadi. Darhaqiqat, epik asarda makon va zamonda bo'layotgan voqea-hodisalar tasvirlanadi, oddiygina so'z vositasida o'quvchi ko'z o'ngida jonlanadigan to'laqonli badiiy voqelik yaratiladi. O'quvchi ko'z o'ngida reallikka o'xshash, o'zining tashqi ko'rinishi va shakli bilan jonlana olgani uchun ham epik asardagi badiiy voqelikni „plastik“ tasvirlangan deb yuritiladi

**Giperbilirubinemiya** - qondagi bilirubin miqdorining patologik o'sishi, tashqi tomondan terining tabiiy rangi o'zgarishi sifatida namoyon bo'ladi. Odatda, qondagi ushbu pigmentning darajasi maksimal 20,5 mkmol / l dan oshmasligi kerak, bundan yuqori bo'lgan barcha ko'rsatkichlar jigarda buzilishlar haqida gapirishga asos bo'ladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi Qonuni - Toshkent, 2008.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni. Toshkent sh., 2017-yil 1-dekabr, PF- 5270-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoni. Toshkent sh., 2019-yil 29-aprel, PF-5712-son.
4. Sh.M. Mirzdyoyev Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: «O'zbekiston», 2016. - 56 b.
5. Alimxo'jayeva F.J. Kar bolalar eshitish qobiliyatini rivojlantirishda didaktik materiallardan foydalanish. P.f.n. diss...avtoref. -M., 1992.
6. Выготский Л.С. Вопросы детской психологии. - М : СПб. 1999.
7. Беллоков В.И. Взаимодействие анализаторов в процессе восприятия и усвоения устной речи (в норме и патологии) - М.: Педагогика 1997.
8. Богданова Т.Г. Сурдопсихология -М., 2002.
9. Боровлёва Р.А. Родителям маленьких оглохших детей (начало коррекционной работы с детьми, потерявшими слух в 2,5 — 3 года) // Дефектология, -2004. -№.4 -с. 78-82.
10. Боскис Р.М. Письмо слабослышащих детей. - М., 2004.
11. Боскис Р.М. Учителю о детях с нарушенным слухом. - М.: Просвещение, 1998.
12. Боскис Р. М , Фингерман Л.Е. Развитие племенной речи в начальных классах школы слабослышащих. -М., 1998.
13. Боскис Р.М. Развитие смысловой стороны речи у глухих и слабослышащих детей. -М., 1991
14. Быкова Л.М. Методика обучения русскому языку в школе для глухих детей. -М : Просвещение, 1991.
15. Быкова Л.М. Развитие связной речи глухих учащихся начальных классов. -М.: Просвещение, 1999.

16. Выготский Л.С. Вопросы детской психологии. -М.:СПБ. 1999.
- 17.22 Выготский Л.С. Вопросы детской психологии. - М : СПБ. 2019
18. Выготский Л.С. Проблемы дефектологии - М.: Просвещение, 1995
19. Варенова Т В. Теория и практика коррекционной педагогики. - Минск: ООО Асар. 2007.
20. Дефектологический словарь. Под ред.А.И.Дьячкова. - М.:Педагогика. 1970.
21. Дефектология. Словарь-справочник. Автор-сост. С.С.Степанов. - М.: ТЦ Сфера. 2005.
22. John Alan, Arthur Walker "Teaching Children with Disabilities in Inclusive Settings" Published in 2015 by the United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization. Paris, France. (ushbu kitobning 27-42- betlaridan olindi).
23. Зыкеев А.Г. Формирование и коррекция речевых навыков и умений в употреблении сложносочиненных предложений младшими школьниками с нарушениями в развитии //Дефектология. -2005. - №3. - с. 67-75.
24. Коррекционное обучение как основа личностного развития аномальных дошкольников / Под ред. Л.И.Носковой. - М.: Педагогика, 1999.
25. Книга для учителя школы слабослышащих. Обучение русскому языку, чтению, произношению /Под ред. Коровин К.Г. -М., 1995.
26. Колшанский Г. В. Логика и структура языка. -М., 1995.
27. Комаров К.В. Методика обучения слабослышащих детей грамоте. -М.: Просвещение, 1990.
28. Комаров К.В. Методика обучения русскому языку в школе для слабослышащих детей. -М.: Просвещение, 1998.
29. Матвеев В.Ф. Трудовое обучение школьников с нарушениями слуха в современных условиях // Дефектология. - 2005. - №4. - с. 31-34.
30. Mamarajabova Z.N.Ona tili o'qitish maxsus metodikasi - Т.,2016.
31. Mamarajabova Z.N. Surdopedagogika-Т.,2017.
32. Mamarajabova Z.N.Ona tili o'qitish maxsus metodikasida

- pedagogik texnologiyalar - Т.,2014
33. Fayzieva U., Nazarova D.A., Qodirova F. Surdopedagogika-Т.:Sano- standart,2012.
34. Nazarova D.A. Maktabgacha yoshdagi zaif eshituvchi bolalar nutqini rivojlantirish Ped. fan nomz. dis. avtoref...-Т.:ТДПУ.2009.
35. Nazarova D. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'limini takomil lashtinsh. // Bolani maktabga tayyorlash sifat va samaradorligini oshirishning ilmiy-amaliy yechimlari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. - Т., 2007. -В. 60-63.
36. Nazarova D. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalari oilada maktab ta'limiga tayyorlash. Ota-onalar uchun metodik qo'llanma — Т.: А.Авлоний номидagi ХТХҚТМОМl, 2007
37. Леонтьев А.А. Язык, речь, речевая деятельность. - М.:Просвещение, 1999.
38. Николаева Л.В. Особенности усвоения первоначальных временных географических понятий слабослышащими учащимися. В кнг.: «Изучение слабослышащих детей в протсесе обучения». - М.: Педагогика, 1992.
39. Николаева Т. В.Комплексное психолого-педагогическое обследование ребёнка третьего года жизни с нарушенным слухом //Дефектология. - 2004. -№4 - с. 40-46.
40. Никулина Л.В. Работа с речевим материалом на уроках развития речи в начальных классах в школе слабослышащих // Дефектология. - 1990. -№ 4. -с. 32-34.
41. M. Marschark, Haly G Lang, John Albertini - Educating deaf students - Oxford University Press, 2006, 303 p
42. Новая модел обучения в специалних общеобразовательных учреждениях. / Под ред. А.М. Щербаковой. М: Издательство НС ЭНАС, 2001.
43. Запорожец А.В. Значение ранних периодов детства для формирования детской личности / Принцип развития в психологии. Сб. науч. тр. -М.,ИДПАПН, 1998-С. 43.
44. Садовникова И.Н. Нарушение пысменной речи у младших школьников. - М., 1993.
45. Садовникова И. Н. Нарушения пысменной речи и их преодоление у младших школников. -М, 1995. - 146 с.
46. Сурдопедагогика. Под ред. Е.Г.Речицкой. - М: Владос, 2004.

47. Шматко Н.Д., Пельмская ТВ Если малыш не слышит- М.:Просвещение,2003

48. L.Mo'minova, ShAmirsaidova va boshqalar Maxsus psixologiya -T.: Fan va texnologiyalar. 2013

49. P.Po'latova, LNurmuxamedova, Sh Amirsaidova Maxsus pedagogika - T.: Fan va texnologiyalar .2014

50. Образование 2030. Инчхонская декларация и рамочная программа действий / ООН. ЮНЕСКО. Инчхон. 2015.

51. Переосмысливая образование. Образование как всеобщее благо?/ ООН ЮНЕСКО 2015.

52. Qodirova F.U. Boshlang'ich sinf kar o'quvchilar nutqini shakllantirish.: Ped. fan. nomz. dis. avtoref...-T.: TDPU.2006

53. Fayzieva U.Yu. Zaif eshituvchilami savodga tayyorlash va savod o'rgatish.: Ped fan. nomz. dis. ... avtoref. -T.: TDPI. 1994.

54. Fayzigra U.Yu. Nutq o'stirish O'quv qo'llanma. - T.: O'qituvchi 2001

55. Fayzieva U. Maktabgacha yoshdagi eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'limi. - T.: Ilm ziyo, 2006.

56. Fayzieva U.Yu. Kar bolalar maxsus maktab-internatlarining 0,1-5 sinflari uchun ona tili fanidan davlat ta'lim talablari va dasturi- T.: O'qituvchi, 2014

57. Fayzieva U.Yu. Kar bolalar maxsus maktab-internatlarining 6-10 sinflari uchun ona tili fanidan davlat ta'lim talablari va dasturi- T.: O'qituvchi, 2014.

58. Королева И.В., Пудов В.И., Зонтова О.В. Реабилитация постлингвальных детей и взрослых с кохлеарными имплантатами // Дефектология - Москва, 2001. - № 5. -С.21-34.

59. Королева И.В. Кохлеарная имплантация глухих детей и взрослых (электродное протезирование слуха). - СПб.: КАРО, 2009.

60. Таварткиладзе Г.А., Белянцев И.А., Фроленков Г.И. Показания к кохлеарной имплантации -М., 1995.

61. Таварткиладзе Г.А. Кохлеарная имплантация -М., 2000.

62. Сатаева А.И. Кохлеарная имплантация как средство помощи глухим людям. - Воспитание и обучение детей с нарушениями развития, №1, 2008.

63. Сулейманова Р.А, Хакимжанова Г.Д. Зарубежный и отечественный опыт включения детей со специальными

нуждами в общеобразовательный процесс. Проблемы и пути решения. - Алматы. 2001.

64. Специальная педагогика Под ред. Н.М.Назаровой.-М.: Издательский центр Академия. 2004.

65. Ching T.Y.C., Psarros C., Hill M. et all Should children who use cogglear implants wear hearing aids in the opposite ear? // Ear Hear. 2013. Vol. 22(5). P. 365-380.

66. Ching T.Y.C., Incerti P., Hill M. Binaural benefits for adults who use hearing aids and cogglear implants in opposite ears// Ear Hear. 2012. Vol. 25(6). P. 565-600



## MUNDARIJA

№	MA'RUZA MASHG'ULOTI MATERIALLARI	Bet
<b>KIRISH</b>		<b>3</b>
I Bob	<b>ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR TA'LIMI DIDAKTIKASI</b>	<b>5</b>
1-Mavzu	«Surdopedagogika» fanining obyekti, subyekti, maqsad va vazifalari	<b>5</b>
2-Mavzu	Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar ta'limi tarixi	<b>21</b>
3-Mavzu	Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar tasnifi va diagnostikasidagi zamonaviy yondashuvlar	<b>46</b>
4-Mavzu	Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar ta'lim tizimi	<b>76</b>
5-Mavzu	Surdopedagogikaning tamoyil va metodlari	<b>91</b>
6-Mavzu	Surdopedagogikaning didaktik masalalari	<b>104</b>
II Bob	<b>KAR VA ZAIF ESHITUVCHI BOLALAR TA'LIMINING METODIK ASPEKTLARI</b>	<b>119</b>
7-Mavzu	Kar va zaif eshituvchi bolalar ta'limi, tarbiyasi, ijtimoiy moslashuviga oid tadqiqotlar	<b>119</b>
8-Mavzu	Kar va zaif eshituvchi bolalar ta'limining asosiy shakllari. Dars va korreksion mashg'ulotlar	<b>133</b>
9-Mavzu	Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitishining mazmuni va metodlari	<b>146</b>
10-Mavzu	Kar va zaif eshituvchilarni ta'limini assistiv texnologiya va vositalar	<b>153</b>
11-Mavzu	Kar va zaif eshituvchi bolalarni eshituv nutqiy faoliyatga tayyorlash metodlari	<b>171</b>
12-Mavzu	Kar va zaif eshituvchi bolalar ta'limi tarbiyasi ijtimoiylashuvida "1-4-5"	<b>193</b>

	strategiyasi va "Yagona nutqiy tartib"	
13-Mavzu	Kar va zaif eshituvchi bola rivojlanishida daktil va imo-ishora nutqining imkoniyatlari	<b>205</b>
14-Mavzu	Kar va zaif eshituvchi bolalarni tarbiyalash yonalishlari metod va vositalari	<b>230</b>
15-Mavzu	Kar va zaif eshituvchi bolalarning ijtimoiylashuvi omillari va starageyalari	<b>234</b>
	Glossariy	<b>261</b>
	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	<b>265</b>

F.U.Qodirova, U.Y.Fayziyeva, Sh.X.Kobilova, O.S.Ishmatova,  
M.A.Umaraliyeva

60112700–Maxsus pedagogika (surdopedagogika)

## **SURDOPEDAGOGIKA** **(DARSLIK)**

Muharrir:	X. Taxirov
Tehnik muharrir:	S. Melikuziva
Musahhih:	M. Yunusova
Sahifalovchi:	A.Ziyamuhamedov

**Nashriyot litsenziya № 2044, 25.08.2020 й**

Bichimi 60x84<sup>1</sup>/<sub>16</sub>. “Cambria” garniturasida, kegli 16.  
Offset bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 17. Adadi  
100 dona. Buyurtma № 2168

**Zebo prints MCHJda chop etildi.**

Manzil: Toshkent shahar, Yashnobod tumani,  
22-harbiy shaharcha

ISBN 978-9910-848-64-3



9 789910 848643